

Rus ədəbiyoti dəyərlənləri

V.V. Nabokov



QATL
MAROSIMIGA
MARHAMAT

VLADIMIR VLADIMIROVICH
NABOKOV



QATL
**MAROSIMIGA
MARHAMAT**

Roman va hikoyalar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

*Rus tilidan Abulgosim MAMARASULOV va
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi*

Nabokov, V.V.

N 13 Qatl marosimiga marhamat [Matn]: roman va hikoyalar /
V.V. Nabokov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 168 b.

ISBN 978-9943-7606-7-7

Nafaqat rus yoki ingliz, balki jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Vladimir Vladimirovich Nabokov (1899–1977) asarlari «hazmi yengil» qabilidagi bitiklardan emas. Zero, u xoh hikoya, xoh roman yozsin, har birining toshi og'ir. Misol uchun, birgina «Lujin himoyasi» romani yoxud «Qo'ng'iroq» hikoyasini mutolaa qilishning o'zi kifoya.

Mazkur to'plamga Vladimir Nabokovning «Qatl marosimiga marhamat» allegorik romani hamda sara hikoyalari jamlandi. Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Ivan Turgenev, Ivan Bunin kabi rus klassikkleri qatorida tilga olinuvchi Nabokovni o'qir ekansiz, mahoratli adibning asari dastlabki sahifalardanoq o'z kuchini ko'rsatadi. Ta'bir joiz bo'lsa, undan ajralolmay qolasiz. Jiddiylik, bosiqlik va falsafaning og'ir yuki ostida zig'ir donasidekkina humor ham borligi va yozuvchi hayotning achchiq saboqlari qatiga bunday kulagini naqadar ustalik bilan joylashtirolganidan zavq-shavqqa to'lishingiz turgan gap.

UO'K 821.161.1-31
KBK 84 (2Ros-Rus)6

ISBN 978-9943-7606-7-7

SHIRIN SHAHAR

© V.V. Nabokov, 2021
© A. Mamarasulov,
S. Saidmurodov (tarj.), 2021
© «O'zbekiston» NMIU, 2021



INGLIZCHA FIKRLAB, FARANGCHA ESHITUVCHI ROSSIYALIK AMERIKA ADIBI

(*So 'zboshi o 'rnida*)

«*Bu bolapaqir qo 'liga to 'pponcha olib,
bir o 'q bilan hamma keksalarni yer tishlatdi,
jumladan, meni ham...»*

Ivan BUNIN

U, o'zining bot-bot ta'kidlashicha, «Shekspir bilan bir kunda, Pushkindan yuz yil keyin» tug'ildi. Rus adabiyotiga u Vladimir Sirin sifatida kirib keldi. Amerikada esa Vladimir Nabokov bo'lib tanildi. Kapalaklar va shohmot ijodining timsoli bo'lib qoldi. U taqdiri va ijodida kishi bilmas mutanosiblikni, muvoziylikni izlashni yoqtirardi. Shunday bo'ldi ham – kapalakning ikki qanoti singari rus va ingliz tilidagi ijodi bir-biriga muvoziy, xuddi shohmot taxtasidagidek – uznasiga ham, eniga ham sakkiz katak – sakkizta rus hamda sakkizta ingliz tilida bitilgan romanlari terildi. Bu tartibni buzmaslik uchun taqdir unga rus tilidagi to'qqizinchı romani («Solus rex») va albatta, ingliz tilidagi to'qqizinchı romani («Laura va uning asliyati»)ni tugallashga imkon bermadi.

XIX asrning so'ngida (1899-yil 10-aprelda) tavallud topgan Vladimir Vladimirovich Nabokov, mana, hozir XXI asrda ham favqulodda shaxs, yechilmagan jumboq, adabiyot ufqida sirli mash'alligicha qolmoqda.

Nabokov o'zidan ulkan adabiy meros qoldirdi. Birgina rus tilida sakkiz roman («Mashenka», «Qatl marosimiga marhamat!», «Lujin himoyasi», «Qirol, motka, sallot», «Kamera obscura», «Tuhfa»), o'nlab qissa va hikoyalar («Ayg'oqchi», «Fialta bahori», «Qo'ng'iroq», «Ertak», «Bulut, ko'l, minora», «Mustabidlarni qirish» va b.), yuzlab she'rilar, qator pyesalar («Ajal», «Vals ixtirosi»)

va h.k.) yaratdi. Ingliz tilidagisini-ku, aytmasa ham bo‘ladi: 1940-yildan boshlab u «Sebastyan Naytning chinakam hayoti», «Benikoh tug‘ilganlar tamg‘asi ostida», «Pnin», «Ada», «Xira olov», «Lolita», «Shaffof buyumlar», «Arlekinlarga boq!» romanlari, rus adabiyoti haqida ma’ruzalar to‘plami, ko‘plab rus klassikasining tarjimasini Shekspir tilida bitdi.

Nabokov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan nashr etilgan saylanmaning kirish maqolasida rus adabiyotshunosi O.N. Mixaylov adib haqida shunday yozadi:

«Yodimda, yigirma yil avval amerikalik slavyanshunos olim bilan gurunglashib qoldim. Men Nabokov haqida so‘z ochdim, ammo-lekin u yelka qisib qo‘ydi. Bu tushmagur olimning rus adibi Nabokovni bilmasligi hech aqlimga sig‘masdi. Nihoyat, filolog xaxolagancha peshanasiga shapatladi-da, hayqirib yubordi: «E, ha, Nabokoffmi?! Axir, u hech qanaqangi rus yozuvchisi emas! U o‘zimizning amerika yozuvchisi-ku!..»

Ana shunaqa! Nabokov kosmopolit, ya’ni dunyo fuqarosi edi. Balki bunga adib o‘sib-ulg‘aygan zodagon xonadon muhiti ham sabab bo‘lgandir. Nabokovlar xonadonida uch: rus, ingliz va farang tillarida so‘zlashish odat tusiga kirgandi. Vladimir Nabokov o‘zining aytishi-cha, ingliz tilida mutolaa qilishni rus tilidan avvalroq boshlagan.

Bir vaqtlar Osip Mandelshtam ta’lim olgan Peterburgdagi Tenishevskiy bilim yurtida o‘qib yurgan kezlarida bo‘lajak adib she’rlar yoza boshlaydi, shohmotga mukkasidan ketadi. Hatto surat solish bilan ham shug‘ullanadi. Yigitchani kelajakda buyuk ras-som bo‘ladi, deb bashorat qilishardi. Ammo bu bashorat o‘ngmagan bo‘lsa-da, rang, yorug‘lik, shaklni his etishi va bularni so‘z orqali ifodalay olishi adabiyotda qo‘l keldi.

1917-yil inqilobi tufayli Nabokovlar oilasi Qrimga ko‘chib o‘tadi. Ana shundan so‘ng sarson-sargardonlik boshlanadi. Keyin oila a’zolarini Berlinda qoldirib, Nabokov Kembrij universitetida uch yil farang adabiyoti hamda entomologiyaga¹ «sho‘ng‘iydi». U yerda Nabokov she’rlar yozishni davom ettiradi, Lyuis Kerollning «Alisa mo‘jizalar mamlakatida»sinı rus tiliga o‘giradi.

¹Entomologiya – zoologiyaning hasharotlarni o‘rganadigan bo‘limi.



1922-yilning mart oyida adibning otasi Vladimir Dmitriyevich Nabokov Berlin filarmoniyasi binosida otib o‘ldiriladi.

Shundan keyin Nabokov Berlinda ingliz tilidan dars berib tirkchilik qiladi, rus muhohiirlarining nashri bo‘lmish «Sovremenniye zapiski»da birin-ketin ilk hikoyalari chop etiladi. Aynan Germaniyada Nabokov romannavis bo‘lib taniladi. Nabokov yangi roman yaratara ekan, uning uslubi ham murakkablashib boraveradi. Adibning birinchi romani «Mashenka»ni o‘qib bo‘lgan o‘quvchi endi uning «Lujin himoyasi», «Qatl marosimiga marhamat» romanlari mutolaasiga o‘tishidan oldin alohida tayyorgarlik ko‘rishi kerak bo‘ladi:

«Yot-begona nurlarni o‘tkazib yubormay, bir-biriga shaffof bo‘lib ko‘ringan jonlar orasida u baribir ham o‘zini yupqalashgandek qilib ko‘rsatishni, optik yanglishuvning murakkab tizimiga tayanishni o‘rgandi...»

Nabokov «Qatl marosimiga marhamat» romanidagi uzoq kelajakda «xavfli» ma’naviylik qobiliyatiga ega yakka-yolg‘izlarni o‘limga mahkum qiladigan anqov va badavlatlardan iborat olomon jamiyati hukmronlik qiladi. Bu jamiyat xotirjamligini Sinsinnat kabi telbanamolar buzadi. Sinsinnat «shaffof»lardan emas, qandaydir «yashirin», o‘z qobig‘iga o‘ralgan. Aynan ana shu jinoyati – «shaffof emasligi» uchun «*Sinsinnat S.ga o‘limga mahkum qilinganini qonunga muvofiq shivirlab e’lon qilishdi...*»

Nabokov, shubhasiz, bu romanida Yevgeniy Zamyatin o‘zining «Biz» nomli asari bilan boshlab bergen XX asr aksilutopiyasi an‘analarini davom ettiradi, lekin asarda tilga olingan uzoq kelajak ko‘z yoshi va g‘azabga qurilmaydi, sovuq va zaharxanda kulgi ostiga olinadi. Romanning har bir bobida mahbus Sinsinnat S.ning bir kunidan hikoya qilinadi. Boblar bosh qahramonning uyg‘onishi bilan boshlanib, Sinsinnat S.ning uyquga ketishi bilan yakunlanadi. Butun boshli roman davomida bosh qahramon yolg‘izlikka mahkum, Alber Kamyuning «Merso»si singari u ham jamiyatga begona...

Aytish mumkinki, nabokovona uslub – bu mistifikatsiya, o‘yin, galutsinatsiya, krossvord, bir so‘z bilan aytganda, «adabiy teorema»dir (birgina «Ikkinchidan...» deb boshlanuvchi va «Birinchidan...» deb tugallanuvchi «Doira» hikoyasini o‘qishning o‘zi kifoya). Ana shunday uslubda yozilgan Nabokovning eng murakkab, durdona asar deb tan olingan romani bu, so‘zsiz, «Lujin himoyasi» hisoblanadi. Yosh-

ligidan odamovi bo‘lgan Lujin qalbiga taskinni shohmot o‘yinidan topadi. Bora-bora ishqibozlik hayotining mazmuniga aylanadi. Lujin shunchalik shohmotga berilganki, hatto real hayot ham ko‘ziga shohmot taxtasidek ko‘rinadi. Odamlar sipohlarga, ko‘chalar, xiyobonlar oq-qora kataklarga evrilgan. Himoya uslubi shundan iboratki, sirli raqib tomonidan qo‘ylgan tuzoqqa tushib qolmaslik uchun bema’ni «yurish» qilmaslik lozim... Asar so‘ngida «shohmotsizlik»dan tobi qochgan Lujin so‘nggi himoya yo‘lini – «o‘yindan chiqishni» o‘ylab topadi. Alqissa, Lujin oq-qora kvadratdan iborat tubsizlikka qulaydi... Nabokovona uslub so‘nggi nuqtagacha saqlab qolingan – bosh qahramon bolaligidan boshlab ta’rif-tasvirlanib kelinsa-da, uning ismi roman so‘ngidagina tilga olinadi.

«Nima uchun yozaman o‘zi? Ko‘ngil chigilini yozish uchun, ma-shaqqatlarni yengib o‘tish uchun-da. Bu bilan hech qanday ijtimoiy maqsadni ko‘zlamayman, hech qanday odob-axloqdan saboq ham bermoqchimasman... Men shunchaki jumboqlar to‘qishni va ularga nafis yechim ilova qilishni xush ko‘raman», – degandi Nabokov o‘zining asarlari haqida.

1971-yili Nabokovning sobiq talabasi Stiven Yan Parker o‘sha paytda Shveysariyada yashayotgan butun dunyoga mashhur adibga maktub yo‘llaydi. Talaba maktubda ustozidan hikoyalari xronologiyasi va eng yaxshi hikoyalari nomlarini keltirishni so‘ragandi. Nabokov o‘ylab o‘tirmasdan o‘zining eng yaxshi hikoyalari deb «Bulut, ko‘l, minora», «Fialta bahori» va «Opa-singil Veynlar»ni keltirib o‘tadi. Nabokov eng yaxshi romanlarida ham o‘zini birinchi galda hikoyanavis sanaydi. Misol uchun, «Qo‘ng‘iroq» hikoyasida butun boshli roman yoki qissaga «masalliq» bo‘la oladigan material yetarli. «*U bilan ajralishganiga, mana, yetti yil bo‘libdi. Rabbim Egam, Nikolayevskiy vokzali munchayam ur-yiqit bo‘lmasa-ya!*» Hikoyaning ilk jumlasidan to yakungacha o‘quvchi yurak hovuchlab turadi, ba‘zi yerlarida hatto hafsalasi pir bo‘ladi (ayniqsa, o‘quvchi bosh qahramon izlayotgan ayol onasi bo‘lib chiqqanda, onaning hayotida o‘g‘li uchun zig‘irdekkina ham joy qolmagani ma’lum bo‘lgan pallada). Hikoya klassik sujet ruhidha rivojlanib boradi: adashgan o‘g‘ilning qaytishi. Ota-onasidan ayrilgan qahramon qator sinovlardan o‘tadi: urush, dunyo bo‘ylab darbadarlik va h.k. Hikoyaning diqqatga sazovor jihatlaridan biri – bu uzoq kutilgan uchrashuv qorong‘ulikda

sodir bo‘ladi. Ziyarak o‘quvchi bunda muallif Homerning o‘scha mash-hur «Odisseya» dostonida bosh qahramon Aidning saltanati – yer osti dunyosiga tushib, u yerda onasi bilan bo‘lgan suhbatga muro-jaat etganini payqaydi. «Qo‘ng‘iroq» ham adibning boshqa asarla-ri singari g‘alaba bilan emas, mehr-muhabbatning barbod bo‘lishi bilan tugaydi.

Sirasini aytganda, «Ular murod-maqsadlariga yetishibdi» qabi-lidagi yakunlar Nabokov asarlariga xos emas. Asarlarida «baxtli xotima» yetishmaydi, mantiqsiz tafakkur va tasavvur o‘yinlariga to‘lib-toshgan, deya Nabokovni rad etadilar o‘z davrining «oqsoqol» yozuvchilari. Bir zamonlar *«Bu bolapaqir qo‘liga to‘pponcha olib, bir o‘q bilan hamma keksalarni yer tishlatdi, jumladan, meni ham...»* – deya Nabokovni alqagan Ivan Bunin ham u bilan «san-man»ga borib qoladi. Nabokovning o‘zi ham jim turmaydi. Dostoyevskiyni «jour-nalist», «detektiv romanlar muallifi», «Anna Karenina»ni takror-tak-ror o‘qisa-da, Tolstoyni «realizmdan u yog‘iga ko‘tarila olmaydi», Sholoxovning «Tinch Don»ini «hajimdor bestseller», Pasternakning «Doktor Jivago»sini esa «soxta, xurofotga to‘la», deydi. Balki bu bilan Nabokov o‘ziga qat’iy talab qo‘ygandir, balki asarlarining aksar qahramonlari singari o‘zini yolg‘izlikka mubtalo qilgandir. Yana kim biladi, deysiz.

1925-yili Nabokov butun umr o‘ziga sodiq qolgan Vera Slonim-ga uylanadi. Vera Slonim va Vladimir Nabokov ellik ikki yil birga hayot kechirishadi. Nabokovning aytishicha, «sevgi bobida siam egizaklaridek bo‘lish kerak: biri tamaki hidlaganda, ikkinchisi aksira-di». Aytish lozimki, Nabokov har bir asarini rafiqasiga bag‘ishlaydi.

30-yillar so‘ngida natsistlar armiyasi hukumat tepasiga kelishi er-xotinni Germaniyadan qochishiga sabab bo‘ladi. Boisi, Vera Slo-nimning tomirida rus qoni bilan birga yahudiy qoni ham oqardi. Bu safar Nabokovni rafiqasi bilan birga Parij «quchoq ochib» kutib oldi. II jahon urushi boshlanishi bilan Nabokovlar «Qaydasan, Amerika?» deya Parijni tark etishadi.

«Sehrli diyor»da hayot oppoq qog‘ozdan boshlandi: «Mashenka», «Qatl marosimiga marhamat», «Lujin himoyasi» kabi romanlar bitgan muallifga birinchi ish taklifi – kitob do‘konida kitob qadoqlash bo‘ldi. 1940–1958-yillar davomida Nabokov Amerika universitetlarida rus va jahon adabiyotidan dars berib, ro‘zg‘or tebratdi. Nabokov AQSH


bo‘ylab sayohat qilar ekan, katta adabiy tortishuvlarga sabab bo‘lgan «Lolita» romani ustida ishlaydi. Roman boshdan oyoq nimfetkalarga ishqiboz Gumbert Gumbert ismli mahbusning iqrornomasidan iborat. 1955-yili roman chop etilganidan so‘ng muallif olamshumul shuhrat va moddiy farovonlikka erishadi. Endi «og‘iz charchatib» ma’ruza o‘qishga hojat qolmaydi – 1960-yili Nabokov oilasi bilan Shveysariyaga ko‘chib o‘tadi va faqat ijod borasida «bosh qotiradi». XIX asr rus adabiyotining axloqiy-falsafiy an’alarini o‘zlashtirgan Nabokov «Lolita»ga xuddi Dostoyevskiy singari ekzistensial-axloqiy jihatdan yondoshgan bo‘lsa-da, 1974-yili aynan «Lolita»ning badaxloqligi uchun adib Nobelga munosib ko‘rilmaydi. Superklassikning tan olinmasligi ummon ortida shunday fikrni keltirib chiqaradi: «*Butun boshli rus adabiyoti tarixida Nabokov bilan bellasha oladigan ikki nasrnavis bo‘lgan: Gogol va Tolstoy*» (Endryu Fild). Nima ham derdik, zullisonayn adib bo‘lishning o‘zi jasorat-ku. Bir amerikalik tanqidchi kelishtrib aytganidek, Nabokov Nobelga arzimaganidan emas, Nobel mukofotining o‘zi Nabokovga munosib emasligi uchun mukofotga loyiq ko‘rilmadi.

Vladimir Nabokov 1977-yil 2-iyulda Shveysariyaning Lozan-nasidagi tog‘ nishabidan yiqilib, vafot etadi.

Nima bo‘lgan taqdirda ham, adabiyotshunos Zinaida Shaxovskaya aytganidek, Nabokov «Prust singari yozuvchilarning yozuvchisi» bo‘lib qolaveradi.

So‘ngso‘zimizni yozuvchining o‘zi yakunlab bersa: «*Men Ros-siyada tug‘ilib, o‘n besh yilga Germaniyaga ko‘chib o‘tishdan avval Angliyada farang adabiyotini o‘rganib, ta’lim olgan Amerika yozuv-chisiman... Miyam inglizcha fikrlaydi, ko‘ksimda rus yuragi urib turibdi, qulog ‘im esa farangcha eshitadi*».

Saidjalol SAIDMURODOV



I

Sinsinnat S.ga o‘limga mahkum qilinganini qonunga muvofiq shi-virlab e’lon qilishdi. Hamma o‘rnidan turdi va bir-biriga kulib qarab qo‘ydi. Sochlari oqargan sudya uning qulog‘iga engashib, dam urib, hukmni aytdi-da, baayni sirg‘alib tushayotganday ohista chekindi. So‘ngra Sinsinnatni qal‘aga qaytarib olib ketishdi. Yo‘l qal‘aning serqoya etagidan o‘ralib-buralib, darvoza tagigacha cho‘zilgandi: ilon-bilon dara. Sinsinnat xotirjam; biroq uzun dahliz bo‘ylab bora-yotganda suyab yurishdi, negaki u atak-chechak qilib qadam tash-lashni endigina o‘rganayotgan bolakay yoki tushida suv uzra yu-rib ketayotganini ko‘rib uchib tushgan, lekin, tavba, shunaqasiyam bo‘larkanmi, deya shubhalangan kishi kabi odimini noto‘g‘ri olgandi. Turma nazoratchisi Rodion Sinsinnatning kamerasi eshigini ochaman deb xiyla kuymalandi – boshqa kalit ekan – har doimgi daxmaza. Ni-hoyat, eshik yon berdi. Karavotda allaqachon advokat kutardi – fraksiz (sud zalistagi venacha stulda unutib qoldirilgan – kun jazirama, osmon tip-tiniq, moviy edi), bo‘g‘zigacha o‘yga cho‘mib o‘tirardi, mahbusni olib kirishganda, toqatsizlanib irg‘ib turdi. Ammo Sinsin-natning gaplashishga hushi yo‘q edi. Teshilgan qayiqdagidek tuy-nukchali kamerada yolg‘iz qolgani maqbulroq.

Xo‘sh, demak, oxiriga kelib qoldik. Ochiq turgan romanning hali o‘qilmagan o‘ng tomoni, biz mutolaaning o‘rtasida beixtiyor ko‘pmi-ozmi deya asta paypaslab ko‘rganimiz (barmoqlar aldamabdi – quvon-tirdi – ancha-muncha bor ekan) birdaniga yupqalashib qoldi: bir necha daqiqa tez-tez ko‘z yogurtirib chiqilsa, mutolaa ham nihoyasiga yetadi va... dahshat! Ko‘z o‘ngimizda qizarib-shiralanib qoraygan shig‘il gi-los daf‘atan alohida-alohida ajraldi: huv, anavinisi, zaha yegani sal chiribdi, bunisi esa danagiga yopishib-qurib, burishib-tirishib qolib-di (eng oxirgisi – hali g‘o‘r). Dahshat! Sinsinnat shoyi nimchasini yechib, xalatini kiydi va qaltirog‘ini bosish uchun depsingancha kamera ichra yura boshladi. Stolda bir varaq qog‘oz oqarib yotar,

mana shu oqlik ichra Sinsinnatnikidan tashqari har qanday odamning umri kabi uzun, hafsala ila uchi chiqarilgan, olti qirrasi obnusdek yarqiragan qalam yotardi. Ko'rsatkich barmoqning ma'rifatlari avlod. Sinsinnat: «Lekin baribir men nisbiyman. Axir, bu xotima, men shunday xotimani oldindan sezgandim», deb yozdi. Rodion eshik ortida turgancha, jiddiy, diqqat-la tuynukdan mo'ralardi. Sinsinnatning ensassi jimirladi. Yozganini o'chirdi va sekin tushlay boshladи, murtak naqsh paydo bo'ldi, keyin tobora kattalashib-kattalashib qo'chqor shoxiga aylandi. Dahshat! Rodion tuynukdan ko'tarilib-cho'kib tushgan moviy ufqqa tikildi. Kimning ko'ngli aynidiykin? Sinsinatni-da. Ter chiqib ketdi, ko'z oldi qorong'ulashdi, har soch tolasining ildizini his qildi. Soat bong urdi – to'rt yoki besh marta, ortiqcha ishlagan kunlari uchun olgan ta'tillarida ta'tillanib, uzoq ayshlarini surib qolishdi. Panjachalarida ishlov berib-berib, shiftdagi o'rgimchak tolaga osilib tushdi – mahbuslarning rasmiy birodari. Sinsinnat yagona mahbus bo'lgani uchun (shunday mahobatli qal'ada-ya!) hech kim devor taqillatmadи.

Birmuncha fursatdan keyin turma nazoratchisi Rodion ichkariga kirib, unga bir davra vals tushishni taklif qildi. Sinsinnat ko'ndi. Ular gir-gir aylanishdi. Rodionning teri qayishiga osilgan kalitlar jingillar, undan erkak, tamaki, sarimsoqpiyoz hidi anqir, malla soqoli orasidan harsillab-pishillab xirgoyi qilar, zanglagan bo'g'implari qirsillar edi (yoshi ham bir joyga borib qolgan, hayhot, o'simtasi bor, nafasi qisadi). Dahlizga chiqishdi. Sinsinnat sherigidan anchagina pakana edi. Sinsinnat yaproq kabi yengil ekan. Vals shabbodasi uning uzun, yakkam-dukkam mo'ylovi uchlarini dikkaytirar, katta-katta, tiniq ko'zlarini barcha hurkak raqqoslarniki singari g'ilay edi. Ha, u yoshi katta odam uchun kichkina ko'rinardi. Marfinka uning boshmoqlari oyoqlarini qisishini aytgandi. Dahliz burilishida ismsiz, qurolli, marli tumshuqli it niqobida boshqa soqchi turardi. Uning yonida doira yasab, ohista kameraga qaytishdi.

Soat yana g'amgin-g'amgin bong urdi: sakkiz bo'libdi. G'aribona darchadan shafaq ko'rinarkan; devorga yonlama yolqin parallelogramm yotdi. Kamera shiftgacha ajib moybo'yoqning isi aralash oqshomning bo'yiga to'ldi. Xo'sh, savol tug'iladi: eshikdan o'ng qo'l tarafdagisi nima – usta rassomning qo'lidan chiqqan suratmi yoki gul solingan darchami? (Aslida, ikki ustunga tushunarli tarzda «mah-

buslar uchun qoidalar» yozilgan pergament qog‘ozi osib qo‘yilgandi; egri burchak, qizil bosh harflar, lavhalar, shaharning qadimiy gerbi – aniqrog‘i: qanot yoygan domna pechi – oqshom shu'lalariga husn berib turibdi). Kameradagi jihoz: stol, stul va karavottdan iborat. Allaqaclonlar mis patnisda keltirib qo‘yilgan tushlik (o‘limga mahkum qilinganlar uchun direktorchcha yemak tortilardi) sovib qolgan. Butunlay qosh qoraydi. Tuyqus zarrin, kuchli elektr nuri yog‘ildi.

Sinsinnat karavottdan oyog‘ini tushirib oldi. Ensasidan chakkasi-ga qarab, diagonaliga kegli shari dumaladi, birdan to‘xtadi-da, yana g‘ildiradi. Shu asnoda eshik ochilib, qamoqxona direktori kirib keldi.

Har doimgidek, surtukda, ko‘ksini kerib, qaddini adl tutgan, bir qo‘lini surtugining ko‘krak qismiga tiqib olgan, ikkinchi qo‘lini beliga yashirib olgan. Farqi ochilgan saqichdek qora yasama soch taqir boshiga chippa yopishgan. Uning xafsalasizlik bilan qirtishlangan yuzi tig‘ tegsa, yog‘ tomguday yanoqlari va qat-qat ajinlar ichra faqat ikkita do‘laygan ko‘zi tirikday edi. Ustunsimon pantalonidagi oyoqlarini qariyb bukmasdan, devor bilan stol o‘rtasida borib-keldi, qariyb karavotgacha bordi, biroq savlatli biqqiligiga qaramay, havoda erib ketganday, shunchaki g‘oyib bo‘ldi-qoldi. Ammo oradan daqqa o‘tmay, tag‘in eshik ochilib – bu safar tanish g‘iyqillash bilan – har doimgidek, surtukda, ko‘ksini kerib direktor tag‘in kirib keldi.

– Ishonchli manbadan bildimki, endilikda sizning taqdiringiz, – deya tilga kirdi u yo‘g‘on ovozida, – o‘z burchim deb bilamanki, taqsir...

Sinsinnat esa dedi:

– Iltifot. Siz. Judayam. – (Hali so‘zlarni joy-joyiga qo‘yib chiqish kerag-a.)

– Siz judayam iltifotlisiz, – dedi qo‘srimchasiga Sinsinnat tomoq qirib.

– Afu etgaysiz, – xitob qildi direktor so‘zining andishasizligini sezmay. – Afu etgaysiz! Burch. Har doim tayyorman. So‘rashga jur‘at qilgayman, nega taomga qo‘l urmadingiz?

Direktor qopqoqni ochib, sezgir burniga sovib qolgan jarkopli kosani olib keldi. Ikki barmog‘i bilan kartoshkani olib, qosh ostidan ikkinchi taomdan nenidir tanlagancha, apil-tapil chaynashga tushdi,

– Bilmadim, sizga yana qanaqa ovqat kerak ekan, – dedi u norozilanib. Sinsinnat:

- Men baribir bilishni istardim, uzoqmi hali? – deb so‘radi.
- Ajoyib savol! Uzoqmi hali, deb bilgingiz keldimi? Afsuski, o‘zim ham bilmayman. Meni har doim oxirgi lahzalarda voqif qilishadi, ko‘p marta shikoyat qildim, agar sizga qiziq bo‘lsa, yozishmalarini ko‘rsatishim mumkin.
- Balki kelayotgan tongdadir? – yana so‘radi Sinsinnat.
- Agar sizga qizig‘i bo‘lsa, – dedi direktor. – Mazali-yu, to‘yimli, men sizga aystsam. Endi esa, pour la digestion¹, popiris taklif etishga izn bergaysiz. Qo‘rqmang, jilla qursa, bu oxirgisidan oldingisi, – deya qo‘shimcha qildi topqirlik bilan.
- Men, – dedi Sinsinnat, – men qiziqqanimdan so‘ramayapman. To‘g‘ri, qo‘rroqlar qiziquvchan bo‘ladi. Lekin sizni ishontirib aytamanki... Mayli, titrog‘imni epolmay qo‘ya qolay, hechqisi yo‘q. Chavandoz otning qaltirog‘iga javob bermaydi. Qachonligini bilmoqchiman, xolos. Nima uchun deysizmi: o‘lim hukmi o‘lim soatini aniq bilish bilan qoplanadi. Ortiqcha narsa so‘rayotgandirman, ammo shunga loyiqliqman. Axir, meni ozodlikda yurganlargina ko‘tarishi mumkin bo‘lgan g‘aflatda qoldirishmoqda. Innaykeyin, miyamda ko‘plab boshlab qo‘yilgan va turli vaqtlarda to‘xtatib qo‘yilgan ishlar aylanib yuribdi... Agar ularni kiftiri tugallashim uchun qatl-gacha qolgan fursat yetarli bo‘lmasa, shunchaki o‘sha ishlarga qo‘l urmayman. Mana, nima uchun so‘rayapman.
- Voybo‘, iltimos, po‘ng‘illanmasin, – dedi direktor jig‘ibiyron bo‘lib. – Bu, birinchidan, qonunga xilof, ikkinchidan, men sizga rus tilida takror aftyapman: bilmayman. Sizga birgina shuni aytishim mumkinki, sizning «qallig‘ingiz» ana keladi, mana keladi, deb kutilmoqda – u esa hali keladi, dam-pam oladi, shart-sharoitga ko‘nikadi, basharti, o‘zinikini olib kelmasa, asbob-uskunani sinab ko‘rishi kerak bo‘ladi. Tamaki achchiqmasmi?
- Yo‘q, – deya javob berdi Sinsinnat, o‘zining popirisiga parishonxotirlik bilan tikilgancha. – Lekin menimcha, qonunga ko‘ra, siz emas, shahar boshqaruvchisi majburki...
- Gurunglashib ham oldik, endi yetar, – dedi direktor, – men, to‘g‘risini aystsam, bu yerga shikoyat eshitish uchun kelmadim, shuning uchunki... – U ko‘zini pirpiratib, u cho‘ntagiga, bu cho‘ntagiga

¹ Ovqat hazm qilish uchun – fr. (*izohlar tarjimonlarniki*).

qo'l suqib ko'rdi; nihoyat, qo'ynidan maktab o'quvchilari daftaridan yirtib olingen yo'l-yo'l varaq chiqardi.

– Kuldon ham yo'q bu yerda, – payqab qoldi o'zicha, popirisini aylantirar ekan, – ha, mayli, keling, manavi qaylaning qoldig'iga cho'kdirib qo'ya qolamiz... Xo'sh-sh. Chiroq sal ko'zni qamashtiryapti-da. Balki, agar... Ha, mayli, shundog'am bo'laveradi.

U varaqni ochib, muguz gardish ko'zoynagini taqmay, ko'zining oldida ushlab, dona-dona qilib o'qishga tutindi:

– «Mahbus! Ushbu tantanali soatda, qaysiki, barcha nigohlar...» Menimcha, o'rnimizdan turganimiz ma'qul, – deya so'zini bo'lib, stuldan turdi.

Sinsinnat ham o'rnidan qo'zg'aldi.

– «Mahbus! Ushbu tantanali soatda, qaysiki, barcha nigohlar senga qaratilgan, sudyalaring shodumonlik qilayotgan, o'zing esa bevosita kalla kesilishi bilan amalga oshiriladigan beixtiyoriy tana harakatiga tayyorlanayotgan damda senga oq yo'l tilab murojaat etmoqdaman. Mening chekimga – va men buni sira unutmayman – qonun doirasi-da sening zindondagi turish-turmushingni ko'plab qulayliklar bilan ta'minlash tushgan. Shu bois, sening har qanday minnatdorligingga – lekin yozma shaklda va qog'ozning bir tomoniga yozilgani ma'qul – imkon qadar e'tibor qarataman».

– Shu, – dedi direktor ko'zoynagini buklab. – Bor-yo'g'i shu. Sizni ortiq bezovta qilmay. Biron nima kerak bo'lsa, xabar berarsiz.

U o'tirib, tez-tez yozishga tushdi, bu bilan qabul tugaganini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Sinsinnat chiqib ketdi.

Dahlizdag'i devorda kursining soyasida bukchayib o'tirgan Rodionning ko'lankasi mudrardi – unda-bunda, chetdan bir necha malla soch qillari yalt etib ko'rinish qolardi. Naryog'da, devor qayrilmasida boshqa soqchi niqobini yechib, yengi bilan yuzini artdi. Sinsinnat zinapoyadan pastga tusha boshladi. Bilinar-bilinmas spiralsimon noaniq tutqichli tosh pog'onalar sirpanchiq va tor edi. Pastgacha tushib, u yana dahliz bo'ylab ketdi. «Devonxona» deb yozilgan teskari oynali eshik lang ochiq edi; oy nuri siyohdonda yarq-yurq qilar, stol tagidagi chiqindi savatda nimadir jazava bilan shitirlardi: aftidan, sichqon tushib qolgan. Ko'plab eshiklarni ortda qoldirgan Sinsinnat qoqinib ketdi, bir sakrab, oy nuri alpoq-chalpoq tushgan kichikroq hovliga chiqib qoldi. Darvoza tagida askar Sinsinnatning sukutiga

sukut bilan javob qaytarib, uni o'tkazib yubordi. Barcha darvozalar da ham shu holat kuzatildi. Tuman bosgan haybatli qal'alarmi ortda qoldirib, tik tushgan, shudring bosgan chimzordan pastga sirpandi, qoyalar o'rtasidagi kulrang so'qmoqqa tushib oldi, nihoyat, oxirgi qal'a soyasini silkib tashlab, ancha ravonlashgan katta yo'lning mu-yulishlarini ikki-uch marta kesib o'tdi. Ittifoqo, Sinsinnat qurib qol-gan daryocha uzra uzalgan naqshinkor ko'prikan shaharغا kirib bordi. O'rga ko'tarilib va «Bog'zor» ko'chasi bo'ylab so'lga qayri-lib, oppoq gullagan butalar yonidan o'tdi. Allakimning derazasidan yilt etgan nur ko'rindi; qaysidir devor ortida ko'ppak zanjirni shil-diratdi, lekin akillamadi. Yengil shabada qochoqning yalang'och bo'ynini salqinlatish uchun har turli nag'malar qilib ko'rdi. Elas-elas ufurayotgan muattar hid Tamara Bog'iga yaqin qolganidan darak berardi. Bu bog'lar kechagidek yodida. O'sha zamonlarda Marfin-ka kelin edi, qurbaqlardan, may qo'ng'izlaridan qo'rqardi... Bar-chasiga toqat qilib bo'lmaydigan va og'izda chaynalgan nastarin-u, ko'zda yosh bilan birgina narsaga chidash mumkin bo'lgan yerlar-da... Yam-yashil, chumoli bosgan yerlar, u yerning tepaliklari-chi, suv havzalari, olis orkestrning gumbura-qasiri... U Matyuxinskiydan burilib, bir paytlar shaharning faxri bo'lgan eski fabrika xarobalari, telegraf xodimlarining bayramona bezatilgan oq dala-hovlilari yonidan o'tib, Telegrafniydan chiqdi. U yerdan toqqa qarab jinko'cha boshlangan. Yana-tag'in daraxtlar og'ir-vazminlik ila shivirlashdi. Xiyobonning qorong'i zimistonidagi o'rindiqda ikki erkak past ovoz-da valaqlashib o'tirardi. «Axir, u adashyapti», – dedi biri. Ikkinchisi tushuniksiz javob qaytardi va ikkovi xo'rsinganday bo'ldi, xo'rsiniq barglar shitir-shitiriga uyqashib ketdi. Sinsinnat boshi kub shaklida, oyoqlari yopishtirilgan qorqizga o'xshash shoir haykali joylashgan aylana maydonchaga chopib chiqdi va yana bir necha qadam yugur-rib, o'zining ko'chasiga kirib qoldi. O'ngda, bir xil uylar devorlarida shox-shabbalar oy nurida turli-tuman raqsga tushishardi, shundoq ekan, soya-sharpalar ifodasidan, derazalar qansharidagi burushiqlar-dan Sinsinnat o'zining uyini tanidi. Yuqori qavatdagagi Marfinkaning derazasi qop-qorong'i, lekin ochiq. Bolalar do'ngtumshuq rovonda uxlashayotgan bo'lsa kerak: u yerda nimadir oqarib ko'rindi... Sinsinnat... eshikni itarib, o'zining yoritilgan kamerasiga kirdi. Ortiga

o‘girilgandi, eshik allaqachon yopilibdi. Dahshat! Stolda qalam yiltildi. Sarg‘ish devorda o‘rgimchak o‘tiribdi.

– O‘chiring! – deb qichqirdi Sinsinnat.

Eshik teshikchasidan Sinsinnatni kuzatib turgan odam chiroqni o‘chirdi. Qorong‘ilik va sukunat birlashdi; ammo oraga soat suqildi, o‘n birga bong urdi, birpas o‘ylab turib yana bir marta bong urdi, Sinsinnat esa chalqancha yotgancha, yorug‘ nuqtachalar sochilib, asta-sekin ko‘zdan g‘oyib bo‘layotgan qorong‘ilik qa‘riga tikilgandi. Zulmat va sukunat butunlay birlashib ketdi. Ana shundagina (ya’ni tun yarmidan og‘ganda qamoqxona karavotida chalqancha yotgancha, dahshatli, qanchalik dahshatli ekanini men senga tushuntirib berolmaydigan kundan so‘ng) Sinsinnat S. o‘zining vaziyatini aniq-tiniq baholay oldi.

Avvaliga, tunlari qaboqlar ichkarisida ko‘rinadigan qora baxmalda medalyon singari Marfinkaning yuzi paydo bo‘ldi: yuzi qo‘g‘irchoqlarnikiday qirmizi, bolalarnikiday do‘ng peshanasi yaltiraydi, siyrak qoshlari dumaloq, jigarrang ko‘zлari uzra yuqoriga o‘sgan. U boshini burib, ko‘zini pirpiratdi va nozik, sutdek oppoq bo‘ynida baxmal ro‘mol ko‘rinib ketdi, ko‘ylagining muloyim shitiri esa pastga enib, qorong‘ulik bilan chirmashdi. Sinsinnatni bo‘yalgan sudlanuvchilar o‘rindig‘iga olib borishganda, u o‘tirishga jazm etolmay, tik turgancha, lekin baribir qo‘lini och yashil rangga belab olganda, jurnalistlar uning o‘rindiq suyanchig‘ida qolgan barmoq izlari ni tashnalik bilan suratga olishganda – Marfinkani mana shu qiyofada ko‘rgandi. U olomonning tirishgan manglaylarini, poson kiyinib olgan oliftalarning yaltillama pantalonlarini, qo‘l ko‘zgularni va oyim-tillalarning tovlanma sholro‘mollarini ko‘rdi – lekin aft-angorlari tussiz edi – tomoshabinlar ichra faqat quralayko‘z Marfinka yodida qoldi. Advokat bilan prokuror – ikkalovi ham bo‘yanib olgan va birbiriga quyib qo‘yganday o‘xshardi (qonun shuni talab qilardiki, ikki tomon bir qorindan talashib tushgan aka-uka bo‘lsin, ammo har doim ham tanlab bo‘lmasdi, shu bois, grim qilinardi) – o‘zlariga ajratilgan besh mingta so‘zni yuksak mahorat-la, yashin tezligida gapirib tashlashdi. Ular galma-galdan so‘zlashdi, sudyda oniy e’tirozlarni kuzatib, boshini o‘ngga-chapga burdi, barcha boshlar ham bir maromda likillab turdi, salgina o‘girilib olgan birgina Marfinka hayratda qolgan go‘dak yanglig‘ och yashil o‘rindiq yonida turgan Sinsinnatga tikilib

qolgandi. An'anaviy boshni tanadan judo qilish tarafdori bo'lmish advokat ermakboz prokurorga qarshi osongina g'olib chiqdi va sudya ishni yopdi.

«Shaffof» va «pismiq» so'zлari, suv pufaklari kabi, tez-tez yuzaga chiqib, paqillab yorilayotgan ushbu uzuq-yuluq nutqlar endi Sinsinnatning qulqlari ostida yangrar, tomirlaridagi qonining gupillashi qarsaklarga evrilar, Marfinkaning medalyon chehrasi ko'z-o'ngidan ketmasdi. Bu siymo sudya judayam yaqin kelib, yo'g'on, bug'doyrang burun kataklaridan birida bir dona uzun qil chiqib turganini farqlay oladigan darajada yaqin kelib, yarashmagan shivir-shivir ovozda, asl ma'nosini har bir maktab o'quvchisi ham biladigan, qonun doirasida ishlab chiqilgan soxta jumla: «Xaloyiqning iltifotli ijozati ila, sizga qizil silindr kiydiriladi», – deb aytgandagina ko'zdan g'oyib bo'ldi.

«Ammo-lekin shunday puxtalik bilan ishlangan-a, – deb o'yaldi Sinsinnat zulmat ichra ko'zyosh qilarkan. – Umurtqa pog'onam bukriliги shunchalik to'g'ri hisoblanganki, turgan-bitgani jumboq. Umrим davomida yana yugurishim mumkin bo'lган boldirlarimda tarang tortilgan chaqirimlarni his qilyapmanki... Boshim shunchalik qulay...»

Soat qaysidir vaqtning yarmiga bong urdi.

II

Rodion unga bir piyola suyuq shokolad bilan birga olib kelgan tonggi nashrlar: «Xayrli tong» nomli mahalliy varaqa va anchagina jiddiy «Jamoat ovozi» nomli gazeta har doimgiday rangli suratlarga to'lib toshgan edi. Birinchi suratda u o'z uyining sirtqi ko'rinishini topdi: bolalar rovondan qarashyapti, qaynota oshxona derazasidan, suratchi esa Marfinkaning xonasi derazasidan; ikkinchi suratda esa – g'oyatda qadrdon ko'rinish: hovli, hovlidagi olma daraxti, ochiq holdagi darvoza eshigi va hovlini fotosuratga olayotgan rasmchining holati. Bulardan tashqari, u suratlarda o'zining bolalik yillaridagi g'amgin holatini ham topdi.

Sinsinnat mutlaqo nom-nishoni qolmagan bir o'tkinchidan dunyoga keldi va bolaligini Strop daryosi ortidagi katta umumiy yotoqxonada o'tkizdi. (Faqat o'ttizga kirayotganda u – yo'l-yo'lakay shivirlaganday gaplashuvchi, ko'rimsiz, ammo anchayin yosh tuyuladigan; hali oq-u qorani ko'pam taniyvermaydigan qizaloq davrida Sinsinnatni Hovuz bo'yida kechasi, nom-nishonsiz o'tkinchidan ort-

tirib, keyin dunyoga keltirgan onasi Sesiliya S. bilan tanishib qoldi). Juda yoshligidan boshlab, o‘z kelib chiqishining nojo‘ya xilqatlarini to‘g‘ri anglagan Sinsinnat o‘z o‘tmishini puxtalik bilan sir saqlashni; ochiq-sochiq tengdoshlari orasida go‘yo o‘zi ham ochiqday ko‘rinishni; bor narsalarni toza vijdon bilan baham ko‘rishni, ammo shuning bilan birga yolg‘izlikni xush ko‘rvuchi o‘smirday ko‘rinishni o‘rgandi. Ammo bir daqiqa bo‘lsa ham o‘z holati ustidan o‘z nazoratini yo‘qotsa, vujudida dahshatli qo‘rinch uyg‘onib, uning asl holati oshkor bo‘lib qolardi. O‘yin ayni qizigan pallada, uning ko‘zlaridagi yolg‘onchilikni teran anglagan tengqurlari nogoh undan uzoqlashshardi. Hamma jim bo‘lib to‘xtab qolganda o‘qituvchi afsuslanib, barcha tushunmovchiliklar tufayli paydo bo‘lgan savollarni ko‘z qarashlariga, barcha yuz ajinlarini ko‘zlar atrofiga jamlab, unga uzoq tikilar va nihoyat so‘rardi:

– Senga nima bo‘ldi, Sinsinnat?

O‘shanda Sinsinnat o‘zini qo‘lga olar va qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, vaziyatdan xavf-xatarsiz qutulish payida bo‘lardi.

Vaqt oqimi bois xatarsiz joylar kamayib boraverdi. Hamma joyga – istalgan teshikka kirib boradigan quyosh nurlari kabi – g‘amxo‘r nigohlar yetib boraverdi. Va barcha tirqishlardan kuzatib turadigan kamera singari kuzatuvchidan hech bir narsani, hech bir holatni yashirib bo‘lmay qoldi. Shu sababli Sinsinnat o‘z sharpasi yanglig‘ gazetalarni – (har birimizda, senda ham, menda ham mavjud xohish, mumkin bo‘lmagan narsani amalgaga oshirishni istaydigan...) – dumaloq qilib g‘ijimlamadi, g‘ijimlab otmadni. Sinsinnat gazetalarni bir chetga surib, xotirjam holatda shokoladini ichib tugatdi. Shokoladning malla qobig‘i uning lablarida noqulay o‘rnashdi. Shundan so‘ng Sinsinnat juda ham uzun qora xalatini, qora boshmoqlarini kiyib, qamalgandan boshlab har tongdagi odatini takrorlab, kamera bo‘ylab yura boshladi.

Shahar cheti, ko‘kalamzorlardagi bolalik. To‘p o‘ynashhardi, cho‘chqa, aralash-quralash, xo‘jag‘at va hokazo o‘yinlar ulardan qochib qutulmasdi. U yengil va epchil edi, ammo tengqurlari u bilan o‘ynashni yoqtirishmasdi. Qish kunlari enishlar yaltiroq muzga aylanar, goho qor bilan qoplanar, va ana shu yaltiroq muzlarda chanaga o‘tirib, pastga qarab uchish – rohatbaxsh bir holat edi... Juda tez kun o‘tib ketar, qorong‘ilik tusha boshlaganda ular uy-uylariga tarqalar-

dilar... Yulduzlarni qarang – osmon-u falakda qanaqangi erinchoq va zerikarli fikr xayollar, pastda, yerda esa hech narsaning farqiga borishmaydi. Temir muzlik singgan qorong‘ulik aro derazalar xira sariq, qizil ranglarda bo‘zarib turardi; ayollar jun ro‘mollari ustidan tulki terisidan tikilgan po‘stinlarini kiyib, ko‘chaning u yog‘idan bu yoqqa, bu yog‘idan u yoqqa, qo‘shnilarinikiga, ikki og‘iz hangomaga shoshilardilar; elektr vagonetkalar o‘z shamoli bilan qor bo‘ronini yaltillatib, relslar uzra manzilga uchadilar.

Ovoz: «Arkadiy Ilyich, Sinsinnatga qarang...»

U gap tashuvchilardan xafa emasdi, ammo ular to‘xtovsiz ko‘payar, kuchayib, qo‘rquinchli tus olardi. Ularning nazdida o‘zicha o‘ta sirli tuyuladigan, tushunib bo‘lmaydigan Sinsinnat nurlarni tutish ilinjida u yoqdan bu yoqqa ag‘darilar, va o‘z imkon darajasida atrofida uni qurshab turgan odamlar ko‘zicha o‘zini o‘ta sodda, dil-kash odamday tutishga urinardi. Uni o‘rab turganlar bir-birlarini og‘iz ochar-ochmas tushunishar, shu sababli ular orasida tushuniksiz qolib ketadigan holatlarga yo‘l qo‘yishmasdi. Uni bolaligida chang bosgan, kichkina, Ikkinci xiyobondagi muzeyga olib borishgan, ulg‘ayganda uning o‘zi ham shogirdlarini o‘scha muzeyga boshlab bordi. Muzeyda kamyob va juda go‘zal yodgorliklar yig‘ilgandi va ularning barchasi – Sinsinnatni hisobga olmaganda – shaharliliklarga atalgandi. Xuddi u tengqurlari bilan bir-birlarini tushunishmagani kabi, bu narsalar bir-biridan rangi va ko‘rinishi bilan keskin farq qillardari. Nima nomsiz bo‘lsa, demak, u yo‘q narsa. Afsuski, bu yerda hamma narsaning nomi mavjud edi.

«Kundalik tashvishlarning nomi yo‘q. Zalvorli narsalarni esa qo‘l bilan tutib bo‘lmaydi...», – o‘qidi Sinsinnat devordagi yozuvni. Eshik ochilib yopilayotganda yozuv eshik ortida panalab qolarkan.

«Umr bo‘yi bayram kayfiyatida yuruvchilar, men sizlarni...» – yozilgan edi devorning boshqa tomonida.

Chaproqda, tiniq va shoshqaloq, biron-bir ortiqcha bezaklarsiz bitik: «Ular siz bilan gaplashayotganda e’tiborli bo‘ling...» – bitikning davomi, afsuski, o‘chib ketipti.

Yonginasida, bolalarcha hafsalali yozuv: «Yozuvchilarni jarimaga tortishadi». Tagida qamoqxona direktorining imzosi.

Yana bir eski, sirli yozuvni o‘qish mumkin: «O‘limgacha yashab qoling, yo‘qsa, kech bo‘ladi».

– Meni ana shu taxlit yashatib qo‘ydilar, – dedi Sinsinnat, yana devorlar yoqalab yurishda davom etib, yo‘l-yo‘lakay barmoq suyaklari bilan devorlarni yengilgina chertarkan. – Ammo men hali aslo o‘lishni istamayman! – U yuzini yostiqqa tashladi. Aslo istamasdi u! – Issiqqina joydan qo‘zg‘alish juda og‘ir. Yoqmayapti, shoshmanglar, yana bir muddat mudrab yotishga qo‘yib beringlar.

O‘n ikki, o‘n uch, o‘n to‘rt. Bo‘yi past bo‘lgani sababli o‘yinchoqlar ustaxonasiga ishga yo‘naltirishganda Sinsinnat o‘n besh yoshda edi. Kechqurunlari esa – shahar ichidagi daryochada suzib yuruvchi, doktor Sineokov nomli kutubxonada o‘tirgancha, tevarak-atrofdagi kichik-kichik to‘lqinchalarning erinchoq tovlanishiga hamohang kayfiyatga berilib, qadimgi kitoblarni maza qilib o‘qirdi. Qator-qator to‘lqinlarning shipillashi, rang-barang chiroqlarning aji-buji tovlanishlari, suv yuzasining oy shu’lasida balqishi, uzoqda, baland ko‘prik ustida harakatlanayotgan avtomobil chiroqlarining shuvullab bir tomondan ikkinchi tomonga oshiqishi...

Ammo keyinchalik ohanjama qirg‘oqlar namgarchilik sababli buzilib keta boshladi va nihoyat, ataylab yana bitta kanal qazib, daryo o‘zanini Strop tomonga burib yubordilar.

Ustaxonada u arzimas narsalar ustida uzoq vaqt shug‘ullandi, o‘quvchi qizlar uchun yumshoq qo‘g‘irchoqlar yasadi. Ular orasida – kichkina, jundor Pushkin ham bosh kiyimida; kalamushga o‘xhash Gogol ham rangpar nimchasida; burni yo‘g‘on qariya Tolstoy ham uzun, dehqoncha ko‘ylagida; bo‘g‘zigacha barcha tugmalari taqilgan, oynaksiz ko‘zoynakli Dobrolyubov ham bor edi. Afsonalarga burkangan o‘n to‘qqizinchi asr girdobiga sun‘iy ravishda o‘zini baxshida etarkan, Sinsinnat – bu yerda yolg‘on bir imkon bor, deb o‘ylab – qadim dunyo sirlari ummoniga sho‘ng‘ishga tayyor edi, ammo uni boshqa bir narsa chalg‘itdi.

O‘sha yoqda, o‘sha kichkina fabrikada Marfinka ishlardi. Namxush lablarini chala ochib, ipning uchini igna teshigiga tiqishga urinarkan: «Assalomu alaykum, Sinsinnatjon!» – va ana shu taxlit uning xayolan mast bo‘lar darajada beqiyos kengliklar aro (hatto shunaqasi ham bo‘lardiki, olis-olislardagi do‘ngliklar tumanlar orasidan elas-elas, bir ko‘rinib, bir ko‘rinmay, kishiga bemisl zavq bag‘ishlardi), hech bir sababsiz shoxlari egilib, ezilib-ezilib yig‘lab o‘tiradigan majnuntollari mavjud Tamara Bog‘larida maza qilib

adashib yurish rohat edi. Bu yerda daryocha kichik-kichik uchta sharshara orqali ko‘lga quyilardi. Daryochada esa oqqush o‘z soyasi bilan quchoqlashar darajada suzib yuripti. Tekis sayxonliklar, o‘tloqlar, oxiri ko‘rinmas daraxtzorlar, zarang o‘rmonlar, kuni bilan bekinmachoq o‘ynaydigan yashil etikli quvnoq bog‘bonlar; qandaydir, dengiz bo‘yida hosil bo‘lgan g‘or; qandaydir, osoyishtalik ramzi bo‘lgan so‘ri, (diqqatni jalb qilish niyatida mallaga bo‘yalgan) so‘rida esa uchta hazilkash uchta uyumcha qoldirgan; qandaydir, daraga sakrab chiqib qolgan va shu zahoti ko‘z o‘ngingizda quyosh nurlari tufayli qaltiroq soyachalarga aylangan kiyik bolasi – ana shunaqa edi bu bog‘lar! U yerda esa – u yerda Marfinkanining tinimsiz chuldirashlari, uning oq tuflicha va oq paypoqqa chulg‘angan oyoqlari, sovuq ko‘ksi va o‘rmon yertutlari ta’mini beruvchi qizg‘ish bo‘salari. Mana shu yerdan – hech bo‘lmasa o‘sha o‘rmonlarni, o‘sha olis-olisda tuyuluvchi qator tizilgan do‘ngliklarni bir ko‘ra olsa edi...

Sinsinnat xalatinning iplarini qattiqroq tortib bog‘ladi. U ortga, devor tarafga chekinarkan, go‘yo g‘azabdan chinqirib yuborishga tayyorlanayotgan stolni qimirlatib, o‘zi tomonga tortdi: stol – tosh terilgan yer yuzasi bo‘ylab juda ham xohlamay, g‘ichirlab, qaltirab u tomonga siljidi. Uning qaltirashlari deraza tomon tisarilayotgan Sinsinnatning barmoqlariga, derazadan ko‘rinayotgan Sinsinnatning osmoniga ham o‘tdi. Stolda yotgan qoshiqcha jaranglab yerga tushdi, kosa joyida qaltiradi, qalam yumaladi, kitoblar bir-birining ustiga quлади. Sinsinnat yiqlayotgan stulni olib, stolning ustiga qo‘ydi. Keyin o‘zi ham stolga, stoldan stulga chiqdi. Va albatta, hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi – faqat quyosh nurida qizdirilayotgan ulug‘vor osmon, bulutning ayrim bo‘laklari. Sinsinnat amallab panjaralarga yetishga uringanda darichaning narigi tomonida – yana bitta tosh devorlar orasidagi darichaning aksiga ko‘zi tushdi. Burchakda esa boyagi bitiklarning yana biri: aniq-tiniq, jirkanish bilan yozilgan edi bu bitik: «Men ham urindim, hech narsani ko‘rib bo‘lmayapti».

Sinsinnat zo‘riqishlari tufayli oqarib ketgan kichkina barmoqlari bilan panjarani tutib, oyoq uchlarda turardi. Shu sababli yuzining yarmiga panjara orqali quyosh nurlari tushar, quyosh nurlari tushgan payt uning chap mo‘ylovi tilla rangida tovlanardi. Panjarali tillarang uning qorachiqlarida ham akslanardi. Pastda esa ortidan judayam katta boshmoqlar ichidagi tovonlar balandga ko‘tarilardi.

– Ko‘zingizga qarasangiz bo‘larmidi?! Yiqilib tushishingiz mumkin, – dedi bir daqiqadan beri uni kuzatib turgan Rodion, stol ustida qaltiray boshlagan stulni qo‘llari bilan tutarkan. – Tutib turibman, bermalol pastga tushishingiz mumkin.

Rodionning ko‘zlarini yashil tusda, yasama malla soqoli o‘ziga juda yarashib turardi. Ana shu go‘zal, rus tusli yigit pastdan tepadagi Sinsinnatga tikilar, u esa yalang oyoqlari bilan uning ustiga qadam bosardi. Aniqrog‘i, uning soyasi Rodion ustiga oyoq qo‘ydi. Sinsinnatning o‘zi esa stuldan stol ustiga tushdi. Rodion uni chaqaloqni opichlaganday opichlab pastga tushirdi, keyin stolni g‘ichirlatib, avvalgi joyiga o‘tkazdi va uning bir chetiga o‘tirdi. Bir oyog‘ini yerga tirab, osilib turgan ikkinchi oyog‘ini u yoq-bu yoqqa likillatib, yerga tikilgancha, qamoqxona tergovchilariga xos bo‘lgan yuziga yolg‘ondakam quvnoq tus berdi, Sinsinnat esa xalatining ipini g‘ijimlar, to‘rsaygancha, yig‘lab yubormaslikka harakat qilardi.

Rodion baland ovozda xirgoysi qilar, ko‘zlarini o‘ynatar va bo‘sh krujkasini u yoq-bu yoqqa silkitardi. Aynan ana shu sho‘xchan qo‘sishiqni bir vaqtlar Marfinka ham aytardi. Sinsinnatning ko‘zlaridan yosh quyilib ketdi. Qo‘sishiqning qaysidir bir ko‘tarilish nuqtasida Rodion krujkasini stolga otib urdi va sakrab, o‘rnidan turib ketdi. Keyin bir o‘zi bo‘lsa-da, jo‘rovozda qo‘sishiqni davom ettirdi. Nogoh ikki qo‘lini baland ko‘tarib, xonadan chiqib ketdi.

Sinsinnat yerda o‘tirgancha, ko‘z yosh aralash tepasiga qaradi: panjara aksi o‘z joyini o‘zgartiribdi. U – balki yuzinchi marta – stolni o‘z joyidan siljitchiga urindi, ammo, afsuski, stol oyoqlari yerga mahkam qotirilgan edi. U uzum donasini og‘ziga soldi va yana kamera bo‘ylab yura boshladi.

O‘n to‘qqiz, yigirma, yigirma bir. Yigirma ikki yoshida bolalar bog‘chasiga F. darajali o‘qituvchi bo‘lib o‘tdi va o‘shanda Marfinkaga uylandi. (Oqsoqqina, bukrigina, g‘ilaygina bolalarmi o‘qitishdan iborat) o‘z vazifasini bajarishga kirishar-kirishmas, juda mas’ul bir shaxs uning ustidan kerakli idoraga ikkinchi darajali chaquvnoma jo‘natdi. Ehtiyyotkorlik bilan Sinsinnatning asosiy yashirin xususiyatlari haqidagi fikr yuritildi bu chaquvnomada. O‘sha bilan birgalikda, shahar kattalari tomonidan boshqa eski, turli vaqlarda ustaxonada va boshqa ish joylaridagi ziyrak tanishlari, do‘stlari tomonidan yuborilgan ma’lumotlar ham ko‘rib chiqildi. Tarbiyaviy kengash raisi va bosh-

qa mas’ul shaxslar u bilan yakkama-yakka suhbatlashishdi, tajribalar o’tkazishdi. Bir necha kun davomida uni uxlagani qo‘yishmadi, aljirash darajasiga yetkazadigan majburiy maqsadsiz suhbatlar bilan band qilishdi. Har xil narsalarga, tabiat hodisalariga xat yozdirishi, turmush tashvishlarini aks ettiruvchi holatlarni o‘ynab berishni talab qilishdi, shuningdek har xil hayvonlar va boshqa narsalarga o‘xshab ovoz chiqartirdilar. U hammasini bajardi, hammasiga chiddi – chunki hali juda yosh edi, vaziyatdan qanday qutulib chiqishni uddalar, ruhan baquvvat edi, ozgina bo‘lsa ham, Marfinka bilan yashashni judayam xohlardi. Uni istar-istamas qo‘yib yubordilar, bolalar bog‘chasidagi norasida nogiron bolalar bilan shug‘ullanishni davom ettirishga ruxsat berdilar. Ishining natijasi qanday bo‘lishini bilishni istadilar. U kichkina, qo‘lbola, qahva tegirmonchasiga o‘xshash musiqiy qutida musiqa chalib, nogiron bolalarni juft-juft qilib, hovlida sayr qildirardi. Bayramlarda esa ular bilan birga halinchaklarda uchardi: va shu fursatda butun hayot hayratdan tosh qotardi. Maza edi. Ularning ayrimlariga o‘qishni o‘rgatdi.

Alqissa, Marfinka turmushning birinchi yiliyoq – betartib ravishda, turli yerlarda, duch kelgan erkak bilan – unga xiyonat qila boshladi. Odat bo‘yicha Sinsinnat uyga qaytganda, xotini tomog‘i tagiga jundor bo‘yinbog‘ni o‘rab, qandaydir o‘ziga to‘q tabassum bilan, rostgo‘y ko‘z qirini unga tashlab, balki gunohkorligini his qilgan holda o‘zini koyigan namo ohangda eshitilar-eshitilmas ovozda derdi: «Marfinkang esa yana shu qiling‘ini qildi». U bir necha daqiqa xotiniga tikildi, keyin uning qarindoshlariga to‘la xonalarni oralab o‘tib, hojatxonaga kirdi. Ichidan qulflab olib, suvni boricha ochib, shaldiratgancha yig‘isini yashirdi, dod-voyini eshitmasliklari uchun qattiq-qattiq yo‘talgan kishi bo‘ldi, yer tirmalab, ag‘anadi. Ba’zan xotini o‘zini oqlab, tushuntirardi: «Sen meni bilasan-ku, ko‘nglim bo‘sh. Bu shunaqa arzimagan narsa-ku, erkak esa maza qilib bo‘sabit oladi. Bu savob, axir!»

U tez orada homilador bo‘ldi. Sinsinnatdan emas. O‘g‘il dunyoga keldi. Ko‘p o‘tmay, yana homilador bo‘ldi. Yana Sinsinnatdan emas. Va bu safar qizchali bo‘ldi. O‘g‘il cho‘loq va zolimbashara bo‘ldi. Qiz esa to‘rsaygan, ahmoq va shabko‘r edi. Nogironliklari sababli ikki farzand ham bolalar bog‘chasida Sinsinnatning tarbiyalanuvchilari safiga qo‘sildi. Epchil, sog‘lom, baquvvat, yonoqlari ol rang

Marfinkaning bu g‘o‘labashara nogiron bilan yetaklashib yurishi ha-qiqatan ham g‘alati ko‘rinardi. Kunlar o‘tgani sayin Sinsinnat o‘z tashqi ko‘rinishini, holatini nazorat qilmay qo‘ydi va bir safar, shahar bog‘ida, qandaydir ochiq yig‘inda nogoh odamlarni seskantiruvchi baland ovoz yangradi: «Hamshaharlar, oramizda bir kimsa bor», – va shu lahzada allaqachonlar unutilib ketgan dahshatli aybno-ma yangradi, Sinsinnat o‘zini oqlashga biron-bir so‘z topolmadi. Hardamxayol holatda o‘midan turib, yo‘l-yo‘lakay daraxtlarning barglarini chimchilab yulgancha duch kelgan tomonga yo‘naldi. O‘n kundan keyin esa uni qamashdi.

«Har qalay ertaga hal bo‘lar», – dedi Sinsinnat, kamera bo‘ylab ohista qadam tashlarkan, – «Ertaga hal bo‘lar-ov», – takrorladi Sinsinnat, karavotiga cho‘kdi va kaftini peshonasiga tiradi. Quyosh nuridagi soyasi uning g‘oyatda tanish harakatlarini takrorladi. – «Ertaga hal bo‘lsa kerak, – yana takrorladi Sinsinnat uf tortib. – Bugun judayam tinch o‘tdi, ertaga ertalabdan».

Butun dunyo mahbuslari chanqog‘ini qondirgan sopol ko‘za; to‘rtburchak, maxfiy sirni bir-biriga shivirlab oshkor qilayotgan, qo‘llarini bir-birining yelkasiga tashlab turgan devorlar; nimasidir Marfinkaga o‘xshab ketadigan jundor o‘rgimchak; stol ustidagi katta qora kitoblar... – barchasi, bir necha daqiqa hamma jim o‘tirdi.

«Bu qanday tushunmovchilik!» – dedi Sinsinnat va nogoh kulib yubordi. U o‘rmidan turdi, uchli kallapo‘smini, xalatini, boshmog‘ini, yo‘l-yo‘l ishton va ko‘ylagini, boshqa kiyimlarini yechdi. Sun‘iy sochni olgan kabi boshini; qayishni yechgan kabi belini;sovutni yechgan kabi qovurg‘alarini – yechdi. Oyoqlarini, qo‘llarini yechib, qo‘lqopni otgan kabi kameraning bir burchagiga tashladi. Uning qolgan qismi asta-sekinlik bilan havoda qizib, yo‘q bo‘lib ketdi. Sinsinnat avvaliga namxush havodan lazzatlandi; keyin o‘zining mutlaq sirli olamiga burkanib, vujudida yengillik va quvnoqlik tuydi.

Eshikning temir halqalari shaqirlagan zahoti Sinsinnat kalla-po‘sidan tortib, jamiki kiyimlarini, jamiki badan a‘zolarini o‘z o‘rniga tikladi. Qamoqxona nazoratchisi Rodion tagiga uzum barglari dasturxon qilingan dumaloq savatcha to‘la olxo‘ri keltirdi. Direktor xotinining sovg‘asi.

Sinsinnat, jinoiy mashqlaring mushkulingni osonlashtirdi.

Sinsinnat dahlizda keskin balandlashib borayotgan ovozlar tufayli uyg‘onib ketdi.

Kecha ana shu taxlit uyg‘onishiga o‘zini ko‘niktirayotgan bo‘lsada – baribir – yuragi og‘rindi, nafas olishida ravonlik sezilmadi. Etagi bilan yurak atrofini berkitib (ko‘zi tushmagani yäxshi-da!), o‘rnidan qo‘zg‘aldi. – «Jim, o‘tib ketadi!» (muqarrar halokat yoqasiga kelganda bolalarni shu taxlit ovutishga urinishadi)! Sinsinnat quloq soldi. Ko‘p va har xil qadam tovushlari eshitildi; turli darajadagi past-baland ovozlar; ba‘zilari so‘roq tarzida, ikkinchisi so‘roqqa javob shaklida. Ichkaridan kimdir tosh yo‘lak bo‘ylab, muzda uchganday, shuvullab yetib keldi. Direktorning baland, buyruq dor ovozi boshqa shovqinlar aro alohida ajralib turardi. Hammasidan yomoni – bular orasida yosh bolaning ham ovozi eshitilyapti – direktorning qizchasi bor edi. Sinsinnat o‘z advokatining iltimoskorona ohangli ovozini, Rodionning to‘ng‘illashini ham eshitdi... Mana, yana kimdir qayoqadir shoshgancha, yo‘l-yo‘lakay bir nimalarni so‘radi, boshqasi xuddi shu tarzda javob berdi. Nimadir shaqirladi, taqirladi, shovqin-suron ko‘tarildi, – go‘yo do‘konning taxmonlarini ag‘darishardi. «Topmadilaringmi?» – direktorning aniq-tiniq ovozi. Qadamlar yugurdi. Yana qadamlar yugurdi. Yugurib, avvalgi joyiga qaytib keldi. Sinsinnatni hayajondan ter bosdi. Oyoqlarini yerga qo‘ydi: xullas, shu taxlit Marfinka bilan uchrashgani ruxsat bermadilar... Kiyimlarini kiyaversamikan yo o‘zлari kiyintirishga kelisharmikan?! Jongayam tegib ketdi, kiring...

Ammo uni yana ikki daqiqacha ruhan qiyashdi. Nogoh eshik ochildi va advokat ichkariga suqildi.

U paxmoq ahvolda, ter bosgan. U chap yelkasini qashirdi, ko‘zлari suzilib borardi.

– Ilmatugmani yo‘qotib qo‘ydim, – dedi u hayajonlanib, itday teztez nafas olarkan. – Nimagadir suringanimda... demak... maftunkor Emmochka bilan... yuragingni o‘rtab yuboradi bu dilozor... har safar kirganimdan... eng asosiysi, kimdir nimadir deganini eshitdim... ammo e’tibor bermabman... judayam kerakli dalil edi. Eh,.. endi foydasi yo‘q,.. balki endigi safar bir amallarman, men va‘da bergen edim, ammo...

– Ahmoqona uyqusirashday xato bu, – dedi Sinsinnat sekingina. – Dahlizdagи talato‘pni men noto‘g‘ri talqin qilibman. Bu yurakka og‘riq soladi.

– Unchalik emas, e‘tibor berma, hammasi o‘z o‘rniga tushib ketadi, – dedi advokat, hamon fikrlarini yig‘ib ololmay. Gapisarkan, ko‘zлari kamera burchaklari, past-balandliklari aro olma-kesak terardi. U o‘zi uchun qimmatli bo‘lgan narsasini yo‘qotib qo‘yanidan hamon o‘ziga kelolmayotgani sezilib turardi.

Sinsinnat yengil uf tortib, yana to‘shagiga o‘zini tashladi. Advokat uning oyog‘i tomonga o‘tirdi.

– Men sizning huzuringizga kelayotgandim, – dedi advokat, – dadil, quvnoq holatda edim... Endi esa ana shu arzimagan narsa asabimni o‘ynatdi. Albatta, bu bor-yo‘g‘i arzimagan matoh, shunday emasmi, axir, shunaqa matohlar borki, ularning bahosi ehhee!... Siz o‘zingizni qanday his qilyapsiz?

– Ochiq suhbatni xohlayapman, – javob berdi Sinsinnat, ko‘zлari yuminqirab. – Siz bilan ayrim xulosalarim borasida fikrlashmoq-chiman. Meni bu yerda qanaqadir zerikarli, betayin sharpalar o‘rab olishgan, odamlar emas. Ular meni yomon tushlar, ahamiyatsizday tuyuladigan ko‘rinishlar misol qiynaydi. Va buning bari bizza hayot deya ataladi. Men aslida, xayolan ana shularning baridan xalos bo‘lib uyg‘onmoqchiman. Ammo menga yordam berishmasa, uyg‘onolmayman. Holbuki, eng yomoni, ana shu yordam beruv-chilardan juda qo‘rqaman. Va umuman, mening ruhim dangasalashib ketdi, ruhim o‘zining qalin pardalariga o‘ranib olgan. Meni o‘rab turgan barcha sharpalar ichida menga aynan siz, Roman Vissarionovich, judayam ojiz tuyulyapsiz. Boshqa tomondan esa bizning o‘ylab topilgan turmushimizda sizning mantiqiy o‘rningiz bor: ozgina maslahatchi tarzida, mening himoyachim tarzida...

– Xizmatingizga tayyorman, – dedi advokat, Sinsinnat nihoyat gapira boshlaganidan xursand bo‘lib.

– Shu sababli men sizdan so‘ramoqchiman: qatl kunini nega mendan yashiryapsizlar? To‘xtang, men hali gapimni tugatmadim. Direktor deya ataluvchi shaxs to‘g‘ri javobni aytmayapti, turli bahanalarini ro‘kach qilyapti... To‘xtab turing, dedim! Men bilishni istayman, birinchidan: qatl kuni qachon belgilanishini kim hal qiladi? Men bilishni istayman, ikkinchidan: bu ma’muriyatdanmi, aniq

shaxsdanmi, shaxslar yig‘inidanmi, ma’lum javobni qanday olish mumkin...

Hozirgina javob berishga shoshilgan advokat negadir jimib qoldi. Uning ko‘kish qoshli rangpar yuzidan, uzun, quyonsifat lablaridan hech qanaqa fikr aylanmasini his qilib bo‘lmashdi.

– O‘zingizni bo‘sh qo‘ying va fikringizni jamlashga urining, – dedi Sinsinnat.

Roman Vissarionovich tezlik bilan gavdasini o‘ngladi va bezovta barmoqlarini siqimladi. Ayanchli ovozda dedi:

– Mana shu taxlit gap ohangi uchun...

– Meni qatl qilishadi, – dedi Sinsinnat, – bilaman. Keyin-chi?

– Keling, mavzuni o‘zgartiraylik, iltimos qilaman, – yalindi Roman Vissarionovich. – Nahotki, siz hech bo‘lmasa endi ruxsat berilgan darajada qolishni istamaysiz? Bu yomon, judayam yomon, men buni ko‘tarolmayman. Men sizning huzuringizga siz nimanidir istaysizmi yo‘qmi, shuni bilishga kelgan edim. Masalan... (shu lahma advokatning yuziga qizillik yugurdi) sudda aytgan o‘z so‘zingizning terilgan matnni qo‘lga olishni istarsiz? Agar shunaqa bo‘lsa, siz hoziroq belgilangan tarzda ariza berishingiz talab etiladi. Balki uni hozir birgalikda maslahatlashib, tayyorlarmiz – arz sabablarini dalil-isbotlari bilan, necha nusxada bo‘lishi kerakligi va qanday maqsadlar uchun... Men hozir bo‘shman, keling, birgalikda tayyorlaymiz, iltimos qilaman! Men hatto alohida konvert taylorlab qo‘yanman.

– Rasmiyatchilik uchun... – deb yubordi Sinsinnat, – ammo undan ham avval... Nahotki, haqiqatan ham savolga javob olib bo‘lmasa?

– Maxsus konvert, – takrorladi advokat, uni qiziqtirish uchun.

– Yaxshi, menga bering-chi, – dedi Sinsinnat va semiz, burchaklari bo‘rtib turgan konvertni olib, burdalab tashladi.

– Shu ishni bekor qildingiz, – dedi advokat yig‘lamsirab. – Nima qilib qo‘yaningizni siz tushunmayapsiz. Balki u yerda sizni avf etish hujjati bo‘lgandir. Endi boshqa nusxasini topolmaysiz!

Sinsinnat qog‘oz bo‘laklarini yerdan oldi, hech bo‘lmasa biron-bir iborani terishga urindi, ammo hammasi aralash-quralash bo‘lib ketgandi.

– Siz hamisha shunaqa qilasiz, – deya arz-dodini davom ettirdi advokat, kamera bo‘ylab qadam tashlarkan. – Balki sizning omon qolishingiz shu narsaning ichidagi xatga bog‘liq bo‘lgandir.

– Mumkinmi? – so‘radi direktor, eshikni chala ochib. – Men siz-larga xalaqit bermaymanmi?

– Marhamat, Rodrig Ivanovich, marhamat, – dedi advokat, – azizim Rodrig Ivanovich, marhamat. Faqat biz u qadar quvnoq holatda emasmiz...

– Bizning o‘limga mahkum birodarimiz kabi, deng, – deya ha-zillashgan bo‘ldi viqorli, harakatlari o‘ziga yarashadigan direktor; go‘shtdor, baquvvatkaftlari bilan Sinsinnatning kichkina, sovuq qo‘lini siqarkan. – Hammasi joyidami? Hech yeringiz og‘rimayaptimi? Haliliyam bizning Roman Vissarionovich bilan valaqlashib o‘tiribsizmi? Ha, aytganday, azizim Roman Vissarionovich... sizni xursand qili-shim mumkin – mening bezoriginam hozirgina pillapoyalardan siz yo‘qotgan igna-tugmani topib olibdi. Bu farang tillasi, shekilli?! Qanday ajoyib! Odatda men maqtashni xush ko‘rmayman, ammo e’tirof etishim lozimki...

Ular ikkovlon burchakka o‘tishdi-da, o‘sha taqinchoqni nazar-dan o‘tkazgan kishi bo‘lishdi, go‘yo uning qimmatbaholigidan qattiq hayratlanishdi. Sinsinnat shu fursatdan foydalanib, karavoti tagidan o‘zining tushib ketgan narsalarini yig‘ib oldi.

– Ta’bingizga gap yo‘q, gaaap yo‘q, – takrorlardi direktor, – advokat bilan qo‘ltiqlashgancha, burchakdan qaytarkan. – Demak siz, sog‘lomsiz, – hech bir maqsadsiz, to‘shagiga o‘tib, yotib olgan Sinsinnatga o‘girildi u. – Ammo o‘jarlik qilish joiz emas, menimcha. Odamlar va umuman, biz hammamiz sizga aslo yomonlik tilamaymiz. Menimcha, buni o‘zingiz ham tushunib turibsiz. Biz hat-to yolg‘izligingizni yengillatishingizda sizning xohishlaringizga peshvoz borishimiz mumkin. Shu kunlari ana shunaqa kameralardan biriga yangi mahbusni joylaymiz. Tanishaşiz, hangamalashasiz, hammasi yaxshi bo‘ladi.

– Shu kunlardами? – qaytarib so‘radi Sinsinnat. – Demak, yana bir necha kunlar kutishga to‘g‘ri keladimi?

– Nega endi, – direktor kulib yubordi, – bu hammasini bilishi shart. Obbo, Roman Vissarionovich?

– O‘, do‘stim, gapirmang, – uf tortdi advokat.

– Ana shunaqa, – davom ettirdi u, kalitlarini sharaqlatib, – xo‘jayin, sizlar odamiyoq bo‘lishlaringiz talab etiladi. Siz esa nuqul: oriyat, zug‘um, do‘q-po‘pisa... Kechqurun men unga olxo‘ri keltirgan edim.

Bilasizmi, u nima qildi? Tanovul qilishni istamadilar. Ana shunaqa. Mana, men sizga yangi mahbus haqida gap boshladim. Hali u bilan do'stlashib ketasizlar. Yo'qsa, bu yerda o'tiraverib, nuqlar arazchiga aylanib qolibsiz. To'g'ri aytyapmanmi, Roman Vissarionovich?

– To'ppa-to'g'ri, Rodion, to'ppa-to'g'ri, – ma'qulladi advokat yasa-ma jilmayish bilan. Rodion soqolini siypaladi-da, davom etdi:

– Bularga juda qattiq achinib ketdim. Kiryapman, qarayapman, stol ustiga stul qo'yilgan, stul ustida bu kishim, panjaraga osilmoqchi bo'lyaptilar. Osmon esa tiniq, har yerda bulutlarning parchalari sayr qilib yuribdi, qanchalar nafosat, qanchalar go'zallik, maza! Bu kishimni yosh bolani opichlaganday ko'tarib, pastga tushirdim. O'zim esa yig'layapman. Chini bilan aytyapman – yig'layapman... Bu achi-nish menga juda qattiq ta'sir qildi.

– Balki yuqoriga olib chiqarmiz, – deya ikkilanib taklif kiritdi advokat.

– Nima qipti, mumkin, – dedi Rodion judayam erib ketganidan, – bu istakni hamisha amalga oshirish mumkin.

– Xalatingizni kiyib oling, – dedi Roman Vissarionovich.

Sinsinnat shunday dedi:

– Men sizlarga bo'ysunaman – sharpalar, ajinalar, olabo'jilar, men sizlarga, albatta, bo'ysunaman. Lekin, lekin, baribir, baribir talab qilaman. Eshityapsizlarmi, javob berishingizni talab qilaman! Mening necha kunlik umrim qoldi?.. Xotinim bilan uchrashishga ruxsat berasizlarmi? (Sinsinnat alam bilan o'zini yo'qotar daraja-da qichqirib, tovoni bilan yer tepdi, shunda boshmoqlarining bittasi qayergadir uchib, yo'qoldi).

– Ruxsat bersalar kerak, – dedi Roman Vissarionovich, Rodion bilan ko'z urishtirib olarkan. – Faqt siz juda ko'p gapirib yuboryapsiz. Qani, yurdikmi?

– Marhamat, – dedi Rodion yelkasi bilan ochiq eshikni turtarkan.

Uchovlon chiqishdi: oldinda temir oyoqli, eski, rangi unniqib ketgan, orqasi osilib qolgan ishtondagi Rodion; uning ortidan advokat – har qalay advokatlarga xos tartibli kiyim-boshda; va eng – oxiri boshmog'ini yo'qotib qo'ygan, yo'l-yo'lakay xalatining etaklarini to'g'rilayotgan Sinsinnat.

Dahligning burchagida nomsiz boshqa bir qorovul qo'l uchi-ni chakkasiga tirab, ularni do'stona sharafladi. Toshday g'ira-shira

o‘rnini tobora ko‘proq yorug‘lik egallab borardi. Yurishdi, yurishdi, bitta burchakdan keyin yana bitta burchak-burilish. Namlik tufayli – qovurg‘alari sanalib qolgan horg‘in otga o‘xshash – gullab ketgan bir devor oldidan bir necha bor o‘tdilar. Qayerlardadir elektr chirog‘ini yoqishga to‘g‘ri keldi; tepadami, yon tomondami, achchiq changga botgan lampochka yondi. Ba’zi joylarda lampochka kuyib qolgan ekan, qorong‘ulikda turtinib yurishga to‘g‘ri keldi. Qayerdadir bir joyda kutilmaganda tepadan nur yog‘ildi, g‘adir-budur plitalarga urilib, tutunday tovlandi, yashillandi. Va... kishining bahri-dilini yorishtirib yuboradigan to‘rburchak gulli ko‘ylakda, to‘rburchak gulli paypoqda direktorning qizi Emmochka – yosh bola u hali, iyaklarri kichkina raqqosanikiga o‘xshaydi – to‘p o‘ynardi. To‘p bir tekis devorga urilib, uning qo‘liga qaytib tushardi. U qayrilib qaradi. To‘rtinchi, beshinchi barmoqlari bilan tushib ketgan soch tolalarini tartibga olarkan, yonidan o‘tayotgan uchovlonga ko‘z qirini tashladi. O‘tayotgan Rodion xursand bo‘lib, kalitlarini shiqirlatdi; advokat bilinar-bilinmas barmoq uchlari bilan qizning sochlaridan erkalab o‘tdi; ammo qizcha Sinsinnatga qarardi va u ham qo‘rqa-pisa qizga kulimsirab qarab qo‘ydi. Uzundan-uzoq dahlizning navbatdagi tirsagiga yetganda uchovlon baravar qayrilib qarashdi. Emmochka ularning ortidan tikilib turardi, qo‘lida tutgan to‘p esa yaltirardi.

Yana qorong‘ulik aro uzoq yurishdi va nihoyat, oxiri berk joyga yetishdi. Bu yerda qizil lampochka yonib turardi. Rodion pastak quyma eshikni ochdi; ichkariga kirgandan so‘ng keskin burilib, tosh zinalar bo‘ylab, tepalikka ko‘tarilishdi. Shu yerda tartib o‘zgardi. Rodion to‘xtab, oldin advokatni, keyin Sinsinnatni oldingga o‘tkazib, o‘zi eng oxirida yo‘lni davom ettirdi. Keskin burimlari ko‘p zinalar bo‘ylab ko‘tarilish oson emasdi. Ko‘tarilishning oxiri esa ko‘rinmasdi. Yuraverib zerikib ketgan Sinsinnat zinalarni sanay boshladи. Sanoq yuzdan oshib ketganda u adashdi, chalkashdi. Havo bilinar-bilinmas xiralashib borardi. Sinsinnat juda charchagan bo‘lsa-da, go‘yo o‘jar bola singari zinalar bo‘ylab olg‘a intilardi. Yana bitta burimdan o‘tdilar va nogoh kuchli shamolga yuz tutdilar va yoz osmoni ularni peshvoz kutib oldi, qayerdadir qaldirg‘ochlarning kuchli qichqirig‘i eshitildi.

Bizning sayohatchilarimiz keng minora tepasidagi derazali ayvonda paydo bo‘lishgandi. Bu yerdan butun tevarak-atrof yaraqlab

ko‘rinib turardi, qaragan saring zavqing oshib-toshib borardi. Nafaqat minora balandlikda joylashgan edi, balki qal‘a butunlay ulkan qoya tepasida osilib turardi va shu sababli vahimali ajdarhoga o‘xshardi. Juda ham pastliklarda ishkomga osig‘lik uzumlar ko‘rinardi va yastanib yotgan yo‘l burala-burala kishini suvsiz nishablikka boshlardi. Burama ko‘prik ustida kichkina bo‘lib ko‘rinayotgan qizil kiyimli odamcha turar va hoynahoy, itga o‘xhash bir nuqta uning atrofida yugurib yurardi.

Undan naryog‘i – quyosh nurlaridan tovlanib, yarim aylana shaklida shahar yastanib yotardi: goh har xil tusdagi hovlili uylar, – ko‘chalarda bo‘y cho‘zgan daraxtlar kabi – bir tekis qator bo‘lib tizilib turibdi; goh enish bo‘ylab, qiyshiqliy bo‘lib, mayishib, o‘z soyalari ustiga bostirib borayotganday tuyulardı. Birinchi Xiyobondagi harakatlarni, ayniqsa, xiyobon oxiridagi mashhur favvara suvlarining yaltillashlarni ajratib olish mumkin edi. Undan naryog‘ida esa, tutab borayotganday tuyuluvchi qator tepaliklar tarafda, ufqning oxirida, zarang daraxtlaridan iborat qoramtilor o‘rmon cho‘zilib ketgandi. Aynan o‘sha tomonda qo‘ldagi ko‘zgu singari yaltirovchi hovuz bor. Aynan o‘sha g‘arb tomonda yurakka yaqin Strop hayoti boshlanadi, aynan o‘sha tomonda, mayin tumanlar aro tepaliklardan suvlar oqib, nishabdagi hovuzga quyiladi. Sinsinnat kaftini peshanasiga qo‘yib, qilt etmasdan, xo‘mraygancha rohatbaxsh chidamsizlik bilan Tamara Bog‘larining tumanlariga va suvlarining yaltillashlariga, tepaliklarga, tepaliklar ortida qaynayotgan hayotga termilar, bu hayotdan nigohini aslo uzib ololmasdi...

Undan bir necha qadam narida advokat keng tosh uyumiga tirsagini tiragancha turar, uning beli ohakka chulg‘angan edi. U chap oyog‘idagi yaltiroq, loklangan boshmog‘ini o‘ng oyog‘i ustidan bosib, kenglikka xayolchan tikilardi. Rodion qayerdandir supurgi topib keldi va jimgina oynavand ayvon ostonasini tozalay boshladı.

– Qanday go‘zal va yoqimli bu bog‘lar, – Sinsinnatning yuragi hapriqdi. Unga aynan ana shu «yoqimli» iborasi ma‘qul tushib ketdi. Odatda bolalar sershovqin joyda goh qulqlarini berkitib, goh ochib, holatni turli xil tasavvur qilganlarida hayajonlanganlari kabi, Sinsinnat tobora ko‘proq lazzatlanib borardi. – Qanchalar yoqimli! Bu tepaliklarni men hech qachon bu qadar sirli va yoqimli tarzda his qilmagandim. Nahotki, ularning past-balandliklarida, soyalari quyuq

vodiylarida rohatlanish menga nasib qilmaydi? Yo‘q, yaxshisi bu haqda o‘ylamaslik kerak.

U oynavand ayvonni to‘liq aylanib chiqdi. Shimolda tekislik yastanib yotibdi. Tekislik bo‘ylab bulutlarning soyasi yuguryapti. O‘tloqzorlar ekinzorlar bilan o‘rin almashyapti; Stropning enish qismida aerodrom va boshqa qurilishlarning ayrim qismlari ko‘zga tashlanadi. Aerodromda eski, to‘kilib qolgan, qanotlaridagi yaltir-yultir yamoqlari bilan necha yillardan beri qimirlamay turuvchi samolyot saqlanadi. Ba’zan samolyotni nogironlarni quvontirish uchun yurgizshadi. U tamom bo‘lgan, charchagan. Vaqt maza qilib mizg‘iyapti. Shaharda bir odam bo‘lardi, dorixonachi, aytishlaricha, uning bobosining bobosi savdogar bo‘lib, Xitoyga ana shu samolyotda qatnagani haqida hikoyalar yozib qoldirgan emish.

Sinsinnat oynavand ayvonni aylanib, yana uning janubiy tomonida to‘xtadi. Uning ko‘zлari qonunga xilof ravishda sayr qilardi. Endi unga anavi gullayotgan g‘ujumni, anavi qushni, anavi enishdagi yolg‘izoyoq yo‘lakni ajratib olayotganday tuyuldi.

– Shunchasi yetar, – dedi yaxshi kayfiyatdagi direktor, supurgini burchakka tashlagancha, ust kiyimlarini qayta kiyarkan. – Endi uyuyimizga tarqalamiz.

– Ha, fursat yetdi, – dedi advokat ham, soatiga qararkan.

Shunday qilib, uchovlon o‘sha yo‘l bilan ortlariga qaytishi di. Oldinda direktor – Rodrig Ivanovich, o‘rtada – advokat Roman Vissarionovich, orqada – toza havodan keyin asabiy esnagancha mahbus Sinsinnat. Direktor kiyimining orqasi ohak bilan ifoslangan edi.

IV

Rodionning ertalabki tashrifidan foydanalib, uning patnis tutgan qo‘llari tagidan olg‘a intilgancha, Emmochka kirib keldi.

– Hay-hay, hay-hay, – ogohlantirdi direktor, idishdagi shokolad bo‘ronini tinch tutish uchun avaylanib, yumshoq oyog‘i bilan eshikni chala yoparkan, to‘ng‘illadi: – Shunaqayam bo‘ladimi...

Bu orada Emmochka stol ortiga o‘tib oldi-da, joy topib, amallab o‘tirdi.

– Kitob o‘qiyapsizmi? – so‘radi Rodion xush kayfiyatda. – Bu yaxshi.

Sinsinnat varaqdan ko‘zlarini uzmay, bosh qimirlatdi, ammo endi ko‘zlar sahifadagi hech narsani ilg‘amasdi.

Rodion o‘zining oddiygina kundalik majburiyatlarini bajarib, lat-ta bilan quyosh nurlarida o‘ynay boshlagan changlarni artib, chiqib ketdi.

Emmochka hamon amal-taql holatda turar, ammo o‘zini tobora erkinroq his qila boshlagandi: qo‘llarini bir-biriga bog‘lab, qizg‘ish og‘zini salgina ochib va uzun, oqargan, balki go‘yo qarib qolgan kipriklarini tez-tez pirpiratib, stol ustidan eshik tomonga tikilib turardi. Mana, tanish harakatlar: chaqqon-chaqqon, to‘g‘ri kelgan barmoqlari bilan iyagi tarafga tushib ketayotgan mayin sochlarini tartibga olarkan, boshini salgina burgancha – kitobini stolga qo‘yib, tomoshaning davomini kutayotgan Sinsinnatga ko‘z qirini tashladi.

– Ketdi, – dedi Sinsinnat.

Emmochka joyidan turdi, ammo hali bukilgancha, eshikka qaradi. Nima qilishini bilmay, o‘ng‘aysizlandi. Nogoh balerinanikidek nozik bellari to‘lg‘anib, yopiq eshik tomon intildi. Uning atir-upalari hidid dan kameradagi havo jonlanib ketdi.

Sinsinnat unga ikkita odatiy savol berdi.

– Menga achinasanmi? – so‘radi Sinsinnat.

Bu savolga Emmochka javob bermadi. Burchakda turgan bo‘s sh sopol ko‘zani olib, yuziga qadar ko‘targancha, o‘zini chalg‘itgan bo‘ldi. Ko‘zaning ichiga puflagan bo‘ldi. Bir daqiqadan so‘ng yana xona bo‘ylab zing‘illadi. Endi esa devorga suyanib turar, o‘zini har turga solardi. O‘zicha kulimsiradi, keyin nigohini pastdagi Sinsinnat-ga qadadi. Har qalay, bu bezovta qalb edi.

– Nahotki, menga achinmaysan? – so‘radi Sinsinnat. – Mumkin emas, tasavvurimga sig‘dirolmayman. Yonimga kel, ayt, men qachon, qaysi kuni o‘lamani?

Ammo Emmochka javob bermadi, polga tushib, iyagini tizzalari-ga tiragancha, jimgina o‘tirdi. Ko‘ylagi etaklari ko‘tarilgan, ichidagi bor narsalari yaqqol ko‘rinib turardi.

– Emmochka, ayt menga, iltimos qilaman... Sen bilasan-ku,.. men tushunib turibman, sen bilasan... Oshxonada birga tushlik qilayotganda otang aytgandir, onang aytgandir... Hamma aftyapti. Kecha gazetadayam bu haqda yozishibdi. Demak, bu masalani hamma muhokama qilyapti, faqat men...

Emmochka sakrab turgancha, shamolday epchillik bilan eshikka yetdi va taqillatdi – kaftlari bilan emas, balki barmoqlarining orti bilan. Uning ipakdek mayin yoyiq sochlari tovlanib turardi.

«Agar ulg‘ayganingda, – xayol surdi Sinsinnat, – agar sening ruhing meniki bilan uyg‘unlashganda, sen qadimgi dostonlardagi kabi, qorong‘i, oysiz tunda... qorovullarni mast qilib...»

– Emmochka! – hayajonlanib murojaat qildi Sinsinnat. – Yaliman, iltimos qilaman, ayt, men qachon o‘lamан?

Emmochka barmog‘ini tishlagancha, kitoblar ayqash-uyqash bo‘lib yotgan stol tarafga keldi. Bitta kitobni ochdi, shovqinlatib varaqaldi, yopdi, boshqasini oldi. Uning yuzida hamon bezovtalik, o‘zini qo‘ygani joy topolmasdi.

Eshik g‘ichirlab ochildi: hoynahoy, Rodion eshik tuynugidan ularni kuzatib turgandi. Rodion achchiqlanib ichkariga kirdi.

– Qani, xonimcha! Yo‘lingizdan qolmang! Tag‘in men baloga qolib ketishim mumkin.

Emmochka notabiyy xaxoladi, Rodionning qo‘llaridan sirg‘alib chiqdi va ochiq eshik tomon yo‘naldi. Va ostonada nogoh to‘xtadi. Yo havoyi o‘pich, yo jimlik saqlab, yelka burgancha, Sinsinnatga nigoх tashladi; undan keyin – o‘shanday tezlik bilan katta-katta qadamlar tashlab, go‘yo uchishga tayyorlanayotganday, tashqariga otildi.

Rodion o‘nqillab-to‘nqillab, uning ortidan ketdi.

– To‘xtang, – qichqirdi Sinsinnat. – Men hamma kitoblarni o‘qib bo‘ldim. Menga yana kitoblar ro‘yxatini keltiring.

– Kitoblar... – to‘ng‘illashda davom etdi Rodion eshittirib, keyin eshikni sirtidan qulfladi.

Qanchalar zerikarli. Sinsinnat, judayam zerikarli! Toshday qattiq, chidab bo‘lmaydigan zerikish: soatlarning zang urishi ham, jundor o‘rgimchak ham, sariq devorlar ham, qora ko‘rpasining shig‘irlashlari ham, idishdagи shokoladning ko‘piklari ham – hammasi jonga tegib ketdi.

Yondi, kuydi, o‘z alamiga qovrildi va nihoyat, yotog‘idan qo‘zg‘aldi. Jonga tegib ketgan xalatini yelkasiga ildi va xona bo‘ylab tentirashga tushdi. Yana barcha bitiklarni bir-bir o‘qiy ketdi. Balki ularning ichidan biron-bir yangisini kashf qilib qolar, axir. Qarg‘a bolasi ko‘pik ustida turganday, stulga omonat chiqib, tepadan g‘aribona bo‘lagi ko‘rinib turgan osmonga uzoq vaqt tikildi. Keyin yana yurdi.

Yana yod bo‘lib ketgan, mahbuslar uchun atalgan sakkiz qoidani takrorladi:

1. Turma binosini tark etish qat’iy taqiqlanadi.
2. Mahbusning bo‘ysunuvchanligi qamoqxonaning rohati-joni.
3. Kunduzi soat birdan uchgacha tinchlikni saqlash talab etiladi.
4. Ayollarни olib kirishga ruxsat yo‘q.
5. Qo‘sishq aytish, raqs tushish, qo‘riqchilar bilan hazillashish faqat umumiy kelishuv asosida va ruxsat etilgan kunlari.
6. Istaladiki, mahbus o‘z ahvoliga, sharoitiga va nomiga nomunenosib tushlarni kechalari umuman ko‘rmasin, agar tush ko‘rib qolsa, uni o‘zi to‘xtatsin. Jumladan: boy hayotni, yaqinlari bilan sayrni va oilaviy ovqatlanishlarni, shuningdek, ayollar bilan ishq pihonni; qaysiki o‘sha yaqinlik haqiqiy hayotda qonunga binoan zo‘ravonlik deya baholansa.
7. Qamoqxonaning mehmondo‘stligidan foydalananayotgan mahbus o‘z navbatida, agar turma nazoratchilaridan taklif tushadigan bo‘lsa, hovlini, tevarak-atrofni tozalash ishlaridan bo‘yin tovlamasin.
8. Rahbariyat yo‘qolgan buyumlar, shuningdek, mahbus uchun javobgarlikni mutlaqo o‘z zimmasiga olmaydi.

Zerikish, zerikish, Sinsinnat. Tur, xalating bilan goh devorlarga, goh stol-stulga turtinib-surtinib yana yur, Sinsinnat. Zerikishdan yorilip ketay deyapti. Stolda qalashib yotgan kitoblarning hammasini o‘qib chiqqan. Hammasini o‘qib chiqqanini yaxshi bilsa-da, Sinsinnat kitoblar orasini titdi va avval o‘zi ko‘rib chiqqan, tanish qalin kitobni tik turgancha varaqladi.

Bu suratlar qachonlardir nashr etilgan o‘sha jurnalda bor edi.

Turma kutubxonasi kamyob kitoblari ko‘pligi va ahamiyatlili-
gi bilan shaharda ikkinchi o‘rinda edi. Bu olis dunyoda eng oddiy
narsalardan ham yoshlik va tug‘ma surbetlik ufurib turardi. O‘sha
yillari hamma bir-biri bilan kelishib, tinch, osoyishta, osuda yashar-
di; yaxshi moylangan metall ovozsiz akrobatika bilan; kostum pid-
jagini chirolyi, keskin burmalari siz tasavvur ham qilolmaydigan
baquvvat gavdalarning egiluvchanligi bilan yaxlitlik hosil qilgandi.
Ulkan derazalarining qator-qator oynalari uylarning burchaklarida
chirolyi burilib ketgandi; sport kiyimidagi qiz yaltiroq suv havzasi
yonida qaldirg‘ochday erkin uchib yugurardi; tirdaksiz balandlikka
sakragan atlet osmonda qotib qolgandek edi go‘yo.

«Balki, – o‘yladi Sinsinnat, – men bu suratlarni noto‘g‘ri tal-qin qilayotgandirman. – Fotosuratlarga qarab o‘sha davrga baho berayotgandirman. Bu soya va sharpalarning ko‘pligi, yorug‘likning uzluksizligi, quyoshda toblangan yelkaning tovlanishi, nodir tuyg‘uning aks sadosi, bir holatdan ikkinchi holatga muammosiz o‘tish – hammasi, balki faqatgina shu suratga, uzluksiz yorug‘likka, bu san‘atning alohida jihatlariga aloqadordir. Va balki dunyo – xuddi bizlarning bugungi oddiy apparatlarimiz o‘zlaricha bugungi odatiy kundalik tashvishlarni suratlarga mixlaganday – bu qadar egiluvchan, namxush va tezob bo‘lmagandir».

«Va balki (Sinsinnat to‘rtburchak chiziqli daftarga tez-tez yoza boshladи), men noto‘g‘ri fikr yuritayotgandirman... Davrga ahamiyat... Bu boyliklar... Yo‘nalishlar... Silliq o‘tishlar... Balki dunyo ham mutlaqo... Xuddi bizning davr... Ammo bu xayol surishlar zerikishlarim arishiga yordam bera oladimi? Jonga shunaqayam tegib ketdiki bu zerikishlar, seni nimayam qilsam ekan? O‘zimni-chi? Nega mendan sir saqlashga jazm etyaptilar... Men bu o‘taketgan azoblardan o‘tishim lozim bo‘lgan odam, o‘z odamiyligimni – hech bo‘lmasa tashqaridan qaraganda – saqlab qolishim lozim bo‘lgan holda (jim chidab berishdan nariga o‘tolmayman – baribir qahramon emasman...) sinnovdan o‘tayotganimda o‘z layoqatlarimdan boricha foydalanib, men... asta-asta kuchsizlanib boryapman... Mavhumlik juda yomon. Dahshat! Ayting axir menga... Shunaqa, aytishmaydi: har kuni, har tong, har soatda o‘limingni kutib yotaver. Agar qachon jonimni olishlarini bilganimda nimadir qilishga ulgurarmidim... Xayoldan o‘tgan, o‘tayotgan tekshirilgan fikrlarimni qog‘ozga tushirarmidim. Kimdir qachondir o‘qir va notanish mamlakatda bиринчи tongni ottirayotgan odamning holiga tushib qolarmidi. Ya‘ni men aymoqchimanki, men uni baxtli ko‘z yoshlarini to‘kishga majburlagan bo‘larmidim. O‘shanda u ham men ko‘rgan kunlarni xayolan ko‘zdan kechirsa, dunyo poklanganroq, tozaroq bo‘larmidi. Ammo men qachon o‘lishimni bilmasdan turib, qanday yoza boshlashim mumkin. Ulguramanmi, yo‘qmi... shunisi azobki: kecha ulgurgan bo‘lardim, deb o‘ylaysan. Va yana shu haqda o‘ylaysan... kecha, kecha... Aniq maqsadli ishni davom ettirish, o‘zingni tonggi uyg‘onishga tayyorlash o‘rniga... senga so‘nggi bor yuvinish uchun jallodning paqirini keltirsalar... Xullas, istaysanmi, istamaysanmi, ana shu so‘roq xayolingni band

qilaveradi, boshqa ish qilolmaysan va ahmoqlarcha, bu yerdan qochib chiqish haqida o‘ylaysan... Afsuski, qochish haqida... Bu fikr bugun xaxolab kulgancha, yer tepib, fikrini egalladi... – ya’ni men demoqchimanki... Yo‘q, baribir nimanidir miyaga muhrlash, xotirada saqlab qolish kerak. Men oddiy odam emasman. Men bular orasida – tirikman... Nafaqat mening ko‘zlarim, balki ko‘rish, eshitish, ta’m bilish xususiyatlarim va eng asosiysi, bularning hammasini bir nuqtada jamlay olishim... Yo‘q, hali sir ochilmadi – balki hammasi endigina boshlanayotgandir. Balki bu endi yona boshlagan olovdir, ammo men hali olovning tug‘ilishi haqida hech narsa demadim. Mening hayotim. Qachonlardir bolaligimda, uzoq maktab safarida boshqalardan ajralib – balki o’shanda tush ko‘rgandirman – jazillama kunning o‘rtasida u xlabelotgan shaharga tushib qolganman.... Ammo men bu haqda qanday yoza boshlayman, ulgurmasam-chi... hammaning diqqatini jalb qilsam, yuraklarini o‘z fikrlarim bilan tirnasam va hammasini arosatda qoldirib, meni... U bugun yosh boladay, shoshilib yetib keldi. Men qadimgi she’riyat satrlaridagi kabi fikrlayapman: qo‘riqchilarni mast bo‘lguncha ichirib, u xlabelib tashlaganda va meni saqlab qolganda... U o‘sha bolalarcha fikrlashida qolganda edi. U esa ulg‘ayibdi, tushunibdi. Iloji bor edi, axir: yonayotgan yonoqlar, qop-qorong‘i tun, qochish... qutulish... qutulish... Bu dunyoda menga joy yo‘q, deb xato takrorlayapman. Bor. Topaman! Sahroda gullayotgan o‘simplik. Tog‘ cho‘qqisi soyasida ozgina qor bo‘lsa! Bu kabi xayol surishlar menga zarar. Men shusiz ham g‘oyatda nimjonlashib qolganman. Va oxirgi quvvatlarimni keraksiz narsalarga sarflayapman. Qanchalar zerikarli... judayam zerikarli. Va menga shunisi aniqli, men o‘z qo‘rquvimap eng oxirgi pardasini ochganimcha yo‘q».

U xayol surib qoldi. Keyin qalamni tashlab, o‘midan turdi, yurdi. Olisdan soatning zang urishi quloqqa chalindi. Zang urgani sababli tepaga chiqayotgan qadamlar tovushi eshitildi. Va nihoyat, kameraga sho‘rva ko‘targan Rodion va janob kutubxonachi kitoblar ro‘yxati bilan kirdilar.

Bu baland bo‘yli, lekin kasalmand tabiatli erkak bo‘lib, qo‘llarini shimining cho‘ntagiga solib turardi. Uning qo‘ltig‘ida ulkan, qalin, jildlangan kitob. Sinsinnat uni ilgari ham bir bor ko‘rish baxtiga mu'yassar bo‘lgan edi.

– Ro‘yxat, – dedi kutubxonachi.

- Yaxshi, qoldiring, men tanlayman. Agar ketmoqchi bo‘lsangiz...
- Ketaman.
- Yaxshi. Unday bo‘lsa, men ro‘yxatni keyinchalik Rodiondan berib yuboraman. Mana bularni esa olib ketishingiz mumkin... Bular qadimgi jurnallar – g‘oyatda go‘zal, toza. Mana bu og‘ir kitob bilan men vaqt girdobiga sho‘ng‘ib ketdim. Men bu kitobning asiriga aylandim. Menga yana kitob keltiring. Qaysi yillarga taalluqli bo‘lishini yozib beraman. Qandaydir yangiroq roman ham bo‘lsin. Siz ketyapsizmi? Siz hammasini oldingizmi?

Bir o‘zi qolgandan keyin Sinsinnat sho‘rvasini oldiga oldi. Shu bilan barobar ro‘yxatni bir qo‘li bilan varaqladi. Ro‘yxatning asosiy qismi ozoda va tartibli terilgan edi; terilgan matn orasida ko‘plab sarlavhalar qo‘lda, kichkina harflarda siyoh bilan aniq-tiniq bitilgan. Agar mutaxassis bo‘lmasa, kitoblar ro‘yxatini – kitoblar nomlari joylashishi tufayli – tushunish qiyin edi. Ro‘yxat alifbo bo‘yicha emas, balki sahifalar soniga qarab tuzilgan. Shu sababli Sinsinnat, biron ta nom yoqib qolar, degan niyatda, aniq bir maqsadsiz, ro‘yxatni varaqladi. Ro‘yxat g‘oyatda ozoda saqlangan; hayratlanarlisi shundaki, dastlabki sahifalarning oppoq betlaridan biriga bolalar qo‘lida qalam bilan bir surat chizilgandiki, uning sirini Sinsinnat dastlab anglay olmadidi.

V

– Sizni chin yurakdan tabriklashga ruxsat bering, – moyli ovoz bilan direktor Sinsinnatga yuzlandi, ertasiga ertalab uning kamerasiga kirarkan.

Rodrig Ivanovichning kiyimlari har kungiga nisbatan ham tartibliroq, tantanaliroq edi. U tantanali tarzda ostonada to‘xtadi. Bayram kiyimidagi va kayfiyatidagi qamoqxona xizmatchilari ham unga qiziqish bilan qarab turishardi. Rodion hatto qandaydir orden ham taqib olgan.

– Men tayyorman. Hozir kiyinaman. Bugun yuz berishini bilar-dim.

– Tabriklayman, – takrorladi direktor, Sinsinnatning harakatlanib qolganiga ahamiyat bermay. – Aytishim mumkinki, bugundan boshlab sizning qo‘shningiz bor. Ha, ha, u hozir keldi. Kutib qolganmidingiz? Hechqisi yo‘q, endi sheringizingiz bor. Birga o‘ynaysiz, nimalar

bilandir shug‘ullanasiz, hangama qilasiz, xullas, zerikmaysiz. Bundan tashqari, albatta, oramizda sir bo‘lib qolishi kerak – aytishim mumkinki, sizga xotiningiz bilan uchrashishingiz uchun ruxsat berishdi.

Sinsinnat yana yotog‘iga o‘zini tashladi va dedi:

– Bu juda yaxshi. Sizdan minnatdorman, qo‘g‘irchoq, aravakash, iflos... Kechirasiz, men ozroq...

Kamera devorlari – chayqalgan suvdagi aksingiz kabi – aji-buji tarzda qiyshayib, buklanib borib kelaverdi va yotoq qayiqqa aylandi. Sinsinnat yiqilib tushmaslik uchun, yotoqning bir burchini tutib qoldi, ammo baribir minglab o‘rgimchakmisol gullar orasida suzib ketdi, yo‘lini topolmay qoldi va hatto cho‘ka boshladи. Bilaklarini shi-margan, qo‘llarida uzun xoda tutgan odamlar uni ko‘rsatishgancha, qirg‘oqqa olib chiqishdi.

– Bizlarning asabimiz kichkina juvonnikiday chatoq, – dedi kulisimrayotgan qamoqxona shifokori, uning o‘zi Rodrig Ivanovich. – Erkin nafas oling. Istagan narsangizni yeishingiz mumkin. Tunlari terlaysizmi? Ana shu taxlit harakatlaringizni davom ettiravering. Va agar yaxshigina bo‘ysunuvchan bo‘lsangiz, balki,.. balki bir ko‘z bilan yangi mahbusga... ha, faqat bir ko‘z bilan..

– Uchrashuvga qancha vaqt berishadi? – zo‘rg‘a ovoz chiqarib so‘radi Sinsinnat.

– Hozir... hozir... mazkur uchrashuv... shoshmang, haya-jonlanavermang. Uchrashtiramiz, deb va‘da berdikmi, demak, uchrashtiramiz. Boshmog‘ingizni iling, sochlaringizni tarang. O‘laymanki, agar... – Direktor savol nazari bilan Rodionga qaradi, Rodion ma’qullab, bosh irg‘adi.

– Faqat, iltimos, tinchlik saqlansin, – u yana Sinsinnatga o‘girildi. – Qo‘llaringiz bilan hech narsani ushlamang. Turing, qani, o‘mingizdan turing. Otaginam, bunga sizning hali haqqingiz yo‘q edi, siz o‘zingizni juda yomon tutyapsiz, ammo shularga qaramay, sizga ruxsat berishdi... Endi bir og‘iz so‘z demang, asta...

Shovqin chiqarmay, oyoq uchida, qo‘llari bilan yurishini baravar-lashtirib, Rodrig Ivanovich tashqariga chiqdi, Sinsinnat unga ergash-di. Dahlizning narigi tomonida ulkan, vahimali eshik oldida Rodion egilib turarkan, eshik tuynukchasining pardasini ko‘tarib, qaradi. Ko‘z umzay, yanada tinchroq turishlarini talab qilib, ishora berdi va sezdirmay ishorasini chorlashga almashtirdi. Oyoq uchida turgan

direktor yanayam ko‘proq avaylandi, Sinsinnatga ifodali tarzda noroziligini bildirdi, ammo Sinsinnat ozgina shovur-shuvursiz turishning ilojini qilolmadi. U yoq-bu yoqda, nim qorong‘i o‘tish yo‘laklarida qandaydir qamoqxona xizmatchilar egilishar, qo‘l uchlarini chakkalariga tirab, bir-birlarini sharaflashardi. Laborant Rodion Rodrig Ivanovichni «tuynukcha»ga chorladi. Rodrig Ivanovich belini qisirlatib, egilgancha, tuynukchaga ko‘zini tiradi... Bu orada nimqorong‘i tevarak-atrofda noma'lum kishilar ovoz chiqarmay, u-bu tomonga shoshilib o‘tishar, ovozsiz bir-birlarini chaqirishar, qator bo‘lib uzun safga tizilishib, o‘z joylarida oyoq bosishardi. Nihoyat, direktor asta tisarildi va Sinsinnatni yengilgina yengidan tortib, tuynukchaga taklif qildi. Sinsinnat avaylanib, yorug‘ tuynukchaga yopishdi. Avvaliga u faqat taram-taram quyosh ko‘piklarini ko‘rdi. Keyin esa o‘z kamerasidagi kabi yotoq. Yotoq yonida yoniq pistonli jomadonlar va yana bir narsalar turardi....

– Xo‘s, nimanidir ko‘rdingizmi? – shivirladi direktor, uning qulog‘i yoniga egilib.

Sinsinnat bosh qimirlatdi, holbuki, hali kerakli narsani ko‘rmagandi. Nigohini boshqa tomonga burdi va o‘shanda hammasiga ko‘zi tushdi.

Stol yonidagi stulda o‘ttiz yoshlari atrofidagi soqolsiz, eski odatlar bo‘yicha, ammo ozoda, yo‘l-yo‘l kiyim-boshga chulg‘angan semiz bir odam qimirlamay o‘tirardi.

– Yetarli, – shivirladi direktor kulimsirab, – men ham ko‘rishni xohlayapman, – va u yana tuynukchaga yopishdi.

Rodion ko‘z ishorasi bilan bu yerdan ketish kerakligini tushuntirdi. Xizmatchilararning sharpamisol qomatlari qatorlashib, yaqinlashardi: direktor ortida qiziquvchilar to‘dasi hosil bo‘ldi. Ayrimlari o‘zlarining katta o‘g‘illarini yetaklab kelishibdi.

– Sizlarni erkalatib yuboryapmiz, – to‘ng‘illadi Rodion va Sinsinnatning kamerasi eshigini usoq vaqt ocholmadi va hatto qattiq rus iborasi bilan «siyladi» va bu ish berdi.

Hammasi tinchidi. Hammasi odatdagi kun tarziga qaytdi.

– Hammasi emas. Ertaga sen kelasan, – dedi Sinsinnat ovoz chiqarib.

«Men senga nima degandim, – u fikrini xayolan davom ettirar ekan, qaltirar, lablari nimalarnidir pichirlardi. – Sen menga nima deysan? Hech narsaga qaramay, men seni sevdim va yana sevaveraman. Keyin

ham aynan seni sevaveraman, – u tizzaladi, yelkalarini ortga tashladi, g‘ozday bo‘yni asabiy cho‘zildi. – Va qachonlardir bizning oramizda ham haqiqiy tushunish yuz beradi. Ana o‘sanda biz birlashamiz, bir-birimizning yelkamizga suyanamiz va o‘zaro boshog‘riq muammola-rimizni hal qilamiz.

Sinsinnatni esnoq tutdi – ko‘z yoshlari yonoqlaridan pastga dumalari va yana, yana og‘zida shish paydo bo‘ldi. Asabdan bu – uxlash yoq-mayotgandi. Ertagacha o‘zini nima bilandir ovutish kerak: ro‘yxatni qaytarib bermagani sababli yangi kitoblarni hali keltirishmad... Ha, suratlar! Endi ertalabki uchrashuvning yorug‘ligi ostida...

Shak-shubhasiz, Emmochka bir qator suratlarni chizib tashlabdi. (Sinsinnatga tuyulishicha) ular birgalikda, biri ikkinchisini davom et-tiruvchi bitta hikoya, va’da, orzular ramzi edi. Avval gorizontal chi-ziq, ya’ni tosh yer, tosh yerda – oddiy, o‘rgimchakka o‘xhash stul, tepada esa olti qatorli panjaradan iborat daricha. Yana o‘sha holatning o‘zi, ammo bu yerda to‘lin oy ishtirok etyapti. Keyin: uch chi-ziqli taburetkada ko‘zsiz turma egasi. Demak, uxlayapti. Yerda esa olti kalitni birlashtirgan sirg‘a. Bu yog‘i qiziqarli davom etadi: eshik yarim ochiq, u yerda chiqib ketayotgan mahbus. Uning boshida jin-galak soch o‘rniga vergullar, qoramtil xalat kiygan. Uni bir qizcha yetaklayapti: sanchqi bashara oyoqlar, to‘lqinsimon ko‘ylak, bir xil uzunlikdagi sochlari. Xuddi shuning o‘zginasi, ammo rejali asosda kameraning to‘rt burchagi, dahlizning qiyaligi va oxirida pillapoya-larning enishi. Va nihoyat, yakun: qoramtil minora va uning tepasida to‘lin oy.

Yo‘q, bu o‘z-o‘zini aldash, ahmoqgarchilik. Yosh bola-da, ko‘ngliga nima kelsa – chizavergan... Sarlavhalarini ko‘chirib olamizza, ro‘yxatni bir chetga suramiz. Ha, yosh bola... Tilini o‘ngga chiqarib, chizilaverib, kichrayib ketgan qalamni mahkam tutgan. Qalamni qattiq siqimlayvergani tufayli barmoqlari oqarib ketgan... Keyin esa – chiroqli yakundan keyin – boshini u yoq-bu yoqqa silkitib, ketlarini likillatib, yana qog‘oz ustida egilgancha, shu qadar tirish-qoqlik bilan tilini chap tomonga chiqarib... Tushunib bo‘lmaydi, yaxshisi, bu mavzuni yopamiz...

Sinsinnat erinchoq vaqtini qanday tiriltirish va band qilish yo‘llarini izlab, ertaga Marfinka kelishiga tashqi ko‘rinishini tartibga olmoqchi, yuvinmoqchi bo‘ldi. Rodion unga kerakli narsalarni yetkazishga rozi

bo‘ldi. Sinsinnat suv kutib, stol ortiga o‘tirdi. Stol bugun ozroq qal-tanglab turardi.

«Uchrashuv, uchrashuv, – yozdi Sinsinnat, – tushunarliki, agar adashmasam, mening oxirgi muddatim yaqin. Ertadan keyin mana shu fursatda mening kameram bo‘sh bo‘ladi. Ammo men seni ko‘rsam, baxtiyor odamga aylanaman.

Biz ustaxonaga ikkita, ikki xil pillapoyalar vositasida ko‘tarildik, bittasidan erkaklar, ikkinchisidan – ayollar. Men endi Marfinkani birinchi bor ko‘rganimdagi holida qayta uchratmayman. Ammo darhol angladimki, u kulishidan bir lahma oldin og‘zini bekitishga ulguradi. Dumaloq, qisiq ko‘zları, yaltiroq sirg‘alari... O, qaniydi, uni yana o‘sha holatda tasavvur qila olsam: mutlaqo pokiza, mutlaqo ozoda holida. Uning dunyosi. Uning dunyosi eng oddiy bo‘laklarning yig‘indisidan iborat. Oshpazlik kitobidagi eng oddiy ovqatning tavsiyasidan-da oddiyroq. Bu ovqatni u qo‘sish aytib pishiradi – har kuni o‘zi uchun, men uchun, hamma uchun. Ammo o‘sha birinchi kunlardanoq undagi akslik va norozilik kayfiyati qanday paydo bo‘ldi... nogoh... Mayin, muloyim, rohatbaxsh va nogoh... Avvaliga u menga nisbatan ataylab erkalik qilayotganday tuyuldi. Uning o‘rnida boshqasi bo‘lganda allaqachonlar oq shallaqi, besabr xotinga aylanishi mumkinligini shu taxlit tushuntirmoqchi bo‘lyapti, deb o‘yladim. Keyin uning aslida shunaqaligini payqab qoldim. Qanday qilib u o‘z asl mohiyatini shunchalar ustalik bilan yashirib, o‘zini begunoh musicha shakli-da taqdim eta olishiga tahsinlar o‘qidim. «Sizning xotiningiz silliq va muloyimday tuyuladi, ammo ayovsiz qopadi», degan edi menga uning unutilmas birinchi o‘ynashi. – Bunday olganda, uning gaplari o‘xshatish emas, balki xotinin haqiqatda shunaqa edi. «Marfinka bugun yana...» – bir safar men ko‘rdim, rovondan ko‘rdim va o‘shandan keyin biron marta ham uning xonasiga indamay kirib bormaydigan bo‘ldim. Yo‘l-yo‘lakay, tomoq qiraman yoki nimanidir sharaqlataman, xullas, uning huzuriga borayotganimni bildirib, keyin kiraman. Tamara Bog‘larining yashirin hududlarida mutlaqo meniki bo‘lgan bu ayol menga mutlaqo tegishli emasligini anglab yetish nihoyatda dahshat edi. Va men uni yo‘qotdim. Nechtalar uning mehmoni bo‘ldi, sanog‘iga yetish qiyin... Umrboqiy azob bu: har kuni tushlik payti stol atrofida uning navbatdagi o‘ynashi bilan betma-bet o‘tirish, o‘zingni xushmuomala qilib ko‘rsatish, kulib, hangamalar berish – nimadir

sabab bilan tushirib yuborgan narsangni olish uchun stol ostiga egilish – o‘limdan battar azob. Negaki stol ustida chiroyli, tarbiyalı bo‘lib o‘tirgan bu erkak va xotinning beliga qadar yalang‘och oyoqlari stol tagida bir-biriga chalkashib yotardi... Men tushirib yuborgan dastro‘molimni olish uchun bu jahannamga egildim. Marfinka keyincha bu holat borasida o‘z-o‘ziga dedi: «Bizning bu holatimizni ko‘rganlari uchun biz (aynan ko‘plik ma’nosida) juda qattiq uyaldik», dedi va lablarini jiyirdi. Va shuning bariga qaramay, men seni sevaman. Men seni ilojsiz, o‘nglab bo‘lmaydigan, o‘ldiradigan darajada sevaman. Toki o‘sha bog‘larda zarang daraxtlari mavjud bo‘lar ekan, men seni... Senga ochiq-oshkora meni yonida ko‘rishni istamasliklari ni, mendan uzoqroq turishga intilishlarini bilganingda – sen go‘yo hech narsani payqamaganday hayron bo‘lding. Axir, buni sendan sir saqlash juda oson edi-ku! Mening tuzalishimni juda qattiq istading, menga yalinding. Ammo men nimadan tuzalishim lozimligini va buni qanday amalga oshirishim mumkinligini mutlaqo bilmasding. Hatto bu haqda o‘ylab ham ko‘rmaysan, tushunmaysan va tushunishni istamaysan ham. Ammo hayron bo‘laverasan, hayratlanaverasan. Lekin sud maslahatchisi shlapasini yechib, odamlar oralaganda sen o‘z pulingni unga tashlading».

Sinsinnat bir-ikki keskin harakat bilan – uf tortdi va yozilgan varaqlarni chetga surdi. O‘zining ko‘rimsiz sandig‘idan eski, ammo toza sochig‘ini oldi. Sinsinnat shunchalar kichkina va ensiz edi-ki, u bemalol kir tog‘oraga sig‘ib, o‘tira olardi. U tog‘oraga o‘tirdi va jimgina suza boshladi. Qizarinqiragan kechki yorug‘lik shu’lasi ko‘tarilayotgan parga aralashib, tosh kamera dunyosida turfarang tebranishlarni taqdim etdi. Suzib bo‘lgandan keyin Sinsinnat quruqlikka chiqdi. Ust-boshini artayotib, boshi aylanayotganini, yuragi behuzur bo‘layotganini his qildi va o‘zini tutishga urindi. U judayam oriq edi va hozir, panjara orqali bo‘laklarga taralib tushayotgan kechki quyosh nurlari uning qovurg‘alarini bitta-bittalab sanardi, ko‘rimsiz ko‘kragidan itarardi. O, bechora Sinsinnat! Surtinayotib, o‘zini o‘zi chalg‘itishga urinayotgan Sinsinnat o‘zining badaniga sinchkov nazar tashladi va nogahon tez kunlarda ichida bor narsalarni siqib chiqarishlari mumkinligini o‘yladi. Har qalay, uning suyaklari juda yengil, nozik edi. Oyoqlaridagi tirnoqlarining uchlari go‘yo uning holatini nazorat qilmoqchiday, tepaga ko‘tarilgandi. Va u shu holatda karavoti-

da yalang‘och o‘tirgancha, nozik belidan to ingichka bo‘yinlarigacha eshik tuynugidan tomosha qilib turgan nazoratchilarga ko‘rsatganda, eshik ortida shivirlashlar, oh-vohlar ko‘payib ketardi. Sinsinnatni kasaalmand, chalajon bir murdaga qiyoslashardi. O‘zaro muhokama qilihardi. Sinsinnat o‘sha sandiqchasidan ko‘zgu va bir shisha idishda xushta’m ovqat oldi. Bu narsa hamisha Marfinkaning yonida yotadigan jundor ayiqchani eslatardi.

Mana endi hammasi yaxshi, toza-ozoda. Chuqur nafar oldi va salqin, hali uy hidlari ufurib turgan tungi ko‘ylagini kiydi.

Qorong‘i tusha boshladi. U yotar va hamon suzishda davom etardi. Har kungi vaqtida Rodion chiroqni yoqdi, paqir va kirtog‘orani yig‘ishtirdi. O‘rgimchak o‘z to‘ri yordamida uning yoniga o‘rmalab keldi va barmog‘i ustida to‘xtadi. Rodion u bilan suhbatlasha boshladi. Dahlizga chiqadigan eshik esa qiya ochiq turar va u yerda qandaydir sharpa ko‘zga tashlandi. Rodion tepaga qarab o‘rmalab ketgan mittigina akrobatga tikilgancha, yura boshlaganda sharpa ko‘zdan yo‘qoldi. Eshik hamon qiya ochiqligicha turardi. Og‘ir-bosiq, teri peshbandli, jingalak-qizil soqolli Rodion kamera bo‘ylab sekin yurardi. Soat zang chalishi oldidan bir xirillab olganda u belining qayeridandir o‘zinikini chiqardi va solishtirdi. Keyin Sinsinnat uxlayapti, deb o‘ylab, supurgiga tayangancha, anchagina uzoq muddat unga tikilib turdi. Nimalarni o‘ylagani noma’lum. Va nihoyat, o‘rnidan yana qo‘zg‘alishga qaror qildi... Shu payt eshikdan qizilsariq rezina to‘p shovqinsiz yumalab kirdi, yotoq tagiga kirib, bir muddat ko‘zdan yo‘qoldi, nimagadir urildi va yotoqning boshqa tomonidan dumalab chiqdi. Rodion uni payqamadi va yuraman deb, o‘zi bilmagan holda, to‘pni tepib yubordi. To‘p o‘zi kirgan qiya ochiq eshikdan uchib, qaytib chiqib ketdi. Rodion supurgini yelkasisga qo‘yib, kameradan chiqdi. Shiroq o‘chdi.

Sinsinnat uxlamayotgandi. Yo‘q, uxlamayotgandi. Oh-voh bilan o‘rnidan qo‘zg‘aldi va mana, yana uxlamayapti. Hammasi aralash-quralash bo‘lib ketdi. Marfinka – to‘nka, latta va yana qanday atash kerak? Qatlmi, uchrashuvmi? Hammasi aralashib ketdi, ammo u – kamera chirog‘ini yoqishgani sababli – yana bir muddat ko‘zlarini, yuzini bujmaytirdi. Rodion oyoq uchida kirib, stol ustidagi qora rangli kutubxona ro‘yxatini oldi, qaytib chiqdi, chiroq o‘chdi.

Nima edi bu? – barcha tungi dahshatlar aro, burilib, chetlab bo‘lmaydigan voqealar aro – nima edi? U ongidagi barcha qora jihatlarni quvdi, yorug‘likka, ravshanlikka intildi. Qanday yaxshi, rohatbaxsh, kishiga qanot bag‘ishlaydigan uchrashuv bo‘ladi bu, yuragi orziqib boryapti: ertalab Marfinka keladi!

Teatrtdagi kabi, Rodion laganda qip-qizil yozuvni ko‘tarib kirdi. Sinsinnat bir chetga amal-taqal o‘tirib, o‘qidi: «Million marta uzr! Kechirib bo‘lmaydigan xatolik! Qonun moddalari bilan solishtirib ko‘rib, aniqladikki, uchrashuv suddan bir hafta o‘tgachgina berilishi mumkin ekan. Xullas, keyingi kunga qoldiramiz. Sog‘ bo‘ling, omon bo‘ling, biz chin yurakdan sizga sog‘lik tilaymiz. Budkalar uchun keltirilgan bo‘yoqlar hech narsaga yaramas ekan, bu haqda men yozganman, ammo natija bo‘lmadi».

Rodion Sinsinnatga qaramaslikka tirishib, stol ustidagi idish-tovoqlarni yig‘ishtirardi. Havoning avzoyi yaxshi emasdi, shekilli, ichkariga kirayotgan yorug‘lik xira tortgan, Rodionning qoramtil charm kiyimi esa ivigan, ho‘lday bo‘lib tuyulardi.

– Bo‘pti-da, – dedi Sinsinnat, – marhamat, marhamat, nima-yam qila olardik... Ertaga bo‘lsa, ertaga-da... Men baribir hech narsa qilolmayman. (Boshqa Sinsinnat esa buklangancha, uvvos tortib yig‘lardi.) Ammo men chaqirishingizni so‘rayman...

– Hozir, hozir, – dedi Rodion hozirlik bilan, go‘yo shu talabni kutib turganday, yugurgilab chiqarkan va salgina ertaroq kelib, eshik ortida toqati toq bo‘lib kutib turgan direktor bilan to‘qashib ketdi.

Rodrig Ivanovich devorga ilinadigan taqvim ko‘tarib turardi va uni qayerga qo‘yishni bilmayotgandi.

– Million marta uzr, – qichqirdi u, – kechirib bo‘lmaydigan ahmoqgarchilik! Qonun moddasi bilan solishtirib bildikki... – jo‘natgan qog‘ozidagi gaplarini so‘zma-so‘z takrorladi Rodrig Ivanovich, Sinsinnatning oyoqlari tomonga o‘tirarkan va shoshilinch qo‘sib qo‘ydi:

– Har ehtimolga qarshi aytib qo‘yishim kerak: siz ustimizdan arz qilish huquqiga egasiz. Ammo ogohlantirish menim burchimki, eng yaqin yig‘in kuzda bo‘ladi va unga qadar ko‘p suvlar oqib ketishi mumkin. Tushundingizmi?

– Men arz qilmoqchi emasman, – dedi Sinsinnat, – ammo sizdan so‘ramoqchiman: siz o‘z va’dangizni bajarishingizga ishonishim mumkinmi?

– Va‘da? – hayron bo‘ldi direktor, taqvimning qattiq qismi bilan o‘zining atrofini silkishni to‘xtatib. – Qanaqa va‘da?

– Xotinim ertaga kelishi haqidagi va‘da. Mayli, siz menga to‘liq kafolat bermang, mayli, men savolni kengroq qo‘yaman: va‘dani bajarishning tag‘in qandaydir jihatlari bormi bu yolg‘onchi dunyoda? Va umuman, kafolat degan g‘oyaning o‘ziga kafolat bormi?

Jimlik.

– Bizning kambag‘al Roman Vissarionovich, – dedi direktor, – eshitdingizmi? Yotib qoldi, shamolladi va ehtimol, ahvoli ancha jiddiy...

– Men sezyapmanki, siz aslo mening savolimga javob bermoqchi emassiz; bunisi tushunarli. Negaki mas’uliyatsizlik oxir-oqibat shunday mantiqni dunyoga keltiradi. Men o‘ttiz yil qalin sharpalar, ajinalar orasida yashadim va shu dunyoda tirikligimni yashirdim. Ammo endi men qo‘lga tushganimda, sizdan andisha qiladigan hech narsam qolmadi.

Direktor yo‘taldi va go‘yo hech narsa bo‘lmaganday, davom etdi:

– Shunchalar jiddiyki, men vrach sifatida aytaman: uning sog‘ayib ketishiga ishonchim daqiqa sayin kamayib bormoqda.

– Ketinglar, – dedi Sinsinnat zo‘riqib.

– Ruhingizni cho‘ktirmang, – dedi direktor. – Ertaga, ertaga orzungiz ro‘yobga chiqadi... Yaxshigina taqvim, to‘g‘rimi? Badiiy ish. Ammo buni sizga keltirganim yo‘q.

Sinsinnat ko‘zlarini yuminqiradi. U yana ko‘zlarini ochganda, direktor xonaning o‘rtasida unga orqa o‘girib turardi. Stulda hamon, hoynahoy, Rodionning charm etigi va qizg‘ish soqoli yotardi.

– Sizning yotoqxonangizni bugun alohida tozalash kerak, – dedi u, burilmasdan, – ertangi uchrashuv oldidan hammasini tartibga keltirish kerak... Hozir polni yuvarkanmiz, sizdan iltimos qilmoqchimanki... iltimos qilmoqchimanki...

Sinsinnat yana yuzini bujmaytirdi, ovoz esa davom etdi.

– Siz dahlizga chiqib turishingiz kerak. Bu uzoq davom etmaydi. Biz ertangi uchrashuvningiz toza, ozoda, tantanali ravishda yorug‘ ko‘ngil bilan o‘tishi uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

– Chiqib keting, – dedi Sinsinnat, o’rnidan qo‘zg‘alib, a’zoyi badi ni titrarkan.

– Iloji yo‘q, – aniq-tiniq javob berdi Rodion, etakning iplarini beliga taqishga urinarkan. – Bu yerda ishlashimizga to‘g‘ri keladi. Changni qarang... Keyin minnatdor bo‘lasiz.

U kissasidagi ko‘zguni olib, o‘ziga qaradi, yonoqlariga soqol taqdi. Va nihoyat, yotoqqa baqamti borib, Sinsinnatning kiyimlari ni kiyishi uchun oldiga tashladi. Boshmoq ichiga ataylab buklangan qog‘oz solib qo‘yilgan. Xalat etaklari esa chiroyli buklangan va taxlangan. Sinsinnat tebrangancha, Rodionga sal-pal suyanib, kiyindi va dahlizga chiqdi. Dahlizda kasallarga o‘xshab, yeng uchlarini bir-biriga kiyishtirib, kursiga o‘tirdi. Rodion xona eshigini lang ochiq qoldirgancha, supur-sidirini boshladi. Stulni stol ustiga qo‘ydi; yotqodan yopinchiqni oldi; paqir idish shiqirladi; yelvizak stol ustidagi qog‘ozlarni pirpiratdi va bir varaq yerga uchib tushdi.

– Buncha shalvirab qoldingiz? – qichqirdi Rodion, ishidagi shovqin tufayli ovozi eshtarli bo‘lishi uchun. – Oz-moz sayr qilib kelsangiz bo‘larmidi dahliz bo‘ylab... Qo‘rqmang, men shu yerdaman, biron gap-so‘z chiqsa, chaqirasiz, yetib boraman.

Sinsinnat bo‘ysunuvchan tarzda kursidan turdi, ammo sovuq devor bo‘ylab bir necha qadam – qanaqa qadamlar edi bular! – bo‘ysunuvchan, amal-taqal, qaltiroq qadamlar tashlar-tashlamas, Rodion turgan joyni – ochiq eshikni aniqlab ulgurmay, Sinsinnat ozodlik shabadasini his qildi. Burchakdan burilganda shabada shamolga aylandi. Bir o‘zi yurib o‘rganmagan Sinsinnatning oyoqlaridan mador ketdi, biqinida og‘riq turdi.

Ana shunda Sinsinnat to‘xtadi va alanglab, butun ichki quvvatini bir joyga jamlab, o‘z hayotini bor bo‘yicha tasavvuriga joyladi va o‘z holatini yana bir bor anglashga harakat qildi. Jinoyatlarning eng dahshatli turida, shunchalar kamyob va talaffuzi qiyin – jirkanch gnoseologiyada ayblangan (ya’ni dunyoni anglashdagi imkoniyatlar va chegaralar haqidagi fan bu). Sinsinnatning aybi shuki, uni tushunib bo‘lmaydi, ya’ni atrofidagilar uni tushunmaydilar. Ana shu aybi tufayli u o‘lim jazosiga hukm qilindi. Ana endi qamoqda o‘tirib, hukm ijrosini kutyapti. Mana u, dahlizda, vujudi muzlab boryapti, ammo hali tirik, u ozodlikning yovvoyi chaqirig‘ini aniq-tiniq his qildi. Ozodlik chaqirig‘i shunchalar kuchli va yoqimli ediki, go‘yo hamma narsa

u ko'rib yurganiga nisbatan yorug'roq, yoqimliroq tuyula boshladi. Qamoqxona dahlizida turgancha, soat zangining bong urishiga qulqoq tutib, u shahar hayotini tasavvur qildi: tonggi soatlar. Marfinka nigo-hini pastlatib, qo'llarida savat tutgancha yo'lda ketyapti, uch odim ortida qora mo'ylovli olg'ir yigit; Marfinka mevalarni saralayapti; qiltanglab qolgan, qovurg'alari sanalib turgan, jahannamning barcha azoblariga ko'nikib bo'lgan otlar shahar bo'ylab fabrikalardan chiqarilgan mahsulotlarni tarqatishyapti; oq xalat kiyib olib, ko'chada non sotuvchilar bor ovozda xaridor chorlashyapti; deraza tagida o'tirgan to'rt nafar soqoltoy telegrafchilar o'tgan-ketganlarning sog'ligi uchun qadah cho'qishtirib, ichyaptilar; Marfinka nigohlarini pastga qadab, to'ldirilgan savatini ko'targancha, uyga qaytyapti. Ikki qadam ortida oqovadan kelgan olifta... Soat bong urgani orasida Sinsinnat turma dahlizida turib, yopiq devorlar osha ana shu holatlarni tasavvuriga sig'dirdi. Aslida Sinsinnatning sirli hayoti bilan solish-tirganda shahar o'lik va ezb'ilanib, ado bo'lgan edi. U hech qanday umid yo'qligini mutlaqo aniq-ravshan bilsa-da, har qalay shu lahzada o'sha tanish ko'chalarda yana bir bor bo'lgisi kelib ketdi. Mana, soat bong urib bo'ldi, xayoliy osmonni bulut qopladi va qamoqxona yana o'z holatiga qaytdi.

Sinsinnat nafasini ichiga yutdi. Yurdi, yana to'xtadi va qulqoq tutdi: qayerdadir oldinda devorning do'qillashi eshitildi.

Bu bir alfovza davom etayotgan do'qillash edi. Sinsinnatning butun vujudi hapriqib ketdi, do'qillashda chaqiriq tuydi. U diqqatini bir joyga jamlab, yo'lida davom etdi. To'qillash to'xtadi, keyin yaqinroq joyda yana davom etdi. Sinsinnat yurishini tezlatdi, navbatdagi burilishdan ham o'tdi. Nogoh yorug' joyga chiqib qoldi. To'g'ri, kunduzgi yorug' emas – va mana, do'qillash.bir maromda, osoyishta davom etardi. Oldindagi xira yorug'lik ostida Emmochka devorga to'p otib, o'ynayapti.

Bu joyda yo'lak keng bo'lgani uchun Sinsinnatga chap devorda katta, chuqur deraza bordek tuyuldi. Aynan o'sha yerdan g'alati qo'shimcha yorug'lik tushardi. Emmochka to'pni olish uchun egildi, birato'la paypog'ini ham to'g'riliadi va tevarak-atrofga ayyorona alangladi. Uning yalang'och qo'llarida hamda tirsaklarida yorqin tuklari dik turib ketgandi. Oqish kipriklari ostida ko'zlar yaltirardi. Mana, u qaddini rostladi.

– Bu yerda yurish mumkin emas, – dedi u. Uning og‘zida nimadir bor edi.

– Nimani shomyapsan? – so‘radi Sinsinnat.

Emmochka tilini chiqardi; tilining uchida yarqiroq muz bo‘lagi turardi.

– Menda yana bor, – dedi u, – xohlaysizmi?

Sinsinnat bosh irg‘adi.

– Bu yerda yurish mumkin emas, – takrorladi Emmochka.

– Nega? – so‘radi Sinsinnat.

Emmochka yelka qisdi va salanglab, to‘p tutgan qo‘lini engashtirib, chuqur deraza borday tuyulgan joyga uni yetakladi.

Yo‘q, bu joyda deraza yo‘q edi; bor-yo‘g‘i daricha, narigi tomonda esa... g‘oyatda go‘zal, jannatmakon Tamara Bog‘lari...

– Nima bo‘lgandayam, meni o‘sha yoqlarga olib bor, iltimos qilaman. – U Emmochkaning yonida, tosh ustida o‘tirar va shivirlardi.

– Otam kelyapti, – nogoh xirillab dedi Emmochka va sakrab turgancha, qayergadir kirib ketdi.

Haqiqatan ham Sinsinnat kelgan tomonga qarama-qarshi tomonidan Rodion yaqinlashardi. Qo‘llaridagi kalitlari shaqirlayapti.

– Uyga kirsangiz bo‘larmidi, – dedi u hazillashib.

Chiroq o‘chib qolgan edi. Sinsinnat kelgan iziga qaytish uchun bir qadam tashladi.

– Qayoqqa yuryapsiz, – qichqirdi Rodion, – to‘g‘riga yuring, shu yo‘l yaqin.

Ana shundagina Sinsinnat tushundiki, dahlizning tirsaklari hech qayoqqa olib ketmaydi, balki ko‘plab burchaklardan iborat. Ya’ni u birinchi burchakka burilishi hamono o‘z eshigiga duch keldi. Unga yetmasdan, yangi mahbus joylashgan kamera yonidan o‘tdi. Uning eshigi lang ochiq turar, shu sababli yo‘l-yo‘l kiyim kiygan, ko‘zga yoqimli pakana odam stulga chiqqancha, devorga taqvim qoqardi.

– Ko‘p termilavermang, o, chiroylı qız, – dedi xushhol Rodion, – uyingizga yuring, uyingizga. ... Ooo, qanchalar saranjomsarisha xonangiz, mehmon kutishgayam uyalmaysiz endi.

Naqadar musaffo tong! Erkin, burungi turtinish-surtinishlarsiz u kuni kecha Rodion tomonidan yuvib-artilgan panjaralari darchali kameraga kirib keldi. Sariq, yopishqoq devorlardan yangi ko'chish hidi anqib turardi. Stol ustida yangi dasturxonning hali qatlari tarqalmagan. Tosh yer yaxshilab, tozalab yuvilgani tufayli favvora salqinligi ufuradi.

Sinsinnat sandiqchasida mavjud bo'lgan kiyim-boshlarining eng yaxshisi, eng tozasini kiyib oldi. Pedagog sifatida ruxsat etilgan uzun oq paypoqlarini kiyayotganida Rodion direktor bog'idagi ho'l billur vazani olib kirdi va stolning o'rtasiga qo'ydi. Yo'q, o'rtasiga emas; tisarilib chiqdi va bir daqiqadan so'ng kursi va qo'shimcha stul bilan qaytib kirdi va shunchaki tashlamadi. Ularni shu qadar bilimdonlik bilan joyladiki, havasing kelardi. U bir necha bor kirib chiqdi, lekin Sinsinnat undan «Qachon keladi?» deya so'rolmadi. Bunday paytda kutishdan azob narsaning o'zi yo'q: uchrashuvga tayyorsan, ustingdagi kiyimlaring dazmollangan, yuvinib-tarangansan, hammasi tayyor, ammo... – goh o'tirar, betoqatlanib, goh turib ketardi, ammo qiladigan ish yo'q, o'zingni urgani joy topolmaysan, g'azabingni hech kimga socholmaysan, toqatsizliging hech narsani hal qilmaydi.

Nihoyat, Rodionning unga rahmi keldi va: «Yaqin orada kelib qolishi kerak», dedi.

Soat roppa-rosa to'qqizda nogoh Rodrig Ivanovich o'zining paxmoq, kishini haykalsimon ko'rsatuvchi kiyimida, yaqinlashib bo'lmaydigan, tantanavor, bilinar-bilinmas hayajonlangan alfovza keldi-da, katta sigaret kuldonini stolga qo'yib, tayyorgarlikni nazoratdan o'tkazdi. (Faqt Sinsinnatga e'tibor bermadi, aniqrog'i, uni ham tayyorlanayotgan buyumlarining bittasi sifatida bir qarab qo'ydi.) Xonaqi aylanib, xushbo'y atirlarni separkan, oyog'i ostiga chalkashgan Sinsinnatni bepisand, yo'lidan surib o'tdi. So'ngra Sinsinnatga o'girildi:

– Siz-chi? Siz tayyormisiz? Hamma narsangiz bormi? Nega bu yeringiz g'ijimlangan? Obbooo! ...Kaftingizni ko'rsating-chi? Yaxshi. Endi biron ifloslikka chalkashmaslikka harakat qiling. O'ylaymanki, hademay u kirib keladi.

U chiqди, dahlizda uning jarangdor, buyruqdar ovozi eshitildi. Rodion kameraning eshigini ochdi, shu holatda qolishini ta'minladi vaostonaga yo'l-yo'l gilamcha to'shadi.

– Kelyaptilar, – shivirladi u, shodon ko‘z qisarkan va ko‘zdan panaladi.

Mana, qayerdadir qulfga kirgan kalit uch marta sharaqladi, har xil ovozlar eshitildi, yengil shabada esganday bo‘ldi, hatto shabadadan Sinsinnatning sochlari qimirlab ketdi...

U judayam hayajonlanardi va lablaridagi qaltiroq go‘yo tabassum kabi tuyulardi.

– Bu yoqqa marhamat, mana, biz keldik, – eshitildi direktoring jarangdor ovozi va keyingi lahzada u ko‘rindi. U semiz, yo‘l-yo‘l kiyimli mahbusni qo‘ltiqlab kirib keldi. Mahbus xonaga kirishdan oldin epchillik bilan ta‘zim qildi.

– Msye Pyerni tanishtirishga ruxsat eting, – dedi shodlikdan o‘zini qo‘ygani joy topolmayotgan direktor Sinsinnatga.– Marhamat, marhamat, msye Pyer, sizni qanchalar kutishayotganini tasavvuringizgayam sig‘dirolmaysiz... Qani, janoblar, tanishinglar... Uzoq kutilgan uchrashuv... Ibratli tomosha... Jirkanmang, msye Pyer, bizni ayblamang... Uning o‘zi nima deyishni bilmayapti, – og‘ir harakatlanayotgan direktor gapini yo‘qotib qo‘yar, qo‘llarini bir-biriga ishqar, ozgina o‘ng‘aysizlanayotgani anglashilib turardi.

Judayam osuda, o‘zini yig‘ib olgan msye Pyer Sinsinnatning yoniga keldi, yana bir marta ta‘zim qildi va baravariga ko‘rishish uchun bir-birlariga qo‘l uzatdilar. U, ko‘rishib bo‘lgandan so‘ng, odatga xilof ravishda Sinsinnatning tortinayotgan barmoqlarini ushlab turdi.

Qo‘sishq aytayotganday yoqimli ovozda msye Pyer dedi:

– Men ham ko‘rishganidan juda xursandman... umid qilamanki, biz juda yaxshi chiqishamiz.

– Aynan, aynan shunday, – xaxolab kului direktor. – O‘tirsangizchi? Xuddi o‘z uyingizda o‘tirganday, bemalol tutavering o‘zingizni.

Msye Pyer o‘tirdi va angladiki, uning oyoqchalari yerga unchilik yetmayapti, ammo bu holati tufayli aslo salobatini yo‘qotmay, yorug‘, hayotbaxsh ko‘zlarini hurmat bilan Sinsinnatga tikdi. Rodriguez Ivanovich esa stolga o‘tirgancha, xursandligini aslo yashirolmas, mehmonning har bir so‘zidan so‘ng uning qanday ta’sir qilayotganini bilish uchun Sinsinnatni kuzatardi.

Msye Pyer dedi:

– Siz onangizga judayam o‘xsharkansiz. Shaxsan men onangizni ko‘rish baxtiga hech qachon tuyassar bo‘lmaganman, ammo Rod-

rig Ivanovich chin yurakdan u kishining fotosuratlarini menga taqdim etishga va'da berdilar.

– Hech qanday muammo yo'q, – dedi direktor, – topamiz.

Msye Pyer davom etdi:

– Bundan tashqari, men umuman bolaligimdan fotosuratlarga qiziqaman. Mening yoshim o'ttizda. Sizniki-chi?

– Buyam o'ttizda, – dedi direktor.

– Mana, ko'rdingizmi, demak, men to'g'ri topibman. Siz ham shunga qiziqar ekansiz, men hozir sizga ko'rsataman...

U odatiy chaqqonlik bilan kurtkasining ichki ko'krak cho'ntagidan ko'pchib ketgan hamyonni, hamyondan esa eng kichik hajmdagi fotosuratlarning qalin to'plamini chiqardi. Fotosuratlarni bir-bir ko'rib, stol ustiga qartani terganday, bittalab terib tashladi. Rodrig Ivanovich esa ularni qo'liga olar, hayajondan qichqirib, uzoq tomosha qilardi. Va asta-sekin ko'rganini stol chetiga qo'yib, keyingi suratni qo'liga olardi. Holbuki, boshqa hech kim hayajonlanmas va o'rnidan qimirlamay, jim o'tirardi. Bu suratlarning hammasida msye Pyer, yana msye Pyer turli-tuman holatlarda: bog'da, oshxonada, qo'lida tomat idish bilan; nimagadir ketining bir chetini qo'yib, amallab o'tirgancha, nimanidir o'qish bilan band, yonida esa bordoq somon-naycha bilan, bordoqdagi suyuqlikni so'rib ichish uchun...

– Qanday zo'r! Qanday ajoyib! – gapirinardi Rodrig Ivanovich, bosh silkitib, bir suratdan ikkinchisiga o'tarkan. – Qarang-a, qushcha bilan suhbatlashyapsizmi?

– Qo'lga o'rgatilgan, – dedi msye Pyer.

– Qanday yaxshi! Qarang-a! .. Mana bu nima – tarvuz yeyapsizmi, adashmasam!

– Xuddi shunday, – dedi msye Pyer. – Ha, ularni siz ko'rib bo'ldingiz. Mana bularni ko'ring.

– G'oyatda go'zal, men sizga aytasam. Bularniyam menga uzating, u hali bularni ko'rmadi...

– Uchta olma bilan tomosha ko'rsataman, – dedi msye Pyer.

– Zo'r ish bo'lardi! – dedi direktor, tomog'ini taqillatib.

– Nahorgi choy payti, – dedi msye Pyer, – mana bu – men, bunisi esa mening marhum otam.

– Ha, ha, taniyapman. Ajinlarini qarang, g'oyatda oqilona ajinlar!

– Strop daryosi qirg'og'ida, – dedi msye Pyer. – Siz u yerda bo'lgnamisiz? – u Sinsinnatga yuzlandi.

– Menimcha yo'q, – deya javob berdi Rodrig Ivanovich.
– Qayerda olingan bu? Paltasini qarang, naqadar chiroyli. Bilsizmi, men sizga aytsam, siz o'z yoshingizga nisbatan anchayin ulug'vor tuyulasiz. Shoshmang, men yana anavi suratni qaytadan ko'rmoqchiman.

– Xullas,... o'zim bilan olib kelganlarim faqat shular, – dedi msye Pyer va tag'in Sinsinnatga yuzlandi: – Agar men sizning qiziqishingizni bilganimda ko'proq olib kelardim. Menda o'ndan ziyod bunaqa albomlar bor.

– Qanday zo'r, aql bovar qilmaydi, – hayratlanishda davom etardi Rodrig Ivanovich, dastro'moli bilan hayajonlari va hayratlari tufayli yoshaqlangan ko'zlarini artarkan.

Msye Pyer hamyonini yig'di. Nogoh uning qo'lida bir to'p qarta paydo bo'ldi.

– Tanlang, marhamat, xohlaganingizni, – taklif kiritdi u, qartalarni stol ustiga bittalab terarkan, tirsagi bilan kuldtonni bir chetga surib.

– Biz tanladik, – dedi direktor tantanavor.

Msye Pyer ozgina ahmoqona qiliqlar qildi, keyin qartalarni tezlik bilan yig'ib olib, qarta uyumini silkiladi va stolga uch qarg'ani chiqarib tashladi.

– Judayam hayratlanarli, – dedi direktor ajablanib. – Afsungarlik-mi bu?

Qarta uyumi qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday tezlik bilan yo'qoldi va msye Pyer hech narsa sodir bo'lmaganday, jiddiy tarzda dedi:

– Doktorga kampirsho kelibdi: mening, deyapti, janob do'xtir, kasalim juda jiddiy. Bu kasal meni o'ldirib qo'yadi-yov, deb qo'rqaqman...

– Nega bunday deyapsiz? – so'rabdi doktor.

– Boshim qaltirab boryapti, janob do'xtir, debdi, – deya msye Pyer kampirning holatini tasvirladi.

Rodrig Ivanovich yovvoyilarcha xaxoladi, hayratdan o'zini to'xtatolmay, stolni mushtladi, shu alfozda stuldan yiqilib tushishi-ga sal qoldi, qattiq yo'tal tutdi, ihradi va majburan o'zini tinchlantirdi.

– Haaa, msye Pyer, jamoatchilikning gulisiz, – dedi u yig‘lamsiragan ovozda, haliyam o‘zini kulgidan to‘xtatolmay. – Ummrim bino bo‘lib, men bunaqasini eshitmagandim.

– Nega biz bunchalar g‘amginniz, nega bunchalar tegmanozikmiz, – msye Pyer lablarini cho‘chchaytirib, arazlagan bolani kuldirmoqchiday, Sinsinnatga yuzlandi. – Na kulamiz, na rangimizni o‘zgartiramiz, mo‘ylovchamiz qaltiraydi, bo‘yin tomirlari uryapti, ko‘zlar esa yoshta to‘la...

– Hammasi xursandchilikdan, – dedi direktor shosha-pisha.

– Ha, haqiqatan ham qizil kun – xursandchilik kuni, – dedi msye Pyer, – mening yuragim, masalan, xursandchilikdan qinidan chiqib ketay deyapti... Maqtanish emas-u, do‘stim, siz menda sadoqatli do‘stni, qiziqarli hamsuhbatni, sizni zeriktirmaydigan hamrohni topasiz... Yig‘layotgan go‘dakni kim tinchlantradi, singan o‘yinchog‘ini kim yelimlab beradi? – Msye Pyer. Kim jiddiy maslahatlar beradi, kim kerakli dorini tavsiya qiladi, kim shodiyona xabarni yetkazadi? Kim? Kim? – Msye Pyer. Ha, faqat msye Pyer.

– G‘oyatda ajoyib! Siz zo‘r iste’dodsiz! – dedi direktor, go‘yo she‘r tinglaganday, gapi orasida Sinsinnatning holatini kuzatardi.

– Mengayam xuddi shunday tuyulyapti, – davom etdi msye Pyer. – Aytmoqchi, – u o‘zini o‘zi to‘xtatti, – siz yotoqxonangizdan rozimisiz? Tunlari sovqotmayapsizmi? Sizni yaxshi to‘ydirish-yaptimi?

– Men nima olsam, u ham shuni olyapti, – deya javob berdi Rodrig Ivanovich, – stol doim to‘la.

– Yong‘oq stol g‘oyatda go‘zal, – hazillashdi msye Pyer.

Direktor chiqmoqchi bo‘layotgandi, shu payt eshik ochildi-yu, xo‘mraygan, uzun bo‘yli kutubxonachi bir dasta kitob ko‘tarib kirdi. Uning bo‘yni jun sharf bilan o‘ralgan edi. U hech kim bilan so‘rashmay, kitoblarni yotoqqa tashladi. Kitobga o‘tirib qolgan changlar havoga tuman kabi ko‘tarildi, bir nafas to‘xtadi, keyin tarqab ketdi.

– To‘xtang, – dedi Rodrig Ivanovich, – menimcha, sizlar tanish emassizlar.

Kutubxonachi qaramasdan bosh silkitdi, hushyor msye Pyer sakrab o‘rnidan turdi.

– Msye Pyer, marhamat, fokuslarizingizni ko‘rsating, iltimos!

– Shartmikan... bu shunchalar arzimagan narsalarki... – Msye Pyer kamtarlik qildi, ammo direktorni tinchitish mumkin emasdi:

– Qizil jodu! G‘oyatda zo‘r! Biz sizdan iltimos qilamiz, yalimaniz! Marhamat ko‘rsating... To‘xtang, bir ko‘rib keting, – deya direktor ketayotgan kutubxonachini to‘xtatdi. – Iltimos qilamiz, iltimos qilamiz. To‘xtang, dedim, axir!...

– Mana bu qartalardan birini xayolan tanlang, – dedi msye Pyer, qartalarni sochdi, yig‘di va o‘rtaga besh chillikni tashladi.

– Yo‘q, bu emas, – dedi kutubxonachi va chiqib ketdi. Msye Pyer dumaloq yelkalarini qisdi.

– Men hozir qaytaman, – dedi direktor, kutubxonachi ortidan chiqarkan.

Sinsinnat mehmoni bilan tanho qoldi. Sinsinnat kitobni ochib, birinchi jumlanı qayta-qayta o‘qishga tushdi. Msye Pyer xushhol tabassum bilan unga tikildi. Direktor qaytib keldi. U jun sharfni qo‘lida mahkam tutib turardi.

– Msye Pyer, balki sizga kerak bo‘lib qolar, – deya sharfni tutdi, otday shovqin bilan o‘tirdi, pishqirdi va katta barmog‘ini ko‘zdan kechira boshladi.

– Biz nima haqda gaplashayotgandik? – dedi msye Pyer, go‘yo oradan hech qanaqa gap o‘tmaganday, g‘oyatda nazokat bilan. – Ha, fotosuratlar haqida. Men yanagi safar fotoapparatimni keltiraman va sizni suratga olaman. Juda qiziq ish bo‘ladi. Siz nimani o‘qiyapsiz? Bir qarasam bo‘ladimi?

– Kitobni chetga qo‘yib turing, – dedi direktor, bilinar-bilinmas zarda bilan. – Axir, yoningizda mehmon bor.

– Qo‘ying uni, – dedi msye Pyer.

Oraga jimlik cho‘kdi.

– Kech bo‘lyapti, – to‘msiradi direktor, soatiga qararkan.

– Yaxshi, hozir jo‘naymiz... Qarang mana buni, qarang... Lablari qaltirab boryapti... Qarang, quyosh chiqyapti, hozir chiqadi...

– Ketdik, – dedi direktor, o‘rnidan turib.

– Hozir... Men bu yerda maza qilib o‘tiribman, hech ketgim kelmayapti... Nima bo‘lgandayam, mening aziz qo‘shnim, kattalarning ruxsati bilan men huzuringizga tez-tez kelib turishga harakat qilaman. To‘g‘ri, albatta, siz menga ruxsat bersangiz. Siz menga ruxsat berasiz, to‘g‘rimi?... Xullas, hozir... ko‘rishguncha! Ko‘rishguncha, do‘sstim!

Kimgadir o'xshatishga harakat qilib, kulgili ta'zim qilgancha, msye Pyer ketdi; direktor yana uni qo'lting'idan yetaklab oldi. Ketishdi, ammo so'nggi daqiqada ortlaridan eshitildi: «Uzr, aybdorman, nimanidir unutdim, shekilli. Men hozir ortingizdan yetib olaman», – dedi va ortga, kameraga qaytdi. Sinsinnatga juda yaqin keldi. Yuzidagi tabassum bir zumda o'chib ketdi:

– Men uyalyapman, – tishlari orasidan hushtakday ovoz chiqardi u, – siz uchun uyalyapman. Bilasizmi, siz o'zingizni qanaqa tutdingiz... Boryapman, boryapman, – qichqirdi u, yuzidan yana nur yog'ilib. Stol ustidagi ko'zadan suv olib, yuzini chaydi va chiqdi. Sinsinnat hamon kitobga tikilib o'tirardi. Kitob betiga suv tomchisi sachradi. Bir necha harf suv tufayli shishib, bir-biriga qorishib ketdi.

VIII

Shunday odamlar borki, kartoshkani o'zi tomon archganday, qalam uchini ochadi. Boshqalar esa, tayoqni yo'nganday, o'zidan nariga qarab ochadi... Rodion keyingilarning biri edi. Uning eski, bir nechta uchli, ochilib-yopiladigan pichog'i bor edi.

«Bugun sakkizinchı kun (Sinsinnat uchdan biri qisqarib ketgan qalam bilan yozardi) va men haliyam tirikman. Barcha xom sut emgan bandalar kabi, qachon o'lishimni bilmayman. Shu sababli hammaga baravar iborani qo'llamoqchiman: kelajakda nima bo'lishini bandasi hech qachon bilolmaydi, aqli yetmaydi. To'g'ri, mening ahvolimda barchasiga hozir-u nozir bo'lib turishim shart, ammo ko'rib turibsizki, men hamon tirikman. O'tgan tunda menga ayon bo'ldi va bu hol nechanchi bor takrorlanyapti... Men ustimdan kiyimlarni bitta-bitta yechyapman, kiyimlarim esa sira tugamaydi... Qanday tasvirlashni ham bilmayapman, bilganim shuki: birma-bir sirlarni ochib borarkanman, oxiri bo'limmaydigan, mahkam, yarqiragan nuqtaga qadar yetaman va bu nuqta deydi: men o'shaman!... O, mening haqiqiy, abadiy vujudim... va menga ana shu nuqta yetarli... bunday olganda, menga boshqa narsaning keragi yo'q. Balki keyingi asrning fuqarosi – shoshilgan mehmon (beka hali uyg'onmadi) balki bu na-jotsiz, ko'rgazmali, yolg'onlarga qorishgan bayram ichida, ya'ni men azobli hayot kechirdim. Men ana shu azobimni qog'ozga izhor etmoqchiman, ammo ulgurmaymanmi, deb qo'rqtyapman. Men o'zimni anglaganimdan beri – tevaragimni qonunsizlik, tengsizlik o'rab ol-

ganiga ishonchim komil. Yozganlarim kimnidir o‘ziga mahliyo etarmikan? Yoki urinishlarim hech qanaqa samara bermaydimi? Atrofim dorga osilganlar bilan to‘lib qoladimi? Aytishim kerakki, men arqonni afzal bilgan bo‘lar edim. Negaki bolta bilan urishlari juda yomon; To o‘limimga qadar mavjud vaqt orasida men iloji boricha ko‘proq ish qilib qolishim kerak. Menga har bir daqiqa muhim... Ya’ni men o‘ylashga vaqt yetmasligi haqida o‘ylayapman, yoki, deylik, buning aksi... Men nimanidir bilaman. Nimalarnidir bilaman. Ammo, o‘hho’, ularning barini idrok etish oson emas. Yo‘q, ilojim yo‘q, hammasini tashlagim kelyapti. Yana shu narsani his qilyapmanki, hali qaynab ulgurmagan sut singari qozondan pishqirib, toshib chiqaman va... umuman, agar ko‘rgiliklarimni qog‘ozga tushirishga ulgurmasam, jinni bo‘lib qolaman-ov!

Aytishim, hammasini qog‘ozga aytishim kerak, mening boshqa istagim yo‘q. Butun dunyoning menga qilganlariga qarama-qarshi, men hammasini yozib ulgurishim kerak. Men yomon ahvolga tushib qoldim. Judayam yomon bo‘lib ketyapman. Dahshat! Biroq mendan hech kim tortib ololmaydi. Qanday dahshat – mana, men hozirgina topgan ipning uchini yo‘qotib qo‘ydim. U qayerda? Qo‘limdan tushib ketdi. Qog‘oz ustida qaltirayapman, bukchaygancha, eshikka ters o‘girilib, eshik tirkishidan qarab turganlardan yashiryapman. Mana, hozir g‘ijimlayman va maydalab tashlayman... Mening bu yerga tushishim xato edi, nafaqat qamoqxonani nazarda tutyapman, balki bu dahshatli yo‘l-yo‘l dunyo haqida aftyapman... Axir, yosh bolaligimdan men juda ko‘p tushlar ko‘rardim... Mening tushlarimda bu dunyo g‘aroyib, kishini o‘ziga maftun qiladigan, odamlari olujanob bo‘lardi; o‘ngimda juda qattiq qo‘rqadigan odamlar tushlarimda qoshimda mung‘ayib, rahmimni keltirib turishardi. Goho: «Nimadan ham qo‘rqaman», deya o‘ylayman va baribir qo‘rqaveraman. Goho shunday tuyuladiki, mening bo‘ynim orqasidan uchinchi ko‘z ochiladi. Qovurg‘alarim orasida katta, egilib-bukilgan teshik paydo bo‘ladi. Tegma! Yanayam dadilroq, xirilloq tovushda: Tegma! Men bo‘ladigan ishlarning barini his qilib turibman! Va mening tasavvurimcha: mening hozirgina uzilgan boshimdagি quloqlarim shang‘illashda davom etadi, ko‘zlarim yig‘laydi, og‘zimdan esa yo‘tal otiladi. Lekin buning bari o‘ylaganimday emas, nimadir kam, nimadir yetishmayapti... To‘xta! Mana, yana his qilyapman: hozir aytadiga-

nimni aytib olaman. Afsuski, hech kim bu masalada menga yordam bermadi. Xullas, men yozishni bilmayman, ammo jinoiy sezgim bilan anglayapmanki, so‘zlarni biriktirishni bilaman; so‘zlarni qay taxlit biriktirib, jonlantirishni uddalayman...»

(Afsuski, shu lahza kamerada chiroq o‘chdi. Kech soat o‘nda Rodion shu taxlit o‘z vazifasini bajaradi).

IX

Ittifoqo, yangi kun baland ovozlar bilan boshlandi. Rodion xo‘mraygancha ish buyurar, uchta xizmatchi unga yordamlashardi. Uchrashuvga Marfinka butun oilasi bilan, jihozlari bilan keldi. Bu uzoq kutilgan uchrashuvni bu taxlit tasavvur qilmagan edik... Ular bostirib kirdilar! Marfinkaning qariya otasi – ulkan kal bosh, ko‘zlari tagi meshkobday osilgan, qora hassasi qo‘lida; Marfinkaning egizak ukalari, bir-biriga judayam o‘xshash, ammo biri tillarang, ikkinchi si mallarang mo‘ylovli; Marfinkaning ona tomondan bobosi va momosi, ikkovlon shu qadar munkillab qolganki, hech u yoq-bu yog‘i yo‘q; uch baquvvat akasini, nimagadir eng oxirgi daqiqada ichkariga kiritishmabdi; Marfinkaning bolalari: cho‘loq Diomedon va kasalmand, semiz Polina; va nihoyat, Marfinkaning o‘zi dam olish kunlari kiyadigan qora ko‘ylagida, sovuq bo‘ynida oq baxmal bo‘yinbog‘ va qo‘lida ko‘zgu; juda kelishgan, o‘zini tuta biladigan bir erkak undan bir qadam ham nari jilmay, birga yuribdi.

Qaynata hassasiga tayanib, to‘xtagan joyidagi charm oromkursiga cho‘kdi, zamshlangan oyog‘ini oldidagi kursiga tiradi, achchiq bilan bosh chayqab, og‘ir kipriklari ostidan g‘azabga to‘lib, Sinsinnatga tikildi. Sinsinnatning dami ichiga tushib ketgan edi, u avvaldan qaynotasini yoqtirmasdi.

Bobo bilan momo (bobo – qaltiroq, egilgan, yamoq shimda; momo – sochlari orolangan, shu qadar oriqli, ustiga soyabonning g‘ilofini yopsa – yetarli bo‘ladi) baland yelkali stullarga yonma-yon o‘tirishdi; Bobo kichkina, jundor qo‘llaridan ulkan, tillarang ramkani – o‘z navbatida, xira tortgan holdagi onasining qandaydir portretni tutib turgan suratini – qo‘yib yubormasdi.

Bu orada yana jihoz, mayda-chuyda, hatto devorning ayrim qismlarini keltirishda davom etardilar. Keng, oynavand shkaf yal-

tillardi. Er-xotinning yotoq karavoti, tushirib qo‘yilgan qo‘lqop va hokazolar. G‘amgin, ortopedik velosiped. Yana allambalolar... Marfinka o‘zining chiroyli tikilgan stuliga o‘tirdi.

– Azob! Azob! – dedi qaynata va hassasi bilan yerni do‘qilladi. Bobo va momo qo‘rqib ketib, kulimsiradilar.

– Ota, qo‘ysangiz-chi, ming marta aytilgan gaplarni yana takrorlash shartmi? – dedi Marfinka asta va yelkasini o‘girdi.

Yonidagi erkak unga jun ro‘molini tutdi. Ammo Marfinka nozik bir harakat bilan uning g‘amxo‘r qo‘lini sal nari surib qo‘ydi. Yigit telegraf xizmatchisining chiroyli qora kiyimida bo‘lib, atir hidi anqib turardi.

– Azob! – takrorladi qaynata yana kuch bilan va Sinsinnatni maydalab, ezb‘ilab so‘kishda davom etdi. Sinsinnatning nigohi Polinadagi ko‘ylakning oq belbog‘iga ketib qoldi: ko‘zoynakli, sariq-qizg‘ish, egiluvchan, kishining hissiyotlarini junbushga keltiradigan; malla, jun paypoqlariga o‘rangan yo‘g‘on oyoqlari tugmali etikchalarda; u har bir kelgan odamning yoniga borib, go‘yo uni o‘rganayotganday, kichkina qora ko‘zлari bilan jiddiy va jim nazar tashlardi. Kambag‘al, bo‘yni ostidagi qog‘oz sochiq bilan kelibdi. Nonushtadan so‘ng yechib tashlashni unutgan, shekilli.

Qaynata nafas rostladi, yana hassasini do‘qillatib urdi va o‘shanda Sinsinnat:

– Men sizni eshitaman, – dedi.

– Jim bo‘l, qo‘pol odam, – qichqirdi u, – men sendan kutganim shu edi o‘zi. O‘zing o‘lim ostonasida turganingda, hech bo‘lmasa, mening hurmatimni qil. To‘nkaga boshingni qo‘yishga ulgurasan. Menga tushuntirib ber-chi, qanday sening hadding sig‘di, qanday qilib bunga yo‘l qo‘yding...

Marfinka shivirlab, yonidagi yigitdan nimalarnidir so‘radi. Yigit avaylanib oyoqlari ostidan nimalarnidir izlardi.

– Yo‘q, hech gap yo‘q, – dedi yigit ham shivirlab, – demak, men uni yo‘l bo‘yi... Hechqisi yo‘q, topilib qolar... Aying-chi, siz sovqot-mayapsizmi?

Marfinka bosh qimirlatib, rad javobini berdi, mayin kaftini yigitning jimgilog‘iga qo‘ydi va shu zahoti kaftini tortib olib, tizzalaridagi ko‘ylagi etagini to‘g‘riladi va shivirlab, o‘g‘lini o‘z yoniga chaqirdi. O‘g‘li tog‘alari tomon borayotgan, tog‘alar esa uni o‘zlaridan nariga

itarishayotgandi. Diomedon qiyshanglab yursa-da, chaqqonlik bilan onasiga yetdi. Uning chap oyog‘i sog‘lom edi; o‘ng oyog‘i esa miltiqqa o‘xshardi. Dumaloq ko‘zlar va siyrak kipriklari – onasiniki, ammo yuzining pastki qismi bulldog itga o‘xshar, albatte, begona edi.

– Bu yerga o‘tir, – dedi Marfinka asta va pastga tushib ketayotgan ko‘zguchani tutib qoldi.

– Sen menga javob ber, – davom etardi qaynata, – sen baxtli, go‘zal oila egasi, chiroyli, suyukli xotining, yoqimtoy farzandlaring bo‘la turib, sening qanday hadding sig‘di, hey iflos? Ba’zan menga tuyuladiki, men shunchaki atrofimdag‘i narsalarni tushunmaydigan, his-hayajonlarni unutgan betayin bir qariyaga aylanib qolganman... Jim bo‘l! – o‘kirib yubordi u. Bobo bilan momo yana silkinib ketdilard-a, keyin o‘ng‘aysiz tabassum qilishdi.

Qaynataning og‘zidan bodi kirib, shodi chiqar, endi uning ovozi tobora bo‘g‘ilib borardi, Marfinka kafti bilan ko‘zlarini yashirdi, uning yonidagi yigit yordamga tayyor holda unga qarardi. Divanda tizilishib, Marfinkaning aka-ukalari o‘tirishardi.

Qaynata g‘azab cho‘qqisiga chiqqanda birdan ovozi bo‘g‘ildi, qo‘lida tutib turgan papiros o‘chib qoldi va oromkursi shu qadar qattiq turtib yubordiki, yonida jimgina og‘ziga qarab turgan Polina ortga tisarilib, oromkursining orqasiga yiqildi va hech kim payqamaganiga umid qilib, yotaverdi. Qaynata shaldiratib, papiros qutisini yirta boshladi. Hamma jim edi.

Bo‘g‘iq ovozlar asta-sekin ravonlasha boshladi. Marfinkaning ukasi tomog‘ini qirdi-da, Yevgeniy Onegin qo‘shig‘ining italyan tilidagi operasini ijro etdi: «U o‘zini hurmat qilishga majburladi». (Ablahona ijroning asl ma’nosi shundaki, Marfinkaning ukasi bu qo‘shiqni o‘limga hukm etilgan Sinsinnatning kamerasida aytayapti. Qo‘shiq: «chalajonni chalg‘itishga urinish – qanchalar razillik!»). Nogoh ukaning nigohi ko‘zlar dahshatdan kattarib ketgan akaga tushdi. Advokat nimagadir kulimsirab, yana dastro‘moliga qo‘l uzatdi. Marfinka o‘tirgan joyida yigit bilan shivirlashardi. Yigit nuql u yelkasiga jun ro‘molni tashlab olishini istardi, negaki qamoqxona kamerasining havosi judayam namxush, sovuq o‘tib ketishi mumkin. Ular bir-birlarini «siz»lashardi, ammo bu «siz»lash har ikkisi uchun shu qadar totli ediki... Boboni juda qattiq qaltiroq tutib, o‘rnidan turdi-da, portretni qiltanglayotgan kampiriga berib, yondirilgan olov-

ni kafti bilan panalab, o‘z kuyovi, ya’ni Sinsinnatning qaynatasi yoniga keldi, ammo o‘t o‘chib qoldi. Qaynata achchiqlanib, burnini jiyirdi:

– Jonga tegib ketdinglar, to‘g‘risi, shu ahmoqona yondirgichlaring bilan, – dedi u, endi hovuri bosilib. Ana shunda havo tozalandi va hamma gapirishga tushdi.

Marfinkaning ukasi bor ovozda «U o‘zini hurmat qilishga majburladi»ni kuylashga tushdi.

– Diomedon, bir fursatga mushugingni qo‘yib tursang bo‘lar-midi, – dedi Marfinka. – Kechadan oldin ularning birini bo‘g‘ib o‘l-dirib qo‘yganding, har kuni senga bittadan mushuk topib berolmaymiz. Viktor, azizim, iltimos, Diomedondan mushukni oling.

Umumiylar harakat tufayli Polina sekin oromkursi ortidan turdi. Advokat Sinsinnatning qaynatasi yoniga kelib, papirosini tutatib olishi uchun olov tutdi.

– Ha, og‘ayni, sen juda ahmoqona holatga tushib qolgansan. To‘g‘rimi? Kulgili-da bu! Nima bo‘lgan edi o‘zi? – qaynilardan biri Sinsinnatga yuzlandi.

Shu orada eshik ochildi. Ostonada bir xil tarzda qo‘llarini orqasiga qilib, msye Pyer va direktor faqat ko‘zlarini g‘iltillatib, jamoat ahliga bir-bir qarab turishardi. Qaytib ketishdan avval bir daqiqacha shu alfovza tikilib turishdi.

– Bilasanmi, – qayni qizg‘in nafas olib, gapirishga tushdi, – do‘stimning gapiga qulq sol. Tavba qil, Sinsinnatjon. Nima qipti, balki kechirishar? A? O‘ylab ko‘r, axir. Boshingni uzishlari qanchalar yomon! Nima yutqizasan? Tavba qil, bo‘ldi.

– Hurmatlaring bor, hurmatlaring bor, hurmatlaring bor, – dedi advokat, ularga yaqinlasharkan, – meni o‘pmanglar, chunki men shamollaganman. Nima haqda gaplashyapsizlar? Yordamim tegib qolar, balki.

– O‘tib ketishimga yo‘l beringlar, – dedi Sinsinnat, – men xotinimga ikki og‘iz so‘z aytishim kerak...

– Azizginam, endi masalaning moddiy jihatlariga o‘tamiz, – dedi o‘zini bosib olgan qaynata, hassasi bilan Sinsinnatning yo‘lini to‘sib. – To‘xta, to‘xta, men sen bilan gaplashyapman!

Sinsinnat yo‘lida davom etdi. O‘n kishiga mo‘ljallab dasturxon yozilgan katta stolni aylanib o‘tish talab etilardi. Keyin esa shkaf

va parda oralab, Marfinkaning yoniga yetish mumkin edi. Yigit jun ro‘mol bilan Marfinkaning oyoqlarini yopdi. Sinsinnat salkam yetib borganda Diomedonning qo‘qqisdan dahshatli qichqirig‘i hammani larzaga soldi. Sinsinnat burilib, Polinaga ko‘zi tushdi. Aynan Polina bolani gjigjilayotgan edi: uning cho‘loqligini ko‘rsatish uchun bir oyoqda egilib-bukilib, aftini bujmaytirib yurayotgandi. Sinsinnat Marfinkaning yalang‘och yelkasidan tutdi, ammo u sirg‘alib, qutulib qochdi. Uning ortidan lo‘killagancha, Polina ham shoshdi.

Marfinka unga o‘girildi. Yigit odob bilan o‘rnidan turdi.

– Marfinka, ikki og‘iz so‘zim bor, o‘tinaman, iltimos qilaman, – deya yurayotgan Sinsinnat yerda yotgan yostiqqa to‘qnashib, uzun xalati etagiga chalkashib, bitta o‘rindiqning chetiga o‘tirib qoldi.

– Shunaqa kasallik, – dedi yigit. – Hammasi tushunarli. Marfinka ga hayajonlanish zararli.

– Siz haqsiz, – dedi Sinsinnat. – Ha, siz haqsiz. Men sizdan iltimos qilaman, men yolg‘iz...

– Janob, ruxsat bering, – Rodionning ovozi eshitildi.

Sinsinnat o‘rnidan turdi. Rodion yana bir xizmatchi bilan Marfinka cho‘zilib yotgan kushetkani ko‘targancha, tashqariga jo‘nadilar.

– Ko‘rishguncha, ko‘rishguncha, – bolalarcha qichqirardi Marfinka, xizmatchilarning qadamiga mos ohangda tebranib, lekin birdan aftini bujmaytirib, yuzini yashirdi. Uning yigitni bezovta bo‘lib, yo‘lda qolib ketgan jun ro‘molni, gullarni, o‘zining bosh kiyimini terib olgancha, ortlaridan borardi. Hamma shoshib qolgandi. Aka-ukalar idish-tovoqlarini yig‘ishtirib, sandiqlariga solardilar. Advokat hammaga – qayerdan topib olgani noma’lum – toza, oq qog‘oz tutib, o‘z xizmatini taklif qilardi. Barcha olib kirilgan narsalarni yana bir-bir yig‘ishtirib keta boshladilar. Sinsinnat bilan bir-bir xayrlashaverdilar.

– Bo‘pti, omon bo‘l, – dedi qaynata sovuq nazar tashlab, keyin urf-odatlarga binoan Sinsinnatning qo‘lidan o‘pdi. Bobo bilan momo potretni qo‘llarida tutib, qiltanglab ta’zim qilgancha, yurdilar. Xizmatchilar hamon jihozlarni tashib chiqishda davom etardilar. Bolalalar keldilar: Polina jiddiy, yuzini ko‘tardi, Diomedon esa yerga qarab turardi. Bolalarni advokat qo‘llaridan tutib, olib chiqib ketdi. Eng oxirida Emmochka uchib keldi: yuzlari yig‘idan oqarib ketgan, burni qizargan, og‘iz atrofi nam. U jim turardi, ammo nogoh oyoq uchiga ko‘tarildi va qaynoq qo‘llari bilan uning yelkasidan quchoqladi,

qandaydir noaniq bir nimalarni pichirladi va baland ovozda yig‘lab yubordi. Uning o‘zi o‘girilib, Sinsinnat tomon sochlari yoyiq boshini burib, judayam nazarga yaqin, balerinalarnikiga o‘xshash chiroyli qo‘llarini unga tomon cho‘zib, biroq ilojsizlik tufayli istamaygina Rodionning ortidan ketdi. Uning ko‘zlarini tepaga bitib borardi, kiyimi yelkasida osilib qolgandi. Mana, Rodion uni tutib, keng qadamlar bilan dahlizga, paqir to‘la suvni sepganday, otib yubordi va yana o‘zicha g‘udranib, qaytib kirdi-da, stolning tagida yotgan mushukning o‘ligini yig‘ishtirib oldi. Eshik shaqirlab yopildi. Endi... hozirgina shu kamerada odam to‘la bo‘lganiga birovni ishontirish qiyin edi.

X

– Bo‘ri bolasi mening dunyoqarashim bilan yaqinroq tanishganda mendan begonasirashni to‘xtatadi. Hozirning o‘zida biz nimalargadir erishdik, men bundan juda xursandman, – dedi msye Pyer, o‘z odatiga binoan stolga tiralib o‘tirgancha.

Sinsinnat boshini berkitgancha, to‘shagida yotardi.

– Biz hozir ikkovlon yolg‘izmiz, tashqarida esa yomg‘ir yog‘yapti, – davom etdi msye Pyer. – Bunaqa ob-havoda maza qilib g‘iybatlashging keladi. Keling, birvarakay kelishib olaylik... Menda shunday tasavvur uyg‘onyaptiki, bizning rahbarlarimizning menga munosabati sizni hayron qoldiryapti, nafaqat hayron qoldiryapti, balki g‘alati tuyulyapti. Go‘yoki men, sizningcha, alohida imtiyozlardan foydalanyapman. Yo‘q, yo‘q, e’tiroz bildirmang, keling, gap shu haqda ketyaptimi, oxiriga qadar ochiqcha gaplashamiz. Ruxsat bering, men sizga ikki narsa haqida axborot beray. Siz bizning hurmatli direktorimizni bilasiz (aytmoqchi, bo‘ri bolasi unga nisbatan nohaq, ammo bu haqda keyin gaplashamiz...), siz bilasizki, u juda ta’sirchan, ba’zan quyushqondan chiqib ketadi, har qanday yangilikni ko‘rganda jim o‘tib ketolmaydi, albatta, unga qiziqadi, men bilishimcha, birinchi kunlari u sizgayam qiziqdi. Shu sababli endi menga qiziqib qolishlari sizga erish tuyulmasligi kerak. Bir-birimizni rashk qilmasligimiz talab etiladi. Birinchidan, bu qanchalar g‘alati bo‘lmashin, men qay tartibda bu yerga tushib qolganim haligacha sizga ma’lum emas. Men buni aytib bersam, siz ko‘p narsalarni anglab yetasiz. Uzr, bo‘yningizdagи nima? Nima? Mana bu yerdagi nima?

– Qayerda? – beixtiyor so‘radi Sinsinnat, bo‘ynining u yoq-bu yog‘ini siypalarkan. Msye Pyer uning yoniga kelib o‘tirdi.

– Mana bu yeringizda, – dedi u, – men endi tushundimki, bu boryo‘g‘i bo‘yningizga tushib turgan soya ekan. Menga qandaydir bosh-qacha yara chiqqanday tuyulibdi. Siz nimagadir boshingizni qynalib qimirlatyapsiz. Og‘riyaptimi? Shamolladingizmi?

– Iltimos, menga yaqinlashavermang, – dedi ezilib o‘tirgan Sinsinnat.

– Yo‘q, nega endi? Mening qo‘llarim top-toza, ruxsat bering, mana bu yeringizni ushlab ko‘ray. Go‘yoki haqiqatan ham... Mana bu yeringiz og‘rimayaptimi? Mana bu yeringiz-chi? – U kichkina, go‘shtdor qo‘llari bilan Sinsinnatning bo‘ynini tez-tez ushlab ko‘ra boshladi, diqqat bilan ko‘zdan kechirarkan. – Yo‘q, hech narsa yo‘q. Hamma joyingiz sog‘-salomat, – dedi u Sinsinnatdan uzoqlasharkan, yelkasiga qo‘l urib. – Faqat bo‘yningiz juda nozik ekan, shunday bo‘lsa-da, hammasi joyida. Umuman olganda, bilasizmi, ba’zan shunaqasiyam bo‘ladiki... Tilingizni ko‘rsating. Til – oshqozon ko‘zgusi. Yopining, yopining, bu yer juda salqin ekan. Nima haqda suhbatlashayotgandik? Menga eslatib yuboring?

– Agar siz haqiqatan ham menga yaxshilik istaganingizda, – dedi Sinsinnat, – meni bezovta qilavermasdan, xonamni allaqachon tark etgan bo‘lardingiz. Iltimos, keting.

– Nahotki, siz meni eshitishni istamayapsiz? – e’tiroz bildiridi msye Pyer kulimsirab, – nahotki, siz shu qadar o‘jarlik bilan o‘z xulosalarlingiz yakuniy haqiqat ekaniga ishonasiz? Qo‘shimchasiga, menga noma’lum, ta’kidlayman, noma’lum haqiqatlarga.

Alamdan kuyib ketgan Sinsinnat jim o‘tirardi.

– Xullas, ruxsat bersangiz aytaman, – ancha-muncha tantanavor ohangda davom etdi msye Pyer, – men tomondan qanaqa tusdagi jinoyat sodir etilgan? Meni ayplashdi – to‘g‘rimi, noto‘g‘rimi, bu boshqa masala, bu haqda keyin gaplashamiz, xullas, meni ayplashdi... Ayting-chi, siz nimada deb o‘ylaysiz?

– Bo‘pti, o‘zingiz aytavering, – dedi erinchoqlik bilan Sinsinnat, yoqtirmay.

– Siz hayratdan qotib qolasiz. Meni urinishda ayplashdi... O, oqibatsiz, yaxshilikni bilmaydigan do‘st... Meni sizning bu yerdan qochib ketishingizni tashkillashtirishga urinishda ayplashdi.

– Nahotki? Rostmi shu? – so‘radi Sinsinnat.

– Men hech qachon yolg‘on gapirmaganman, – dedi msye Pyer vazminlik bilan, – balki ba’zan-ba’zan yolg‘on gapirib turish ham kerakdir. Bu boshqa masala. Umuman, bu qadar yalang‘och haqiqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuzingga aytaverish yaxshi emasdir, aytaylik, u oxir-oqibat senga hech qanday nafi tegmasligi mumkin. Ammo haqiqat haqiqatligicha qoladi: men hech qachon yolg‘on gapirmayman. Azizim, men bu yerga siz tufayli tushdim. Meni oqshom qo‘lga oldilar... Qayerda? Aytaylik, Vishnegradda. Ha, men vishnegraddlikman. U yerda hosildor bog‘lar juda ko‘p. Agar siz qachonlardir mendan xabar olish uchun qishlog‘imizga kelsangiz, sizni o‘zimizning olchagiloslarimiz bilan mehmon qilaman... Xullas, o‘scha yerda men uch kecha-kunduz o‘tirdim. Keyin tezlikda sud qilishdi. Keyin – bu yerga jo‘natishdi.

– Demak, siz meni asrab qolishni istagansiz... – dedi Sinsinnat xayol surib.

– Istanamanmi, istamaganmanmi, bu mening muammom, azizim, mening chin do‘stim. Nima bo‘lgandayam meni ayplashdi. Sot-qinlar ko‘p, asosan yoshlar olov bo‘lishadi, darhol sotib qo‘yishadi, oqibatda mening ahvolimni ko‘rib o‘tiribsiz. «Men qoshingizda mast bo‘lib turibman...» – shunaqa qo‘shiq yodingizdami? Mana shu qal’a devorlari chizmalarining qayerigadir men go‘yoki qandaydir chiziqlar tortganimni asosiy ashyoviy dalil sifatida ko‘rsatishdi. Emishki, men sizni qochirish jarayonini eng kichik zarralariga qadar batatsil rejalanaman.

– Go‘yokimi, yoki? – so‘radi Sinsinnat.

– Qanchalar sodda, ishonuvchan zot bu odam, a! – maza qildi msye Pyer, qator tishlarini ko‘rsatib. – Sizningcha, hammasi shunchalar oddiyimi? Afsuski, hayotda bunaqasi bo‘lmaydi!

– Axir, bilging keladi odam, – dedi Sinsinnat.

– Nima? Mening sudyalarim haq edilarmi? Haqiqatan ham men sizni asrab qolishni rejalahtirganmidim? Ooo, siz... – hayajonlanib ketgan msye Pyer o‘rnidan turib, kamera bo‘ylab yurdi.

– Bo‘pti, bu masalani qo‘ya turaylik, – dedi u uf tortib, – o‘zingiz hal qiling, o, ishonchi yo‘q odam. Shundaymi, shunday emasmi, ammo men nima bo‘lgandayam siz tufayli shu yerga tushdim. Ustiga ustak, dorgayam biz birga osilamiz.

Turma kiyimiga o‘rangan semiz msye Pyer kamera bo‘ylab sharpasiz yurishda davom etardi . O‘z yog‘iga o‘zi qovrilib o‘tirgan Sinsinnat uning epchil harakatlariga og‘ir nazar soldi .

– Shunchaki, kulgi uchun bo‘lsayam, ishonaman, – dedi nihoyat Sinsinnat, – ko‘ramiz, bundan nima o‘zgaradi. Eshityapsizmi, men sizga ishonaman. Va haqiqatni ochiqchasiga aytganingiz uchun sizdan bag‘oyat minnatdorman.

– Yo‘o‘o‘q, bunisi ortiqcha... – ming‘irladi msye Pyer va yana stol qoshiga o‘tirdi. – Shunchaki men hammasini bilishingizni istadim... Juda yaxshi. Endi ikkimiz ham ancha yengil tortdik, to‘g‘rimi? Sizing ahvolingiz qanday, bilmadim, ammo men uvvos tortib yig‘lashni istayapman. Va bu juda yaxshi hissiyot. Yig‘lang, o‘z hissiyotlarin-gizni bo‘g‘ib o‘tirmang.

– Bu yerda ahvol juda yomon, – dedi Sinsinnat ehtiyojkorlik bilan.

– Yomon emas. Aytmochchi, men allaqachonlardan beri sizni bu yerdagi hayotni yomon ko‘rganeningiz uchun koyimoqchiman. Yo‘q, yo‘q, silkinmang, do‘sligimiz haqqi menga ruxsat bering... Siz ochiqko‘ngil Rodionga nisbatan nohaqsiz, shu jumladan, janob direktorga nisbatan ham. To‘g‘ri, u judayam aqli inson emas, ko‘rgazmali holatlarni yaxshi ko‘radi, yengiltabiat, buning ustiga, juda ko‘p gapiradi, hammasi to‘g‘ri. Ba’zan u menga ham yoqmay qoladi. Siz tushunasiz-ku, men qalbim to‘ridagi dard-alamlarimni u bilan bo‘lishishni istamayman, chunki u meni siz kabi tushunmaydi. Ichingni mushuk tirnab yotganda, kechirasiz-u, nafaqat to‘nkabashara direktor, balki umuman, hech kim yoqmaydi. Ammo... u o‘zining barcha kamchiliklari bilan... baribir yomon odam emas. U to‘g‘riso‘z, o‘ylagan gapini betingga aytadi va ko‘ngilchan. E’tiroz bildira ko‘rmang, men bilmaganimni aytmayman, qolaversa, men sizga nisbatan tajribaliroqman, odamlarni sizdan ko‘ra yaxshiroq tushunaman. Bilasizmi, siz Rodrig Ivanovichni shunchalar qattiq yomon ko‘rasizki, shunchalar qattiq jerkib tashlaysizki, mening yuragim og‘rib ketadi. Ba’zan men uning ko‘zlarida azobni ko‘raman... Rodion masalasiga kelsak, siz, shu qadar oqil inson, nahotki, Rodionning yuragida insoniy xislatlar qalashib yotganini ko‘rmayotgan bo‘lsangiz? U ulkan yosh bola-ku! Ha, men tushunaman, siz asabiy-siz, ayolingizsiz qolganingiz sizga juda yomon ta’sir qilyapti, lekin... Sinsinnat, siz meni kechiring, bu yaxshi emas, sirayam yaxshi emas.

Va umuman, siz nohaqdan nohaq odamlarni xafa qilasiz... Bizga bu yerda berishayotgan judayam mazali ovqatlarni yemaysiz. Bo'pti, aytaylik, ular sizga yoqmaydi, ishoning, men ham oshxona masalasida nimalarnidir tushunaman va bilamanki, siz ularni masxara qilyapsiz. Biroq bu ovqatlarni pishirgan odamlar biz uchun mehnat qilishgan, mazali bo'lsin, deb harakat qilishgan... Men tushunaman, ba'zan bu yerda judayam zerikib ketasan, tashqariga chiqqing, sayr qilging, o'yinqaroqlik qilging keladi, ammo nega endi biz faqat o'zimiz ha-qimizda o'ylashimiz kerak ekan? Rodrig Ivanovich axir siz uchun 1 atifalar yodlab kelib, aytib berdi-ku, nega siz biron marta hatto kulumisirab qo'yamadingiz?... Balki sizning munosabatingizni ich-ichidan his qilgan Rodrig Ivanovich endi uyida bezovta bo'lib, yig'layotgandir, azoblanayotgandir, uxlolmayotgandir...

— Siz uni judayam ustalik bilan himoya qilyapsiz, — dedi Sinsinnat, — ammo men qo'g'irchoqlar haqida yaxshi tasavvurga egaman. Va o'z fikrimdan qaytmayman.

— Afsus, — xafa bo'ldi msye Pyer. — Siz hali yosh bo'lganingiz uchun ham uni tushunishni istamayapsiz, — deya davom etdi u bir muddat o'ylanib o'tirgach. — Yo'q, bunday odamlarga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lish mumkin emas....

— Ayting-chi, — so'radi Sinsinnat, — siz ham o'zingizni yo'qotib qo'yadigan holatlarga tushganmisiz? Jallod hali kelmadimi? Ijro er-taga emasmi?

— Siz bunaqa iboralarni, yaxshisi, ishlatmaganingiz ma'qul, — dedi msye Pyer shivirlab. — Yana bunaqa ohangda... O'zini hurmat qiladigan odamlar bunaqa gapirmaydi. Siz nimalar deyapsiz o'zi, men hayron qolayapman...

— Baribir, ayting-chi, qachon? — so'radi Sinsinnat.

— O'z vaqtida, — dedi msye Pyer, — bu juda ahmoqona qiziqish emasmi? Va umuman... Yo'q, siz hali boshqalarga nisbatan munosabatda ko'p narsalarni o'rganishingiz talab etiladi. Bunaqasi mumkin emas. Bu — oliftalik, bu — mensimaslik...

— Ular judayam cho'zib yubordilar-da, — dedi Sinsinnat uyqusirab. — Albatta, ilojing yo'q, ko'nikasan... Kunma-kun vijdoningni, ruhingni tayyorlaysan, axir, hech kutmaganingda olishadi, baribir, shunday emasmi? Shu taxlit o'n kun o'tdi, men jinni bo'lib qolaman, deb o'ylagandim, yo'q, mana, soppa-sog'man. Qandaydir umid bor-

day bo'ladi ba'zan... Suvdag'i aksing kabi noaniq, tebranuvchan, tutib bo'lmaydigan... shunisi bilan sening fikringni chalg'itadi. Siz qochish haqida gapiryapsiz... Men o'ylayapman, aniqlashga urinyapman, yana kimdir mana shu haqda harakat qilyapti... Qandaydir noma'lum izohlar, noma'lum umidlar... Ammo hammasi yolg'on bo'lsa-chi... degan savol ham qiy Naydi ba'zan.

U to'xtadi, uf tortdi.

– Bu qiziquvchanlik emas, – dedi msye Pyer, – qanaqa umid haqida gapiryapsiz, u qutqaruvchi kim?

– Shunchaki tasavvurim bu, – javob berdi Sinsinnat. – Siz qochishni istaysizmi?

– Qanday qilib? Qayoqqa? – hayron bo'ldi msye Pyer.

Sinsinnat davom etdi:

– Kimdir mana shu haqda harakat qilyapti. Qayoqqaligining nima ahamiyati bor? Baribir emasmi... Biz siz bilan birgalikda... Lekin men bilamanki, siz bu gavdangiz bilan tez yugurolmaysiz. Oyoqlaringiz...

– Oshirib yubormadingizmi? – stulda qimirlab, g'o'ng'illadi msye Pyer. – Ertaklarda qamoqxonadan qochishadi. Mening gavdam bora-sidagi tanqidlarlingizni o'zingiz uchun saqlab qo'ying.

– Uyqum kelyapti, – dedi Sinsinnat.

Msye Pyer o'ng yengini shimardi. Qo'lidagi naqsh yozuvlar ko'zga tashlanib qoldi. Judayam oppoq badanda mushaklar, go'yo semiz, yumaloq jondor kabi bo'rtib turardi. U sakrab o'midan turdi, bir qo'li bilan stulni tutib, ag'dardi va asta ko'tara boshladi. Kuch bilan boshi ustida ko'tarib turdi va keyin sekin pastga tushirdi. Bu hali faqat kirish qismi edi.

Ko'zga tashlanmaydigan tarzda nafas olgancha, u uzoq fursat qo'llarini qizil dastro'molchasi bilan artdi.

Msye Pyer ro'molini otib, farangcha qichqirdi va ro'molchani qo'lida tik tutib, to'xtab qoldi. Uning yumaloq boshi chiroyli qizg'ish qonga to'lib bordi, ishtoni tushib ketdi va beli ochilib qoldi;

– Xo'sh, yana nima kerak? – so'radi u, yana o'zining quvnoq holatiga qaytib.

Dahilizdan qarsaklar ovozi eshitildi – keyin masxarabozning bepisand qarsagi alohida eshitildi, biroq to'siqqa urildi.

– Nima deysiz? – takrorladi msye Pyer. – Kuch bormi? Epchilik bormi? Yo hali bu ko‘rsatkichlar siz uchun kammi?

Msye Pyer bir sakrab, stol ustiga chiqdi, qo‘lida tiralgancha, tishlari bilan stul chetini tishladi. Musiqa ovozi tindi. Msye Pyer stulni mahkam tishlab ko‘tardi, tarang tortilgan mushaklari titrardi, jag‘i g‘ichirlardi.

Eshik sekin ochildi va qo‘lida qamchisi bilan, o‘ziga jüda yaxshi oro bergen, pudralar sepgan sirk direktori kirdi.

– Misli ko‘rilmagan yangilik. Jahonshumul voqeal! – shivirladi u, shlapasini yechib, Sinsinnatning yoniga o‘tirarkan.

Nimadir qisirladi va msye Pyer og‘zidan stulni chiqarib, dumaladi va yerga yotdi. Ammo ko‘rinishidan hammasi joyida emasday edi. U shu zahoti og‘zini dastro‘mol bilan bekitdi, tezlik bilan nigohini stolga yogurtirdi, keyin stulga, nogoh bo‘g‘iq la‘nat bilan stul yelkasiga qisilib qolgan sun‘iy jag‘ini sug‘urib olishga urindi. Juda o‘xshatib ishlangan yasama jag‘ stul yelkasidan uzilmadi. Va shunda ham msye Pyer o‘zini yo‘qotmasdan, talvasaga tushmasdan stulni quchoqlab, xonadan chiqib ketdi.

Hech narsani tushunib yetmagan Rodrig Ivanovich o‘zida yo‘q darajada xursand bo‘lib, qarsak chalardi. Ammo sahnada ijrochi yo‘q. U nimadandir xavotirlanib, Sinsinnatga qaradi, avvalgi hayajoni su-sayib, yana bir muddat qarsak chaldi, nogoh qaltirab, afsuslangan bir holatda chiqib ketdi.

Shu bilan sahna ko‘rinishi tugadi.

XI

Endi kameraga gazeta olib kelmaydigan bo‘lishdi: gazetalarda qatlga aloqador barcha maqolalar qirqib olinayotganini bilib qolib, Sinsinnatning o‘zi gazetalarni rad qildi. Nonushta kambag‘allahdi: suyuk shokolad o‘rniga choybashara yuvindi suv beradigan bo‘lishdi. Nonni esa tishlab bo‘lmassi. Rodion ham nuql jum o‘tirib, hammaning joniga tekkan mahbusning xizmatini qilaverishdan zerikkanini yashirmaydigan bo‘ldi. Shu sababli u kamerada bir ish qilmasa-da, ish qilayotganday bo‘lib, cho‘zilib yuraverardi. Uning qaynoq-qizil soqoli, hissiz ko‘zları, charm etagi, qisqichlarga o‘xshash barmoqlari – hammasi takroran Sinsinnatni azobli holatga qo‘yar, shu sababli Sinsinnat xonani tozalashayotganda devorga o‘girilib yotib olardi.

Bu safar ham shu holat takrorlandi. Faqat erta tongda buldog-ning chuqur tish izlari o‘rnashib qolgan stulni qaytarib kelishdi. Stul bilan birga Rodion msye Pyerdan xat keltirdi. Hazil ohangida kishi-ni eritar darajada muloyim so‘zlar bilan qo‘shnisi kechagi do‘stona suhbat uchun unga minnatdorlik bildirar va bunday uchrashuv yaqin orada yana takrorlanishiga umid qilardi.

«Sizni ishontirishga ruxsat bering, – xat shu taxlit tugardi, – jis-moniy jihatdan men juda, judayam kuchliman. (Bu so‘z tagiga ikki marta chiziq tortilgan). Agar siz haliyam menga ishonmagan bo‘lsangiz, men sizga keyingi uchrashuvlarda badanni chiniqtirishning; bundan-da qiziqroq epchillik va kuchlilik namunalarini ko‘rsataman».

Keyin uch soat davomida Sinsinnat ezilgancha, goh kitob o‘qishga urindi, goh kamera bo‘ylab yurdi. U kamerani endi bat afsil o‘rgandi. Aytaylik, bu yerda bir necha yillab yashaganlardan ko‘ra yaxshiroq o‘rgandi.

To‘rta devor bor; hamma yog‘i sariq rangga bo‘yalgan, ammo ko‘pincha soyada qolgan tomon quyosh tushadigan tomonlariga nis-batan qoramtil-tekis, qumoqday tuyulardi: yorug‘ tarafga derazaning aksi tushardi. Yovvoyi tosh yerdan sovuq epkin ko‘tarilardi; uch xil mebel: yotoq, stol, stuldan – faqat oxirgisini o‘rnidan siljitim mumkin edi. O‘rgimchak ham o‘rmini almashtirib turishi mumkin edi. Derazaning tepasida to‘r yasagan qora o‘rgimchak namunali to‘rni shu qadar ustalik bilan to‘qib olgan ediki, Marfinka beixtiyor tan bergen edi. Har tarafga tarqagan junli old oyoqlarini to‘rga mah-kam tiragancha, u o‘ziga intilayotgan, qalam tutgan Marfinkanining qo‘llariga tikilgancha, ortga tisarilardi. Lekin Rodionning ulkan kaftlaridan o‘ldirilgan chivinnimi yo boshqa narsani hozirlik bilan qabul qilib olardi. Mana, hozir ham to‘rning bir chetida kapalak-ning qizg‘ish, ipak qanoti yetimdek mung‘ayib turardi. Kapalakni ham Rodion tutib bergandi.

Devordagi bitiklar endilikda suvab yuborilgandi. Kun tartibi ham yo‘q bo‘libdi. Balki olib ketishgandir, balki sindirib qo‘yishgandir. Xullas, xona yalang‘och, sovuq va ko‘rimsiz holga kelgandi va haqi-qiy turma kamerasiga xos manzara kasb etgandi.

To‘rtburchak bezakli kleyonka dasturxon to‘shalgan stolda kutubxonaning qalin tomlari qalashib yotardi. Bir vaqtlar qaddini tik

tutgan, biroq endi o‘z sifatlarini yo‘qotgan, chetlari tishlangan qalam abgor bir holatda yozib tashlangan qog‘oz ustida yetardi. O‘sha yerda Marfinkaga bitilgan, Marfinka bilan uchrashuvdan keyin tunda yozib tugallangan xat ham turibdi; ammo u hamon xatni jo‘natishga o‘zida rag‘bat topolmasdi, shu sababli xat, hali pishib yetilmagan, ishlanishi lozim bo‘lgan fikr kabi, jo‘natilmagan edi.

Endi biz Sinsinnatning qimmatbaho xususiyatlari va jismoni yusurlari haqida, uning jismining asosiy ruhiy jihatlari boshqa yoq-daligi, bu yerda esa ozgina bo‘lagi mavjudligi haqida so‘z yuritmiz. Uyqungda ishonuvchan, himoyasiz, ahmoq bo‘lganing kabi, Sinsinnat nisbatan ahmoq, bechoravash va tushunib bo‘lmaydigan odamday tuyulardi. Ammo hatto uyqusida ham baribir Sinsinnatning haqiqiy jiddiy hayoti shundoqqina anglashilib turardi.

Sinsinnatning sezilarli darajada oqarib ketgan yuzi, ichkari-ga cho‘kib ketgan ko‘zları va mo‘ylovi, lablari ustidan quyosh nur taratib turganday tuyulardi; unchalik katta bo‘lmagan, ammo hali yosh, barcha hayot sinovlariga qaramay, shu turishidayoq, bunaqasi bo‘lishi mumkin emasdek bir his uyg‘otardi. Yoqasi ochiq ko‘ylak, qatlari ochiq xalatcha, nozik oyoqlariga judayam katta boshmoqlar, qulog‘i tagidagi falfasiy xol va bir tutam sochning tebranishi (har qalay, qayerdandir epkin esib turardi!) bu zotning noxush taraflarini yanayam ochiq-oshkor namoyon etardiki, ularni so‘z bilan ifodalash g‘oyatda katta muammoga aylanajak. Bular minglab mayday-chuyda detallardan, bir-biriga to‘qnash keladigan, zarur darajaga yetkazilmagan va hokazo turli-tuman bo‘lakdan yig‘iladi hamda bir butun holga keladi... Ammo bularning hammasi ham Sinsinnatning asl xislatlarini namoyon etolmaydi. Shunaqaki, barcha ko‘rib chiqilgan va o‘rganilgan jihatlar ko‘rinmas bir tizim vositasida boshqa to-monga, soyadan yorug‘ olamga o‘tib, aralashib ketadi va nima qayerda ekanini topolmay qolasiz. Go‘yo sizga yo‘qotgan narsangiz hozir topiladiganday tuyulib, izlanaverasiz, topdim deganda, uni yana tutolmay, yana topolmay qolaverasiz. Sinsinnat shunaqa qilishi mumkin-ki, u xayolan kameradan ham, turmadan ham hech qynalmay, chiqib ketaverishi mumkin va agar u xohlasa, uni aslo tutolmaysiz. Va shu onda uning vujudidan nozik, uyqusiragan, lekin shu bilan bir qatorda judayam kuchli, qiziqqon, o‘z hayot qarashlariga ega inson ko‘zga tashlanib turadi: ko‘kish, judayam ko‘kish tomirlari tinimsiz urardi,

toza, yarqiroq og‘iz suvlari lablarini namlardi, qoshlari, peshana terisi titrardi va bularning bari nazar solgan odamda hayajon uyg‘otardi. Sinsinnat birovning g‘ashiga tegmaslik, asabini buzmaslik uchun, eshik tuynugidan yovvoyi kuzatishlarni his qilib, to‘sagiga yotar yoki stol ortiga o‘tirgancha, kitob varaqlardi.

Stolda qorayib yotgan kitoblar: birinchidan, zamonaviy roman bo‘lib, ozod yurgan paytida o‘qishga ulgurmagan; ikkinchidan, ularning biri juda ko‘p bor nashr etilgan bo‘lib, unda asarlarning qisqacha mazmuni yoki ayrim bo‘laklari nashr etilgan; uchinchidan, eski jurnalning titilgan varaqlari; to‘rtinchidan, tushunib bo‘lmaydigan tilda bitilgan, xatolik tufayli unga keltirilgan asarning bir necha bor o‘qilgan tomлari – bularga u buyurtma bermagan. Bu lotincha «Quercus» romani edi. Sinsinnat romanning uchdan birini o‘qib tugatdi. Roman eman daraxtining tarjimayi holi edi. Eman uch yuz yildan beri yashardi; oddiy hisob-kitoblarga qaraganda, roman tugashida eman olti yuz yoshga to‘ladi.

Zamonaviy fikrlashning eng yuksak nuqtasi roman g‘oyasi edi. Tog‘ bag‘ridagi enishda asta-sekin tomir otib, yolg‘iz, ammo baquvvat bo‘lib o‘sayotgan eman timsolida muallif yillar davomida yuz bergen tarixiy voqealarni yoritishga urinadi. Eman bu tarixiy voqealarning tirik guvohi. Ne-ne vaqtlar davomida eman soyasida avval otalar, keyin bolalar, keyin neveralar to‘xtab, dam olishgan, u yoq-bu yoqdan suhbatlashishgan. Ularning ayrimlari dushmanidan qochib kelayotgan yigitlar, boshqalari qochqinni izlab yurgan askarlar; goho qaroqchilar, goho qaroqchilarning o‘jasiga aylanganlar; goh podshoning qahridan qo‘rqib yashirinayotgan amaldor; goh kiyimlar orasiga yashirilgan o‘lik – barg shitirlashidan – go‘yo hali tirikday to‘lg‘onadi; goh hamqishloqlar orasida bir muddatli to‘polon, urush-janjal... Bir yarim betlik bitta bobda barcha so‘zlar «p» harfidan boshlanardi.

Go‘yo muallif o‘z asbobi bilan Quercus, ya’ni emanning qaysidir bir novdasida yashirinib o‘tirgancha, tevarak-atrofni kuzatardi. Xilma-xil odamlar kelar va ketar, emanning yashil barglari panasida o‘tirardi. Odamlar kelmagan fursatlar emanning hayoti haqidagi voqealar bilan to‘ldirilardi.

Sinsinnat o‘qidi, o‘qidi va nihoyat, kitobni o‘zidan nari surdi. Mazkur asar uning fikrini band qilolgan eng yaxshi asar edi. Lekin

shunga qaramay, u kitob varaqlarini juda katta sog‘inch bilan o‘qir, o‘qish jarayonida – kitob o‘qiyotgani ham esidan chiqib – nogoh o‘z fikrlari bilan band bo‘lib qolardi: menga, o‘z o‘limiga tayyorlanayotgan odamga bu olisdagi yolg‘onlar nega kerak? Yoki u yana tasavvur qilardi: aytishlaricha, Shimoliy deb nomlangan orolda yashayotgan yosh muallif, albatta, halok bo‘ladi. Albatta, muallifning haqiqatan ham qachondir jismonan o‘lishi kulgili tuyulishi mumkin.

Quyosh siljishiga qarab, devordagi yorug‘lik o‘z joyini o‘zgartirdi. Rodion ushlagan kapalagi bilan kirib keldi.

– Nahotki, u haliyam kelmad? – so‘radi Sinsinnat. – Nechanchi bor bitta savolini takror va takror berarkan. Rodion bu savoldan bezib qolgandi, shu sababli javob bermadi.

– Boshqa uchrashuv belgilashmaydim? – so‘radi Sinsinnat.

Odatiy ichi qizishini kutib, u karavotga yotdi, devorga o‘girildida, uzoq-uzoq vaqt davomida bo‘yoqlarning harakatga kelishimi kutdi; masalan, sichqonning katta qulog‘iga o‘xshardi bir holat; keyin hammasini nazaridan qochirdi va hech birini xayolida tiklolmadi. Qabr yaqinlashayotganidan darak berardi uning holati, ammo shunga qaramay, uning nigohi kerakli nuqtalarni izlab topishda davom etardi. Salgina bo‘lsin, odamlarga qiyoslash mumkin belgilar sira yetishmasdi devor bo‘yoqlarida. Nihoyat, u burilib, osmonga qarab yotdi va shiftdagi yoriqlarni kuzata boshladi.

«Tushunishimcha, ular meni tamom qilishdi, – o‘yladi Sinsinnat. – Men shunchalar ezilib qoldimki, meni olma archadigan pi-choq bilan ham tinchitish mumkin».

U bir necha muddat yotoqning bir chetida, qo‘llarini tizzalari orasiga solib, mung‘ayib o‘tirdi. Keyin qaltiroq uf tortib, yana tentirashga tushdi. Qiziq, qaysi tilda edi u? Mayda, qalin, bezakka o‘xhash harflar, qanaqadir nuqtalari, o‘roqqa o‘xhash belgilari ham bor, har qalay sharqqa tegishli bo‘lsa kerak. Bu harflar muzeylarda saqlanadigan xanjarlardagi yozuvlarga o‘xshab ketarkan. Jundayam eski kitoblar, varaqlari sarg‘ayib ketgan... Soat yettiga bong urdi va tez orada Rodion tushlik ko‘tarib keldi.

– Hoynahoy, u haliyam kelmagandir? – so‘radi Sinsinnat. Rodion indamay ortiga burilib ketmoqchi bo‘ldi, biroq ostonada o‘girildi:

– Uyat, uyat! – dedi yig‘lamsirab. Kecha-yu kunduz o‘ylaganingiz shu... Sizni bu yerda tozalaymiz, yuvintiramiz, ovqatlantiramiz, erkalaymiz. Charchaganimdan oyog‘imda turolmay qolaman, sizning esa bilganingiz bitta shu: ahmoqona savollaringizni berganining-bergan. Vijdonsiz ekansiz, tfu sizga!...

Vaqt o‘tib ketaverdi. Kameradagi havo qoraydi, mutlaqo erinchoq va ko‘rib bo‘lmaydigan holga kelganda shiftning o‘rtasida chiroq yondi. Yo‘q, o‘rtasi emas, bir chetrog‘ida – qanchalar azobli eslatish. Sinsinnat yechinib, Quercus bilan to‘shagiga yotdi. Yonidagi meshchadan umrboqiy ichib o‘tirgan uchta xushchaqchaq yo‘lovchi – Tit, Pud va Umrboqiy Jidning suhbatiga qaraganda, muallif endi zamonaviy davrlarga yetib kelgandi.

– Nahotki hech kim qutqarmaydi? – nogoh baland ovozda so‘radi u va to‘shagini bir chetiga o‘tirdi. – Nahotki hech kim? – takrorladi u, ayovsiz devorlarning sarg‘ish rangiga tikilarkan.

XII

U qandaydir taqillashdan uyg‘ondi. Shu taxlit kechqurun sog‘-lom uyquga ketib, yarim kechada isitmadan uyg‘onishing mumkin. U ancha uzoq muddat taqillashga shunchaki qulq soldi: negaki aynan shu narsa uni uyqidan uyg‘otgandi; negaki boshqa hech qanday qiladigan ishi yo‘q edi. Qayerda? O‘ngdami? Chapdami? Sinsinnat o‘rnidan turdi.

U qulq soldi. Miyasi, yuragi, butun vujudi qulqqa aylandi; u qulq solar, shu taxlit qulq solishi ayrim narsalarga ahamiyat qaratishga olib keldi: derazadagi panjara ortida – ko‘kish nim yorug‘lik: demak, uch, uch yarim... Sovqotib qolgan qo‘riqchilar uxlashyapti... Ovozlar qayerdandir pastdan, yo‘q, tepadan kelyapti. Aniqrog‘i, pastdan, shekilli. Orqa tomonida, yerda katta sichqon temir panjalari bilan polni tirmayapti.

Sinsinnatni ovozning jiddiy, bir xilda dukillashi hayajonlanti-rardi. Uzoqni ko‘zlagan maqsad sari bir maromdagи o‘ziga ishongan harakat edi bu. U nafasini ichiga yutib, papiros qog‘oziday yengillashib, yerga tushdi va oyoq uchida o‘sha ho‘l, oyoq yopishadigan ho‘l burchakka bordi. Duk-duk shu tomonidan eshitilayot-ganday edi. Bordi va angladiki, xato qilibdi, duk-duk tepada, o‘ngroqda ekan; u yurdi, yana adashib qoldi...

Bir necha qadam tashlab, Sinsinnat oyoq ostida, devorga suyab qo‘yilgan laganga tegib ketdi: «Sinsinnat!» – dedi lagan koyinib va ana shunda duk-duk birdan to‘xtadi. U devor yonida qimirlamay turarkan, oyog‘ining barmoqlari bilan laganni bosdi. Sinsinnat angladi-ki, noma’lum duk-dukchi ham to‘xtab, laganning jaranglashiga quloq tutayotgandi. Yarim daqiqalardan keyin duk-duk sekinoq, aqlliroy, mazmunliroy tarzda yana boshlandi. Sinsinnat asta o‘girilib, laganni joyiga qo‘yarkan, yana o‘sha joyni aniqlashga urindi: o‘ng taraf-da, nahotki, eshik orqasida, ha, o‘ngda, ammo hali uzoqda... uzoq quloq solgandan so‘ng uning aniqlagani shu bo‘ldi. Nihoyat, ortiga, yotog‘iga qaytdi. Yalangoyoq yurib bo‘lmayapti, sovuq, tezroq boshmog‘ini kiyib olishi kerak. U qorong‘ulikda jarangdor oyoqli stul-ni qo‘rqitib yubordi. Bu stul hech qachon bu yerda tunamasdi. Va yana ovoz to‘xtab qoldi. Bu safar tamoman. Balki u ehtiyyotkorlik bilan yana davom etishi mumkin edi, ammo tong yorisha boshlagandi. Sinsinnat ko‘rdiki, dahlizda o‘z kursisida namxush havoda Rodion par chiqarib, yorqin-qizil og‘zini ochib, esnardi.

Tong davomida Sinsinnat, agar o‘sha ovoz yana takrorlanib qol-sa, qanday ish tutish, nima qilish kerakligi haqida o‘yladi. Hovlida yozgi momaqaldiroq tomosha ko‘rsatardi, kamerada qorong‘ulik, chaqmoq goh u yerda, goh bu yerda tevarak-atrofni yarq etib, yori-tardi. Kun yarmida Rodrig Ivanovich tashrif buyurdi..

– Sizga kelishdi, – dedi u, – ammo men oldin bilishim lozimki...

– Kim? – so‘radi Sinsinnat, shu zahotki xayolidan o‘tkazarkan: faqat hozir emas... (faqat hozir devorni duk-duk etib urishni boshlab qolmasinlar).

– Bilasizmi, nimalar bo‘layapti, – dedi direktor, – siz xohlaysizmi, yo‘qmi, men bilmayapman... Hamma gap shundaki, bu sizning onan-giz.

– Onam? – qaytarib so‘radi Sinsinnat.

– Ha, onangiz, – xullas, sizni dunyoga keltirgan zot. Qabul qila-sizmi? Tezroq javobingizni ayting.

– Umrimda bir marotaba ko‘rganman. To‘g‘risi, hech qanaqa his-hayajon yo‘q... Yo‘q, yo‘q, kerak emas, bundan hech qanaqa natija chiqmaydi.

– Xohishingiz, – dedi direktor va chiqdi.

Bir daqiqadan so'ng u xushmuomala bo'lishga harakat qilib, kichkina, qora makintosh kiygan Sesiliya S.ni boshlab keldi.

– Ikkovlaringizni yolg'iz qoldiraman, – dedi u xushhol kayfiyatda, – holbuki, bizning qonun-qoidalarda bunga yo'l qo'yilmasa ham... ba'zan-ba'zan chetga chiqib turishlarga ruxsat beriladi... ona va bola... ta'zimdamani...

Va xizmatchiday, ortga tisarilib chiqib ketdi.

O'zining yarqiroq qora makintoshida va xuddi shunaqa, soyabonlari tushirilgan qora, suv o'tkazmaydigan shlapasida Sesiliya S.o'g'liga tikilgancha, kamera o'rtasida turib qoldi; tugmalarini yechdi; shovqin bilan burnini tortdi va o'zining chertib-chertib gapiradigan ovozi bilan dedi:

– Momaqaldiryoq, chaqmoq, yashin, yo'l bo'y lab hamma yoqni suv bosgan, odamlar ostin-ustun bo'lib ketgan, o'yladimki, bugun sizga yetib kelolmayman...

– O'tiring, – dedi Sinsinnat, – bu taxlit turmang.

– Nimagadir sizlarda juda tinchlikmi, – davom etdi ona, burnini yana tortib, – bitta narsani ta'kidlash lozim: tinch va osuda. Har qalay, bizning yotoqxonamizda bunchalar katta alohida palata topilmaydi. Ooo, to'shaklar, azizginam mening, to'shagingiz qanaqa ahvolda!

Ona o'zining xizmat savatchasini yerga qo'ydi, tezlik bilan qora ipli qo'lqopini yechdi va to'shak ustida past egilib, to'shakni o'zicha qaytadan tartibga soldi.

– Mana endi chiroyli bo'ldi, – dedi u qaddini rostlab, yo'l-yo'lakay kitoblar to'la stolga nazar tashlarkan.

U yosh ko'rinar, Sinsinnat ko'rinishining aksi aks etib turardi. Sinsinnat ham ana shu o'xshashlikni his qildi.

– Ayyay-yay, bu yerda boshqacha yo'l tutish kerak edi, – dedi ona tezlik bilan va kitoblarni tartibga solishga tushib ketdi. Yo'l-yo'lakay ochiq turgan jurnaldagi surat haqida ham savollar berdi. Keyin makintoshining kissasidan g'ilof oldi, g'ilofdan ko'zoynagini chiqarib, ko'ziga taqdi. – Yigirma oltinchi yil, – o'qidi u kinoya bilan, – qanchalar eski narsalar, ishonging kelmaydi.

(...ikkita fotosurat: bittasida oppoq tishli prezident Manchester vokzalida eng oxirgi kashfiyotchi nabirasining qo'lini siqyapti; ikkinchisida – Dunay bo'yidagi qishloqda tug'ilgan ikki boshli buzoqcha...)

Ona hech bir sababsiz uf tortdi, kitobni chetga surdi, shu sababli qalam dumalab ketdi. Ona ushlab qololmadi, nimadir dedi.

– Qo‘ying, – dedi Sinsinnat, – bu yerda tartibsizlik bo‘lishi mumkin emas, bu yerda faqat aralash-quralash bo‘lishi mumkin.

– Mana, men sizga olib keldim (paltosi kissasidan g‘ilofchani chiqarib uzatdi). Mana. Konfet. Maza qilib shiming. – O‘tirdi va yonoqlarini shishirdi.

– Urindim, surindim, charchadim, – dedi ona, ataylab xo‘rsinarkan, keyin tepada to‘rlari orasida yurgan o‘rgimchakka qarab, qotib qoldi.

– Siz nega keldingiz? – so‘radi Sinsinnat, kamera bo‘ylab yurarkan. – Bu sizga ham, menga ham kerak emas. Sabab? Axir, bu... ahmoqlik-ku! Men juda yaxshi anglab turibman: siz ham ko‘plarning birisiz. Shu konfet bilan meni chalg‘itmoqchi bo‘lyapsiz. Masxarabozlik-ku bu, axir! Tasavvur qiling-a, masalan, men uzoqdan kelayotgan bir ovozga umid bog‘ladim. Men unga qanday ishonay, agar sizning turgan turishingiz ham yolg‘on bo‘lsa. Agar sovg‘asalom deganingizda bormi... Va umuman, nega makintoshingiz ho‘l, boshmog‘ingiz esa quruq, bu axir e’tiborsizlik-ku!

Ona shosha-pisha o‘zini oqladi:

– Men kalishda kelgan edim, shu yerda alishtirdim, chin so‘zim...

– Bo‘pti, bo‘pti, ishondim. Tushuntirish berishingiz shart emas. O‘z rolingizni o‘ynashda davom eting: ko‘proq gapiravering, ko‘proq kulimsirang, xullas, o‘zingizni xursand ko‘rsating – hammasi yaxshi bo‘ladi.

– Men sizning onangiz bo‘lganim uchun keldim, – dedi u asta. Sinsinnat kulib yubordi:

– Qo‘ying, sizga yarashmaydi. Esingizda bo‘lsin, bu yerda tomosha ko‘rsatilyapti. Kulgili tomosha. Bo‘ldi! Ammo har qalay, vokzal-dan uncha uzoqlashib ketavermang: tomosha ko‘rsatolmay qolasiz. Siz yaxshisi... ha, ha, siz menga otam haqidagi cho‘pchakni yana bir qaytaring-chi. Nahotki, u qorong‘ilik qa‘rida yo‘q bo‘lib ketdi? Nahotki, siz hech qachon shu taxlit otam kimligini bilolmadingiz? G‘alati, judayam g‘alati...

– Faqat ovozini eshitganman, yuzini ko‘rmaganman, – javob berdi ona asta.

– Ana, ana, siz mening gaplarimga qo‘shilavereng, ma‘qullayering. Shu taxlit birgalashib, uning suratini chizamiz. Balki qoch-

qin dengizchiga aylantirarmiz, – Sinsinnat barmoqlarini qisirlatib, kamera bo‘ylab yurarkan, achchiq bir alam bilan davom etdi, – yoki tomoshabog‘ga kelib tirikchilik qilayotgan, o‘rmonda uchraydigan qaroqchi qilganimiz yaxshimi? Yoki, deylik, ichkilikka berilib ketgan duradgormi, tadbirkormi... Tez, tezroq o‘ylang, vaqt ziq.

– Siz tushunmayapsiz, – dedi ona (hayajon ichida o‘rnidan turdi va shu zahoti yana o‘tirdi), – men hatto uning kimligini bilmayman, darbadarmi, qochqinmi, hamma narsa bo‘lishi mumkin. Siz tushunmayapsiz... ha, bayram kuni edi, tomoshabog‘ qorong‘i edi, men esa yoshgina qizaloq edim, axir, gap bunda emas-ku! Axir, aldanish mumkin emas! O‘zini tiriklay yoqib yuborayotgan odam, hoynahoy, bizning Stropda cho‘milmaydi. Ya’ni, men aytmoqchimanki: xato qilish mumkin emas... Obbo, nahotki, siz tushunmayotgan bo‘lsangiz!

– Niman tushunmayapman?

– Sinsinnat, bolam, u, – u ham...

– Nima u ham?

– U ham xuddi sizga o‘xshaydi, Sinsinnat...

Ona boshini egdi, ko‘zoynagini tushirib yubordi.

Jimlik.

– Siz buni qayerdan bilasiz? – norozi ohangda so‘radi Sinsinnat. – Qanday qilib, darhol bilib qoldingiz?

– Men sizga boshqa hech narsa aytolmayman, – dedi ona, boshini egib, ko‘zlarini yerga qadab.

Sinsinnat yotog‘iga o‘tirib, o‘ylanib qoldi. Onasi burun qoqdi va ana shunday kichkina ayoldan kutish mumkin bo‘lmagan judayam yoqimli ohangda nimadir shivirladi, keyin tepadagi deraza raxiga qaradi. Osmon ochilganga o‘xshardi, quyosh o‘zining taram-taram nurlarini xonaga socha boshlagandi.

– Hozir havo o‘zgaryapti, – dedi ona tez-tez, – tashqarida havo shunchalar toza, musaffoki: tevarak-atrof yop-yorug‘ va betinim. Men bu yerdan uzoqda yashayman, Doktorskiyda. Qachon sizlar tomon-ga – shaharga kelsam, eski aravada, dalalar oralab kelayotganimda yonimizda Strop yaltillab, shovullaydi. Men shu qal'a joylashgan do‘nglikni ham ko‘raman. Binobarin hamisha menga hammasi, o‘sha qandaydir go‘zal, men tushunishga ulgurmaydigan, tushunmaydigan, tarix yana va yana takrorlanaveradiganday tuyulaveradi. Shunga qaramay, kimdir, chidam bilan menga uni yana takror va tak-

ror ko'rsataveradi. Men o'zim istiqomat qiladigan yetimxonada kun bo'yи ishlayman, menga hammasi baribir, mening oshiqlarim ko'п, men muzli limonadni juda yaxshi ko'raman. Lekin chekishni tashladim, chunki aorta qon tomirlarim kengayib ketibdi... Xullas, mana, sizning qoshingizda o'tiribman va nima deyishni, nima qilishni, o'zimni qanday tutishni bilmayapman... Nega bu gaplarni aptyapman, nega o'tiribman, nega yig'i-sig'i qilyapman... Momaqaldiroqli yomg'irdan keyin havo qizib ketadi. Men bu paltomda terga botib qolaman...

– Nima bo'lgandayam, buning hammasi tomosha, – shivirladi Sinsinnat. Ona savol nazari bilan kulimsiradi.

– Mana shu o'rgimchak kabi, mana shu panjara kabi, mana shu soatning jarangi kabi, – shivirladi Sinsinnat.

– Shunaqami? – dedi ona, yana burun qoqib.

– Demak, shunaqa.

Ikkovlon bir-biriga qaramay, jim qolishdi. Ana shu maqsadsiz jimglik aro soat chiqillashi eshitilib turardi.

– Siz chiqqaningizda dahlizdagи soatga e'tibor bering, – dedi Sinsinnat. – Shunchaki oddiy soat u. Ammo har yarim soatda qorovul uning eski millarini tozalab yuvadi, yangisini esa bo'yaydi. Mana shu taxlit bo'yalgan hayot bo'ylab, qadam bosamiz.

– Siz hazillashmayapsizmi, – dedi Sesiliya S., – judayam alomat belgilar bo'ladi. Mana, xotiramda saqlanib qolgani: siz hali bola paytingiz kattalar orasida ham, bolalar orasida ham bir «noaniq» nomli o'yin odat tarziga aylangandi. Demak, alohida ko'zgu olasiz. Ko'zgu shunchaki qiyshiq ham emas, balki mutlaqo buzuq tus olgan bo'lishi talab etilardi: unga qarab hech narsani tushunib bo'lmaslik kerak. Ko'zguning buzuqligi oddiy emas, u ataylab qiyshaytirilgan... Yoki ataylab, shu taxlit yasalgan... To'xtang, men yaxshi tushuntirolmayapman. Xullas, bir so'z bilan aytganda, sizda ana shunaqa qiyshiq ko'zgu bo'lardi va o'nlab «noaniq» o'yinchoqlar, ya'ni mutlaqo hech narsaga yaramaydigan, arzimaydigan narsalar. Xullas, agar siz hech narsaga arzimaydigan qiyshiq narsalarni qiyshiq ko'zguga solsangiz, juda zo'r ish sodir bo'lardi. Noaniq, buzuq narsaga – noaniq, buzuq ko'zgu mos tusharkan-da. Masalan, buyurtma bo'yicha sizga qandaydir bemaza ovqatni berishardi, buzuq ko'zguning kaliti sizda edi, siz uni buzuq ko'zguga solardingiz va bo'tqa ajoyib tuyulardi...

– Siz bularni nega menga hikoya qilyapsiz? – so‘radi Sinsinnat.

Onasi jimib qoldi.

– Nega, deyapsizmi? Nahotki, sizni ertaga yo...

Sinsinnat nogoh Sesiliya S.ning bir lahzalik ko‘z qarashlari ga e‘tibor qaratdi. Aynan shu bir lahma ichida (bu noaniq dunyoda) qandaydir aniqlik balq etib yuzaga chiqdi. Onasining bir lahzalik qarashida Sinsinnat o‘sha, eng oxirgi, eng to‘g‘ri, hammasini tushuntiradigan oxirgi nuqtani angladi. Bu nuqta nima haqda oh urardi? Ahamiyati yo‘q. Qo‘rquinch bo‘lsin, yupanch bo‘lsin, boshqa bo‘lsin, ahamiyati yo‘q, asosiysi, to‘g‘ri so‘z. Yanayam aniqrog‘i: ana shu nuqtaning o‘zi haqiqat bo‘ronini anglatardi. Shu sababli Sinsinnatni aldab bo‘lmasdi. Ana shu lahma Sinsinnatning butun vujudini qamrab oldi. Sesiliya S. o‘rnidan turdi, kichkina, aql bovar qilmas harakat bilan ko‘rsatkich barmoqlarini cho‘zib, go‘yoki chaqaloqning bo‘yi, enini ko‘rsatdi... Keyin birdan besaranjom bo‘ldi, yerdan qora, semiz sumkasini oldi, sumkaning kissasini to‘g‘riladi.

– Xullas, mana, o‘tirdim, endi qaytaman. Mening konfetlarimni yeng. Ko‘p o‘tirib qoldim. Kechikyapman, bo‘pti, men ketdim.

– Ha, ha, shunaqa! – dedi Rodrig Ivanovich, eshikni ocharkan, qo‘rquinchli xushkayfiyat bilan. Ona boshini egib, tashqariga chiqib ketdi. Sinsinnat qaltirab, onasining ortidan yurmoqchi edi...

– Bezovta bo‘lmang, – dedi direktor, kaftini ko‘tarib, – bu akusherkaning bizga hech qanday xavfi yo‘q. Joyingizga qayting.

– Har qalay... – Sinsinnat boshladi.

– O‘tiring! – baqirib berdi Rodrig Ivanovich.

Bu orada dahlizning bir chetida yo‘l-yo‘l kiyimli msye Pyer ko‘zga tashlandi. U xursand kulimsiragancha, qadamini sekinlashtirib, ammo ko‘zlari janjalga aralashib qolgan odamning ko‘zlari misol besaranjom yugurgilab, asbob-anjomini ko‘tarib kelardi...

– Mehmon keldimi? – so‘radi u nazokat bilan, ikkovi kamerada yolg‘iz qolganda. – Onangizmi? Shunday, shundaaay. Men esa – kambag‘al, noiloj msye Pyer sizni chalg‘itishga, shu asnoda o‘zim ham chalg‘ish uchun kelyapman. Qarang, u sizga qanaqa qara-yapti. Kulaverib, qotib qolasan, to‘g‘rimi? Men sizga yana ancha chalg‘itadigan narsalar keltirdim. Shohmot o‘ynashni istaysizmi? Yo qarta ma‘qulmi? Juda zavqli o‘yin. Keling, men sizga o‘rgataman!.

Kutdi, kutdi va nihoyat, hamma uxlaganda kecha tundagi ovozlar yana do‘qillay boshladi. Qorong‘ilikda bir o‘zi yotgan Sinsinnat kulimsiradi. Bu ham aldamchilik ekaniga ishonchim komil, ammo o‘zimni go‘yo ishonayotganday qilib ko‘rsatishimni istashar ekan, nimayam derdik.

Ovozlar kechagiga nisbatan dadilroq va aniqroq edi; shunchaki urishmayotgandi; dukullash tobora u tomonga yaqinlashib kelayotgandimi? Kamtarlik! Oqillik! Yashirin, hisob-kitobli tirish-qoqlik! Oddiy cho‘kich bilanmi yoki boshqa bir asbob topganmi, nima bo‘lganda ham, kimdir qandaydir yo‘l bilan o‘ziga yo‘l ocha-yotgandi.

Sovuq tun; o‘roqday oyning shu’lasi panjaralarga urilib, deraza tagida bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ko‘zga tashlanadi; his-hayajonsiz qop-qora tun. Ana shunday holatda o‘rnashib qolgan an’analarga bo‘y-sunishni istamagan bir kuch o‘ziga yo‘l izlardi. Yoki buning hammasi eski momolardan qolgan ertakmi, Sinsinnat?

U bo‘ysunuvchan stulni olib, yerga qattiqroq urdi, keyin devorga bir necha bor bir alfovza urib, qandaydir ma‘no berishga intildi. Ha-qiqatan ham tun qa‘rida o‘ziga yo‘l ochayotgan do‘qillash bir muddat tindi. Go‘yo qarama-qarshi tomondagi do‘qillash do‘slikmi, dushmanlikmi, aniqlashni istardi. Nogoh u do‘qillash yana bir maramda davom etdiki, Sinsinnat harakati beiz ketmaganini anglab yetdi.

U tushundi – ha, aynan u tomonga kelishayotgandi, uni qutqarishmoqchi edi. Shu sababli u vaqtı-vaqtı bilan toshlarning aks sado beruvchi qismlariga urib, narigi tomondagi choh qazuvchiga signal jo‘natib turdi va o‘zaro tushunishlari mumkin bo‘lgan ohanglarni ham izlab ko‘rdi va narigi tomonga taklif berdi.

Sinsinnat hatto o‘zaro harflar, so‘zlar tizimini ham yaratmoqchi bo‘ldi, ammo nogoh oyning emas, balki quyosh nuri kameraga tushayotganini bilib qoldi. Shu onda do‘qillash yana davom etdi. Qo‘shimchasiga, nimadir uzoq vaqt shivirlab to‘kildi va asta-sekin tinchidi...

U uyqu aralash Rodion kirib kelganini angladi, bilsa, tush vaqtı o‘tib ketibdi. O‘rnidan turib doimgiday angladiki, demak, bugun ham

emas. Balki bugun bo‘larmidi, balki ertagadir, ammo ertagacha hali uzoq fursat bor.

Kun bo‘yi u quloqlari tagida do‘qillashning aks sadosini his qilib yurdi.

Asta ovoz chiqarib, o‘z-o‘zi bilan salomlashdi; stol atrofida yurdi, stolda esa jo‘natilmagan maktub; kechagi mehmon ayol esiga tushdi; keyin Emmochkaning shovqin-suroni qulog‘iga chalindi. Bo‘pti, ana shu umidning quyuq, shirin go‘jasini ich. Ha, mening umidlarim amalga oshmadi, men o‘ylagandimki, hech bo‘lmasa endi, mana shu yolg‘izlikda va mana shu hurmatda umid menga ikki qanotini yozib, ikkimizning bag‘rimizga otiladi... men esa... men hatto sening yoningga borolmadim, sening vajohati yomon otang sal bo‘lmasa mening oyoqlarimni hassasi bilan urib sindiradigan bo‘ldi. Shu sababli yoz-yapman, Marfinka, nima bo‘layotganini senga tushuntirish uchun bu mening oxirgi urinishim. Iltimos, o‘zingni bir marta majburla va meni salgina tushunishga harakat qil. Marfinka, meni o‘ldirishadi, meni tushunish nahotki shunchalar qiyin? Men sendan uzoq vaqt motam tutib, qora kiyib, oh-voh qilib yurishingni iltimos qilmayapman. Hozir, bugun men istaymanki, meni qatl qilishlari mumkinligini; bu juda yomonligini his qilishingni; va yosh bola kabi dahshatga tushishingni; tunlari uxlayotganingda dod deb baqrib, uyg‘onib ketishingni; va o‘shanda enagang yugurib kelib, seni yupatishini istayman. Marfinka, bilaman, sen meni sevmaysan, ammo sen ana shu lahzani tushunib yetishing kerak, keyin, mayli, yana uxlayver. Men qanday usulda seni bezovta qilishim mumkin? Ha, ikkimizning birgalikdagι hayotimiz dahshat edi, buni aytsam, sen pinagingni buzmaysan. Boshida men juda qattiq harakat qildim, lekin hech narsaga erisha olmadim. Chunki biz mutlaqo bir-biriga yaqinlasholmaydigan toifa odamlar edik. Shuni tushundim-u, qo‘limni yuvib, qo‘ltig‘imga urdim. Sening mag‘rur, mahkam, achchiq azoblarga to‘la, kichkina vujudingga necha kishining qo‘li tekkanini ayta olasanmi? Ha, men yana sharpamisol sening birinchi xiyonatlaringga qaytyapman va dod solib, vujudimni o‘ragan zanjirlarni shiqirlatib, ular orasida suzib yuribman. Sening o‘pishishlarining kuzatganlarim-chi? Sizlarning o‘sha o‘pishishlarining go‘yo ovqatlanishga o‘xshardi: bir maromda, tartibsiz, shovqinli. Agar men nogoh oldilaringga kirib qolsam, yigitning meni ko‘rib qolsa, darhol sen tomonga o‘girilsa... Sen esa: «Mar-

finkaga har qanaqa meva ma'qul kelaveradi», deganding, qandaydir rohatlanib, maza qilib... Men nega bularning barini takrorlayapman, balki bu jaholat orasidan o'zimni qutqarmoqchidirman, o'zimni to-zalamoqchidirman va yana bilishingni istardimki... Nimani? Hoynahoy, men seni boshqacha tasavvur qilgan edim, shekilli. Umid qilgandimki, sen meni tushunasan, ammo... Marfinka, qanaqadir ana shu aylanada ikkimiz chirpirak bo'lib yotibmiz. O, qaniydi bir daqiqa bo'lsin ana shu aylanadan chiqolsang edi va meni o'ldirayotganlarini, biz qo'g'irchoqlar davrasida yashayotganimizni va sening o'zing ham o'sha qo'g'irchoqlarning biri ekaningni tushunolsang edi. Mayli, keyin o'z dunyongga qaytaver. Sening xiyonatlaring meni nega bunchalar qiyaganini tushunmayman. Aniqrog'i tushunaman, biroq o'z holimni senga tushuntirish uchun kerakli so'zlarni topolmaganimdan juda azoblanardim. Ammo baribir, men yana bir bor urinib ko'raman: «Meni o'ldirishyapti!». O'o'o', yaxshi, yana bir marta: «Meni o'ldirishyapti!». Yana bir bor: «... o'ldirishyapti!» Men bu iborani shunday yozishni istaymanki, sen quloqlarini yopib olsang, o'sha yupqa, maymunnikiga o'xshash, taram-taram, g'oyatda nafis va quyuq sochlaring orasida bekinib turadigan quloqlaringni yopib olsang... Ammo men bilaman, men ko'rib turibman, men sovuq quloqlaringni chimchilayapman, barmoqlarim orasida ezg'ilayapman, shu taxlit ularni isitmoqchiman, odamnikiga aylantirmoqchiman va shu taxlit meni eshitishga majburlamoqchiman. Marfinka, sen yana uchrashuv talab qilishing kerak va albatta, bir o'zing kel! Xullas, mening hayot degan narsam tugab bo'ldi, mening qoshimda qonlari silqib turgan to'nka qoldi. Turma xodimlari meni shu darajaga yetkazishga ulgurishdiki, hatto mening yozuвлarim mast-alast bo'lib, qaltanglayapti. Ammo men chidayman. Marfinka, sen bilan bir marta bo'lsin, chin yurakdan suhbat qurishga kuchim yetadi. Bunaqa suhbatni biz hech qachon qurmaganmiz, ishon, shu sababli sen yana bir marta kelishing shart. O'ylama, bu xat yolg'on, deb. Men, Sinsinnat, haqiqatan ham ushbu xatni o'z qo'lim bilan yozyapman, Men yig'layapman, men iltimos qilyapman. Men stol atrofida yurganimda Rodion tushlik olib keldi, men esa bunday dedim:

– Mana bu xat... Mana bu xat, men iltimos qilamanki... Mana bu yerda manzili yozilgan...

– Siz, yaxshisi, boshqalarga o‘xshab, to‘qishni o‘rganganingizda soz bo‘larmidi, – to‘ng‘illadi Rodion, – va o‘shanda menga sharf to‘qib berarmidingiz. Yozuvchi! Axir, yaqindagina xotiningiz bilan uchrashdingiz-ku.

– Har ehtimolga qarshi yana bir marta so‘rashga urinib ko‘raman, – dedi Sinsinnat, – bu yerda men va yelimday yopishqoq Pyerdan boshqa tag‘in mahbuslar bormi?

Rodion tutaqib ketdi, ammo-lekin o‘zini bosdi.

– Erkak hali kelmadimi? – so‘radi Sinsinnat.

Rodion g‘azab bilan eshikni g‘ichirlatib yopmoqchi bo‘layotgandi, xuddi kechagiday, yo‘l-yo‘l kiyimida badanlari dirillab, qo‘llarida shohmot, qarta tutgancha, msye Pyer paydo bo‘ldi.

– Savlatli Rodionga mendan alangali salomlar, – dedi u va qadamini sekinlatmay, ichkariga kirib oldi.

– Bilishimcha, savlatli Rodion sizning maktubingizni olib ketdi, – dedi msye Pyer, o‘tirarkan, – kecha shu yerda yotgan xat, to‘g‘rimi? Xotiningizgami? Yo‘q, aslo shubhalanmang, shunchaki... men birov-larning xatini o‘qimayman. Faqat stol ustida ko‘zga tashlanib turgandi, shu sababli nazar tashlaganman. Shohmot o‘ynashni istamaysizmi?

U shohmot taxtasini yozib, sipohlarni terdi. Sipohlar mahbuslar tavsiyasiga binoan xamirdan yasalgan bo‘lsa-da, mahkamlikda har qanday qattiq toshdan qolishmasdi.

– Men uylanmaganman, ammo tushunaman, albatta... Olg‘a! Men tez yuraman... Yaxshi o‘yinchilar hech qachon uzoq o‘ylashmaydi. O‘yichi o‘yini o‘ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi. Olg‘a! Sizning xotiningizni men sal-pal ilg‘adim. O‘o‘o‘, gap yo‘q, nimayam deyish mumkin, bo‘yni judayam chiroqli, zo‘r, shunaqa ayollarni... To‘xtang, men adashib ketdim. Qaytadan yurishga ruxsat bering. Shunda to‘g‘ri bo‘ladi. Men ayollarni juda yaxshi ko‘raman, ular ham meni ko‘rganda o‘zlarini sira tuta olishmaydi, bunga hatto o‘zimning ham ishongim kelmaydi. Ablah – ular! Mana, masalan, siz xotiningizga uning malohatli lablari, chiroqli ko‘zları haqida yozdingiz. Yaqinda, bilasizmi, shunday voqeа sodir bo‘ldiki... Nega men uni yeb qo‘yishim mumkin emas? Haaa, mana gap nimada. Bo‘pti, ketdi. Men yaqinda mutlaqo sog‘lom va juda baquvvat bir ayol bilan ishqil pinhonda bo‘ldim. Shunaqa maza bo‘ldiki, ehhh!... Nima bu? Shunaqasiyam bo‘ladimi, a? Yaxshi emas, siz ogohlantirishngiz kerak edi. Keling,

men boshqacha yuray. Ana shunday. Qaddi-qomati shunaqangi kelishgan, hissiyotlarga boy, agar bilsangiz men ham, prujinaday... Umuman, hayot lazzatlariga – go‘yo o‘yinqaroqlik bilan, aslida juda ham jiddiy tarzda – sizning e‘tiboringizni qaratmoqchiman, masalan, muhabbat... Yo‘q, shoshmay turing, men hali bunday yuramanmi, yo‘qmi, hal qilganim yo‘q, qaytib olaman. Bo‘pti, yurdim. Nima? Mot? Nimaga mot bo‘lar ekan? Bu yoqqa yurolmayman, bu yoqqa-yam yurolmayman, bu yoqqa esa... yurolmayman. To‘xtang, avval qay holda turgan edi? Yo‘q, undan ham avval. Ha, mana endi bu boshqa masala. Esnoq. Yurdim. Ha, tishlarida qizil atirgul, o‘sha joylarida qora yaltiroq paypoq va boshqa hech qanaqa kiyimi yo‘q, buni men tushunaman, bu eng olivy... Va mana endi o‘sha zavq-shavqlar o‘rniga mana bu panjaralar, namxush yer, zanglagen temir, oldinda esa... oldinda nima borligini o‘zingiz bilasiz. E‘tibor qilmabman. Bunday yoursak-chi? Bu partiyani baribir men yutib olaman. Siz xato ortidan xatoga yo‘l qo‘yyapsiz. Bo‘pti, u sizga xiyonat qilardi, ammo siz ham uni quchoqlagansiz-ku. Menden maslahat so‘raganlarida men hamisha deyman: janoblar, ko‘proq yangiliklar topping. O‘shanda hammasi juda zo‘r bo‘ladi. Mana bu esa aslo zo‘r emas. Chin so‘zim, men bu yoqqa yurmoqchi emasdum, faqat siz tushunmagansiz... Ortga qaytarib olaman. Shu taxlit o‘sha payt sigareta chekishni va arzimagan narsalar haqida suhbatlashishni yaxshi ko‘raman. Ayol ham gapirsin, senga suykalsin – nimayam qillardik, hayot shunaqa... Ha, «kechir» deyish – dahshat, judayam og‘ir va judayam alamli. Axir, sen chetga chiqib qolganing bilan ular... To‘xtang, to‘xtang, bu yurishni men hali o‘ylab ko‘rishim kerak. Oxirida nimani yurgandingiz? Ortga qaytaring, men o‘ylab olishim kerak. Bekor gap, hech qanaqa mot yo‘q. Siz, mening nazarimda, mana shu o‘rinda nimadir qildingiz, mana shu toshingiz boshqa joyda turgandi menimcha. Men aniq bilaman, o‘rnini almashtirib qo‘ygansiz. Qo‘ying, qo‘ying...

U go‘yo o‘zi xohlamasdan, nogoh bir nechta toshni yiqitib qo‘ydi, keyin qolganlarini ham aralashtirib yubordi. Sinsinnat bir qo‘lini iyagiga tiragancha, xayol surib o‘tirardi. U o‘ychan tarzda otning bo‘ynini ezg‘ilardi, ot esa, aftidan, o‘zi chiqqan xamir uyumiga qaytib borishga qarshi emasdi.

– Boshqa o‘yin o‘ynaymiz, boshqa o‘yin o‘ynaymiz, siz shohmot o‘ynashni bilmas ekansiz, – deya shosha-pisha qichqirarkan, msye

Pyer g'ozlar o'yiniga mo'ljallangan, yorqin rangga bo'yalgan taxtani o'rta ga yozdi.

Suyak tashladi va darhol uchdan yigirma yettiga ko'tarildi. Keyin yana pastga tushib ketdi, ammo Sinsinnat yigirma ikkidan qirq oltiga ko'tarildi. O'yin uzoq davom etdi. Msye Pyer xo'jag'atday qizil tusga kirdi, yer tepar, achchiqlanar, suyak izlab, stol tagiga qo'l yogurtirar, olib chiqar va ular yerda aynan shu alfozda yotgandi, deb qasam ichardi.

– Nimaga bunchalar sasib boryapsiz? – so'radi Sinsinnat uf torrib.

Msyey Pyerning semiz yuzi majburiy tabassum tufayli burishib ketdi.

– Bizning oilamizda shunaqa, – dedi u faxr bilan. – Oyoqlarimiz terlab ketaveradi. Hal xil usullarni sinab ko'rganman, yordam bermayapti. Bolalikdan bu dardni yengolmayotgan bo'lsam-da, har qanday dardga nisbatan hurmat bilan yondoshish talab etiladi va bu qadar o'yamasdan gap so'rash...

– Men nafas ololmayapman, – dedi Sinsinnat.

XIV

Ular bir-biriga yanada yaqin edilar va endi shu qadar shosha-dilarki, ularga savol berib chalg'itish gunoh edi. Keyin Sinsinnat quyosh nuri urganday, ikki bukilib yotdi va o'z his-hayajonlariga burkanib, yashirin yer osti yo'lagi borgan sari uzayayotganini tingladi. Go'yo uning ko'kragidagi azoblarni yengillashtirishayotganday, ustida qalashib yotgan toshlar har tomonga tushib ketayotganday, mana, hozir, bir necha fursatdan so'ng devorning qayeridir lopillab tushib ketadi-yu, yo'lak ochiladiganday tuyulaverdi.

Rodion kelganda ham yorilishga o'xshash shovqinlar davom etardi. Uning ortidan jundan to'qilgan, shotlandcha to'rtburchakli ko'ylakda Emmochka kirdi va bir safardagidek, egilib, bukilib, stol tagiga yashirindi. Uning mayin sochlari yuzini, tizzalarini va hatto tovonlarini ham yashirdi. Rodion chiqib ketgandan u stol tagidan chiqdi va to'g'ri yotog'ida o'tirgan Sinsinnatga otildi, uni yiqitib, ustida aylana boshladи. Uning yalang'och, qaynoq qo'llarining sovuq barmoqlari uning badanlariga qadalar, tishlarini g'ijirlatar, old tishlari-ga qandaydir yashil bargning bir bo'lagi yopishib qolgandi.

– Tinch o‘tir, – dedi Sinsinnat, – men charchaganman, tun bo‘yi uxlamadim, tinch o‘tir va menga ayтиб ber-chi...

Emmochka harakatlarini davom ettirarkan, peshanasini uning ko‘kragiga bosdi; sochlari har tomonga tarqab ketgani va ko‘ylagining ort tomonida kesik joyi bo‘lgani sababli yelkasining yuqori ochiq qismi ko‘zga tashlandi.

Sinsinnat uning issiq boshini silab, ko‘tarishga urindi. Barmoqlarini ushladi va shoshgancha lablariga bosa boshladi.

– Qaldirg‘ochim, – dedi Sinsinnat uyqusirab, – bo‘ldi, yetarli, bo‘ldi. Menga ayt-chi...

Biroq qiz bolalarcha sho‘xlikni davom ettiraverdi. Bu baquvvat qizaloq Sinsinnatni kuchukchani ezg‘ilaganday, u yoq-bu yoqqa ag‘darardi.

– To‘xtasang-chi! – qichqirdi Sinsinnat. – Uyalmaysanmi?

– Ertaga, – dedi u nogoh, uni quchoqlab, ko‘zlariga tikilarkan.

– Ertaga o‘lanammi? – so‘radi Sinsinnat.

– Yo‘q, ertaga qutqaraman, – dedi Emmochka o‘ychan, erkaliklарини to‘xtatarkan. U Sinsinnatning ustida o‘tirardi.

– Juda zo‘r-ku, – dedi Sinsinnat, – to‘rt tarafdan qutqaruvchilar! Allaqachonlar kerak edi bu ish. Yo‘qsa, men bu yerda jinni bo‘lib qolaman. Iltimos, ustimdan tush, judayam og‘ir ekansan, terlab ketdim.

– Biz qochib ketamiz, keyin siz menga uylanasisiz.

– Balkim, ulg‘ayganingda; ammo hozircha mening xotinim bor.

– Semiz, qari kampir, – dedi Emmochka.

U yotoqdan yerga tushib, kamera bo‘ylab, raqqosalar kabi, uzun-uzun qadamlar bilan, sochlari silkitib yugurdi. Keyin go‘yo ucha-yotganday sakradi va nihoyat bir joyda to‘xtab, qo‘llarini yoygancha, aylana ketdi.

– Tezda maktab boshlanadi, – dedi Emmochka.

Sinsinnat ko‘zlarini qisib, uning qiliqlarini kuzatarkan, tobora uyquisi kelardi.

– Oh, Emmochka, yodingda tut, yodingda tut, yodingda tut, va‘dangni unutma. Ertaga! Ayt-chi, sen bu ishni qanday tashkillash-tirmoqchisan?

– Qulog‘ingizni tuting, – dedi Emmochka.

Sinsinnatning bo‘ynidan bir qo‘li bilan quchoqlab, u qaynoq, namxush va mutlaqo tushunib bo‘lmaydigan so‘zlarni uning qulog‘iga aytdi.

– Hech narsa eshitmayapman, – dedi Sinsinnat.

Emmochka chidamasdan o‘z yuzidan sochlarini sidirib tashladi, yana yuzini bosdi.

– Bu... bu... bu... – g‘o‘ldirladi u va sakrab turib ketdi va mana endi, sal narida nafas rostlardi.

– Har qalay, men judayam umid qilyapman, – dedi Sinsinnat, bat tar uyqu bosib, g‘o‘ng‘illayotgan qulog‘ini asta yostiqqa burkadi.

Uyquga ketarkan, u Emmochka ustidan sakrab, u yoq-bu yoqqa o‘tib yurganini his qildi. Uyqusidagi tushmidi, o‘ngmidi, kimdir yo Emmochkaning o‘zimidi, bitta matoni oldi, chetlarini bukladi, kafti bilan silab-siypaladi va Emmochkaning qichqirig‘idan bir da-qiqaga ko‘zi ochildi: Emmochkani Rodion qo‘ltiqlab olib chiqib ketayotgandi.

Keyin u devor ortidagi juda istalgan duk-duklar yana boshlanganini sezdi... Qiyin-ov! Axir, kunduz kuni... Lekin ular kutib turomasdilar, shu sababli asta unga tomon siljirdilar, yaqin, yanayam yaqinlashardilar. Shu sababli u qo‘riqchilar bilib qolishidan qo‘r-qib, ularni chalg‘itish ilinjida kamera bo‘ylab, yura boshladi: yo‘tarlar, yer tepar, qo‘sish xirgoyi qilardi. Kuchli hayajon bilan stulga o‘tirganda dukullash ham to‘xtadi.

Kechga tomon esa odat tusiga kirayotgan holat takrorlandi. Msye Pyer mato do‘ppida, o‘z uyiga kirib kelayotganday, bermalol kirib kelib, Sinsinnatning yotog‘iga o‘tirdi va uzun trubkasini pishillatib, tutatarkan, iyagiga qo‘lini tiradi. Sinsinnat stol yonida o‘tirgancha, ovqatlanardi.

– Muhabbat lazzatlari, – dedi msye Pyer, – eng go‘zal va kerakli jismoniy mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Men «yordamida» dedim. Ammo buning boshqacha usullariyam bor. Masalan «ovlash yo‘li bilan» yoki «o‘lja» desak yanayam aniqroq va to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki suhbatimiz aynan rejali va uzlusiz harakatlar vositasida ana shu o‘ljaga erishish haqidagi boradi...

Shu payt direktor uni payqab qolmasliklari uchun oyoq uchida ichkariga kirdi va o‘zi keltirgan kursiga o‘tirdi. Msye Pyer uning ochiqko‘ngillik bilan kirganiga e’tibor qaratdi.

– Davom eting, davom eting, – shivirladi direktor, – men eshitish uchun kirdim. Judayam charchab ketganman. Devorga suyanib o‘tiraman.

– Charchoq o‘tib ketadi, – dedi msye Pyer. – Xullas, davom etishga ruxsat bering. Biz bu yerda, Rodrig Ivanovich, hayot lazzatlari ha-qida umumiy tasavvurga ega bo‘lishga urinayotgandik.

– Tushunaman, – dedi direktor.

– Men keyingi nuqtalarni eslab qolaman, do‘stim, sizga uzr, Rodrig Ivanovich ham fikrimni tushunib olishi uchun barchasini yana takrorlashga majburman. Rodrig Ivanovich, men aytdimki, o‘limga hukm qilingan odamga ayolni, ayolning o‘ziga chorlovchi ta’mini unutish judayam qiyin.

– Va oydin tunlarning lazzatlari, – o‘zidan qo‘shdi Rodrig Ivanovich, Sinsinnatga jiddiy qarab olarkan.

– Yo‘q, siz men fikrimni o‘zim rivojlantirishimga xalaqit bermang. Gapirgingiz kelsa, keyin aytarsiz. Xullas, men davom etaman. Muhabbat lazzatlaridan tashqari, yana bir qanchasi ham borki, biz endi o‘sha mavzuga o‘tamiz. Siz, albatta, xushhavo bahor kunlarida ko‘ksingiz kengayib, chuqur nafas olayotganiningizi necha bor his qilgansiz. Birinchi kamtarin gulchalar o‘tlar orasidan bosh ko‘tarib, go‘yo hissiyoti tabiat shaydosini o‘ziga chorlayotgandir. Balki: «O, jonimiz og‘riydi, bizni yulma, bizning umrimiz g‘oyatda qisqa», deya o‘tinayotgandir. Qushlar sayray boshlaganda va daraxtlarda birinchi kurtaklar paydo bo‘la boshlagandayam ko‘kraklar kengayib, chuqur nafas ola boshlaysiz. Hamma quvnaydi, hamma bayram qiladi.

– Ustalik bilan aprelni tasvirlayapsiz, – dedi direktor.

– Men ishonamanki, bu tuyg‘ularni har bir odam o‘z boshidan kechirgan, – davom etdi msye Pyer, – va endi, bugun-erta bo‘ynimiz to‘nkaga qo‘yiladigan fursat yetganda bahorning ana shunday lah-zalarini eslasangiz, beixtiyor qichqirib yuborasiz: «O, qayt, qayt; seni yana bir marta his qilib o‘tishimga imkon ber». O‘tishimga, – takrorladi msye Pyer, qo‘lida ushlab turgan kichkina tugunchaga ochiqcha tikilar-kan. – Endi esa ruhiy lazzatlarga to‘xtalamiz. Buni biz san’at namunalaridan lazzatlanish, deb atasak ham bo‘ladi va u hayotimizda ozmun-chaga joyni egallamaydi. Eslang-a, qandaydir ulkan suratlar yo‘lagida yoki muzeyda nogoh to‘xtadingiz va bir suratdan yoki deylik, birinj yoki marmardan yasalgan yodgorlikdan ko‘z uzolmay qoldingiz.

– Bo‘lib turadi bunaqasi, – dedi Rodrig Ivanovich, Sinsinnatga qarab olarkan.

– Oziq-ovqatlardan lazzatlanish, – davom etdi msye Pyer. – Qarang: mana – mevalarning eng sara navlari daraxtlarda osilib turibdi; mana – qassob va uning yordamchilari cho‘chqani chiyillatib, ushlab kelishyapti; mana – chiroyli idishda cho‘chqanining oppoq yog‘i; mana – gilosdan tayyorlangan oshxona musallasi; mana – baliq, bosh-qalarni bilmadim-u, ammo men cho‘rtan baliqning shaydosiman.

– Ma’qullayman, – dedi Rodrig Ivanovich.

– Bu go‘zal davrani tark etishga to‘g‘ri keladi. Yana ko‘plab narsalarni tark etishga to‘g‘ri keladi: tantanali musiqalarni; sevimli narsalarni, deylik, fotoapparatni, do‘stona suhbatlarni; hojatxonaga o‘tib, tabiiy ehtiyojlarni maza qilib qondirish; kerak bo‘lsa, bu ba‘zilarga muhabbat ehtiyojlarini qondirish bilan barobar lazzat bag‘ishlaydi; tushdan keyingi uyqu; chekish... Yana nima? Sevimli narsalar, e, yo‘q, bu haqda gapirdik. Lazzatlanish... bu haqdayam so‘z yuritdik. Xullas, yana boshqa bir qancha mayda-chuydalar...

– Nimalarnidir qo‘sksam maylimi? – dedi direktor ma‘qul kelishga urinib, ammo msye Pyer uni qayirib tashladi:

– Yo‘q, shu yog‘i yetarli. Men o‘ylaymanki, hamkasbim oldiga lazzatlar ro‘yxatini qatorlashtirib tizib tashladim...

– Men faqat yeydigan narsa haqida gapirmoqchiydim, – dedi direktor ovozini pastlatib. – Menimcha, bu o‘rinda salgina kengroq fikrlash joiz. Masalan... bo‘pti, bo‘pti, indamadim, – dedi direktor qo‘rqib ketib, msye Pyerning vajohatiga ko‘zi tusharkan.

– Xullas, – msye Pyer Sinsinnatga o‘girildi, – bunga siz nima deysiz?

– Nimayam derdim, – dedi Sinsinnat, – uyqusirab sandirash...

– Tuzatib bo‘lmas ekan buni! – Rodrig Ivanovich achchiqlandi.

– U ataylab shunaqa deyapti, – dedi msye Pyer, dahshatli, yaltiroq tabassum bilan. – Ishoning, men aytgan narsalarning hammasiga fahmi yetib turibdi.

– Ammo baribir, nimalarnidir tushunmayapti, – murosasozlik bilan dedi Rodrig Ivanovich, – u agar chin yurakdan biz hammamiz sevadigan, masalan, toshbaqali sho‘rvani sevishini tan olsa va xato qilayotganiga iqror bo‘lsa, o‘shanda balki, qandaydir umidvorlik paydo bo‘larmidi, har qalay-da...

— Jismoniy mashqlarga to‘xtalmabman, — dedi msye Pyer shivirlab, qo‘lidagi qog‘ozga qarab olarkan. — Obbo, endi nima qilamiz?

— Siz hammasini juda zo‘r aytdingiz, — xo‘rsindi Rodrig Ivano-vich, — bundan zo‘r bo‘lishi mumkin emas. Hatto mening o‘n yillardan beri uxbab yotgan tomirlarim hayajondan jivirlay boshladi. Nima, siz hali yana o‘tirmoqchimisiz? Yoki men bilan...

— Siz bilan ketaman. U bugun g‘azabga to‘lib o‘tiribdi. Hatto qarab ham qo‘ymadi. Unga podsholikni taklif qilyapsan, u esa arazlaysapti. Undan ko‘p narsa talab qilmayapmiz-ku. Bor-yo‘g‘i bir marta bosh qimirlatib, roziligini bildirsa — bas. Nimayam qila olardik. Ketdik, Rodrigo.

Ular ketgandan so‘ng ko‘p o‘tmay, chiroq o‘chdi va Sinsinnat qorong‘ulikda o‘z yotog‘i tarafga o‘tdi. Butun badanini cho‘zib, suyaklarini qisirlatib, kerishdi; havo simirib, bir muddat chiqarmay turdi. Balki shunchaki ustalardir, nimanidir tuzatishayotgandir; balki buning bari juda uzoqlarda amalga oshirilayotgandir (u nafas chiqardi). U yotog‘iga yotdi. Ko‘rpasi tagidan oyoqlarining barmoqlari chiqib turardi va goh mumkin bo‘limgan o‘limdan qochib qutulish tomonga, goh yaqinlashayotgan o‘lim tomonga yuz burardi. Chiroq yana yondi.

Qizil ko‘ksini qashlab, Rodion kursini olib ketgani kirdi. Izlayotgan narsasiga ko‘zi tushib, u o‘ylamasdan o‘tirib oldi, og‘ir kekirdi, katta kafti bilan egilgan yuzini qashladi va go‘yo xurrik otishga chog‘landi.

— Hali kelmadimi? — so‘radi Sinsinnat. Rodion shu zahoti sakrab o‘rnidan turdi va kursi bilan chiqib ketdi.

Sud qaror chiqargandan beri ancha muddat o‘tgani uchunmi — ikki hafta — yoki umid uchqunlarini uyg‘otgan duk-duklar hayotiga o‘zgarish yasashi mumkinligidanmi, Sinsinnat tun bo‘yi xayolan soatga tikilib, qal’ada o‘tkazgan kunlarini esladi. Uni qutqarishga bo‘layotgan harakatlarning mantiqiy davomini (Sinsinnat, ehtiyyot bo‘l!) kutibmi, u o‘tkazgan kunlarni va tunlarni bir zanjirga tizib chiqdi. Qop-qora tunda u yorug‘ fikrlari bilan mehmonlarini ko‘z o‘ngidan o‘tkazdi... Birinchi bor uning tassurotlari mehmonlariga nisbatan yorug‘lashdi. O‘ta zerikarli, yaqinda mahmadona qaynag‘a keltirgan qizil kabi to‘la yuzli qo‘shni mahbus paydo bo‘ldi; harakatchan, pishiq, necha sud ishlarida pishib ketgan advokat; to‘ng yuzli kutubxonachi; qora, mayin ulamasoch kiyib oladigan Rodrig

Ivanovich, Emmochka ham va Marfinka butun oilasi bilan va Rodion ham va boshqalar ham, xo'mrayib turadigan qorovullar va askarlar... Sinsinnat ularni chorlab, ular yashashiga izn berdi, o'zi bilan ovqatlantirdi, saqladi. Buning hammasiga qo'shimcha ravishda, go'yo yo-qimli musiqani intizor kutganingday, hayajonli duk-duklar boshlanish muddati yaqinlashdi. Xullas, Sinsinnat hayajonli, xatarli bir ahvolga tushib qolgan edi. Soatlar tobora ko'proq tantana bilan bong urardi.

XV

Tong tinch o'tdi. Ammo soat kechki beshga yetganda qattiq gumburlash sodir bo'ldi. Hoynahoy, ishlayotgan odam judayam shoshar, ikkilanmasdan, shovqin ko'tarib ishini davom ettirardi; lekin nima bo'lganda ham, kechagiga nisbatan unchalik yaqinlasholmadi.

Nogoh juda ahamiyatli voqeа sodir bo'ldi: go'yoki qandaydir ichki to'siq devor qulab tushdi va endi dukullahlar baralla eshitila boshladi. Hammasi aniq edi: ular shu yerda, go'yo erib borayotgan devor ortida, mana, hozir kirib kelishadi.

Alalhusus, ana shunda mahbus tashabbus ko'rsatish muddati yetganini angladi. Juda qattiq shoshib, qaltirab va shunga qaramay, o'zini tutishga harakat qilib, paytavasini, rezina boshmog'ini va boshqa, uni qo'lga olishgan paytdagi barcha kiyimlarini kiydi; ikkita dastro'moli, uchta ko'ylak – hammasini to'shak yopinchig'iga o'rav, kichkina tuguncha yasadi; har ehtimolga qarshi qo'liga tushib qolgan ingichka arqonni kissasiga soldi, hammasi sig'may, bir uchi tashqarida osilib qoldi; Tashqaridan nazar tashlagan odam mahbus uxbayapti, degan tasavvur uyg'otishi uchun to'shangini, yostiqlarini ko'tarib, ustiga ko'rpasini yopib qo'ymoqchi bo'ldi, ammo bunday qilmadi va stolga borib, yozganlarini olib ketish choralarini ko'rmoqchi bo'ldi; yarim yo'lda yana fikri o'zgarib, yo'lini o'zgartirdi. Negaki, dukulash mutlaqo yonida bo'lib, uning o'y-xayollarini ostin-ustun qilib yuborgan, bir hayajoniga o'n hayajon qo'shayotgandi. U qo'llarini ikki yoniga tirab, yoy o'qiday, tik turib qoldi. Va nihoyat, uning orzulari ro'yobga chiqib, sariq devor poldan bir quloch balandlikda gumburlab yorildi.

Qop-qora teshikdan – chang-chungga aralash-quralash bo'lib, qo'lida cho'kich bilan, oppoq changga belanib, semiz baliq misol shalop-shulup qilgancha, kula-kula msye Pyer chiqib keldi. Uning ortidan esa semiz ketidan malla paxta osilib turgan, syurtuksiz, bar-

cha iflosliklarga belangan va tinimsiz kulayotgan Rodrig Ivanovich kameraga o‘tib, qotib-qotib kulaverishdi. Ko‘zlaridan yosh chiqib, tomoqlari xirillab, ovozlari chiqmay qolgancha, goh unisi bunisining yelkasiga qoqib, goh bunisi unisining yelkasiga qoqib, bir-birining ustiga yumalab, rosa kulishdi...

– Bizmiz, biz, biz, – dedi nihoyat msye Pyer, Sinsinnatga oqarib ketgan yuzini burib. Shu lahzada uning sariq parigi kulgili tarzda hushtak chalib ko‘tarildi va joyiga qaytib tushdi.

– Ha, bizmiz, – dedi kutilmagan to‘qmoqday ovoz bilan Rodrig Ivanovich va yana xaxolab kulib yubordi.

– Ufff! – msye Pyer nogoh jiddiy tortdi; o‘rnidan turdi va kaftini kaftiga ishqalab, tuynukka qaradi: – Zo‘r ishladik-da, a, Rodrig Ivanovich! Turing endi, azizim! Yetarli! Nimayam derdik, endi bu tuyukdan bemalol foydalanish mumkin... Aziz qo‘sним, lutf qiling, bizning xonada bir piyola choy ichamiz.

– Agar siz menga qo‘lingizning uchini tekkizsangiz... – shivirladi Sinsinnat. Negaki uning bir tomonida oppoq, terlab ketgan msye Pyer, ikkinchi tomonida esa qo‘llarini yozib, yelkalarini yalang‘och Rodrig Ivanovich turar va ular Sinsinnatni quchoqlab, istalgan joyga tiqib yuborishga tayyor edilar. Sinsinnat yagona to‘g‘ri yo‘lni tanladi, ya’ni unga ko‘rsatishgan manzilga o‘zi yuradigan bo‘ldi. Msye Pyer uni ortidan yengilgina nuqib, tuynukka o‘rmalab kirishiga yordamlasharkan:

– Bizga qo‘siling, – dedi Rodrig Ivanovichga. – Uchovora bo‘lamiz. – Ammo Rodrig Ivanovich hojatga borishi zarurligini bahoma qilib, shu yerda qoldi.

Sinsinnat buklanib, yuzini bujmaytirib, sudralar, ortidan msye Pyer o‘rmalardi. Har qadamda yelkasi, kaftlari, boshi nimalargadir urilar, tim qorong‘ilikda Sinsinnat bir necha bor boshi berk joylarga borib, tiqilib qoldi. Shunday paytlarda msye Pyer uni kiyimidan ortga tortar, to‘g‘ri yo‘lga boshlardi. Agar ortida pishillab kelayotgan hamrohi bo‘limganda Sinsinnat shu yerdayoq, yotib, o‘lib ketaverishga rozi edi. Va nihoyat, uzoq turtinib-surtinganlaridan so‘ng oldilarida nim yorug‘lik ko‘rindi: o‘sha yerdan burilish va chiqish: Sinsinnat noo‘ng‘ay bir holatda tosh yerga – quyosh yarq etib tushib turgan msye Pyerning kamerasiga yumalab tushdi.

– Marhamat qiling, – dedi xo‘jayin, orqasidan chiqarkan; shu zahoti kiyim cho‘tkasini chiqarib, qiltanglab turgan Sinsinnatning ustboshini chaqqonlik va ehtiyyotkorlik bilan, og‘riqli joylarida mayinlik bilan tozalashga tushdi. Shu taxlit u tosh qotib turgan Sinsinnatning atrofida aylanardi. Sinsinnat esa judayam bir oddiy haqiqatni – hatto haqiqat haqidagi fikrning o‘zi ham emas, balki nega shu fikrni oldinroq – anglab yetmaganini o‘ylab, dong qotib qolgan edi.

– Ruxsat bering, men shunday qilaman, – dedi msye Pyer va us-tidagi chang bosgan fufaykasini yechdi; bir lahma, go‘yo shunchaki, qo‘llarini cho‘zib, ko‘kragini kerdi. Xonani unga xos bo‘lgan sassiq hid tutib ketdi. Chap ko‘ksi atrofida tatuirovka bor edi – ikkita yashil bargcha – shu sababli ko‘ksining o‘zi atirgulning kurtagiga o‘x-shab qolgan edi.

– Marhamat, o‘tiring, – dedi u yarqiroq bo‘laklari bor xalatini ki-yarkan, – borimizni qo‘yamiz. Ko‘rib turibsizki, mening kameram siznikidan mutlaqo farq qilmaydi. Men faqat uni toza va ozoda saq-layman, topgan narsalarim bilan bezayman. (Go‘yo hayajon tufayli u yengilgina tutilib, nafasi tiqilib gapirardi).

Quyosh botayotgan paytdagi qal‘a surati tushirilgan taqvim devorga ilingan. Turli ranglardagi romblar tushirilgan ko‘rpasi yotoq ustiga yopilgan. Yotoq tepasiga msye Pyerning xonanishin fotosurati va boshqa harakatdagi suratlar ilingan; stolda timsoh albom, tillarang yo‘l soati yarqirab turibdi. Kamera burchagiga g‘ilof suyab qo‘yilgan. Ichida musiqiy soz bor, shekilli.

– Sizni o‘z kameramda ko‘rishdan cheksiz baxtiyorman, – dedi msye Pyer, xona bo‘ylab oldinga, orqaga tinimsiz yurarkan, quyoshning panjaralari nurlari oralab u yoq-bu yoqqa tinimsiz o‘tarkan. Quyosh nurlarida esa ohang changlari o‘yin qildi. – Men o‘ylaymanki, oxirgi haftada biz judayam qadrdonlashib ketdik. Bunaqasi kam-dan kam sodir bo‘ladi. Tushunishimcha, sizni ichkarida nima borligi qiziqtiryapti. Siz gapimni tugatishga ruxsat bering (u nafasini rost-ladi), gapimni oxiriga yetkazishga ruxsat bersangiz, men sizga ko‘rsataman...

– Bizning do‘stligimiz, – davom etdi msye Pyer, yengilgina xirillab, – qamoqxona sharoitida gullab-yashnadi, negaki biz bir xil umidlar va qo‘rquvlar ichida yashayapmiz. Men o‘ylaymanki, endi men sizni dunyodagi har qanday odamdan va albatta, xotiningizdan

ham yaxshiroq bilaman. Sizning norozi kayfiyatda o‘tirganingizni ko‘rsam yoki boshqalarga e’tibor bermasangiz, menga alam qiladi... Mana, hozirgina biz xursandchilik bilan sizning huzuringizga kirib borganimizda, siz yana Rodrig Ivanovichni o‘z e’tiborsizligingiz bilan haqorat qildingiz. Axir, u kishi ana shu sovg‘ani tayyorlashda shaxsan ishtirok etdi. Men sizga aytsam, u kishi yosh bola emas, shunga qaramay, qattiq ter to‘kdi va kerak bo‘lsa, sizdan boshqa tashvishlari ham yetarli. Yo‘q, hozir men bu haqda gapirmoqchi emasman. Men sizning biron-bir ruhiy holatingizni ko‘zdan qochirmslikka urinaman. Shunisi muhim. Shu sababli sizga qo‘ylgan aybnoma mutlaq haqiqat ekaniga shubham bor... Sizning holatingizni men uyatdan qizarib turgan kelinchakni tajribali kuyov oynada ko‘rganday tushunib turibman. Bilmayman, negadir nafasim rostlanmayapti. Hozir o‘tib ketsa kerak. Agar men sizni shu qadar ya-qindan o‘rgangan bo‘lsam, nimasiniyam yashirardim, qattiq sevib qolgan bo‘lsam – demak, siz ham meni tushunib ulgurdingiz. Hech bo‘lmaganda, ko‘nikdingiz. Hatto, men sizga bog‘langanday, siz ham menga bog‘lanib qoldingiz. Men ana shunday do‘stlikka erishmoqchi edim. Men o‘zimga qo‘ygan birinchi topshiriq ana shundan iborat edi. Menimcha, ushbu topshiriqnı sharaf bilan bajardim. Sharaf bilan. Hozir choy ichamiz. Tushunmayapman, nega keltirishmayapti.

U ko‘kragini g‘ijimlab, Sinsinnatga betma-bet o‘tirdi, ammo darhol sakrab turdi; yostig‘ining ostidan charm karmonini oldi. Karmon-dan charm g‘ilofchani, charm g‘ilofchadan kalitni oldi-da, burchak-dagi g‘ilof qoshiga bordi.

– Mening hamma ishim saranjom-sarishtaligini ko‘rib, hayratlanayotganingizni tushunib turibman, – dedi u va g‘ilofni avaylab yerga yotqizdi. U ancha og‘ir va burilishi qiyin ekan. – ...Ammo, bilsangiz, ana shunday saranjom-sarishtalik yolg‘iz odamning hayotini bezaydi va u ana shu taxlit eng avvalo o‘ziga o‘zi...

Ochilgan g‘ilofda, qora baxmal orasida keng, yorqin oybolta yotardi.

– ...Isbotlaydiki, uning qayeridadir uya bor... Uya, – davom etdi msye Pyer, yana g‘ilofni yopib, devorga tiradi va o‘zi ham tiraldi. – Uyaga loyiq bo‘lish uchun zarur xizmatlar talab etiladi... Bu yerda umuman falsafiy masalalar yotibdi, ammo ayrim belgilarga qaraqanda, sizgayam, mengayam hozir u haqda o‘ylash fursati yetmadi.

Bilasizmi nima? Mening maslahatim shu: choyni keyin ichamiz, keyin... hozir esa o‘z xonangizga boring-da, yoting. Biz har ikkimiz yoshmiz, siz bu yerda uzoq vaqt qolishingiz mumkin emas. Ertaga sizga tushuntirishadi, hozircha boring. Men ham hayajonlanib bor-yapman, men ham o‘z hissiyotlarimni tutolmayapman, siz mening holatimni tushunishingiz kerak...

Sinsinnat asta yopiq eshikni taqillatdi.

– Yo‘q, yo‘q, siz o‘zimizning tuynukdan qaytasiz. Biz bekorga mehnat qildikmi? O‘rmalab, o‘rmalab qaytasiz. Men teshikka pardalilaman, yo‘qsa, juda xunuk ko‘rinarkan. Marhamat qiling.

– O‘zim, – dedi Sinsinnat.

U qora tuynukka kirdi va tirmalgan tizzalari bilan to‘rt oyoqlab o‘rmalagancha, ichkarilab ketaverdi. Msye Pyer ortidan choy ha-qida nimalardir degancha, hoynahoy, teshikka pardabashara nimadir ildi, shekilli, hamma yoq zimistonga aylandi.

Namxush biqiq havodan zo‘rg‘a nafas olib, har xil uchli narsalarga urilib, endilikda keskin qo‘rquvlarsiz, har damda tepa o‘pirilishlarini kutib, Sinsinnat ko‘r-ko‘rona olg‘a intildi. U tezroq mayin joyga o‘zini tashlagisi, boshini ko‘rpaga burkab, hech narsani o‘ylamay, yotgisi kelardi. Ortga safar juda uzayib ketdi, u yelkalarini duch kelgan joyga urib olib, shosha boshladi. Negaki, boshi berk joyga tushib qolaverib, oxir-oqibat, shu yerdan chiqolmay qolish hissi uni qattiq bezovta qilayotgandi. Havo yetishmasdi va u shu yerdan to‘xtab, qotishni, uplashni o‘ylay boshladi va shu onda u sudralib borayotgan joy o‘yilib, pastga sezilarli enish boshlandi. Olisda qizg‘ish, yarqiroq tirqish ko‘rindi. Namxush havo taraldi. Go‘yo u haqiqatan ham qal‘a devorlari orasidan tabiiy g‘orga o‘tib qolganday edi. G‘orning tepasida qatorlashib uchar sichqonlar osilib turardilar. Tirqish qizg‘ish tus olib kengaydi va kechki toza havo ichkariga ufurdi. Sinsinnat tirqishdan qoya bo‘yiga – ozodlikka chiqdi.

U qumursqalar ini qoshiga kelib qolgan edi, qumursqalar qal‘a bo‘yidagi qoyalar aro va devorlar oralab, uzun iz yasab, o‘z faoliyatlarini bilan band edi. Birinchi daqiqada nogoh ozodlikdan uning boshi shu qadar aylanib ketdiki, duch kelgan narsaga yopishib, tevarak-atrofdagi bor narsalarni mutlaqo ko‘rmasdi. Ha, odatdagiday, qaldirg‘ochlar baland ovozda qichqirishardi. Kun botib borar, orqada esa

qal'aning tik tosh qoyasi juda vahimali bo'lib savlat to'kib turardi. U ana shu yerdan xuddi tomchi misol, sirg'alib tusha boshladi.

Nafasini rostlab, ko'zлari qorong'ulikka ko'nikib, badani titrab, u qoyaga beli bilan yopishib oldi va tuman aralash tevarak-atrofni kuzatdi. Olis-olis pastlikda yoysimon ko'prik bezaklari g'ira-shira tuman orasida elas-elas ko'zga tashlanardi. Ikkinci tomonda esa tumanga burkangan ko'kish shahar, qip-qizil cho'qqa aylangan ko'mir misol derazalari quyosh botishida yanayam qizarib borardi. Enish bo'yab birin-ketin chiroqlar yonayotganini ilg'ash mumkin edi. Shahar tashqarisida esa qop-qorong'ulik.

Ozodlik tuyg'usidan mast, ammo kuchsiz Sinsinnat amallab pastga enaverdi. Yo'l ustida bir qoya ortidan Emmochka sakrab chiqди va uni qo'lidan mahkam tutib, qayoqqadir boshlab ketdi. Uning barcha harakatlarida kuchli hayajon, tantanavor shoshilish bor edi.

– Qayoqqa boryapmiz? Pastlikkami? – so'rardи Sinsinnat – chidamsiz tabassum bilan.

Emma uni tezlik bilan devor bo'yab boshladi. Devorda uncha katta bo'lмаган yashil devor ochildi. Pastga pillapoyalar yasalgan edi. Yana eshik g'ichirladi; uning ortida qorong'iroq yo'lak bo'lib, u yerda sandiqlar, kiyim-bosh shkafi, devorga tiralgan narvon bor edi. Atrofdan yermoyi hidi anqirdi; ma'lum bo'ldiki, ular qora yo'lak bo'yab, direktor xonadoniga kirishibdi. Emmochka endi uning qo'lini sekin-asta qo'yib yubordi-da, oshxonaga boshlab kirdi. Hamma shu yerdan o'tirib, choy ichishardi. Rodrig Ivanovich ko'ksiga sochiq taqib olgan; uning oriq, sepkilli, kipriklari oq xotini teshik kulchalarни msye Pyerga uzatardi. Msye Pyer esa chiroyli kiyinib olgandi. Stolning narigi boshida qirraburun, qora rido kiyib olgan kampir o'tirardi.

Sinsinnatga ko'zi tushgan direktoring og'zi ochilib, nimadir oqib ketdi.

– Hooyy, shumg'iya! – yengil nemis talaffuzida gapirdi direktoring xotini.

Msye Pyer choy aralashtirarkan, uyalinqirab, boshini egdi.

– Haqiqatan ham, bu nima qiliq? – qovun sharbatini ichayotgan Rodrig Ivanovich so'radi. – Bu barcha qonun-qoidalarga zid-ku!

– Qo'ying ularni, – dedi msye Pyer. – Ular ikkisiyam yosh bolalar-ku.

– Ta’til tugadi. Shu sababli endi sho’xlik qilish uchun shundan boshqa sabab topolmapti-da, – dedi direktorning xotini. Emmochka stulni do‘qillatib o‘tirdi va Sinsinnatni butunlay unutib, qovun bo‘lagiga shakar sepa boshladi. Keyin qulog‘igacha qovunga botib, bir chetidan yeya boshladi. Qo‘shni o‘zining choyini ichishda davom etardi.

– Ayyy! – Emmochka qovundan ajramay, silkindi.

– Bo‘pti, bu yerda o‘tiring-chi, – dedi direktor, qo‘lidagi olma kesgich pichoq bilan chetdagi kresloni ko‘rsatib. – Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng men sizni kerakli joyga yetkazaman. O‘tiring, deyapman. Sizga nima bo‘ldi? Bunga nima bo‘ldi? Tushunmayaptimi?

Msyey Pyer egilib, ozroq qizargacha, Rodrig Ivanovichning qu‘log‘iga bir narsa dedi. Direktor hayratdan yoqa ushlab, dedi:

– Sizlarni tabrikelayman, tabrikelayman! Qanday yaxshi!... Alla-qachonlar shunaqa qilish kerak edi... Biz hammamiz... – u Sinsinnatga qaradi va tantanali ravishda bir narsa demoqchi bo‘ldi.

– Yo‘q, hali erta, do‘stim, meni o‘ng‘aysiz ahvolga solmang, – shivirladi msye Pyer, uning qo‘lini ushlab.

– Nima bo‘lgandayam, siz yana bir piyola choyni rad qilmassiz, – dedi Rodrig Ivanovich o‘yinqaroqlig bilan. Keyin o‘ylab ko‘rib, chappillatib ovqat yerkani, Sinsinnatga o‘girildi:

– Siz hozircha albom ko‘rib turishingiz mumkin. Bolajonim, sen unga albomni olib kelib ber. Buni uning mакtabga qaytishi sharafiga (qo‘lidagi pichoq bilan ko‘rsatib) bizning aziz mehmonimiz sovg‘a qilgan... Uzr, aybdorman, Pyotr Petrovich, esimdan chiqibdi, nomini nima deyishardi?

– Fotogoroskop, – dedi msye Pyer kamtarlik bilan.

– Limonni qoldiraymi? – so‘radi direktorning xotini.

Osma yermoyi chiroq oshxonaning chetlarini qorong‘i holatda qoldirib, stol ustidagi oilaviy dasturxonga tuzalgan noz-ne’matlarni yaxshigina yoritib turardi.

XVI

Osoyishtalik. O‘rgimchak kichkina kapalakni va yana uchta pashshani ushlab, bor budini so‘rib oldi. Ammo hali qorni to‘ymay, eshikka tikilardi. Osoyishtalik. Sinsinnatning butun aft-basharasi tim-

dalangan, qirilgan, yara-chaqa bo‘lib ketgandi. Osoyishtalik, hech narsa sodir bo‘lmadi. Kecha kechqurun uni kameraga qaytarib olib kelishganda ikki xizmatchi kecha teshilgan tuyruk joyini yamab bitirishayotgan edi.

Kechagi xotiralarning yana bir qoldig‘i o‘sha katta, qoramtil al-bom bo‘lib, uni Sinsinnat o‘zi bilan olib kelishiga ruxsat berishgandi: alohida albom, aynan tinib-tinchimas msye Pyer tartib bilan tuzib chiqqan fotogoroskop. Ya’ni kichikligidan to bugunga qadar umrini aks ettiruvchi suratlar tartib bilan terib chiqilgan. Bu qanday amalga oshirilgan? Mana bunday. Emmochkaning bugungi yuzi kuchli tarzda boshqa suratdagilarning ayrim qismlari evaziga tuzatilgan. Shu taxlit uning kelajagi yaratilgan. Suratlar tartib bilan terilgan, sanalar kichik harflar bilan bitilgan. Bir qarashda haqiqiy original suratlar avvaliga Emmochkani bugun qanday bo‘lsa, shunday ko‘rsatgan, keyin makkabni bitirgan payti, ya’ni uch yildan keyingi, balerina jomadonchasi ko‘tarib turgan kamtar holati. Keyin o‘n olti yoshligi, yelkasida qanotlari bilan, stolda bokal ko‘targancha, bir gala o‘yinqaroqlar o‘rtasida bemalol o‘tiribdi. Keyin o‘n sakkiz yoshligi, motam kiyimida, keyin... oh, yana bir qancha ko‘rinishlarda va turishlarda, eng oxirgisi – yotgan holida...

Qalam, retush va boshqa fotofokuslar yordamida Emmochkaning yuzi va tusi o‘zgarib borishi shu taxlit tasvirlangan. Tasvirchi kerak joyda Emmochkaning onasi suratlaridan ham foydalangan. Agar ya-qindan qaraydigan bo‘lsangiz, bu suratlarning, bu mehnatning multaqa hech narsaga arzimasligiga amin bo‘lasiz. Teatrda qimmatbaho kiyimlarda gullarga burkanib chiqayotgan Emmochkaning oyoqlari hech qachon raqs tushmagani bilinib turardi; keyingi suratda esa u nikohlanayotgan holatda. Yonida baland bo‘yli, gavdasi kelishgan, chiroyli, baquvvat kuyov turibdi. Ammo kuyovning yuzi msye Pyerniki. O‘ttiz yoshli Emmochkaning yuzida hech qanday maqsadsiz ajinlar paydo bo‘lgan. Ular hech narsani anglatmaydi, ularda hayot izi bilinmaydi. Emmochka qirq yoshida o‘layapti – shu holatda sizlarni teskari xatolik bilan tabriklashga ruxsat bering: o‘lim holatida yotgan Emmochkaning yuzi aslo o‘layotgan odamnikiga o‘xshamaydi!

Rodion: xonimcha ketyaptilar, deya g‘o‘ldiragancha albomni olib chiqib ketdi. Qaytib kelganda esa ma’lumot berishni lozim topdi: (Xo‘rsinib) «Ketdilar... (o‘rgimchakka) shunaqa bo‘ladi...

(Kaftlarini ko'rsatadi) Qo'limda hech narsa yo'q. (Yana Sinsinnatga) Zerikarli, bu qizchasiz biz judayam zerikib qolamiz. Bu yerda uchib-qo'nib yurardi, qo'shiqlar aytardi bizning erkatoymiz, bizning tilla gulimiz. (Birpas jim turgandan so'ng boshqacha ohangda) Janob, siz nimagadir bugun hech qanaqa savollar bermayapsiz? Nima bo'lidi?»

«Ana shunaqa bo'ladi», – Rodion o'z savoliga o'zi javob berdi va o'z hurmatini o'zi joyiga qo'yib, chiqib ketdi.

Tushdan keyin mutlaqo rasmiy ravishda, mahbuslarning yo'l-yo'l kiyimida emas, balki baxmal kurtka, artistlarning kapalaknusxa bo'yinbog'i va yangi, baland poshnali, yaltiroq, qadam bosganda bilinar-bilinmas qisirlaydigan etikda msye Pyer; ortida uning hurmatini joyiga qo'yib, oldinga o'tkazib, so'zlariga jon-qulog'ini tutib, har bir gapini ma'qullab Rodrig Ivanovich; uning ortidan esa advokat portfelini ko'tarib kirib kelishdi. Uchovlon stol atrofida (qabulxonadan keltirilgan) to'qima kreslolarga joylashib, o'tirishdi. Sinsinnat avval, qo'rquvini bosish uchun, kamera bo'ylab yurdi, keyin u ham o'tirdi.

Advokat portfelini noqulay holatda kovlab, (noqulaylik uning uchun odatiy, tajribada sinalgan) katta yondaftarini chiqardi va portfelini chetga surib qo'ysi. Avval stol ustiga qo'ysi, keyin fikri o'zgarib, yelkasi osha ko'tarib, orqasiga, yerga, mastday chayqalib turgan o'z kreslosi oyog'i ostiga qo'ysi; tezlik bilan qalamini chiqarib, yondaftarini duch kelgan joydan ochdi va hech narsaga e'tibor bermay, bir tekis yoza ketdi; ammo aynan uning ana shu yoza-yotganlari hozir sodir bo'ladigan voqeaga aloqadorligini ta'kidlardi.

Rodrig Ivanovich kresloda o'zini sal orqaga tashlab o'tirardi.

O'rtada o'tirgan msye Pyer grafindan suv quyib ichdi, keyin barmoqlarini avaylabgina stol ustiga qo'ysi. Uzun kipriklarini pastlatib, lazzatlanib, o'n soniyacha vaqt davomida hozir aytadigan nutqini taroziga solib ko'rdi.

– Hurmatli janoblar, – boshini ko'tarmay, ingichka ovozda bosh-ladi nihoyat msye Pyer, – eng avvalo, men bajargan ishlarni ikki-uch so'z bilan ifodalashga ruxsat berasizlar.

– Marhamat, – dedi direktor guldurak ovozda, kreslosini qisirlatib.

– Ishonamanki, janoblar, bizning san'atimizning nozik jihatlarini sizga ma'lum. Haqiqatan ham. Agar men osmondan tushganday, kelib, Sinsinnat S. ga do'stlik taklif qilsam nima bo'lardi? Janob-

lar, bunda, albatta, men Sinsinnatni o'zimdan nari itargan bo'lardim. Ya'ni o'nglab bo'lmas xatoga yo'l qo'yardim.

Notiq stakandagi suvni ichdi va stakanni avaylab bir chetga qo'ydi.

– Iliq yaqinlik kayfiyati bajariladigan ish muvaffaqiyati uchun qanchalar muhim ekanı haqida gapirib o'tirmayman. Ana shu taxlit chidam va erkalashlar oqibatida hukm qilingan va hukm ijrochisi orasida do'stlik paydo bo'lishi qanchalar yaxshi. O'tgan davrlardagi mahbusga nisbatan dag'allik va qo'pollik hukm qilinganga nisbatan qanchalar yovuzlik ekanini his qilish judayam og'ir. Hukm qilingan va hukm ijrochisi eng oxirgi daqiqadagina yuzma-yuz uchrashi-shi – qonun tusiga kirgan odat edi. Endi hamma narsa o'zgarib ketdi. Qadimgi yovvoyi – ma'suma qizaloq eng oxirgi daqiqada ota-onasi tomonidan kuyovning xonasiga itarib kiritilganidek – majburiy nikohlar va odatlar davrlar o'tishi tufayli o'zgorganidek, hamma jihatlar odamiylik tarafga o'zgardi.

(Sinsinnat o'z kissasidan shokoladning qog'ozini topib, ezg'ilay boshladi.)

– Shunday qilib, janoblar, hukm qilingan bilan eng yaqin munosabatlar o'rnatishga harakat qilib, meni ham o'zidek bir mahbus deb hisoblashi uchun, men o'sha mudhish kameraga joylashdim. Mening bu yolg'onim o'z ijobiy natijasini berdi. Shu sababli endi meni hech qanaqa vijdon azobi qiynamaydi; ammo men o'rtamizda hosil bo'lgan do'stlikka hech qanaqa raxna tushishini istamayman. Davrada o'tirganlarning holatiga qaramasdan, o'z haqligimga to'la ishongan holda, men sizdan (u Sinsinnatga qo'lini cho'zdi) kechirim so'rayman.

– Ha, bu haqiqiy insoniylik, – dedi asta direktor va uning qizargan ko'zları yoshlandi; u dastro'molini chiqarib, qovog'iga qo'ymoqchi edi, ammo fikri o'zgardi, achchiq bilan Sinsinnatga tikildi. Advokat ham salgina nazar tashlab qo'ydi, lablarini qimirlatgancha, nimalarnidir pichirlab, to'xtovsiz yozarkan.

– Qo'lingni ber! – achchiqdan qizarib ketgan direktor baqirib, stolni mushtladi.

– Yo'q, agar u istamasa, majbur qilmang, – dedi msye Pyer bamaylixotir. – Mening bu gaplarim shunchaki yo'liga... Davom etamiz.

– Bo‘ysunuvchan! – gulduradi Rodrig Ivanovich, msye Pyerga yoshlangan ko‘zlarini tikib.

– Davom etamiz, – dedi msye Pyer. – Mana shu vaqt davomida men o‘z qo‘schnim bilan juda yaqin do‘sst bo‘lib ketdim. Biz qanaqa suhbatlarni...

Sinsinnat stol ostiga qaradi. Msye Pyer nimagadir gapidan chal-kashib ketdi, joyida bezovta qimirladi va yerga ko‘z qirini tashladi. Direktor ham kleyonka burchagini ko‘tarib, stol ostiga qaradi va Sinsinnatga savol nazari bilan gumonsirab, tikildi. Advokat ham o‘z navbatida stol ostiga kirib chiqdi, keyin hammani bir-bir ko‘zdan kechirdi va yana yozishda davom etdi. Sinsinnat to‘g‘rilanib o‘tirdi (ahamiyat beradigan hech narsa yo‘q, kumush parchasini tushirib qo‘ygandi).

– Biz uzoq tunlarni birga suhbatlashib o‘tkazdik, – davom etdi msye Pyer xafa bo‘lgan ovozda, – har xil o‘yinlar o‘ynadik, o‘zimizni chalg‘itdik. Biz bolalardek, kuchimizni sinashdik; men kuchsiz, bechora msye Pyer, albatta, baquvvat, kuchli tengdoshim oldida yut-qazdim. Biz hamma narsa haqida fikrlashdik. Albatta, ayollar haqida, boshqa samoviy xayollar haqida. Shu taxlit soatlar daqiqadek o‘tib ketardi. Ba’zan jimgina o‘tirardik...

Nogoh Rodrig Ivanovich gulduradi:

– Albatta, buni tushunish qiyin.

– Ba’zan jimgina, yonma-yon, salkam quchoqlashib, har birimiz o‘z o‘y-xayollarimiz bilan band bo‘lib, o‘tirardik. Nogoh birdan ikkimiz baravar gapirishga tushardik, go‘yo ikki daryo birlashgani kabi. Men tajribalarim bilan o‘rtoqlashdim, shohmot san’atini o‘rgatdim, o‘z vaqtida qistiriladigan latifalarim bilan xursand qildim. Mana shu taxlit bir necha kunimiz o‘tdi.. Natijasini ko‘rib turibsizlar. Biz bir-birimizni sevib qoldik. Sinsinnatning qalb kechinmalarini men o‘zimnikiday his qilaman. O‘z navbatida, u ham shunday. Shu taxlit begona bo‘lmagan dahshatlri tog‘a, yoqimli do‘sst uni qizil pillapoyaga hech qanday qo‘rquvlarsiz olib chiqadi. U o‘z taqdiri ni, – butunlay, o‘limini – menga ishonib topshiradi. Ha, jamoatchilik qarori ana shu taxlit bajariladi! (U o‘rnidan turdi; direktor ham o‘rnidan turdi; o‘z yozuvi bilan band advokat ham salgina ko‘tarildi.) Shunday. Endi, Rodrig Ivanovich, mening kimligimni rasman e’lon qilishingizni so‘rayman.

Direktor shoshib-pishib, ko‘zoynagini taqdi, qanaqadir qog‘ozni yozdi va Sinsinnatga o‘girildi:

– Mana shu... msye Pyer, qisqasi, qatl marosimi rahbari... Meni tinglaganingiz uchun minnatdorlik bildiraman, – qo‘srimcha qildi direktor, nimanidir adashtirib, – va hayron bo‘lib, kresloga cho‘kdi.

– Siz ham o‘xshatdingiz, – noroziligini yashirmadi msye Pyer. – Axir, rasmiy tilda gapirish qonun-qoidalari mavjud, ularga rioya qilish kerak. Men odatda bunaqa narsalarga ko‘pam ahamiyat beravermayman, ammo mana shunaqa muhim daqiqalarda... Qo‘lni ko‘ksingizga qo‘ygandan foyda yo‘q endi, qilar ishni qilib bo‘ldingiz. O‘tiring endi, o‘tiravering, tag‘in bir baloni boshlamang. Endi keyingi... Roman Vissarionovich, harakat dasturi qayerda?

– Uni men sizga bergenman, – dedi advokat hozirjavoblik bilan, – ammo... – u portfelini ochib, izlandi.

– Topdim, bezovta bo‘lmang, – dedi msye Pyer, – xullas... Marosim ertadan keyinga belgilangan... Qiziqlari maydonda. Bundan afzalroq joyni topisholmapti-da... Ajablanarli! (O‘zicha po‘ng‘illab, o‘qishda davom etadi). Voyaga yetganlar kirishi mumkin... Sirk tomoshasiga olingan pattalar haqiqiy hisoblanadi... shunday... shunday... shunday... Qatl marosimi rahbari qizil ishtonda... obbo, har doimgiday, juda oshirib yuborishibdi... (Sinsinnatga) Demak, ertadan keyin. Tushundingizmi? Ertaga esa, go‘zal udumlarimizga binoan, biz siz bilan birgalikda shahar otalari huzuriga borishimiz talab etiladi. Rodrig Ivanovich, menimcha, ro‘yxat sizda.

Rodrig Ivanovich nimagadir o‘rnidan turgancha, hamma kissalriga qo‘l suqib, ko‘kragiga shapatilab urib, nihoyat, hujjatni topdi.

– Yaxshi, – dedi msye Pyer, – jinoiy «ish»ga qo‘sib qo‘yinglar. Menimcha, hammasi risoladagiday. Endi qonunga binoan, – Sinsinnatga yuzlandi, – oxirgi so‘z sizga.

Oraga jimlik cho‘kdi. Advokat tez-tez yozar, qalam yaltillaryerib, e’tiborni tortaverganidan ko‘zlarini charchatib yuborayotgandi.

– Men to‘liq bir daqiqqa kutaman, – dedi msye Pyer, o‘z oldiga qalin qora soatini qo‘yib.

Advokat bir qo‘zg‘alib qo‘yib, to‘ldirgan varaqlarini yig‘ishtira boshladи. Bir daqiqqa o‘tdi.

– Yig‘ilish tugadi, – dedi msye Pyer, – janoblar, yuringlar. Roman Vissarionovich, siz menga tafsifnomani bering. Ha, bo‘pti, keyin, hozir ko‘zlarim og‘rib ketdi.

– Tan olishim kerak, men ba’zan ba’zi narsalarni qo‘llash harakat dasturidan... chiqarib yuborilganidan afsuslanib ketaman, – eshikka yetganda u msye Pyerning qulog‘iga bir nimalar shipshidi.

– Nimalar deyapsiz, Rodrig Ivanovich? – qiziqdi advokat rashki kelib. Direktor uning qulog‘iga ham shipshidi.

– Haqiqatan ham, – ma’qulladi advokat, – qolaversa, bu qonun-chani aylanib o‘taversayam bo‘laveradi. Aytaylik, bir necha bo‘laklarga cho‘zib yuborsak...

– Eeeee, hamma narsaning ham meyori bor, o‘zlarining tutib olinglar, – dedi msye Pyer. – Men hech kimni ayamasligim mumkin.

– Siz noto‘g‘ri tushunmang, biz shunchaki nazariy jihatdan, – direktor kulimsiradi, – avvallari, buni qo‘llash mumkin bo‘lgan damlarda...

Eshik yopildi, ovozlar uzoqlashdi.

O‘sha zahoti Sinsinnatning oldiga yangi mehmon – kutubxonachi kitoblarni yig‘ishtirib ketgani keldi. Uning uzun, rangpar yuzi, fufay-ka kiygan uzun, oriq, qaltiroq gavdasi, ishton ichidagi uzun, qiltiriq oyoqlari kishida g‘alati, kasalmand taassurot qoldirardi. Shularga qaramay, Sinsinnatga aynan shu odamda odamgarchilikning qandaydir xislatlari haligacha saqlanib qolganday tuyulardi.

– Siz to‘g‘ri eshitgansiz, – dedi Sinsinnat, – ertadan keyin meni qatl qilishadi. Boshqa kitob olmayman.

– Ha, boshqa olmaysiz, – ma’qulladi kutubxonachi.

Sinsinnat davom etdi:

– Men bir nechta haqiqatlarni amalga oshirmoqchiman. Vaqtin-giz bormi? Men aytmoqchimanki, o‘limim vaqtini aniq bilganim-dan keyin... Noaniqlik davrida bilishni istab azob chekkan kunlarim qanchalar yaxshi bo‘lgan ekan... Boshqa kitob olmayman...

– Balki biron bir ertak, – kutubxonachi taklif qildi.

– Yo‘q, keragi yo‘q. Hozir o‘qish kayfiyatim yo‘q.

– Ayrimlar olishadi, – dedi kutubxonachi.

– Bilaman, bilaman, menga keragi yo‘q.

– Oxirgi tun uchun, – kutubxonachi o‘z fikrini zo‘rg‘a aytib tu-gatdi.

– Siz bugun judayam gapdon bo‘lib ketibsizmi? – xo‘rsindi Sinsinnat. – Kerak emas, hammasini olib ketavering. Quercusni o‘qiy olmadim! Aytmoqchi: siz xatolik tufayli mana bu arab tilidagi kitob-larni menga keltiribsizmi? Uzr, men arab tilini o‘rganmaganman.

– Attang, – dedi kutubxonachi.

– Hechqisi yo‘q, ruhim o‘rganib olar. To‘xtang, darrov ketib qolmang. Men siz... shunchaki odam terisiga o‘ranganingizni bilsamda... shunchaki eng kamiga rozi bo‘lib yashasam-da... Xullas, ertadan keyin...

Kutubxonachini battar qaltiroq tutib, chiqib ketdi.

XVII

Udumlarga ko‘ra, qatl marosimining faol va nofaol a’zosi birgalikda qisqa xayrlashuv uchun shaharning eng katta amaldorlari huzuriga borishlari kerak. Ammo tadbirni tezlashtirish maqsadida ular shahar boshqaruvchisi o‘rinbosarining shahar tashqarisidagi dala hovlisida kechki ovqatga to‘planadigan bo‘lishdi. Sinsinnat msye Pyer bilan birga o‘sha yerga borib qo‘ya qolishadi. Qop-qora tunda ikkovlon bir xil qora plashda olti nafar askar hamrohligida chiroqlar yordamida uxlayotgan shahar oralab, ko‘prikan o‘tdilar, shaharning asosiy ko‘chalarini chetlab, bog‘lar orasidagi yolg‘izoyoq yo‘llar bo‘ylab yurdilar va toqqa ko‘tarildilar.

(Ko‘prikka chiqqanda Sinsinnat boshini plash yomg‘irpo‘shidan chiqarib, o‘girildi: ko‘kish, murakkab qal‘aning ko‘p minoralari – qora bulutlar to‘lin oy nurlarini to‘sgran – bo‘g‘iq osmonga o‘rlagan. Ko‘prik ustidagi qorong‘ulik uchar sichqonlardan himoyalanib, qosh qoqar va aftini bujmaytirardi.)

– Siz va’da bergansiz... – dedi msye Pyer, Sinsinnatning bilagidan yengilgina tutib. Sinsinnat yana qo‘g‘irchoqqa aylandi.

Bu kechki sayr achinarli, huzur-halovatsiz, tushunarsiz va boshqa xil taassurotlarga boy bo‘ladigandek edi. Aslida esa ahamiyatsiz tarzda boshlanib shu qadar tez o‘tib borardiki, hayron qolarli darajada edi.

Tor va yurakni uvushtiradigan, har xil o‘t-o‘lanlar bisyor yo‘lakdan o‘tishib, hovlining kirish qismida bir zum to‘xtab, (bu yerda xizmatchilar jannatning qushlariday u yoq-bu yoqqa uchardilar), keyin Sinsinnat bilan msye Pyer zalga kirdilar. Hamma shu yerda edi.

Bu yerda shahar favvoralari boshqaruvchisi boshqalardan alohida ajralib turardi; telegrafchilar kattasi qora kiyimidagi o‘ntalik ordenlarini yaltillatib o‘tirardi; qip-qizil burunli ta’midot boshlig‘i ham shu yerda; italiyacha familiyali yo‘lbarlar o‘rgatuvchisi; qulog‘i

eshitmaydigan qariya sudya; bog‘lar boshqaruvchisi yashil, yaltiroq boshmoqlarda va ko‘plab boshqa katta-kichik amaldorlar. Agar o‘quv markazining juda semiz, erkakcha tikilgan syurtuk kiygan yoshi o‘tingiragan boshlig‘ini hisobga olmasa, ayollar yo‘q hisobi. Kimdir hammaning kulgisi ostida parket polda toyib yiqildi. Qandilning shamlaridan biri pastga tushib ketdi. Nazorat uchun keltirilgan, uncha katta bo‘lmagan tobutga kimdir gulchambar qo‘yibdi. Sinsinnat bilan bir chetda turgan msye Pyer hamrohiga bu holni tushuntirardi.

Mana, xo‘jayin qarsak chaldi, eshiklar ochildi va hamma oshxonaga o‘tdi. Msye Pyerni Sinsinnat bilan birga judayam ko‘zni qamashtiradigan darajadagi yarqiroq stol boshiga o‘tirg‘izishdi va mehmonlar: avvaliga rasman o‘zlarini tutib, odatlarga rioya qilgan holda, xayrioxohliklarini bildirib, ayrimlarda ushbu tuyg‘u yashirin ezgu niyatlargacha ham aylanib ketdi, ikkita bir xil qora kiyimda gamletchasiga kiyangan mana shu ikki yo‘ldoshni kuzata boshladilar. Keyin msye Pyerning lablariga tabassum yugurib, gapira boshlaganda mehmonlar ikkovlonga ochiqchasiga qiziqish bilan qaray boshladilar. Sinsinnat go‘yo ruxsat so‘raganday, shoshmasdan, fikrini bir joyga jamlab, baliq kesgich pichoqni goh sanchqiga, goh oq atirgul solingan billur vazachaga urib, to‘g‘rilamoqchi bo‘lardi.

Shaharning eng uddaburon yigitlari orasidan terib olingan xizmatdagi yigitlar chaqqonlik bilan mehmonlarga ovqat tashirdilar va msye Pyerning Sinsinnatga nisbatan o‘ta g‘amxo‘rligi hammaning e‘tiborini o‘ziga jalb qilardi. Msye Pyer muloyimlik va tabassum bilan gapirayotib, nogoh jiddiy tarzda ovqatning yaxshi bo‘lagini ehtiyyotkorlik bilan Sinsinnatning oldidagi idishga solar, keyin yana stol atrofida o‘tirganlarga o‘zining qiziqarli hangamalarini aytishda davom etardi. Va yana nogoh egilib, sous yoki qalampir idishchasini olib, Sinsinnatga savol nazari bilan qarardi. Sinsinnat esa biron-bir ovqatga qo‘lini tegizmadi, hamon o‘sha pichoqni qo‘lida tutgancha goh u, goh bu tomonga olib, o‘zini o‘zi chalg‘itib o‘tirardi.

– Sizning tanqidiy mulohazangiz, – dedi msye Pyer shahar harakati boshlig‘iga yuzlanib, uning bir savoliga javob berarkan, – sizning mulohazangiz vrachlar siri haqidagi mashhur latifani eslatib yubordi.

– Aytib bering, biz bilmaymiz, iltimos, aytib bering! – hamma tarafdan iltimoslar yog‘ilib ketdi.

– Marhamat, – dedi msye Pyer. – Ginekologga birov kelib...

– Gapingizni bo‘lganim uchun uzr, – dedi arslonlar o‘rgatuvchisi (qizil orden lentasi taqib olgan mo‘ylovli qariya), Sinsinnatga ma’noli ishora qilarkan, – sizning latifangiz barcha quloqlar uchun ham lozim topilganmi...

– Men qayerda nima ish qilayotganimni yaxshi bilaman, – dedi msye Pyer jiddiy tarzda, – men hech qachon atrofimdagilarning obro‘siga putur yetkazadigan ishni qilmaganman va qilmayman ham... Demak, ginekolog qabuliga bir kampir kelib (msye Pyer pastki labini cho‘chchaytirdi), mening kasalim jiddiy, uning dastidan o‘lib qolamanmi, deb qo‘rqaqapman, debdi. Kasalingiz qanaqa belgilar beryapti? – so‘rabdi ginekolog. – Boshim og‘rib, qiltanglayapti, doktor... – va msye Pyer kampirning holatini ko‘rsatgan bo‘ldi.

Mehmonlar sharaqlab kulib yuborishdi. Stolning narigi chetida o‘tirgan kar sudya kulgining zo‘ri tufayli gap nima haqdaligini anglash uchun qo‘shni stulda o‘tirgan odamning yuziga qulog‘ini tutdi da, nima gapligini aytishni iltimos qildi. Msye Pyer esa diqqat bilan latifasining kimga qanday ta’sir qilganini kuzatardi va nihoyat, kimdir sudyaga bor gapni aytib bergandan so‘ng o‘shanga ko‘z qisib qo‘ydi.

– Sizning hayratlanarli so‘z o‘yiningiz shundaki, – dedi favvoralar mudiri, so‘laklarini sachratib, – vrachlar siri – hayotning o‘zidir. Yaqin o‘tgan kunlarda mening kotibim bilan bo‘lgan voqeа ham siz aytgan latifaga o‘xhash. Tasavvur qiling...

– Sinsinnatjon, ahvollar qanday, qo‘rqaqapsanmi? – g‘amxo‘rlik bilan yarim shivirlab so‘radi yaltirab yurgan xizmatchilardan biri, Sinsinnatga musallas quyarkan; u boshini ko‘tardi; bu o‘zining so‘zamol qaynag‘asi edi: – Qo‘rqaqapsanmi? Mana, musallas ich, maza qilib o‘tir, nima bo‘lsa bo‘lar bu yog‘iga, to o‘sha, oxirgi manzilga yetguncha...

– Bu nima deyapti? – sovuqqonlik bilan uning gapini kesdi msye Pyer. Qaynag‘a jilpillab, ulardan uzoqlashdi va keyingi meh-monga xizmat ko‘rsata boshladi.

– Janoblar! – dedi xo‘jayin tantanavor, o‘rnidan turarkan, qo‘lida rangpar-sariq muzli ichimlik to‘ldirilgan bokal tutgancha, – men mana shu...

– Achchiq! Achchiq! – qichqirdi kimdir va hamma uni qo‘llab-quvvatladi.

– Iltimos, rad qilmang, odat shunaqa, rad qilish mumkin emas, – deya msye Pyer Sinsinnatdan o‘tinib iltimos qildi.

Sinsinnat hech bir his-hayajonsiz vazachadagi ho‘l oq atirgulning qirralarini ushlab ko‘rardi.

– Qolaversa, sizdan talab qilishga haqqim bor, – dedi msye Pyer jonholatda shivirlab va birdan, o‘zini majburan kuldirib, o‘z bokalidagi musallas tomchisini Sinsinnatning boshiga quydi. Keyin o‘ziga ham quydi.

– Barakalla, barakalla! – tevarak-atrofdagilar ularni maqtashdi va hamma ularning harakatlarini ma’qullab, qadahlarini cho‘qishtirib, icha boslashdi.

– Men mammunman, judayam mammunman, – derdi msye Pyer va uni navbatma-navbat kelib, tabriklay boslashdi. Biri kelsa, avval kelgani chekinib, yo‘l berar, shu asnoda kimdir qo‘shiq boshladи. Shahar o‘t o‘chiruvchilarining otasi qattiq mast bo‘lib qoldi; ikkita xizmatchi uni tinchitishga, olib ketishga urinishdi, ammo u qat‘iyan qarshilik qilib, davrada qolishni lozim topdi.

– Janoblar, oynavand ayvonga o‘tamiz, – deya taklif qildi xo‘jayin va ana shunda Marfinkaning akasi hamda marhum doktor Sineokovning o‘g‘li shatirlatib, pardalarni ochdi. Tashqarini qorong‘ilik mahv etgan edi.

To‘q, pishillayotgan mehmonlar pastak kreslolarga cho‘kdilar. Sinsinnat shu yerda sigaraning mo‘miyosini aylantirib turar, uning yonida unga teskari qarab, ammo gavdasini gavdasiga tegizib, msye Pyer tinglovchilarining qo‘llashlari bilan to‘xtamay gapirishda davom etardi:

– Fotografiya bilan baliq ovi – mening eng asosiy qiziqishlarim doirasiga kiradi. Bu sizlarga qanchalik g‘alati tuyulmasin, men uchun qishloq sharoitidagi sokinlik har qanaqa shon-sharaflardan, hurmatlardan ustun turadi. Mana, masalan, siz ishonqiramay, kinoyali kulimsirayapsiz, aziz suhabdoshim (u mehmonlardan biriga ko‘z qirini bir lahza tashlab oldi va u darhol kulimsirashni to‘xtatib, jiddiy tortdi), men sizga qasam ichib aytamanki, men bekordan bekorga qasam ichmayman. Tabiatga muhabbat menga otamdan o‘tgan va otam ham aldashni aslo uddalolmasdi. Oralaringizda ko‘plar otamni bilar edi va ular mening gapimni, agar kerak bo‘lsa, yozma ravishda ham tasdiqlashlari mumkin.

Sinsinnat deraza yonida turib, tashqariga, qorong‘ulikka termilardi. Mana, go‘yo buyurtma bilan, qorong‘ulik juda chiroyli bo‘zardi, yuksaklarda top-toza oy bulutlar oralab, bo‘y ko‘rsatdi. Birdan ruhida kuchli o‘zgarish yuz berib, Sinsinnat o‘ziga judayam qadrdon bo‘lgan va qayta ko‘rishdan umidini uzgan Tamara bog‘larining eng gavjum joyiga borib qoldi. Bir lahma barchasini tasavvurida idrok etib, u Marfinka bilan shu yerdan, mana shu hovli yonidan bir necha bor o‘tganini angladi. Bu hovli o‘shanda unga derazalariga mix qoqilgan oq villaday tuyulgan edi... Endi tashvishli qarashlar bilan bu joyni nazardan o‘tkazarkan, u hech bir qiyinchiliksiz tanish, qadrdon o‘tloqzorlardan tungi qorong‘ilik pardalarini yoki buning aksi, ulardan ortiqcha oy nurlarini sidirib tashlardi. Negaki ular qanday bo‘lsa, xotirasida aynan o‘shanday qolishini istayotgandi. U tun tuyog‘i bilan buzilgan manzarani tuzatarkan, daryochalar, yolg‘izoyoq yo‘lakchalar, o‘rmonlar hamon eskicha bo‘linishini his qildi... Olisda, temirrang osmonga tiralgan, kishini o‘ziga jalb qiladigan do‘ngliklar qorong‘ilik qa‘rida ko‘kish yaltirab turibdi...

– Oy, rovon, Marfinka va u, – dedi msye Pyer Sinsinnatga kulim-sirab. U hamma Sinsinnatga mehr bilan tikilayotganini his qildi.

– Siz manzaraga qarayapsizmi? – so‘radi bog‘lar boshqaruvchisi, go‘yo muhim sirni aytayotganday, ovozini pastlatib, siz... – u o‘ng‘aysiz holatga tushib qoldi, gapdan to‘xtadi va msye Pyerga o‘girildi: – Kechirasiz, siz ruxsat berasizmi? Aslini olganda, meni hali sizlarga tanishtirishmadi...

– Bemalol, bemalol, mening ruxsatim talab etilmaydi, – dedi nazokat bilan msye Pyer va Sinsinnatga yelkasini tegizib, asta dedi: – Bu janob sen bilan suhbatlashmoqchi.

– Manzara... Manzaraga maftunmisiz? – takrorladi bog‘lar boshqaruvchisi, kaftiga yo‘talib. – Ammo hozir bu qorong‘ulikda ko‘p narsani ko‘rolmaysiz. Shoshmay turing, rosa yarim kechada, – buni menga bizning bosh muhandisimiz va’da berdi... Nikita Lukich! Hov Nikita Lukich!

– Ha, men shu yerda, uning o‘midaman, – javob berdi Nikita Lukich va ular tomonga xizmatga shay holatda intildi. Go‘shtdor yuzli bu yosh yigit goh unga, goh bunga xursandlik va so‘roq nazari bilan tikilarkan, mo‘ylovi likillab, bog‘lar boshqaruvchisi va msye Pyer ning yelkalariga qo‘llarini qo‘ydi.

- Men, Nikita Lukich, siz roppa-rosa yarim tunda...
- Albatta, albatta, – hozirjavoblik bilan uning gapini kesdi bosh muhandis. – Albatta, kutilmagan sovg‘a tayyor, xotirjam bo‘lingizlar. Hozir soat necha bo‘ldi, bolalar?
- U begona yelkalarni o‘zining zabardast qo‘llaridan ozod qildi va tashvishli ravishda xonaga yo‘naldi.
- Nimayam qilardik, qandaydir sakkiz soatlardan so‘ng maydonda bo‘lamiz, – dedi msye Pyer, soatining qopqog‘ini ezg‘ilab. – Uxlashga ozroq vaqt qoladi. Azizim, sen sovqotmayapsanmi? Mana bu janob syurpriz qilar emish. Bizlarni bu yerda judayam erkatalishyapti. Ayniqsa, baliq juda mazali ekan.
- Tashlang, qo‘ying uni, – yetimxona mudirasining past ovozi eshitildi. U ta’midot boshlig‘ini surib, to‘ppa-to‘g‘ri msye Pyer tomon intilardi.
- Salgina yengilroq bo‘ling, xonim, – dedi msye Pyer, – men davlat odami emasman.
- Juda zo‘r ayol, – dedi ta’midot boshlig‘i hech qanday hishayajonsiz va bir oyog‘ini likanglatib, bir guruh erkaklar turgan tarafga yo‘naldi va uning soyasi o‘shalarning soyasiga aralashib ketdi. Shabada qog‘oz chiroqlarni silkitar va ana silkinish orasida qorong‘ulik orasidan goh mo‘ylovini silayotgan qo‘l, goh baliq yeb, moylangan og‘ziga bokal olib borayotgan qo‘l ko‘zga tashlanib o‘tardi.
- Diqqat! – xo‘jayin nogoh qichqirdi, shamolday mehmonlar oralab o‘tarkan.
- Avval bog‘da, keyin bog‘ ortida, keyin dalada, yo‘laklar yoqasida, o‘tloqzorda, burimlarda bitta-bittalab, keyin ko‘plab chiroqchalar turli-tuman ranglarda porlab ketdi. Mehmonlar orasida hayajonli, ohvohli ovozlar eshitildi. Msye Pyer nafasini rostlab, Sinsinnatni jimjilog‘idan ushlab oldi. Porlayotgan chiroqchalar tobora ko‘payib borardi. Mana, ular yo‘lak ortida, do‘nglik ortida, yana ko‘z ko‘rmayotgan tomonlarda ham birin-ketin porlay boshladi .
- Qanday go‘zal, – shivirladi msye Pyer, bir lahza yuzini Sinsinnatning yuziga bosib.
- Mehmonlar qarsak chalib yubordilar. Hamma yoqqa ulkan P. va S. shaklida «ekib chiqilgan» milliontacha turli rangdagi chiroqchalar

uch daqqa davomida hamma yoqda porlab turdi. Keyin barchasi bavarav o'chdi va oynavand ayvon ham qorong'ilashib ketdi.

Muhandis Nikita Lukich yana paydo bo'lganda uni o'rab olib, os-monga otmoqchi bo'lishdi. Ammo qonuniy dam olish payti kelganini eslatishga to'g'ri keldi. Mehmonlar ketishi oldidan xo'jayin msye Pyer va Sinsinnatni suratga olishni taklif qildi. Msye Pyer suratga ol-nayotganlar safida bo'lsa-da, mazkur tadbirga shaxsan rahbarlik qildi. Fotoapparat chirog'ining yonib o'chishi Sinsinnatning oppoq yuzini va yonidagi kimsaning ko'zsiz yuzini suratga oldi. Xo'jayinning o'zi ularga plashni kiydirdi va kuzatishga chiqdi.

– Tashrifingizdan g'oyatda xursandman, – dedi xo'jayin xayrlashayotib Sinsinnatga. – Ertaga, aniqrog'i bugun ertalab men ham o'sha yerda bo'laman. Nafaqat rasmiy, balki shunchaki jismoni shaxs sifatida ham o'sha yerda bo'laman. Jiyanimning aytishiga qaraganda, juda ko'p odam to'planar emish.

– Xullas, omon bo'lingizlar, – dedi xo'jayin msye Pyerga. Sinsinnat bilan msye Pyer askarlar hamrohligida gulzorlar oralab, jo'nadilar.

– Sen umuman yaxshisan, – dedi msye Pyer, ular xonadondan ozroq uzoqlashishganda. – Faqat nega sen hamisha mana shunaqa... Sening tortinchoqliging odamlarda juda og'ir taassurot qoldiradi. Senga qanday, bilmadim-u, men bu kechadan g'oyatda xursandman. Ammo men zarda bo'lyapman va o'ylayapmanki, sariyog' toza emas edi.

Uzoq yurdilar. Havo juda tinch va tumanli edi.

– To'q-to'q-to'q, – Krutoy daryosi bo'ylab enishga ketayotganlari-da qayerdandir chap tomondan to'ng ovoz eshitildi, – to'q-to'q-to'q.

– Ablahlar, – g'o'ldiradi msye Pyer, – hammasi tayyor, deya qasam ichgan edilar-ku...

Nihoyat, ko'priordan o'tib, tog' tomonga ko'tarila boshladilar. Bulutlar oy nurlarini yig'ishtirib tashlashgandi, qal'aning quyuq minoralari bulutlar bilan ayzash-uyqash bo'lib ketdi. Tepada, uchinchi darvoza oldida, ularni tungi qalpoqli Rodrig Ivanovich kutib oldi.

– Qalay, hammasi joyidami? – so'radi u chidamsizlik bilan.

– Siz yetmay turuvdingiz, – dedi msye Pyer sovuq ohangda.

«Yotdim, uxlamadim, judayamsovqotib qolgan ekanman. Endi tong otdi (tez-tez, noaniq, so‘zlarni oxirigacha tugatmay yozdi Sinsinnat), endi havo rangpar, men qaltirab boryapman. Shu qadarsovqotdimki, «sovuv» degan umumiy tushunchaning o‘zi mening ahvolimni tasvirlab berolmaydi. Qo‘rqib boryapman, buning uchun vijdonimqiynalyapti. Judayam qattiq qo‘rqaqman. Qo‘rquinch to‘xtamasdan a’zoyi badanimni tilkalab, go‘yo hozir meni olib ketgani kelishadiyu... Kimningdir gapini eshitishim uchun juda baland ovozda gapirishlari kerak. Vijdonim qiynalyapti, ruhim sharmanda bo‘ldi. Bunaqa bo‘lmasligi kerak edi. Aslo bunaqa bo‘lmasligi kerak edi. Mening ruhimning etagidan tutib olib, qiynayaptilar, qanaqadir xotiralar miyamga o‘yib kirishga harakat qilyaptilar: men, yoshgina bola, shovqinli tarzda oqayotgan suv bo‘yida kitob o‘qiyapman. Suv o‘zining tomchilarini eski, judayam eski she‘r satrlari ustiga socha-yapti. Enishda esa, xotiralar ham, qo‘rquv ham, qattiq tutgan hiqlichoqning ham keragi yo‘qligini juda yaxshi bilaman. Hammasi jo-yida, toza, ozoda o‘tadi, deya umid qilgandim. O‘lim dahshati yangi tug‘ilgan chaqaloqning qattiq chinqirig‘i yoki qo‘lidagi o‘yinchoqni tortib olishgan paytdagi bola yig‘isi kabi zararsiz bir narsa bo‘ladi, hattoki ruhingni sog‘lomlashtiradi, deya o‘ylagandim. Baribir, baribir, ey, qo‘g‘irchoqlar, ko‘rib qo‘yinglar, men qo‘rqaqman, a’zoyi badanimda titroq, vujudim uchib ketyapti – mana hozir meni olib ketgani kelishadi, men esa ruhan tayyor emasman, buning uchun vijdonim qiynalyapti...»

Sinsinnat o‘rnidan turdi, yugurgancha, boshini devorga urdi, ammo asl Sinsinnat xalat kiygancha štol ortida o‘tirar va qalam uchini chaynab, devorga tikilardi. Mana, yana yengilgina harakat bilan yozuvini bamaylixotir davom ettirdi:

«Bu varaqalmi saqlab qo‘yinglar, kimdan iltimos qilayotganimni bilmayman. Sizni ishontirib aytamanki, shunaqa qonun bor, qonunan shunday yo‘l tutsa bo‘ladi. Mana ko‘rasiz! Qo‘yinglar, shunchaki yotsinlar. Sizga xalaqit bermaydi-ku! Men esa judayam iltimos qilaman, bu mening oxirgi iltimosim. Oxirgi iltimosni bajarmaslik mumkin emas. Hatto nazariy jihatdan bo‘lsa ham, men o‘z

o‘quvchilarim bo‘lishini istayman, yo‘qsa, hammasini yirtib tashlagan ma’qul. Ana shuni aytta olishga o‘zimda kuch topishim kerak edi. Endi tayyorlanish kerak».

U yana to‘xtadi. Kamera ancha yorug‘lashib qolgan edi. Yorug‘likning harakatiga qarab hozir soat olti yarimga bong urishini Sinsinnat bilardi. Olisdagi bong ovozini kutib, u yozishda davom etdi. Ammo endi mutlaqo tinch, bo‘lak-bo‘lak. U haqiqatan ham bor kuchini va chidamini shu vaqtgacha sarflab bo‘lgan edi.

«Mening so‘zlarim bir joyda depsinib qoldi. Shoirlarga havas qilaman. Demak, varaq bo‘ylab o‘qday uchib o‘tish va tong ufqini tomosha qilish qanday yaxshi. Qatl marosimining, uning barcha tayyorgarliklari-yu harakatlarining notozaligi... Silliq oyboltaning o‘tkir, sovuq qirralarini aytmaysizmi. O‘ylashimcha, xayrlashuv og‘rig‘i qip-qizil va jarangdor bo‘ladi. Qog‘ozga bitayotgan o‘ylarim meni uncha bezovta qilayotgani yo‘q. Yomon tomoni boshqa yoqda – saraton shishi kabi qavarib chiqqan o‘yingni qirqib olib tashlaysan, qirqib olib tashlayverasan, u esa yana qavarib chiqaveradi. Bugun ertalab yoki bir-ikki soatdan so‘ng... tasavvur qilish juda og‘ir...»

Ammo ikki soat, balki undan ham ko‘proq vaqt o‘tsa-da, atrofda jimjitlik edi. Odatiy tarzda Rodion nonushta keltirdi, kamerani tozaladi, qalam uchini o‘tkirladi, o‘rgimchakni ham ovqatlantirdi, axlatni olib chiqdi. Rodion hech narsa so‘ramadi, ammo Rodion ketganda vaqt doimgiday o‘z harakatini davom ettirdi. U o‘zini yana aldashganini tushunib yetdi. Bekordan bekorga o‘zini qiyndi. Yana hammasi noaniqligicha, maqsadsizligicha, botqoqligicha davom etadigan bo‘ldi.

Soat uch yoki to‘rtga bong urganda (u uyqusirab, soat necha marta bong urayotganini sanamabdi), Marfinka kirib keldi. Uning yuzlari qizil edi, yaxshi kiyinib olgandi: qora baxmal ko‘ylagining burchaklari ko‘tarilib turardi, shu bilan birgalikda nimadir ko‘ngildagiday emasdi, shu sabablimi, u qiyshayib yurayotganday tuyular, buni uning o‘zi ham anglab, tinmay ko‘ylagining u yoq-bu yog‘ini to‘g‘rilar yoki yelkasini silkib, belini qimirlatardi.

– Bu gullar senga, – dedi u, stol ustiga gullar o‘ramini tashlab va shu lahzada tizzalarini ochib, stulga oq paypoqli oyog‘ini qo‘ydi. – Ruxsat olish juda qiyin bo‘ldi! To‘g‘ri, ayrim yon bosishlarga

majbur qilishdi, xullas, bir so‘z bilan aytganda, doimgi mojaro takrorlandi. Qanday yashayapsan, mening bechora Sinsinnatjonginam?

– Tan olishim kerak, seni kutmagandim, – dedi Sinsinnat. – O‘tir, joy topib.

– Men kechayoq harakat boshlagandim, bugun esa o‘zimga o‘zim so‘z berdim: yorilib ketsam ham mayli, o‘tib boraman. U, sening direktoring, meni bir soat ushlab o‘tirdi, seni judayam qattiq maqtadi. Men bugun judayam shoshdim, ulgurmaymanmi, deb qo‘rqdim. Ertalab Qiziqlarlida judayam dahshatli voqealar sodir bo‘ldi.

– Nega to‘xtatishibdi? – so‘radi Sinsinnat.

– Aytishlaricha, kecha hamma amaldorlar qattiq charchashibdi, yomon uxlashibdi. Bilasanmi, olomon tarqalishni istamadi. Sen faxrlanishing kerak.

Marfinkaning yuzidan uzun, g‘oyatda chiroyli ko‘z yoshlari yuzidagi barcha egrи-bugri qirralar oralab oqib tusha boshladi. Ammo ko‘zlar doimgiday tetik boqar, kalta barmoqlaridagi oq dog‘li tirnoqlari e‘tiborni tortar, yupqa lablari qimirlab, o‘z so‘zlarini aytishda davom etardi.

– Ayrimlarning aytishicha, endi uzoq vaqtga qoldirilgan mish. Umuman hech kim anig‘ini aytolmaydi. Mish-mishlar judayam o‘rmalab ketdi, hatto tasavvuringga sig‘dirolmaysan...

– Nega yig‘layapsan? – so‘radi Sinsinnat, xo‘rsinarkan.

– O‘zim ham bilmayman, charchab ketdim... Hammalaring joninga tegib ketdilaring. Sinsinnat, Sinsinnat, shunaqayam ishlar qilsanmi!... Sen haqingda nimalarni gapirishmayapti – dahshat! Eshit, – nogoh u mavzuni o‘zgartirdi, – shu kunlarda, qaysi kuni edi-ya!? Ha, kechadan oldin, mening oldimga qandaydir xotincha kelib, mutlaqo notanish, doktor shekilli, hech narsa bo‘limgänday, boshladi: falon... piston... gap shundaki... tushunyapsizmi va hokazo. Men unga: yo‘q, hali hech narsani tushunmadim. U esa: e, yo‘q, unday emas, men sizni yaxshi bilaman, faqat siz meni bilmaysiz... Men esa unga... (Marfinka hamsuhbatini tasavvuriga sig‘dirishga harakat qilib mazmunsiz va tayinsiz ohangga o‘tdi, ammo cho‘zib yuborgan joyida hushyorlik bilan o‘zini to‘xtatib qoldi – men unga aytdimki, – va endi o‘z so‘zini o‘zi aytganday qilib, o‘zini tutib olganini ta‘kidladi.) Xullas, bir so‘z bilan aytganda, u meni ishontirishga urindiki, u –

sening onang! Holbuki, menimcha, u yosh jihatdan ham senga onalikka to‘g‘ri kelmaydi. Shularga qaramay, u o‘zida yo‘q darajada uni poylab yurishlaridan qo‘rqadi, aytishicha, uni so‘roq qilishgan, qiynashgan. Men unga: bu gaplarga mening nima aloqam bor, deb so‘radim. Umuman, siz nima sababdan men bilan uchrashishni ixtiyor qildingiz? U esa: e, yo‘q, men yaxshi bilaman, siz judayam oqko‘ngilsiz, siz, albatta, buni amalga oshirasiz... Men unga dedim: siz nima sababdan meni oqko‘ngiz deb hisoblayapsiz? U esa – unaqa, bunaqa, bor, yo‘q va hokazo, demak, men qo‘llarim va oyoqlarim bilan imzo chekib, ya’ni u hech qachon biznikida bo‘lmagan, sen va men bilan uchrashmagan, deb yozilgan... bitta qog‘oz bera olmaymanmikan... Bilasanmi, bu menga juda kulgili tuyulib ketdi! Menimcha, bu ayol qandaydir telba, esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolgan bo‘lsa kerak, to‘g‘rimi? Har nima bo‘lganda ham, men albatta, unga hech qanaqa qog‘oz bermadim. Viktor va boshqalarning aytishiga qaraganda, bu qog‘oz bizni uyatga qo‘yishi mumkin ekan. Ya’ni men seni juda yaxshi bilaman, har bir qadamingdan xabardorman, uni mutlaqo bilmasligingniyam juda yaxshi bilaman. Va u g‘alati holga tushib, qaytib ketdi.

- U haqiqatan ham mening onam edi, – dedi Sinsinnat.
- Balkim, balkim. Qolaversa, bu endi unchalik muhim emas... Sen nega bunchalar zerikib o‘tiribsan, achchiqsan... Sin-sin? Men umid qilgandimki, sen meni ko‘rib, xursand bo‘lib ketasan...
- U yotoqqa, keyin eshikka qaradi.
- Bu yerning qoidalari qanaqaligini bilmayman, – dedi u yarim ovozda, – ammo agar senga kerak bo‘lsam, Sinsinnatjon, kel, faqat tez.
- Qo‘ysang-chi, nima kerak bunaqa ahmoqlik shu tobda? – dedi Sinsinnat ruhsiz.
- Istanaganing. Men faqat sen bir maza qilishingni istagan edim, axir, bu bizning oxirgi uchrashuvimiz bo‘lsa va hokazolar. Bilasanmi, menga uylanishni istashyapti, top-chi, kim? Hech qachon topolmaysan – esingdami, bir qari eshshak bo‘lardi, bir vaqtlar bizga qo‘sni bo‘lib yashardi. Nuqlul trubka chekkancha, devor osha bizning hovliga, ya’ni menga – men olmaga osilib chiqqanimda – termulgani termulgan edi. Qanday? Eng asosiysi – mutlaqo jiddiy! Men o‘sha dala qo‘riqchisiga tegarmidim, ahmoq! Qolaversa, men juda yaxshi

dam olishga muhtojiman, quyosh nuridan yuzingni bujmaytirib, cho‘zilsang, hech narsani o‘ylamasang, dam olsang, yana dam olsang va albatta, bir o‘zing, yoki, deylik, yoningda o‘zingga ma’qul odam bo‘lsa, u senga g‘amxo‘rlik qilsa, seni juda yaxshi tushunsa...

Uning kalta, qattiq kipriklari yana ko‘z yoshidan yaltillab ketdi, qip-qizil yonoqlari orasida ilonizi qilib, pastga dumaladi.

Sinsinnat ana shu ko‘z yoshlaridan birini barmog‘iga oldi va yalab ko‘rdi: sho‘r emas, shirin ham emas – shunchaki ichimlik suvining bir tomchisi. Sinsinnat bu ishni qilmadi.

Nogoh eshik g‘iyqillab, salgina ochildi, qizg‘ish barmoq Marfinkani imlab chaqirdi. U shipillab eshikka bordi.

– Sizga nima kerak, hali vaqt bor, menga bir soat va’da berishgan, – dedi u tez-tez gapirib. Unga e’tiroz bildirishdi.

– Hech qachon! – Marfinka achchiqlandi. – Shunaqa ekan, deng. Biz kelishganmiz, direktor bilan...

Uning gapini bo‘lib tashlashdi: unga nimalarnidir astoydil tushuntirishdi; u boshmog‘ining uchi bilan bilan yer chizib, quloq soldi.

– Bo‘pti, – dedi Marfinka qo‘pollik bilan va toza, ozoda bir harakatchanlik bilan eri tomon o‘girildi. – Men besh daqiqadan keyin qaytaman, Sinsinnatjon.

(U yo‘q payti Sinsinnat hali ham u bilan eng zarur, amalgaloshi shart bo‘lgan suhbatni boshlamagani haqida o‘yladi va bu juda zarur narsani qanday aytishni ham bilmay qolgan edi... Shu bilan birgalikda, uning yuragi alamdan qovrilalar, yuragini bir burchida o‘sha xotira silqib turardi – bundan allaqachon qutulish kerak edi).

U o‘n besh daqiqalardan keyin qaytdi, nima sababbandir nafrat bilan xo‘rsindi; oyog‘ini yana stul ustiga qo‘ydi, achchiq bilan belining buriladigan bo‘laklarini likillatib, stolga o‘tirdi, ya’ni avvalgi harakatlarini yana o‘sha taxlit takrorladi.

– Afsus, – dedi u kinoyali kulimsirab, stol ustida turgan ko‘k gullarni bir-bir terarkan. – Ey, Sinsinnatjon, sen menga nimadir de, xo‘rozcham mening... Bilasanmi, bu gullarni men o‘zim terdim... Uddalolmasang, tarmashma, – kutilmaganda boshqacha, qat’iy ovozda davom etdi u, ko‘zlarini bujmaytirib. – Yo‘q, Sin-sin, bu gapni men senga aytayotganim yo‘q (uf tortdi). Nimadir de, axir! Mening ko‘nglimni ko‘tar.

– Sen mening xatimni... – boshladi Sinsinnat va yo‘taldi, – sen mening xatimni zarur darajada e’tibor bilan o‘qidingmi?

– Sendan iltimos, – Marfinka hayajonlandi, chakkasini ushlab, – faqat shu xat haqida gaplashmaylik!

– Gaplashmasak gaplashmaymiz-da! – dedi Sinsinnat.

Marfinka sakrab o‘rnidan turdi, shosha-shisha kiyimlarini to‘g‘rilab, tutilib-tutilib, salkam shivirlaganday tez-tez gapira ketdi. U achchiqlanganda shunaqa gapirardi.

– Bu juda yomon xat. Bu qandaydir, alahsirash. Men baribir hech narsani tushunmadim. Go‘yo sen bir o‘zing o‘tirib sharob ichgansan-u, keyin shu xatni yozgansan. Bu xat haqida men mutlaqo gapirmoqchi emas edim, ammo sen o‘zing boshladningmi... Axir, uni olib borganlar o‘qishgan, u unga shu haqda yozyaptimi, demak, ikkovi hamtovoq deb hisoblashgan. Tushun, sening ishlaring haqida men hech narsani bilishni istamayman. Sen hech qachon menga bunaqa xatlar yozma, o‘z jinoyatlaringni menga bog‘lama...

– Men xat yozishim jinoyat emas, – dedi Sinsinnat.

– Sen shunday o‘ylaysan, ammo hamma sening xating tufayli o‘zlarini qo‘ygani joy topolmay qolishdi. Men – ahmoq xotin, balki hayot qonunlari borasida hech qanaqa tushunchaga ega emasdirmal, ammo hatto men ham yuragim bilan sezdim. O, Sinsinnat, sen meni qanchalar noqulay holatga solyapsan, hech bo‘lmasa, bolalar haqida o‘yla, bolalar haqida... Eshit, iltimos, meni bir daqiqa eshit, – davom etdi u qiziqqonlik bilan, – bunday daqiqalarda u mutlaqo o‘zini idrok etolmay qolardi, – hammasidan, hamma narsadan voz kech! Men aybdor emasman, deb ayt ularga, menga hozirdanoq ko‘rsatkich barmoqlarini niqtab, «yesir, beva», deyaptilar!

– To‘xta, Marfinka! Nimagadir men tushunmayapman. Men nimaga uzr so‘rashim kerak. Sabab bormi?

– Ana shunday! Meni o‘zingning jinoyatlaring orasiga tiqaver, menga har xil bo‘lmag‘ur savollarni beraver... Agar nimagaligini men bilganimda bormi, demak, unda men haqiqatan ham sening sheringingga aylanar edim. Bunisi tushunarli. Bo‘ldi, yetarli, to‘ydim. Men bunaqa narsalardan judayam qattiq qo‘rqaman. Menga oxirgi marta ayt: nahotki, sen men uchun, oilang uchun...

– Xayr, Marfinka, – dedi Sinsinnat.

U o'ng qo'lini iyagiga tirab, o'tirib qoldi. Chap qo'li bilan esa stol ustiga o'z dunyosini chiza boshladи.

– Yaxshi emas, judayam zerikarli, – dedi u chuqur, judayam chuqur uh tortib. Xo'mrayib, tirnoq uchida daryoni chizdi. Men o'ylagandimki, biz mutlaqo boshqacha uchrashamiz, men senga hamma narsamni berishga tayyor edim. Intilishga arzir edi. Nimayam qilardik. (Daryo stolning chetidan dengizga quyildi.) Men ketaman, bilasanmi, yuragimda og'ir og'riq bilan ketaman. Ammo men qanday chiqaman? – nogoh u xursand holda tashvishga tushdi. – Bu yaqin orada ortimdan kelishmaydi. Men ulardan bir dunyo vaqt so'rab ol-ganman.

– Bezovta bo'lma, – dedi Sinsinnat, – bizning har bir so'zimiz... Hozir ochishadi.

U adashmadi.

– Shoshmanglar, shoshmanglar, – Marfinka bidillay ketdi, – To'xtanglar, tarmashmanglar, erim bilan xo'shashlib olay... Agar senga ko'yak yoki shunga o'xshash nimadir kerak bo'lsa... Ha, bolalar seni mahkam quchoqlab, o'pib qo'yishimni so'rashdi, esimdan chiqibdi. Men senga sovg'a qilgan idishni otam o'z xonasiga kiritib oldi. Deydiki, go'yoki, sen...

– Xonim, tezroq bo'ling, – Rodion uning gapini bo'ldi, rasman ogohlantirib, uni chiqishga chorlar ekan.

XIX

Ertasiga ertalab unga gazetalar keltirishdi. Bu qamoqning birinchi kunlarini eslatdi. Shu zahoti ko'zlariga rangli surat tashlandi: ko'k osmon ostida – maydon, maydonda tumonot olomon. Sahnaning to'q qizil bir chetigina suratda ko'rindi. Qatl ustunidagi yozuvning yarmi bo'yalgan, qolgan yarmidan Sinsinnat faqat Marfinka aytgan gaplarnigina uqli: ya'ni usta kasal, shu sababli marosim qoldirilgan – balki uzoq vaqtga qoldirilgan bo'lishi ham mumkin.

– Mana senga sovg'a, – dedi Rodion Sinsinnatga emas, o'rgimchakka tikilib. U avaylabgina, ammo jirkanish bilan (avaylash buyurilgan, shu sababli ko'kragiga bosgancha) qandaydir o'rmalab yurgan narsa o'ralgan sochiqni ko'tarib kirdi: – Buncha qattiq harakat qiladi, hozir qo'yib yuboraman, shekilli...

U doimgiday, stulni siljитishni mo'ljallayotgandi. Shu taxlit stulga chiqib, o'rgimchakka qurbanini yetkazib berish mumkin bo'ladi. Ammo nimadir yuz berdi, Rodion barmoqlari orasidan sochiqning asosiy uchini tushirib yubordi va shu zahoti aftini bujmaytirib, qichqirdi. Axir, odamga nafaqat uchar sichqon, balki oddiy sichqonning o'zi ham aslo yoqmaydi. Sochiqdan katta, qoramfir, mo'ylovli narsa chiqdi, Rodion bor ovozi bilan yer tepib, baqirdi, ammo uni ushlashga haddi sig'madi, qochirib yuborishga esa qo'rqardi. Sochiq tushib ketdi; asira esa Rodionning bo'yniga yopishdi.

Bu oddiy tungi ko'rshapalak edi. Ammo qanaqa!? Kattaligi erkakning kaftiday keladi: qoramfir malla, ayrim joylari chang bosganday tuyuladi, qanotlari ulkan.

– Obbo! Yo'qotinglar uni! – o'zini yo'qotar darajada yalindi Rodion va uning ana shu jonholatda baqirishlari tufayli kapalak o'midan qo'zg'alib, stolga urildi, to'xtadi, vahimali qaltiradi va nogoh havoga uchdi. Bekordan bekorga mening tinchimni buzzinglar, endi o'zlarindan ko'ringlar. Havoni kesib ucharkan, shamoli yuzlarga urilardi. Rodion sochiqni ko'tarib, uchayotgan maxluqni urib tushirishga urinardi. Nogoh u yo'qolib qoldi; sirli bir tarzda yo'qolib qoldi.

Rodion uni izladi, topolmadi va kamera o'rtasida Sinsinnatga o'girilib, qo'llarini beliga qo'yib:

– Qanaqa balo bu? – dedi ma'noli jimlikdan so'ng. Tupurdi, boshini sarak-sarak qildi va ehtiyyot shart chivinlar saqlanadigan gugurt qutisini chiqarib, o'rgimchakni ovqatlantirdi. Sinsinnat esa kapalak qayerga qo'nganini juda yaxshi bilib turar edi.

Rodion achchiq bilan – yo'l-yo'lakay yasama soqolini yasama sochli shapkasi bilan birga qo'liga olib – xonadan chiqqanda Sinsinnat yotog'idan stol tarafga o'tdi. U kitoblarining barini berib yuborganidan afsuslandi va ish qolmaganidan yozishga o'tirdi.

«Hammasi to'g'ri keldi, – yozdi u, – ya'ni hamma aldandi, – bu bari achinarli tomosha, bekorchilarining ermag'i, onaning ko'z yoshlari, devor ortidagi do'q-do'qlar, qo'shnining senga nisbatan xushomadlari va nihoyat – yursang toyib ketishing mumkin bo'lgan darajadagi sirpanchiq do'ngliklar... Hammasi aldandi, birgalikda. Mana, oxiri berk ko'cha. – Uning tor berk joyida qutulishni o'ylash shart emas. Men ahmoq esa izladim. G'alati, men haqiqatan ham

izladim. Xuddi bir odam aslida hech qachon mavjud bo‘lmagan anjomin tushida yo‘qotib, keyin ovora bo‘lib izlab yurgani kabi, uxlasa, o‘sha anjom qayerdaligi yana tushida ayon bo‘ladigandek, umid bildirgani kabi izlandim. Matematika shu taxlit yaratiladi; uning o‘ziga yarasha halokatli kamchiligi bor. Men uni topdim. Hayotdagि umid tuynugini topdim, hayot qayerda o‘pirilib tushgan bo‘lsa, qayerda qaytadan boshqa narsa bilan yamalgan bo‘lsa, haqiqiy tirik, ahamiyatli va ulkan – uni ifodalash uchun yana qanaqa chiroyli so‘zlar kerak... Yaxshisi, gapimni oxiriga yetkazmayman, chalkashib ketyapman. Ana shu tuzalmas tuynukda chirish ko‘zga tashlandi. O, men hammasini aytishga o‘zimda kuch topa olyapman – tushlar, qo‘shilishlar, bo‘linishlar – yo‘q, yana chalkashib boshlayapman, mening so‘zlarimning eng a‘lo qismi u yoqdan bu yoqda lipillab o‘tib ketyapti, ushlab qololmayapman. Xullas, agar yana uzoq vaqt bu yerda tirk qolishimni bilganimda men hammasini qaytadan boshlardim. Ko‘kka tikka olib chiqadigan iboralar bilan gaplar tuzardim. Shu paytgacha yozganlarim – mening hayajonlarimning ko‘pigi, xolos.... Chunki men ulgurmaymanmi, deb shoshgandim. Ammo endi men toblanib bo‘lganimdan so‘ng, endi salkam hech nimadan qo‘rqmay qo‘ygamidan so‘ng...»

Shu yerda varaq to‘ldi va Sinsinnat shoshib qoldi. Xudoga shukrki, yana bitta toza varaq topildi.

«...O‘lim», – o‘z iborasini davom ettirdi u, ammo shu zahoti bu so‘zni o‘chirib tashladi; boshqacha davom ettirish kerak edi, aniqrog‘i: og‘riq qatldami, ajralishdami – shunaqaroq shekilli; kalta qalamni qo‘lida aylantirib, u o‘ylanib qoldi. Stol chetiga, yaqinda jonholatda o‘zini qutqarish uchun qo‘ngan joyiga malla kapalak yana kelib qo‘ndi. Sinsinnat uni esladni, stoldan uzoqlashdi, o‘sha yerda – yagona yozilgan, ammo o‘chirilgan so‘z bilan – oq qog‘ozni qoldirdi va yotog‘i oldida go‘yo boshmog‘ining iplarini tuzatayotganday, egildi. Kapalak yotoqning temir oyog‘i etagiga qo‘ngan edi. Ko‘rshapalak ko‘radigan qanotlarini mutlaqo yozib, uxlardi. Sinsinnat o‘zini to‘xtatolmadni, barmoq uchi bilan o‘ng qanotining qovurg‘alari ustini siladi, keyin chap qanotini, ammo ko‘rshapalak uyg‘onmadni. Sinsinnat ko‘tarildi, nafasini rostlab, o‘zini chetga oldi, stolga o‘tib, yozuvini davom ettirmoqchi bo‘ldi. Shu payt qamoqxona qonun-

qoidalariga binoan vay-vuy, shaq-shuq bilan eshik ochildi. Msye Pyer ichkariga boshini suqdi, keyin... o‘zining qizg‘ish ov kiyimida tashrif buyurgan edi. Uning ortida yana ikki kishi: direktor bilan advokat sal-kam tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgan edi: charchab, cho‘zilib qolgan, ranglari oqarib, salkam o‘lik holatiga kelgan, har ikkisi kul-rang kiyim kiygan, hech qanday yasama sochlarsiz va boshqa yasa-malarsiz, ko‘zlarida yosh bilan ikkovi bir-biriga o‘xshab qolgan edi. Ular hatto boshlarini ham bir xil u yoq-bu yoqqa burishardi.

Yonoqlari chiroyli qizargan msye Pyer ta’zim qildi, kulgili in-gichka ovoz bilan dedi:

- Ulov tayyor, marhamat qiling.
- Qayoqqa? – so‘radi Sinsinnat, haqiqatan ham hech narsani tu-shunmay. U hammasi ertaga ertalab bajarilishiga ishonchi komil edi.
- Qayoqqa kerak bo‘lsa, o‘sha yoqqa-da! – uni kalaka qildi msye Pyer. – Qayoqqaligi ma’lumku. Chik-chik qilamiz.
- Axir, hozir emasdир, – dedi Sinsinnat, o‘z gapiga o‘zi hayron qolib. – Men hali tayyor emasman... (O‘zingmisan, Sinsinnat?)
- Aynan hozir. Do‘stim, senga tayyorlanish uchun uch hafta mud-dat berildi. Menimcha, yetarli. Mana bular mening yordamchilarim, Rodya bilan Roma, marhamat, ularni seving va ular bilan hamkorlik qiling. Barakalla, ko‘rinishidan qo‘rqib qolganga o‘xshashadi, ammo amalda hammasini a’lo darajada bajarishadi.
- Harakat qilamiz, – deyishdi yigitlar.
- Sal bo‘lmasa, esimdan chiqay debdi, – davom etdi msye Pyer, – qonunga binoan, sening yana bir qancha huquqlaring bor. Menga ro‘yxatni beringlar.

Roman keragidan ortiq darajada shoshqaloqlik bilan motam lentasi taqilgan ikki buklog‘liq karton qog‘ozni kissasidan chiqardi; u qog‘ozni chiqarayotganda Rodrig o‘n yonlarini tekislayotgan-day bo‘lib, sheringining harakatlaridan ko‘z uzmay turdi.

– Masalani murakkablashtirmaslik uchun bu ro‘yxatda oxirgi xohishlar majmuasi bitilgan. Sen ulardan bittasini, faqat bittasini tanlashing mumkin. Men ovoz chiqarib o‘qiymen. Xullas: bir stakan musallas; yoki hojatxonada qisqa vaqt bo‘lish; yoki turma jihozlarini bir bor ko‘zdan kechirish; obbo, nima bu... ma’muriyatga... yaxshi saqlaganlari uchun tashakkurnoma yozish... Kechirasiz... sen ablah,

Rodrig, ablahsan! Buni sen qo'shib qo'ygan bo'lsang kerak. Men tushunmayapman, kimning ishi bu? Bu axir rasmiy hujjat! Bu menga nisbatan mutlaqo hurmatsizlik. Men axir qonunlar masalasida sizlarga doimo yon bosib kelayotgan bo'lsam...

Msye Pyer ro'yxatni achchiq bilan yerga urdi, Rodrig uni shu zahoti ko'tarib oldi, tekisladi, aybdorona po'ng'illadi:

– Bezovta bo'l mang... bu men emas, bu Romkaning hazili... men tartibni yaxshi bilaman, barcha tartibli xohishlarni... buyurtma bo'lsa, biz...

– Chidab bo'l maydi! Naqadar ahmoqlik! – baqirardi msye Pyer, kamera bo'ylab yurarkan. – Men sog'lom emasman, ammo o'z vazifamni bajaryapman. Menga bir hafta burun o'lib qolgan baliq go'shtini tutishyapti. Menga qandaydir fohishani duch qilishyapti, mening ustimdan kulishyapti va shundan so'ng mendan vazifamni vijdonan bajarishimni talab qilishyapti! Bunaqasi ketmaydi! Tamom! Chidam piyolasi oxiriga qadar sipqorildi! Men rad qilaman, bajar-mayman, o'zlarin qilinglar, kesinglar, chopinglar, bilganlariningni qilinglar, mening boltamni sindirib tashlanglar...

Olomon sizning nomingizni tildan qo'ymayapti, – dedi Roman yaldoqlik bilan, – usta, tinchaning. Iltimos qilamiz. Agar nimanidir ko'zdan qochirgan bo'lsak, bu bizning ahmoqligimiz, to'nkaligimiz oqibati. Biz aybdormiz. Bizni kechiring! Ayollarning sevimlisi, olomonning suyuklisi g'azab otidan tushsinlar-da, bir tabassum qilsinlar, iltimos...

– Bo'ldi, bo'ldi, mahmadonalar, – yumshadi msye Pyer. – Men har qalay ayrimlarga qaraganda o'z vazifamni vijdonan bajaraman. Bo'pti, kechirdim. Baribir mana bu ahmoqona xohishni nima qilamiz? Sen qay birini tanlaysan? – so'radi Sinsinnatdan. – Tezroq, tezroq, vaqt yo'q. Xullas, men bu mashmashani tugatishim kerak. Asabi chatoqlar tomoshaga chiqmay qo'ya qolishsin.

– Nimalarnidir yozib tugatishim kerakmidi, – yarim savol tarzida murojaat qildi Sinsinnat, keyin fikrini jamlashga harakat qilib, aftini bujmaytirdi va birdan angladiki, barchasini yozib bo'lgan.

– U nima deyayotganini men tushunmayapman, – dedi msye Pyer. – Kimdir tushunayotgan bo'lsa, menga tushuntirsin.

Sinsinnat boshini ko'tardi.

– Xullas, gap shu, – dedi u aniq-tiniq qilib, – menga uch daqiqa berasizlar, shu vaqt davomida yo chiqib turinglar, yo jim o‘tiringlar. Uch daqiqalik tanaffus! Shundan so‘ng tomoshani oxirigacha o‘ynab tugatamiz.

– Ikki yarim daqiqa berishga roziman, – dedi msye Pyer, semiz soatini chiqararkan. – Ukam, yarim daqiqadan voz kech! Istamaysanmi? Bo‘pti, sen aytganingga roziman.

U o‘zini tutib olib, xotirjam devor tomonga cho‘kdi; Roman bilan Rodrig undan namuna oldilar, ammo Rodrigning oyog‘i qayrilib ketib, sal bo‘lmasa yiqilib tushayozdi. Shu lahza judayam qattiq qo‘rqib ketib, ustaga qarab oldi.

– Tsss, axloqsizning bolasi! – ko‘zlarini olaytirdi usta. – Sizlar nega yalpayib o‘tirib oldilaring? Qo‘llaringni kissalaringdan chiqar! Menga qaranglar senlar (to‘ng‘illab, stulga o‘tirdi). Rodka, senga ish bor, bu yerni asta tozalay boshlaysan; faqat shovqin solma.

Rodrigga supurgi tutdilar va u topshiriqni ado etishga kirishdi.

U eng avvalo supurgining uchi bilan deraza panjaralarini tozaladi; go‘yo yo‘qlikdan «uraa!» degan ovozlar kelganday bo‘ldi va kameraga toza havo bo‘yladi – stol ustidagi varaqlar uchib yerga tushdi. Rodrig ularni burchakka supurib tashladi. Keyin supurgi bilan – bir qancha muddatdan beri o‘zi avaylab boqayotgan – malla, semiz o‘rgimchakni to‘ri bilan birgalikda yig‘ib oldi. Hech qanday ish topolmagani tufayli Rodrig shu o‘rgimchak bilan o‘zini ovutib kelayotgan edi. U qo‘pol, ammo e‘tiborni tortadigan tarzda rezinadan, prujinali oyoqlardan yasalgan bo‘lib, ajoyib bir o‘yinchoq edi. Shiftda xuddi tirik mavjudot singari harakatlanayotganday tuyulardi. To‘rlari rezinadan yasalgan bo‘lib, silkinib turar, rezina to‘r silkinganda o‘rgimchak ham yurayotganday bo‘lardi. Msye Pyer o‘yinchoqqa ko‘z qirini tashladi, shu sababli Roman qoshlarini ko‘tarib, shoshgancha o‘yinchoqni kissasiga soldi. Shu orada Rodrig stol qutisini chiqarib olmoqchi bo‘ldi, itardi, tortdi va stol o‘rtasidan sinib ketdi. Shu damda msye Pyer o‘tirgan stul ham alamli tovush chiqardi, nimadir tisirladi va msye Pyer soatini qo‘lidan yerga tushirib yubordi. Shiftdan chang-to‘zon yopirilib tushdi. Devorda egri-bugri yoriqlar paydo bo‘ldi. Kerak bo‘lmay qolgan kamera aniq-tiniq buzuq, tashlandiq holga kelayotgan edi.

– ...ellik sakkiz, ellik to'qqiz, oltmis, – sanadi msye Pyer, – bo'ldi. Marhamat, o'rningdan turishing mumkin. Tashqarida a'zoyi badaningga yoqadigan ajoyib havo, sening o'rningda boshqasi bo'lganda o'zi bizni shoshiltirardi.

– Yana bir lahza. Mening qo'llarim shu qadar titrayotganidan o'zim qattiq uyalib ketyapman, ammo titroqni to'xtatishga o'zimda kuch topolmayapman – ha, ular titrayaptilar, shunaqa. Mening qog'ozlarimni sizlar yo'q qilasizlar, axlatni yuvasizlar, ko'rshapalak tunda singan derazadan uchib chiqib ketadi – xullas, mana shu, – hoziroq qulashga tayyor, to'rt devor orasida mendan xotira bo'lib, hech narsa qolmaydi. Ammo endi bu xotiralar va unutilishning menga qanchalik ahamiyati bor? Mening vujudimda faqat bitta narsa – qo'rquv, dahshatlilik qo'rquv bor: keraksiz, uyatli, dahshatlilik qo'rquv bor...

Aslida, Sinsinnat bularning barini gapirmadi, u jimgina kiyimlarini almashtirardi.

– Bo'l endi! Yur! – chinqirdi msye Pyer.

Sinsinnat hech kimni va hech nimani turtmaslikka harakat qilib, nihoyat, kameradan chiqди. Bunday olganda, endilikda kameradan hech narsa qolmagan edi.

XX

Sinsinnatni toshli o'tish yo'llari bo'ylab, olib ketishdi. Goh oldindan, goh ortdan esini yo'qotgan aks-sadolar yangrardi. Uning oxirgi kunlari o'tgan makon o'pirilib borardi. Ayrim joylarda elektr chiroqlar kuyib qolgani sababli yo'lakning ayrim joylari qorong'i edi. Msye Pyer hamma birday yurishini talab qildi.

Mana, ularga qoidaga binoan it ko'rinishidagi niqob taqib olgan, bir nechta askar qo'shildi. Ana shunda xo'jayinning ruxsatiga ko'ra Rodrig bilan Roman katta-katta qadamlar bilan xursand holda ildamlashdi. Xuddi bir ishni qoyillatib qo'yganday, qo'l silkib, bir-birini quvib o'tib, qichqirishgancha, burchakda ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Birdan yurish qobiliyatini yo'qotgan Sinsinnatni msye Pyer bilan askarlar qo'ltilqlab olishdi. Uzoq vaqt pillapoyalardan enishga pastladilar, ko'tarildilar, yana pastladilar. Demak, qal'aga nimadir bo'lgan. Yana dahlizlar oraladilar, lekin bularda odam yashayotgani

bilinib turardi. Bir burilishda hatto karam hidi anqidi. Keyin oynali eshik yonidan o'tdilar, unda «Devonxona» deb yozib qo'yilgandi. Keyin yana qorong'ilik va nihoyat, qoq tush payti quyosh yaraqlab turgan hovlidan chiqdilar. Ana shu sayohat davomida Sinsinnat fagaqt va faqat bor vujudini chulg'ab olayotgan dahshatli qo'rquv va vahimani to'xtatishga urindi, boshqa hech narsani o'ylamadi. Ana shu vahima uni yolg'on mantiqli dunyoga boshlab kirishini, u yerda barchasi telba-teskari bo'lib ketishini yaxshi tushunib turardi, shu sababli undan o'z idroki yordamida chiqish choralarini ko'rdi. Mana shu dum-dumaloq, qip-qizil ovchi uni burdalab tashlashi mumkin, uni dor tagiga yetaklab ketyapti, degan xayolning o'zi yon berish mumkin bo'limgan idroksizlik edi. U buning barini tushunib turardi, ammo oddiy bir inson sifatida, hatto barcha tomosha o'zining ko'z o'ngida, miyasida namoyon bo'layotganini bilib tursa-da, o'z xayollariga qarshi borolmasdi. Sinsinnat vujudini kemirib borayotgan vahimani yengishga bekorga urinardi. Holbuki, uyg'onish fasli yaqinligidan quvonishi kerakligini anglayotgan bo'lsa-da, ammo... Ammo quyosh haqiqatga o'xshayotgandi, dunyo hali o'zini tutib, tevarak-atrofdagi narsalar tabiiy holatini saqlab turishardi.

Uchinchi darvoza ortida ularni ulov kutib turardi. Askarlar shu yerda qolib, devor tagiga terib qo'yilgan yog'ochlarga o'tirdilar, yuzlaridagi niqobni yechdilar. Darvoza oldida qamoqxona xizmatchisi qo'rqa-pisa burchakka tisarilib turardi. Qorovullarning oila a'zolari – yalangoyoq bolachalar tekin tomoshani ko'rish uchun yugurib chiqishib, apparatni ko'rgandan so'ng ortlariga yugurardilar. Ro'mol o'ragan onalari ularga to'ng'illardi. Issiq yorug'lik somon to'dasini yaltiratardi, yon tomonda esa o'ntacha g'ozlar g'o-g'olab turardi.

– Ketdikmi, – dedi msye Pyer dadil ovozda va o'zining par taqilgan shlapasini kiydi.

Eski, shaqirlagan fayton msye Pyer chiqib o'tirgan tomonga qiyshayib qoldi. Aravaga qari, qovurg'alari sanalib turgan, ko'zları atrofi yiringlagan, qorin taglari chivinlar chaqaverishidan shishib ketgan qirchang'i ot qo'shilgan edi. Uning bo'yniga qizil latta bog'lab qo'yilgandi. Msye Pyer Sinsinnatga joy berish uchun bir tomonga o'tdi va oyoqlari ostiga qo'yilgan ulkan g'ilof unga xalaqit berayotgan-bermayotganiga qiziqdi.

– Bosib olmaslikka harakat qil, do’stginam, – dedi u.

Egarlarga Rodrig bilan Roman o’tirdi. Rodrig aravakash o’rnida ot bilan aravani boshqarib ketadigan bo’ldi. Otni yurishga undagan edi, ot aravani darhol tortib ketolmay, aksincha, ortga ketib qoldi. Rodrig otning betiga qamchi urdi va arava birdan silkinib oldinga intilganda pastga yumalab tushishiga oz qoldi.

– Sekin, sekin, – dedi msye Pyer tabassum bilan, Rodrigning orqasiga olifta qo’lqop taqqan qo’li bilan shapatilab qo’yarkan.

Rangpar yo’l pastga enarkan, qal’a atrofini bir necha bor aylanardi. Ba’zi joylarda burilish keskin bo’lib, ehtiyotkorlik talab etilar va Rodrig tormoz tepkilarini chaqqonlik bilan bosib qolish payida bo’lardi. Msye Pyer qo’lini qamchining bulldog itning og‘zidek tut-qichiga qo’yib, yaxshi kayfiyatda qoyalarni, qoyalar orasida qolgan yashil o’tloqzorlarni, uzumzorni, yurganlari tufayli uyurilib qolayotgan chang to’dalarini tomosha qilar, shu bilan birgalikda, nazari bilan hali-hamon vahima ichida o’tirgan Sinsinnatning qaddi-qomatini erkالardi. Egarlarda o’tirganlarning oriq, rangpar orqalari mutlaqo bir xil edi. Tuyoqlar bir maromda taqillardi. Ba’zi joylarda ularning ulovi shoshayotgan ziyoratchilarni (masalan, turma oshpazi xotini bilan) quvib o’tardi. Ular changdan tisarilib, ularning uloviga yo’l berar, keyin yana tomoshaga shoshilardilar. Yana bitta burilishdan keyin yo’l ko’prik ustidan o’tardi va shu taxlit qal’a devorlaridan uzoqlashardi. (Qal’a mutlaqo yomon turar, kelajagi yo’q, barcha joylari qimirlab, buzilish xavfi ostida qolgan edi...)

– Shu qadar qizishib ketganim uchun o’zimdan noroziman, – dedi msye Pyer erkalanib. – Mendan xafa bo’lma, do’stim. Butun borlig’ingni ishga safarbar qilsang-u, atrofingdagilar dangasalik qilib o’tirsa, alam qilar ekan.

Ko’prik ustidan to’qillatib o’ta boshladilar. Qatl haqida xabar endigina shahar bo’ylab tarqalayotgandi. Qizil va ko’kish bolalar aravanning orqasidan yugurishardi. O’zini tentak qilib ko’rsatuvchi qariya juhud ham Qiziqrarli Maydonga shoshilayotgan shaharliklarning birinchi guruhiq qo’shilish uchun yugurdi.

– ...ammo bu haqda gapirishning keragi yo’q, – dedi msye Pyer, – mening toifamdagи odamlar qiziqkon bo’lishadi va shu taxlit tez o’zlarini bosib ham olishadi. Yaxshisi, ayollarning o’zini tutishini tomosha qilamiz.

Shlapasiz bir nechta qiz shoshilishib, qiyqirishib, semiz gulchi ayolning hamma gullarini sotib olishdi, qizlarning eng epchili hatto ularning uloviga bir uyum gul otishga ham ulgurdi. Hatto gul bog‘lami Romanning bosh kiyimini tushirib yubordi. Msye Pyer xushhol kayfiyatda qizlarga ko‘rsatkich barmog‘ini niqtab, qo‘rquitmoqchi bo‘ldi.

Ot katta ko‘zlarini tuyoqlari orasiga ilashayotgan itlarga tikib, qiy nalgancha, Bog‘zor ko‘cha bo‘ylab, tepalikka harakat qilardi. Olomon ularni quvib yetdi, aravaga yana bir taxlam gullar dastasi urildi. Mana, choldevorga aylanib qolgan Matyuxin fabrikasi tomon o‘ngga, keyin hamma yoqqa xabar tarqatayotgan, zing-zinglayotgan Telegraf ko‘chasi tomonga burildilar. Keyin xiyobon tomon o‘tdilar, u yerdagi o‘rindiqda o‘tirgan ikki nafar soqolli qariya aravani ko‘rgandan qattiq hayajonlanib, o‘rinlaridan turdilar, aravani bir-biriga ko‘rsatib, uning ortidan shoshildilar. Xiyobon ortida oq semiz haykal ikki bo‘linib yotardi. Gazetalarning yozishchicha, uni yashin urgan ekan.

– Hozir sen yashagan uy yonidan o‘tamiz, – dedi msye Pyer past ovozda. Roman egar ustida qo‘zg‘alib qo‘ydi va ortidagi Sinsinnatga qichqirdi:

– Hozir sen yashagan uy yonidan o‘tamiz, – dedi va darhol xuddi o‘z vazifasini uddalagan yosh bolalarday xursand bo‘lib, joyida bir sakradi-da, yana o‘z yo‘li bilan band bo‘ldi.

Sinsinnat qarashni istamadi, ammo o‘zini tutolmadi. Qaradi. Marfinka mevasiz olma daraxtining ustida o‘tirib, dastro‘molini silkitardi. Qo‘shni bog‘da esa ezilib ketgan silindr kiyib olgan qo‘rqinchli bir odam yengini silkitardi. Uyning devori ayniqsa, barglar soyası tushib turadigan joy – g‘alati tarzda buzilgan, tomonning bir qismi esa... O‘tib ketishdi.

– Senda baribir yurak yo‘q ekan, – dedi msye Pyer xo‘rsinib va chidamsiz bir holatda qamchi bilan otning yag‘riniga urdi. Ot sergak tortib, to‘rt oyoqlagancha, shatir-shutur yugura ketdi.

Endi xiyobon bo‘ylab yurishdi. Shahardagi hayajon nihoyatda ortib borardi. Turli-tuman hovlilarning ichidan ularni kuzatishardi. Uylarning devorlarida yangi-yangi, ularni qo‘llab-quvvatlovchi chaqiriqlar paydo bo‘lardi. Bitta uycha alohida bezalgan edi: o‘sha uychaning eshigi tezda ochildi, o‘spirin yigitcha, ortidan uni butun oila kuzatib chiqdi. O‘sha o‘spirin aynan bugun tomoshani kuzatuv-

chilardan talab qilinadigan yoshga yetgan, shu sababli baxtga to‘liq ona shod ko‘z yoshlarini tiyolmas, buvisi esa uning xaltasiga tu-guncha solar, ukasi esa tayoq tutardi. (Bir vaqtlar piyodalar uchun asralish ramzi bo‘lgan, endi esa faqat bekorchilar va ko‘cha boshliqlari foydalananadigan) qadimgi tosh ko‘prikchalarda fotosuratchilar tiqilib ketgandi. Msye Pyer shlapasini ko‘tarib, ular bilan salomlashdi. Ba’zi oliftalar chiroyli aravalarda ularni quvib o‘tishar va ichida o‘tirganlarni tomosha qilishardi.

Atirgullarga burkangan «uxlayotgan kapitan» haykalining faqat oyoqlar va bel qismi qolgan edi. Hoynahoy, uni ham yashin urgan bo‘lsa kerak. Qayerdadir oldinda orkestr «Azizginam» nomli jarang-dor musiqani mashq qilar edi. Osmonning u yer-bu yerida bo‘lak-bo‘lak oq bulutlar suzib yurishibdi. Menimcha, ular takrorlanyapti, menimcha, ular faqat uch xil, menimcha, ular panjaralardan iborat va juda shuhbali...

– Iltimos, ahmoqgarchilikka yo‘l qo‘yilmasin, – dedi msye Pyer. – Hushingizdan ketib qolishni xayolingizga ham keltirmang. Bu erkak kishiga yarashmaydi.

Mana, yetib kelishdi. Odamlar hali nisbatan kam edi, ammo keluvchilar oqimi to‘xtamasdi. To‘rtburchak maydonning o‘rtasida – yo‘q, aynan o‘rtasida emas, va aynan ana shu nafratlarga lo-yiq ko‘tarma qatl maydonchasi yasalgan edi. Olisda elektr motorli eski davlat uylari bechorahol turishardi. Telegrafchilar va o‘t o‘chiruvchilarning aralashma qismlari tartib saqlashga jalg etilgandi. Orkestr bor kuchi bilan tevarak-atrofni jaranglatar, bir oyoqli nogiron dirijor qo‘llarini bor kuchi bilan u yoq-bu yoqqa silkitar, ammo endi hech qanday tovushni eshitib bo‘lmay qolgan edi.

Msye Pyer moyli yelkalarini ko‘tarib, ariavadan chaqqon chiqdi va shu zahoti Sinsinnatga ko‘maklashish uchun ortiga o‘girildi. Olomon bunga e’tibor qildi.

Rodrig bilan Roman egarlardan sakrab tushdilar. Uchovlon Sinsinnatni o‘rtaga olishdi.

Qatl joyigacha yigirma qadamlar bor edi, shu sababli Sinsinnat hech kim tegolmasligi uchun, yugurishga majbur bo‘ldi. Olomon orasida bir it hurib yubordi. Qip-qizil bo‘lib yaltillayotgan maydon-chaga yetganda Sinsinnat to‘xtadi. Msye Pyer uni qo‘ltiqlab oldi.

– O‘zim, – dedi Sinsinnat.

U sahnaga chiqdi, to‘nka, ya’ni necha bor g‘ildiratilgan eman bo‘lagi shu yerda edi; hajmi shunaqa katta ediki, ustida bermalol qo‘llarni yozib yotsa ham bo‘laverardi. Msye Pyer ham ortidan sahnaga chiqdi. Olomon hayratdan «vuy»illab yubordi.

Paqirlarni keltirib, yog‘och payrahalarini to‘shagunlaricha Sinsinnat nima qilishini bilmay, yog‘och to‘sqliarga suyandi. Lekin ular ham qaltirab borayotganini his qilib, o‘zini chetga oldi. Pastdagi odamlar qiziqish bilan uning u yer-bu yerini ushlab ko‘rishar, qo‘llari bir tegib qolishini o‘zlarini uchun baxt hisoblashib, uning tinchini timasdan buzishardi. Sinsinnatning nafasi bo‘g‘ilib, chetladi, qo‘llarini shu taxlit birinchi bor ko‘ksiga qo‘yib, tevarak-atrofni kuzata boshladi. Yoritish moslamalariga nimadir bo‘ldi – quyosh goh ko‘rinib, goh yashirinar, osmonning bir qismi esa guldurab, qarsillab borardi. Maydonga tik bo‘yli teraklar ekilgan edi, ularning biri judayam asta...

Mana, olomon orasida yana shovqin-suron: Rodrig bilan Roman chalkashib, surinib, bir-birini turtib, pillapoyalardan tepaga og‘ir g‘ilofni ko‘tarib chiqdilar. Msye Pyer kurtkasini yechdi va bitta yengsiz fufaykada qoldi. Uning oq yelkasida ayol surati bor edi. Birinchi qatorlarning birida – o‘t o‘chiruvchilar har qancha iltimos qilmasin, shundoq maydoncha tagida to‘plangan olomon orasida – aynan shu ayol ham ikki nafar opa-singillari bilan; shuningdek, qarmoq tutgan qariya; quyoshda qoraygan gul sotuvchi qiz; tayoq tutgan o‘spirin; Sinsinnatning qaynag‘alaridan biri, gazeta o‘qiyotgan kutubxonachi; baquvvat muhandis Nikita Lukich turishardi. Ulardan tashqari, Sinsinnat olomon orasida maktab bog‘i yo‘lagida uchraydigان, ammo biron marta ham salomlashmagan odamni ko‘rdi. Ular birinchi qatordagilar edi. Keyingi qatordagilarga Sinsinnatning ko‘zlarini u qadar o‘tmadi, undan keyingilarini esa tuman oralab ko‘zga tashlangani kabi aniqlab olish qiyin edi. Orqa qatordagilar esa hammasi qorishib, birga buralib, dumalab yotganday tuyulardi. Mana, yana bitta terak qulab tushdi.

Nogoh orkestr to‘xtadi yoki aniqrog‘i, endi, u to‘xtaganda, go‘yo shu paytgacha tinimsiz kuy chalib turganday tuyuldi. To‘la, osoyishta sozandalarning biri o‘z asbobini chiqarib, uning qatorlaridan sachragan tupuklarni silkib tushira boshladi. Orkestr ortida charchoq manzara sochilib yotardi: bandargoh, qoyalar, ko‘pik balandlik.

Sahnaga chaqqonlik va ildamlik bilan (shu qadarki, hatto Sinsinnat uning harakatini ko‘rib, tisarilib ketdi) shahar boshqaruvchisining o‘rnbosari chiqdi va bepisandlik bilan to‘nkaga bir oyog‘ini qo‘yib, baland ovozda e’lon qildi (U nihoyatda so‘zga usta edi):

– Shaharliklar! Kichkina e’tiroz bor. Keyingi vaqtarda yosh avlodning ayrim vakillari tez yurayotgani shunchalar ko‘zga tashlan-yaptiki, qariyalar o‘zlarini chetga olishga majbur bo‘lishyapti, buning oqibatida yo‘l chekkalarida loyga botib qolish hollari ko‘payib ketdi. Bundan tashqari, men yana e’lon qilmoqchimanki, ertadan keyin Birinchi xiyobon va Brigadirlar ko‘chalari kesishgan joyda mebellar ko‘rgazmasi ochiladi. Umid qilamanki, shu yerda to‘planganlarning hammasini o‘sha joyda ham uchrataman. Va yana eslatamanki, bugun kechqurun judayam ulkan muvaffaqiyat bilan davom etayotgan «Qisqar, Suqrotjon!» opera-farsi yana bir marta e’tiboringizga havola etiladi. (Qadimgi yunon olimi Suqrot o‘limga hukm qilingandan so‘ng o‘zi zahar ichib, hukmni o‘zi ijro qilib qo‘ya qolgan). Menden yana aytishimni iltimos qilishyaptiki, Kifer Omboriga juda ko‘plab ayollar kiyimlari keltirilgan, taklif takrorlanmasligi mumkin. Endi boshqa ijrochilarga o‘rin beraman va umid qilamanki, shaharliklar, sizlar sog‘-salomatsizlar va hech narsaga zoriqmayapsizlar.

O‘sha chaqqonlik va epchillik bilan u sahnadan, tomoshabinlarining xayrixoh g‘uv-g‘UVI ostida sakrab tushdi. Oq etak taqqan msye Pyer (tagidan g‘alati tarzda etiklarining qo‘njlari ko‘zga tashlanardi) qo‘llarini bamaylixotir sochiqqa artarkan, tevarak-atrofga sokin xayrixohlik bilan tikildi. Boshqaruvchi o‘rnbosari e’lonlarini tugatishi bilan, u sochiqni yordamchilariga tashlab, Sinsinnat tomon yurdi.

(Fotosuratchilarning qora, to‘rtburchak basharalari ularga tililib, qotdi.)

– Hech qanaqa hayajonlar, hech qanaqa injiqliklar kerak emas, – dedi msye Pyer. – Biz eng avvalo ko‘ylagingizni yechishni istaymiz.

– O‘zim, – dedi Sinsinnat.

– Ana shunday. Ko‘ylakni qabul qilib oling. Endi qanday yotish kerakligini ko‘rsataman.

Msyey Pyer to‘nkaga yotdi. Olomon orasida uvullash qayd etildi.

– Tushunarlimi? – so‘radi msye Pyer, sakrab turgancha, etagi ni to‘g‘rilarkan. (Etak ort tarafdan yechilib ketdi, Rodrig uni yana

bog‘lab qo‘yishga yordamlashdi). Yaxshi. Boshlaymiz. Chiroq juda yorug‘ ekan... Agar mumkin bo‘lganida... Ana shunday, rahmat. Yana ozroq... iloji bormi... Zo‘r! Ajoyib! Endi yotishingiz mumkin.

– O‘zim, o‘zim, – dedi Sinsinnat va ko‘rsatganlariday yerga qarab yotdi va shu zahoti boshining orqa tomonini kaftlari orasiga oldi.

– Obbo, ahmog‘-ey! Bu holda men ijroni amalga oshirilmayman... (ha, ana shunday. Keyin darhol paqirni tutasizlar). Nega badaningizni bunchalar tirishtirib oldingiz? O‘zingizni bo‘s h qo‘ying. Erkin yoting. Qo‘llaringizni oling, iltimos... (ha, ana shunday). Mutlaqo erkin yoting va ovozingizni chiqarib sanang.

– O‘ngachami? – so‘radi Sinsinnat.

– Tushunmayapman, do‘stim, – go‘yo qaytarib so‘radi msye Pyer, begona, bo‘g‘iq ovozda.

Bitta Sinsinnat bamaylixotir baland ovozda sanay boshlaganda ikkinchi Sinsinnat sanayotgan Sinsinnatning ovozini eshitmay qo‘ydi. Va nogoh shu paytgacha ong-shuurida his qilmagan anqlik bilan katta tezlikda bostirib kirgan og‘riqli bir tuyg‘uni tuydi, keyin amalga oshirilayotgan ishlarning tabiiyligini, shunchaki zaruriyatligini his qildi-da, o‘yladi: men nega bu yerdaman? Nima uchun bu taxlit yotibman? – shu savolni o‘ziga berarkan, u o‘rnidan turdi va tevarak-atrofiga alanglatdi.

Tomoshabinlar o‘ng‘aysiz holatga tushib qoldilar. Uni aylanayotgan jallodning belida patlar yaltillardi. Pillapoyada bukchayib o‘tirgan rangpar kutubxonachi qayt qilardi. Tomoshabinlarning ahvoli havas qilarli darajada emasdi va hammasi duch kelgan tomonaga qochish payida edilar. Faqat orqadagilar joylaridan jilmagandilar. Sinsinnat asta sahnadan tushdi va tor yo‘lak bo‘ylab keta boshladi. Uni bir necha marta kichrayib qolgan Roman quvib yetdi . Uning o‘zi Rodrig:


– Siz nima qilyapsiz? – bo‘g‘riqdi u, sakrarkan. – Mumkin emas! Bu unga nisbatan hurmatsizlik, hammaga nisbatan... Ortingizga qayting, yoting. Siz axir yotgan edingiz-ku, hammasi tayyor edi, tugagan edi!

Sinsinnat uni surib tashladi va Roman beixtiyor bo‘sashib qichqirgancha, endi faqat o‘zini asrash niyatida nari qochdi.

Maydonda hech narsa qolmagandi. Sahna allaqachon qizg‘ish chang girdobida qulab tushdi. Eng oxirida qora jun ro‘molga o‘rangan

ayol – qo‘lida lichinkaday kichkina jallodchani tutgancha – yugurib o‘tdi. Yiqilayotgan daraxtlar uyulib ketdi, o‘zini tutib turganlari ham yiqilish arafasida qiltanglab turishardi. Yer junbushga keldi. Hamma, hamma narsa jinni bo‘lib qolgandi. Tik turgan narsa borki, yiqildi. Quyun boshlanib, changni, yerdagi buyumlar, qolgan-qutgan narsalar, lattalar va hokazolarni bir qilib qo‘sib, yerdan osmon-u falak qadar zuvullatib o‘ynatdi. Quruq qorong‘ulik uchib ketayotgandi. Sinsinnat chang-to‘zon, yiqilgan-to‘kilgan buyumlar va boshqa narsalar oralab, ovozlariga qaraganda, o‘ziga o‘xshash mavjudotlar tomon ketdi.





BAXMAN

Yaqinda gazetalarda Shveysariyaning Marival shahridagi muqaddas Anjelika musofirxonasida dunyobexabar, atoqli pianinochi va bastakor Baxman qazo qilgani to‘g‘risidagi xabarga ko‘zim tushib qoldi. Shu munosabat bilan unga ko‘ngil bergen ayolning hikoyasi ni esladim – uni menga antreprenyor¹ Zak so‘zlab bergandi. Mana, o‘sha hikoya.

Perova xonim Baxman bilan boyaqishning vafotidan o‘n yil burun tanishgandi. O‘sha kunlari uning ijrosidagi xushohang, kuchli, aqlozdirar hayajon ko‘ngillarni iydirar va mashhur konsert zallarida jonli yangrardi. Shunday kunnardan birida – o‘limdan ko‘ra keksalikdan yurak hovuchlanadigan kech kuzak oqshomlarida – Perova dugonasi dan: «Senga Baxmanni ko‘rsatmoqchiman. Bugun konsertdan keyin menikida bo‘ladi. Kelgin», mazmunidagi xat oladi.

Perova xonim qora, ochiqroq ko‘ylagini egniga ilib, bo‘yni va yelkalariga tezgina atir sepganini, yelpig‘ichi, feruzako‘z tutqali has sasini olganini, ketish oldidan uchqavat toshoynaga tikilib, o‘ylanib qolganini va to dugonasinikigacha o‘yga tolganini aniq-tiniq tasavvur qilaman. U ko‘rksiz, haddan ortiq oriqligini, terisi judayam rangparligini bilardi, ammo bu malakka evrilish nasib etmagan yoshi o‘tgan ayol aynan o‘zi uyaladigan jihatni – dokadek oppoq lablari va qachon qarama qo‘lida hassa bilan yurishga majburlaydigan sal-pal oqsoqligi bilan kishini o‘ziga rom etardi. O‘z ishiga pishiq va mukkasidan ketgan korchalon eri safarda edi. Janobi Zak uni shaxsan tanimasdi.

Perova gunafsha tusga cho‘mgan chog‘roq xonaga kirdi. Dugonasi – ametist² tillaqosh taqib olgan bo‘liq, shang‘i xonim afandi u mehmongan bu mehmonga «sakrab» yurardi. Perovaning e‘tibori o‘sha zahotiyoy novcha, soqoli qirtishlangan, yuziga jinday upa surtilgan janobga tushdi. Bu oliftanamo janob royalga suyangancha, uch

¹ Teatr, sirk va sh.k. xo‘jayini.

² Safsar yoki ko‘kish safsarrang mineral, qimmatbaho tosh.

xonimchaga allanimalarni so‘zlardi. Frakining dumi asl matodan, ayniqsa, shoyi astari momiq edi. Gap orasida dam-badam qora, moy surtilgan sochlarni yonga tashlab olar, qanshari baland burun karaklarini kerib-kerib qo‘yardi. Uning usti yaltiroq, ichi qaltiroq butun shakl-shamoyilida allanechuk sovuqlik zohir etgandi.

– Akustika juda yomon! – deb so‘zlardi u kiftlarini uchirib, – tomoshabinlar yoppasiga shamollagan. Xudo ko‘rsatmasin, bitta-yarimta yo‘talib qolsa bormi, zumda hammaga yuqadi... – U sochlarni orqaga tashlab, tirjaydi. – Bu, bilasizmi, xuddi kechasi qishloqda itlar vovullashining o‘zginasi.

Perova hassasiga salgina suyanib, unga yaqin keldi va xayoliga kelganini tiliga chiqardi:

– Aftidan, konsertingizdan keyin horigandirsiz, janob Baxman?

Janob ta’zim bajo ayladi:

– Ma’zur tutgaysiz, xonim afandi. Mening familiyam – Zak. Men bor-yo‘g‘i maestromizning vakiliman.

Uchala tannoz ham sharaqlab kulib yuborishdi. Perova xijolatlanib, siniqqina kulib qo‘ya qoldi. Baxmanning ajoyib ijrolari haqida orqavorotdan eshitgan edi-yu, ammo uning o‘zini ko‘rmagandi. Shu dam uy bekasi Perovaga otildi va sirli ravishda ko‘z qiri bilan xona ichkarisiga imo qildi: «Ana u... qara...»

Shundagina Perova Baxmanni ko‘rdi. U boshqa qo‘noqlardan alohida bir chetda turardi, kaltabaqay oyoqlarini kerib olgan, qo‘lida gazeta, xuddi chalasavodlar singari g‘ijim sahifalarga muk tushib, lablarini qimirlatib o‘qirdi. Baxman basavlat emasdi, boshini gir aylantirib taram-taram soch o‘stirgan, kraxmallangan qaytarma yoqasi o‘ziga keng turardi. Gazetadan ko‘z uzmay, erkaklar kiyimining chevarlarda lungiband deb ataladigan qismiga barmog‘ini nuqib, labini ishtiyoy bilan qimirlataverdi. Odamning kulgisini qistatadigan kichkina, yumaloq iyagi dengiz tipratikanini eslatib yuboradi.

– Hayron bo‘lmang, – dedi Zak. – U tom ma’noda omi: mehmonga borsa bas, darrov biror nima o‘qishga tutinadi.

Baxman birdan o‘ziga tikilishayoganini payqadi. Asta yuzini burib qaradi va hurpayma qoshlarini ko‘tarib, etjimirlatar qimtinib tishining oqini ko‘rsatdi. Begoyim unga oshiqdi:

– Taqsirim Baxman, muxlisalaringizdan yana biri – Perova xonimni tanishtirishga izn bergaysiz.

Baxman Perovaga suyaksiz, nam qo'llarini uzatdi:

– Tanishganimdan xursandman, judayam xursandman...

So'ng yana gazetaga tikilib oldi.

Perova nari ketdi. Yonoqlariga qizillik yugurdi. Shisha munchoqlari yiltillama qora yelpig‘ichning shodon harakatidan yonoqlariga tushgan malla kokillari to‘zg‘ib ketdi. Keyinroq Zak menga aytib berdi – o‘sha birinchi kechada Perova xonim Baxmanga favqulodda tajang ayol sifatida taassurot qoldirgan, negaki uning lablari va soch turmagi odmi edi.

– Ikkovi bir-biriga mos edi, – deb hikoya qildi menga Zak. – Baxman haqida-ku gapirmasayam bo‘ladi, miyasi yo‘q edi. Eng yomoni – ichardi, men sizga aytsam. Ular uchrashgan kechada Baxmanni uchirib olib ketishimga to‘g‘ri keldi, nega desangiz, u mendan kon-yak talab qildi, unga esa ichish mumkin emasdi. Biz undan: «Besh kun chidab turgin», deb iltimos qildik, besh kun, ya’ni beshta konsert, tushunyapsizmi... O‘rtada shartnoma bor, Baxman, tishingni tishingga bos... Nimalar deyapsiz, hatto bir shoir humor jurnalida «Jaraq-jaraq» va «Jarima»ni qofiyalashtirgan. Biz yomon kuchdan qoldik. Kamiga, injiq, bilasizmi, kir-chir yuradi. Mutlaqo esi past subyekt. Lekin ijrosi...

Zak siyrak sochlarni silkitib, boshini tebratdi.

Janobi Zak bilan tobutday og‘ir gazeta qirqimlaridan iborat al-bomni tomosha qilarkanman, uzil-kesil ishonch hosil qildimki, Perova bilan ilk uchrashgan kunlaridan boshlab Baxmanning chinakam, olamshumul – ammo, vodarig‘, qanchalik qisqa-ya – shuhratga ko‘milganiga uzil-kesil ishonch hosil qildim. Perova u bilan qachon, qayerda topishib oldi, buni hech kim bilmaydi. Lekin Perovaning du-gonasinikidagi kechadan so‘ng xonim, qayshi shaharda qo‘yilmasin, Baxmanning barcha konsertlariga borishni kanda qilmay qo‘ydi. Xonim birinchi qatorda qaddini shamshod aylab o‘tirar, sochlari silliq taralgan, egnida qora, ochiqroq ko‘ylak bo‘lardi. Ba’zilar uni «cho‘loq madonna» deb ham atashdi.

Baxman go‘yo dushman yoki shilqim odamlar qo‘lidan yulqingandek sahnaga chaqqongina chiqardi. Tomoshabinlarga qijo boqmay, royal yoniga chopib kelar va dumaloq stulga egilib, xuddi balandlikning matematik nuqtasini izlayotganday o‘rindiqning yog‘och to‘garagini aylantirishga tushardi. Ustiga ustak, uch tilda

o'zicha g'o'ng' illab ham qo'yardi. Shu tariqa uzoq timirskilanardi. Angliyada bu tomoshabin ko'nglini iydirar, Fransiyada kulgi qistatar, Germaniyada esa g'azabni qo'zg'ardi. Nuqtani topgach, Baxman asta va erkalaganday stulni shapillatib urib qo'yadi. So'ngra eski, loklangan tuflisida royal tepkisini bosib-bosib, o'tiradi. Keyin cho'ntagidan o'ngigan dastro'mol olib, qo'llarini artadi, birinchi qatordagilariga quv, shu bilan birga, jur'atsiz tabassum qilib qo'yadi. Nihoyat, kaftlarini barmoqbosdilarga olib boradi. Ammo shu dam ko'z osti allanechuk pirpiray boshlaydi: tilini qoqib, stuldan tushadi va yanatag'in o'rindiqni boshqatdan aylantirishga kirishadi.

Zakning o'ylashicha, Baxmanni birinchi marta tinglaganidan so'ng Perova uyiga borib, deraza tagida saharmardongacha goh xo'rsinib, goh iljayib o'tirib chiqqan. Zak Baxman hech qachon bunchalik yaxshi ijro etmaganini va keyinchalik har safar yanada xushohangroq, telbavor chalaverganiga hammani ishontirdi. Betakror aslik bilan Baxman kontrapunkt ovozlarini o'ziga chorlar, betartibakkordlar ila ajib garmoniyalardan tinglovchilarni mutaassir qilar, asosiy ohangni ta'qib qilgancha, mushuk-sichqon o'yinini mahorat va noziklik bilan olib borar, kalavaning uchini ushlab olgach, go'yo uni qo'yib yuborayotgandek mug'ambirlik qilar, ammo qo'qqisdan barmoqbosdilarga egilgancha, barmoqlarining shaxt-shahdam zarbi bilan asarni yakunlardi. Keyin o'sha shahardagi safari qarigach, bir necha kun gumdon bo'lib, bo'kib ichardi.

Qorong'u qovoqxonalarning kunda-shundalari sochlari siyraklashib, to'zg'igan, ko'zлari yoshlangan va qizargan pastakkina taqsirni bir burchakka biqinib olganini ko'rishardi. Bu pastak taqsir kim yoniga yaqinlashsa, chin dildan siylardi. Allaqachonlar bandalikni bajo keltirgan sozlarni butlovchi chol u bilan bir necha bor otamlashib, tuproqlari bir joydan olinganiga ishonch hosil qildi, negaki Baxman qittay otib olgach, stolni barmoqlari bilan chertib, nozik tovushda «lya»ni ola bilardi. Bir safar yalpoqbashara yengiltak ayol Baxmanni o'zi bilan olib ketdi. Boshqa safar Baxman qovoqxona skripkachisining qo'lidan sozini tortib olib, bosib-yanchdi va shunga yarasha «nasiba»sini oldi. Qartabozlar, matroslar, churra kasalligini orttirib olgan atletlar, bunisi kamlik qilgandek, ichidan pishgan kissavurlar to'dasi bilan ham tanish tutindi.

Tun uzog‘i Zak bilan Perova uni izillab axtarishardi. Alalxusus, Zak Baxmanning «murvatini burash» kerak bo‘lganda, ya’ni konsertga tayyorgarlik ko‘rish vaqt kelganda izlardi. Gohida topishar, gohida uning o‘zi uyqusiragan, yoqavayron ahvolda Perovanikiga kirib kelaverardi; Perova ham uni jimgina yotqizar, ikki-uch kundan keyingina Zakka xabar berardi.

Baxmanda allaqanday g‘ayritabiyy tortinchoqlik va bolalarcha injqliqlik uyqash edi. Perova bilan deyarli gaplashmasdi. Xonim uning qo‘lidan ushlab, ovutishga harakat qilganda, Baxman xuddi jinday teginish ham og‘ritadigandek chiyillardi. Keyin adyolga o‘ranib, anchagacha yig‘lab berardi. Zak keliboq, London yoki Rimga jo‘nash kerakligini aytar va Baxmanni olib ketishardi.

Ularning ajabtovur aloqalari uch yilcha davom etdi. O‘ziga kelib tetiklangan Baxmanni xaloyiqqa olib chiqishganda, Perova doimgiday birinchi qatorda o‘tirardi. Uzoq gastrollarda ikkovi yonma-yon xonalarga joylashishardi. Bu vaqt ichida Perova eri bilan ham uchrashib oldi. Erining barchasidan xabari bor edi, lekin g‘ing demay, o‘zi bilan o‘zi andarmon edi.

– Baxman uni qiynab yuborgandi, – deya takrorlaydi kuyinib Zak menga. – Qanaqasiga uni sevib qoldi Perova xonim, tushunmaysan. Ayolning ko‘ngli jumboq-da! Bir kuni, deng, usta e yo‘q, be yo‘q xonimga tish qayrab qolsa bo‘ladimi, o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Xonim afandi shunchaki uning bo‘yinbog‘ini to‘g‘rilab qo‘ymoqchi bo‘lgan. Ammo-lekin o‘sha kunlari odamni sel qilib chaldi o‘ziyam. O‘sha paytlarda u «D-moll» va bir nechta murakkab fugalarini chalib yurdi. Kuylarni qanday yaratgan, hech zog‘ bilmaydi. Eng ajoyibi – «Oltin fuga» edi. Eshitgandirsiz? Mavzusi mutlaqo o‘ziga xos. Lekin men uning injiqliklari, jinniliklari haqidha gapirayotgandim-a, uzr, o‘tblab ketdim. Xullas, bunday. Demak, oradan ikki yil o‘tdi. Bir kuni Myunxenda...

Zak hikoyasining so‘ngiga yetar ekan, ko‘zlar battar qisilib, ma’yuslanib boraverdi.

Ma’lum bo‘lishicha, Myunxenga tunda yetib kelishgach, Baxman Perova bilan qo‘nishgan mehmonxonadan odatdagiday «quyonni suribdi». Uch kundan so‘ng konsert, shu bois, Zak oyog‘i kuygan tovuqday tipirchilab qolibdi. Izlashdan natija chiqmabdi. O‘shanda kech

kuzak ekan, yomg‘ir savalab turgan. Perova shamollab, yotib qoladi. Zak esa ikki ayg‘oqchi bilan qovoqxonalarning tit-pitini chiqargan.

Konsert kuni politsiyadan qo‘ng‘iroq qilishib, Baxman topilgani ni aytishadi. U kechasi ko‘chada topilibdi. Uchastkada to‘yib uxbab olibdi. Zak g‘ing demasdan, uni uchastkadan teatrga olib keladi. Baxmanni xuddi buyumday yordamchilariga irg‘itib, o‘zi frak uchun mehmonxonaga yo‘naladi. Eshik ortidan turib Perovaga hammasini yetkazadi. Keyin yana teatrga qaytib keladi.

Baxman fetr shlapasini qansharigacha tushirib, aktyorlar xonasida stolga barmoq chertib o‘tirardi. Atrofidagilar besaranjom, pichir-pichir qilishadi. Bir soatdan so‘ng katta zalni tomoshabinlar egallay boshlaydi. Ikki yoni organ karnaylariday ganchkor naqshlar bilan bezatilgan charog‘on, oppoq sahna, qopqog‘i ochilgan bahaybat royal va kichkina stul birpasdan so‘ng sahna hamda ayollar yelkalari va erkaklarning yaltiroq boshlari yiltillayotgan kattakon zalni nam va momiq qo‘llari bilan kuy bo‘roniga to‘ldirguvchi odamni laqillab kutilushtardi.

Nihoyat, Baxman ko‘rindi. Duv etib ko‘tarilib, so‘ngra yarimta-yurimta chapaklarga sochilib ketgan olqishlarga e’tibor bermay, u stulning yog‘och to‘garagini aylantirib ko‘rdi, keyin silab-siypalab o‘tirdi. Qo‘lini dastro‘moliga artib, birinchi qatorga iymanib nazar soldi. Shunda birdan yuzidan kulgi qochdi, norozi bo‘lgandek, afti burishdi. Da‘stro‘moli polga tushdi. Yana bir qur ko‘z yogurtirdi; qatorning o‘rtasidagi bo‘sh o‘rinda nigohi to‘xtadi. Baxman royal qopqog‘ini taraqlatib yopdi, o‘rnidan turdi, sahnaning labiga keldi ko‘zini tepaga qaratib, balerinalardek qo‘llarini tepaga ko‘tarib, ikki-uch marta beo‘xshov harakat qildi. Olomon taxta bo‘lib qoldi. Orqadan piq-piq kulgi eshitildi. Baxman burnining tagida ming‘irladi, keyin butun zalga qarata qo‘lida «Mana senlarga!» imosini ko‘rsatdi.

– Bu shunday kutilmaganda yuz berdiki, – dedi menga Zak, – yordamga yetib kelolmadim. Sahnadan tushayotganda, urilib ketdim. Baxman, qayoqqa, deb so‘radim. Kelishtirib koyindi-da, lip etib artistlar xonasiga kirib ketdi.

Zakning o‘zi sahnaga chiqishga majbur bo‘ladi, tomoshabinlar ustidan kulib, g‘azab bilan qarshi olishadi. Qo‘lini oldingga cho‘zib, arang jimlikka erishgach, konsert bo‘lishini aytib va’da beradi. Ar-

tistlar xonasiga kirganda, Baxman, parvoyi palak, dasturni labini qimirlatib o‘qib o‘tirardi.

Zak atrofdagilarga qarab olib, ma’noli qosh uchirib, telefonga oshiqdi va Perovaga sim qoqdi. Anchagacha javob bo‘lmadi; ni-hoyat, nimadir shiriqlab, Perovaning zaif ovozi eshitildi.

– Hoziroq yetib keling, – bidirlay ketdi Zak telefon kitobiga yon-lamachasiga musht urib, – Baxman sizsiz kuylamayapti. Katta mojar-o‘tarilgan! Olomon hozir... qiziqmisiz? Ha, ha, aytyapman-ku, umuman istamayapti. Allo! Shayton olgurlar! Uzib qo‘yishdi...

Perova isitmada kuyib-yonardi. Shu kunning o‘zida ikki mar-ta kelib ko‘rgan do‘xtir qizil chiziqdan o‘tib ketgan simobga qarab taajjublandi. Go‘sakni qo‘yib, Perova shodon jilmaygan bo‘lsa, ajab emas. Titrab-qaqshab va tebranib kiyinishga tushadi. Yuragiga sanchiq kiradi, lekin tuman va isitma ortida shodlik o‘ziga chorlardi. Amal-taqal sochini tarab, jigarrang po‘stiniga o‘ranib, qo‘lida hassa bilan ko‘chaga chiqqan va darbonga taksomotor chaqirishni amr qiliadi. Qora asfalt yarqiraydi. Avtomobil eshigining tutqichi-da sovuq va nam. Chakkalaridagi g‘o‘ng‘illashga motor shovqini va shinalar-ning vishillashi uyqashib ketganiga qaramay, yo‘l bo‘yi labidan si-niq va baxtiyor tabassum arimaydi. Teatrqa yetib kelgach, darg‘azab yomg‘irpo‘shlarini popillatib ochgancha, ko‘chaga quyilayotgan olo-monga uriladi. Sal qolsa urib ag‘darishdi. Tiqilib-suqilib ichkariladi. Artistlar xonasida Zak dam o‘ng yuzini, dam chap yuzini ushlagancha u yoqdan bu yoqqa borib-kelardi.

– G‘azab otiga mingandim! – deya so‘zlardi Zak. – Telefonda kuy-malangunimcha, usta juftakni rostladi. Xalajoya ketyapman, deb sur-voribdi. Perova kirib kelishi bilanoq, nega teatrda o‘tirmadingiz, deb unga tashlandim. Tushunyapsizmi, betobligini umuman payqamab-man. Xonim bo‘lsa: «Demak, u hozir uydañmi? Demak, bir-birimizni ko‘rmay o‘tib ketibmiz-da?» deb so‘raydi. O‘zimni bosolmay baqirib berdim: «Qanaqa uy? Qovoqxonada! Qovoqxonada!» Keyin qo‘l sil-tab, oyog‘imni qo‘lga oldim. Chiptachini qutqarish kerak edi.

Perova qalt-qalt titrab Baxmanni izlashga tushadi. Uni qayer-dan izlashni taxminan bilardi. Hayronlangan haydovchi Perovani o‘sha yoqqa, zimiston, qo‘rqinchli dahaga eltib qo‘yadi. Zakning so‘zlariga ko‘ra, tunov kuni Baxmanni topishgan ko‘chaga yetganda, Perova taksomotorni qo‘yib yuboradi va hassasini to‘qillatib, o‘nqir-

cho'nqir yo'lak bo'ylab qiyalama qaro yomg'ir ostida ketadi. Birin-ketin hamma qovoqxonalarga bosh suqib chiqadi – dag'al musiqa gumbur-gumburi qulog'ini batang qilayozdi, badqovoq erkaklar unga surbetlanib tikildi. Tutunga to'lgan, turli tusdagi zallarni zimdan ko'zdan kechirib, tag'in paqirlab yomg'ir quyayotgan tun bag'riga o'taverdi. Ko'p o'tmay nuqul bitta qovoqxonaga kirib-chiqayotganday tuyulaverdi va tinkaqritar bemadorlik yelkasiga qo'nib oldi. Muz qotgan qo'llarida hassasining feruzako'z tutqasidan qisgan-chacha, inqillab-sinqillab oqsoqlanib boraverdi. Ortidan birpas kuzatgan mirshab sekin yaqinlashib, manzilini so'radi; amrfarmolik bilan asta tungi izvoshga olib bordi. Yoqimsiz is taralayotgan izvosh ichida Perova hushdan ketdi, ko'zini ochganda esa eshikcha ochiq, yaltiroq kleyonka yopqichli ko'chir qamchidastaning uchi bilan uning yelkasiga asta turtardi. Keyinroq, issiq dahlizda o'ziga kelganda, umuman loqayd bo'lib qoldi. Hujrasining eshigini turtib, ichkariga kirdi. Yalangyoq, tungi ko'yakda, yelkasiga katak adyol tashlab ol-gan Baxman uning to'shabida marmar stolchaga ikki barmog'i bilan chertib, nota qog'oziga siyohqalam bilan nuqtalar qo'yib o'tirardi. Bu mashg'ulotga mukkasidan ketganiga eshik ochilganini ham sezmadni. Perova yengil oh tortdi. Baxman uchib tushdi. Yelkasidan adyol sirg'alib tushdi.

Fahmimcha, bu Perovaning hayoti davomidagi yagona baxtiyor kecha edi. O'yashimcha, ikkovlon, savdoyi navozanda bilan tuga-yotgan ayol ushbu tunda bir-biriga dunyoning buyuk shoirlarining yetti uqlab tushlariga kirmagan so'zlarni ayta olishgan. Ertasiga tongda ta'bi tirriq bo'lgan Zak mehmonxonaga kiradi. Ichkariga kirkanda Baxman katak adyolga o'rangancha behush yotgan Perovaga o'zida yo'q shodlik-la jilmayib mo'ltirab turardi. Mahbubasining lo-vullayotgan yuziga tikilib, uning joniqib nafas olishiga quloq tutgan Baxman nelarni xayol qilgani o'zigagina ayon. Uning iztirob ichidagi jismi isitmada titrab-qaqshayotganini o'zicha tushungan bo'lsa kerak. Zak do'xtir chaqirdi. Baxman avvaliga ularga ishonqiramay jur'atsiz kulib qaradi, keyin do'xtirning yelkasiga osildi, qochdi, peshanasiga shappatladi va tishini g'ijirlatib toqatsizlandi. Perova o'sha kuniyoq hushiga kelmay uzildi. Chehrasidagi shodumonlik ifodasi shundeq qolaverdi. Zak marmar stolchadan g'ijimlangan nota varaqlari-

ni topib oldi, lekin siyohrang nuqtalar nimani anglatishini hech kim tushunmadi.

– Uni darhol olib ketdim, – dedi menga Zak, – eri kelib qolishidan cho‘chidim, bu yog‘ini o‘zingiz tushunasiz-ku. Boyaqish Baxman, sho‘ltillab qoldi, qulog‘ini bekitib oldi. Xuddi qitiqlashayotganday: «Tovushni o‘chiringlar, tovushni o‘chiringlar!» deb baqiraverdi. Ochig‘ini aytsam, uni nima bunchalik larzaga keltirganini bilmayman. Gap o‘rtamizda qolsin-u, baxtiqaro o‘sha xotinni u sevmasdi. Nima bo‘lganda ham, o‘sha ayol uni xarob qildi. Baxman janozadan keyin izsiz g‘oyib bo‘ldi. Hozir ham uning ismini pianola firmalari e‘lonlarida uchratishingiz mumkin, ammo aslida u allaqachon unut bo‘lgan. Olti yildan so‘ng taqdir bizni yana to‘qnashtirdi. Bir damga, xolos. Shveysariyada kichik stansiyada poyezd kutib turardim. Esimda, hushhavo oqshom edi. Yolg‘iz emasdim. Ha, ayol kishi bor edi yonimda. Bu endi shaxsiy masala. Xullas, bir tasavvur qiling, qarasam, bir to‘da olomon pastak, qora paltoda, qora shlapadagi odamni o‘rab olishdi. U musiqa apparatiga tanga solib, ho‘ng-ho‘ng yig‘lardi. Tanga tashlaydi, ushoq musiqani eshitadi-da, uvvos tortadi. Keyin apparat buzildi, shekilli, tanga tiqilib qoldi. U apparatni silkitishga tushdi, baqirib yig‘lagancha, hammasini tashlab, ketvordi. Men uni darrov tanidim, lekin o‘zingizdan qolar gap yo‘q, yonimda ayol kishi, gir atrofim tekin tomoshatalablar, yaqinroq borib: «Assalom, Baxman», deyishga odam xijolat bo‘ldi.

MUSIQA

(*Yurakni o‘rtovchi hikoya*)

Dahlizda erkag-u ayolning paltolari uyilgan, mehmonxonadan esa royalning alohida-alohida, chaqqon-chaqqon sadolari eshitilar-di. Viktor Ivanovichning ko‘zgudagi aksi bo‘yinbog‘ining tugunini to‘g‘riladi. Oqsoch yuqoriga intilib, uning paltosini ildi: palto o‘zi bilan ikkita po‘stinni tortib, tushib ketdi. Yana boshqatdan ilishga to‘g‘ri keldi.

Viktor Ivanovich oyoq uchida yurib, eshikni ochdi – o‘sha zahoti musiqa baland pardada tantanavor tus oldi. Volf chalayotgan ekan –

bu xonadonga kamdan kam keladigan mehmon. Qolganlar – o'ttiz chog'li odam – kimdir iyagiga mushtumini tirab, kimdir tamakining tutunini shiftga puflab, o'z holicha tinglashardi. Xira chiroq nuri ularning serraygan holatiga allatovur g'ira-shira musavvirona ifoda berib turardi. Xonadon bekasi ma'nodor jilmayib, uzoqdan Viktor Ivanovichga bo'sh joyni – royal ko'lankasi tushib turgan kulchasimon kussini ko'rsatdi. Viktor Ivanovich esa kamtarona imo ila javob qaytardi: «*Hechqisi yo'q, tikka ham turaveraman*», lekin baribir ko'rsatilgan joyga borib asta cho'kdi va qo'llarini qovushtirdi. Pianinochining xotini og'zini nim ochib, ko'zlarini tez-tez pirpiratib, keyingi sahfani ochishga shaylandi – ana, ochdi ham. Tobora avj olayotgan notalarning notanish kuyi, pastlash, susayish, trapetsiyalar ichra suzib yurgan alohida navolar. Volfning kipriklari uzun-uzun, oqish; qulqlaridan chiroq nuri o'tib, qizg'ish rangga kirgan; u klavishlarga fav-qulodda tez va dadil barmoq bosar va royalning ko'tarib qo'yilgan lokli qopqog'ida qo'llarining aksi sharpasimon, tushuniksiz va hatto masxarabozlik qilgandek o'ynoqlardi. Viktor Ivanovich uchun har qanday notanish musiqa – bilsa ham, o'n-o'n ikkita ma'lum-u mashhur kuylarni xirgoyi qilardi – ajnabiyl tilda bidirlashning o'zginasi edi; jon qulog'ing bilan begona so'zlarni hech bo'lmasa yakka-yakka ajratib olishga tirishasan, ammo ular sirg'alib, qo'shilib ketaveradi, oxir-oqibat, ding qulog'ing ham charchaydi. Viktor Ivanovich tinglashga urinib ko'rdi, biroq tez orada Volfning qo'llarini, ularning aksini kuzatayotganini payqab qoldi. Tovushlar gumbur-gumburga o'tgach, pianinochining bo'yni shishib, kerilgan barmoqlari zo'riqdi va asta bo'shashdi. Xotini shoshib qoldi – Volf sahfani kaftining bir zarbi bilan ushlab qoldi, so'ngra aql bovar qilmas tezlik bilan keyingi sahfani ochdi va yana ikkala qo'llari yumshoq klaviaturani shiddat bilan bosib-yanchishga tushdi. Viktor Ivanovich pianinochini sinchkovlik bilan kuzatdi – qirraburun, qayrilma kiprik, bo'ynida chipqon izi qolgan, momiq sochlар, keng yag'rinli bichimda tikilgan qora pidjak – bir zumga musiqaga qulq solganday bo'ldi, lekin endi tebrana boshlagandi hamki, xayoli qochdi, shunda popiris qutisini chiqazdi, o'girildi va boshqa mehmonlarni kuzata boshladи. U begonalar orasida tanish chehralarni ham uchratdi – ana, Koncharovskiy, yoqimtoygina, do'mboqqina – bosh irg'adi... irg'ashga irg'adi-yu, mo'ljaldan o'tib ketdi – javoban Shmakov ta'zim qildi. Aytishlaricha, chet elga

ketayotgan ekan – o‘zidan so‘rash kerak... Divanda, ikki kampir o‘rtasida ko‘zlarini yumgancha bo‘liqqina, mallasoch Anna Samoylovna yonboshlab olgan, uning eri, tomoq shifokori oromkursining yondoriga tirsagini tirab, bo‘sh qo‘lining barmoqlarida yaltiroq nimanidir aylantirardi – chexovcha tasmali pensne bo‘lsa kerak. Nariroqda yarmi soyada qolgan, chakkasiga ko‘rsatkich barmog‘ini tirab, qorasoqol, bukri bir kishi maroq bilan musiqa eshitib o‘tirardi; ismi-sharifi hech yodda qolmaydi qurg‘urning – *Boris midi? Yo‘q, Boris emas... Borisovichmi? Yo‘q, unaqamas.* Undan narida turfa xil chehralar – Xaruzinlar shu yerdamikin – ana, ular – qarashmayapti... Shu zamon ularning ortida Viktor Ivanovich sobiq rafiqasini ko‘rib qoldi.

U darhol ko‘zini olib qochdi, beixtiyor hali kul o‘ngmagan popirisini chertdi. Allaqayeridadir musht urgandek yuragi dukurladi, siqildi, yana dukurladi, keyin musiqani bosib, tez-tez, pala-partish dukurlay ketdi. Viktor Ivanovich qayoqqa qarashni bilmay, pianinochiga ko‘z qirini tashladi, ammo kuy eshitilmasdi, go‘yo Wolf gung klaviatura-larga barmoq bosayotgandek. Birdan yuragi shunday qisdiki, Viktor Ivanovich bukchayib qoldi, chuqur-chuqur nafas oldi – yana havoni tutgancha uzoqdan musiqa jonlanib oqib keldi va yuragi bir tekis ura boshladi.

Ular ikki yil avval boshqa, nikohdan o‘tishganlardan beri yashayotgan shaharda (tunlari dengiz shovullaydi) ajrashishgandi. Hamon ko‘zlarini yerdan olmay, Viktor Ivanovich o‘tmishning to‘lqin va shovqinlaridan bema’ni xayollar bilan himoyalandi – masalan, boyabutun gavdasi bilan mana shu kursiga sho‘ng‘ib, xonaga sassiz, oyoq uchida kirib kelganda, u, shubhasiz, Viktor Ivanovichga ko‘zi tushgan va bu to‘satdan bostirib kelib, yalang‘och holatda qo‘lga tushirgandek gap. Yoki uning nigohi ostida dadil-dadil qadam bosgani – o‘shanda uning nigohi qanaqa edi? Yovqarashmi? Masxaromuzmi? Yoxud ko‘zlar yonib turganmidi? Bu xayollar savollar bilan aralashib ketdi – xonadon bekasi bildimikin, xonadagilardan birortasi sezdimikin – uni kim bu yerga boshlab keldiykin, o‘zi keldimikin yo yangi eri bilanmi – nima qilsin – shunday turaversinmi yoki unga qarasinmi? Baribir hozir unga qarolmaydi – avvalo, bu katta, lekin tiqilinch mehmonxonada uning borligiga ko‘nikish kerak, yaxshiyamki, musiqa panjara bo‘lib ularni ajratib turibdi, zindonning o‘zi-ya, to pianinochi sovuq kuylar ni chalaverar ekan, ikkalovi ham asir bo‘lib o‘tirishga mahkum.

Unga ko‘zi tushganda nimalarni ko‘rishga ulgurdi? Ko‘p narsani ko‘rolmadi – atrofga nazar tashlayotgan bir juft ko‘zni, oppoq yanogni, tim qora jingalak sochlarni – ko‘p narsani ko‘rolmadi – biroq mana shu chala-chulpa siyratning o‘zi uning xotini edi, bu yaltiroq va qora qorishmaning o‘zi uning sobiq xotini edi.

O‘sanga ham qancha zamonlar bo‘ldi-ya! Uni tennis klubining ayvonida odamni lohas qiladigan shom mahali bir ko‘rgandayoq benihoya sevib qolgandi – bir oydan so‘ng, to‘ydan keyingi tunda dengizning shovur-shuvurini bostirib, yomg‘ir paqirlab quygandi. *Qanchalar baxtlimiz-a!* Shibir-shibir «baxt» so‘zi, shovullovchi so‘z, shundayin jonliki, o‘zi kulib, o‘zi yig‘laydi. Tongda bog‘dagi daraxt yaproqlari yiltir-yiltir qilar, dengiz – noz uyqudagи nuqra dengiz – kuyi deyarli eshitilmasdi.

Popiris qoldig‘ini nimadir qilish kerak – Viktor Ivanovich boshini o‘girdi va tag‘in yuragi poyintar-soyintar ura ketdi. Kimdir gavda holatini o‘zgartirib, uni to‘sib qo‘yibdi, murdadek oppoq ro‘molchasini chiqazdi, lekin hozir yot-begona yelka siljiydi, u hozir yana paydo bo‘ladi! Yo‘q, qarab bo‘lmaydi. Kuldon royal ustida ekan.

Tovushlar panjarasi hamon baland va sovuq; loklangan ko‘zguda sharpa qo‘llar o‘sha-o‘sha qiliq chiqarmoqda. *Biz hamisha baxtli bo‘lamiz* – jaranglashini qara, quyilib kelishini qara... U shunday royish ediki, buklab-buklab qo‘yging kelardi – xuddi hoziriday oyoqlarini qulun kabi yig‘ishtirib olgani singari – quchib-quchib olging keladi – xo‘sh, keyin-chi? Uni qanday butkul ishg‘ol etasan? *Men sening jiga-ringni, buyragingni, qon tanachalaringni suyaman.* «*Jirkanch narsalarni gapirmagin*». Ular boyvachchalardek yashashmas, lekin qashshoq ham emasdilar, yil bo‘yi dengizda cho‘milishardi. Sohil shag‘allariga dengiz itqitib tashlagan meduzalarning ilviralari shamolda dirillaydi. Nam qoyalar yiltillaydi. Bir safar baliqchilar suvgaga cho‘kib o‘lgan odamni ko‘tarib ketishayotganini ko‘rishgandi – adyol tagidan yalang oyoq chiqib qolgandi. Oqshomlari xotini kakao qaynatardi.

Viktor Ivanovich ikkinchi bor nazar tashladi – endi u qoshlarini silab, boshni quyi solib o‘tirardi – ha, u musiqaga judayam moyil – aftidan, Volf mashhur dirlrabo kuyni chalyapti. «Endi men bir necha tun uxlolmayman», – deb o‘yladi Viktor Ivanovich uning oppoq bo‘yniga, sal bukilgan tizzasiga sarsor solib – u oyoqlarini chalishтирib o‘tirardi – ko‘ylagi qora, nafis, yot-begona edi, marjonlari

yalt-yult qilardi. «*Ha, uxlolmayman, bu yerda bo'lmasligim kerak, hammasi bekor ketdi – shu ikki yillik zo'r berib urinishlar bekor ketdi, endi xotirjam tortganimda, yana hammasini boshidan boshlash kerak – qariyb unutilganlarni yana unutmoq kerak, lekin bugungi oqshom dard ustiga chipqon bo'ldi*». Nogahon u barmoqlari orasidan tikilayotgandek tuyuldi va Viktor Ivanovich beixtiyor teskari qaradi.

Musiqa tamom bo'lyapti, shekilli. Jo'shqin, yurakni ezadigan ak-kordlar chalinishi tez orada kuy nihoyasiga yetadi demakdir. Juda ajib so'z-a: nihoya. Ot va chopar bir butunday. Chang-to'zon ko'tarilib, shumxabar yetib keladi. Ko'klamda xotini murdaga aylanardi; qariyb og'zini ochmasdan gapirardi. «*Nima bo'ldi senga?*» «*Hech narsa, o'zim, shunchaki*». Ba'zan ko'zini qisib, tushuniksiz qiyofada eriga tikilib qolardi. «*Ha, nima gap?*» «*Yo'q, o'zim, shunchaki*». Kechga borib o'lar holga tushardi – hech nima qilib bo'lmay qoladi – garchi jussasi kichik, nozikoyim bo'lsa-da, og'irlashib, lapshayib, toshqtardi. «*Ayt, axir, nima bo'lyapti o'zi senga?*» Shu tarzda bir oy ham o'tdi-ketdi. Keyin, tonglarning birida – o'shanda uning tug'ilgan kuni edi – xuddi oddiy-jo'n gapday borini aytdi-qo'ydi: «*Ma'lum vaqtga ajrashaylik. Bunaqada bo'lmaydi*». Shu asnoda qo'shnining qizchasi uchib kirdi – mitti mushukchani ko'rsatmoqchi ekan, qolganlarini cho'ktirib yuborishibdi. *Bor, bor, keyin kelasan*. Qizcha ketdi. Og'ir sukut. *Mushugingni ol-da, chiqib tur, tinchimizni buzma*. Birpasdan keyin uning qo'lini og'ritishga tushdi – qars etib sindirib, chiqarib olgisi keldi. U esa yig'i-sig'iga o'tdi. Viktor Ivanovich esa o'rindiqqa cho'kib, o'zini gazeta o'qiyotganga soldi. U esa bog' ichiga kirib ketdi, tezda qaytib keldi. «*Yorilib ketaman. Hammasini aytishim kerak senga*». Xuddi boshqa birovning g'iybatini qilayotganday hamma, hammasini to'kib soldi. Bu bo'ydor, kamtar, og'ir-vazmin erkak bo'lib chiqdi – xuv, o'shanda kelgandi, vint¹ o'ynashgandi, artezian quduqlar haqida so'zlab bergandi. Birinchi marta xiyobonda bo'lgan ekan, keyin erkaknikida.

Barchasi es-es yodida. Kechgacha dengiz bo'yida tentirab yurdi. *Ha, musiqa adog'iga yetyapti, shekilli. Qирг'оqqa о'shaning yuziga tortib yuborganimda: «Bu hali sizga qimmatga tushadi», degandi. Yerdan furajkasini olib, survorgandi. U bilan esa xayrlashmadim ham. Uni o'ldirish haqida o'ylashning o'zi ahmoqlik edi. Omon*

¹ Qarta o'yini turi.

bo'l. Hozir qanday bo'lsa, shunday yashayver; umrbod hozirgidek o'tiraver; faqat menga bir marta qara, yolboraman – qarasang-chi, qaray qol – hammasini kechirdim, axir, bir kun kelib o'lib ketamiz, o'shanda hammasi oshkor bo'ladi, hammasi avf etiladi – shundoq ekan, ortga surishning nima keragi bor – endi bir qara, qaragin, ko'zlarining tikkin, mening ko'zlarimni, men sevgan ko'zlarni. Yo'q. Endi hammasi tugadi.

So'nggi og'ir sadolar – yana bir marta – bir martaga nafasi yetadi – shundan so'ng, yakunlovchi navodan keyin, borlig'iniakkordga solgandek, pianinochi mo'ljalni oldi-da, mushukdek poylab turib alohida, kichkina, tillarang notani oldi. Musiqa devori quladi. Olqishlar. «Bu kuyni anchadan beri chalmagandim», dedi. «Bilasizmi, bu kuyni erim anchadan beri chalmagandi», dedi. Tomoq doktori oyog'ini bosib, qorni bilan turtib Volfga so'z qotdi: «Qoyil-e! Aytgandim-ku, bu u yaratgan kuylarning eng zo'ri. Faqat, menimcha, siz oxirida jindek zamonaviyashtirdingiz – bilmadim, to'g'ri gapirdimmi, lekin ko'rmaysizmi...»

Viktor Ivanovich eshik tomonga qaradi. Xonardon bekasi miqti, qorasoch ayol bilan xayr-xo'shlashmoqda: «O'tirsangiz bo'lardi! Hozir choyxo'rlik qilamiz, tag'in kuy chalinadi». Lekin mehmon dovdir-sovdır kulib eshikka yo'naldi. Viktor Ivanovich tushundiki, avvalbosha kuy-navoga kishanlangan ikkovlon uch-to'rt sarjin narida bir-birining ro'parasida o'tirishiga majbur bo'lgan tor turmadek tuyulgan musiqa aslida u bilan bir xonada nafas olishiga muyassar etgan baxt ekan, endi esa hammasi chilparchin bo'ldi, sochilib ketdi, ana, u eshik ortida asta-sekin ko'zdan uzoqlashmoqda. Volf ham royalni yopdi. Dilo'rtar asirlikni qaytarib bo'lmaydi endi.

U ketdi. Hech kim hech nimani sezmadni ham. Viktor Ivanovich bilan Bok deganlari qo'l olishdi: «Sizni kuzatib o'tirdim. Musiqaga arang chidadingizmi? Bilasizmi, shunday diqqatnamo ko'rindingizki, rahmim kep ketdi. Nahot, shu darajada musiqaga loqayd bo'lsangiz?»

«Yo'g'-e, nega ekan, diqqatim oshmadi», – o'ng'aysiz javob qildi Viktor Ivanovich. – «Shunchaki ohangni farqlolmayman, xolos. Aytgancha, qaysi musiqiy asar edi o'zi bu?»

«Har balo bo'lishi mumkin», – dedi Bok noshudlarcha qo'rqa-pisa shivirlab, – «Hur qizlar nolasi»dir yoki «Kreyser sonatasi»dir, har balo bo'lishi mumkin».

Er-xotin Kellerlar teatrdan kech chiqishdi. Havosi andak rutubatli va mana, sakkiz asrdirki, ko'ngdalangiga mavjlanib turgan ko'lda ibodatxona aksi jimirlab turgan bu nemis shahrida Vagnerni sovuqqonlig-u nozik ta'b ila ijro etishar, tinglovchilarni burnidan buloq bo'lguncha musiqaga to'ydirishardi. Keller ayolini teatrdan to'g'ri o'zining oq sharobi bilan ma'lum-u mashhur oliftalar qovoqxonasiqa olib bordi, tungi soat ikkidagina ichkarisi xira yoritilgan avtomobil ularni huvillagan ko'chalar bo'ylab odmi hovlining temir darvozasi tagiga g'izillatib eltid qo'ydi. Prezident Kryugerga quyib qo'ygandek o'xshaydigan chorpahil, keksa Keller ko'cha chirog'inining xira nuri-da yaproqlarning olachalpoq soyalari o'ynoqlayotgan yo'lakka o'tdi. Chiroq nuri bir zumga Kellerning ohorlangan ko'ksiga, so'ngra shisha munchoqning marjon-marjon nurlari erining ortidan avtomobil dan tushayotgan rafiqasining bo'liqqina oyog'iga chang soldi. Dahlizda ularni oqsoch kutib oldi, chopib kelgancha, rangi-qtisi o'chib Chorbning kelib-ketganini pichirlab aytdi. Varvara Klimovnaning lo'ppi, hali ajin oralamagan yuzi uchdi, hayajondan qizarib ketdi:

– Chorb uni betob dedimi?

Oqsoch yanada past tovushda pichirladi. Keller go'shtdor kafti bilan tukli movutini silagan bo'ldi, chuqur ajin tushgan, pastki lablari cho'chchaygan maymunsifat afti tumshaydi.

– Ertagacha kutolmayman-ku. Hoziroq o'sha yoqqa otlanamiz, – boshini sarak-sarak qilgancha Varvara Klimovna to'ng'illadi va malla yasama sochini berkitib turgan xarir to'rning uchidan ushlab turgan joyida aylandi. – Voy, Xudoyim-ey... Bekorga bir oydan beri xat-xabar kelmagan ekan-da.

Keller mushtumi bilan bir urib buklama silindrini to'g'rildi va xirillab ruschaladi:

– Bu bolaning aqli joyidamas. Kasal odamni yana o'sha jirkanch mehmonxonaga olib borishga qanday haddi sig'di-a?..

Ammo-lekin ular, qizimiz betob, deya adashishgandi. Chorb uni betob deyish osonroq bo'lgani uchun shunday yo'l tutgandi. Aslida, Chorb chet eldan yolg'iz qaytgandi va xotini o'lganini, nega yozmaganini tushuntirish lozimligini endi anglagandi. Og'ir, juda og'ir. Qayg'usini birov bilan bo'lishmay, unga gard yuqtirmay, yolg'iz o'zi

hasrat chekmoqchi bo‘lganini qanday tushuntirsin? Xotinining elektr toki zarbidan topgan o‘limi – ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan favqu-lodda hodisa, bunday pok-beg‘ubor o‘lim sira kuzatilmagan – eng shaffof nur taratadiganday tuyuldi.

Bahor kunlarining birida Nitssadan o‘n chaqirim beridagi oppoq yastangan shosse da xotini hazil-huzul qilib bo‘ron ag‘anatgan sim-yog‘ochning hali tok uzilmagan simini ushlab olganidan beri butun dunyo Chorb uchun begonalashdi, tamom bo‘ldi, hatto yaqin o‘rtadagi qishloqqacha o‘z qo‘llarida ko‘tarib borgan mayit-da yot-begona, keraksizga aylandi. Jasadni tuproqqa qo‘yish kerak bo‘lgan Nitsada sil kasaliga yo‘liqqan pastor¹ o‘lim tafsilotlarini surishtirib behuda urindi – Chorb siniqqina kulib qo‘ydi, kun bo‘yi plyajdagи shag‘alga o‘rnashvolib, rangli toshchalarni u kaftidan bu kaftiga olib o‘ynab o‘tiraverdi, keyin dabdurustdan, dafn marosimini ham kutmasdan, xotini ikkalovi to‘y sayohati davomida ko‘rgan-bilgan joylar orqali Germaniyaga qaytib ketdi. Er-xotin qishda bo‘lishgan, hozir ayni olma gullagan Shveysariyada mehmonxonalarдан bo‘lak boshqa narsa top-madi; lekin huv, o‘sanda, kuzakda qo‘nib o‘tishgan Spvarsvaldda hali sovuq arib ulgurmagan ko‘klam xotiralarga berilishga xalal qilmadi. Janub plajidagi oxirgi sayrda xotini ko‘rsatgan yagona, dum-dumaloq, qoramitir, tekis, oq yo‘l-yo‘lli toshchani izlashga urindi; xuddi shu tarzda yo‘l-yo‘lakay xotini «*huv, ana*», deb ko‘rsatgan qoyaning o‘ziga xos shaklini, qoraqarag‘ayni va ehtimolki, falokat ramzi bo‘lmish oppoq ko‘piklanib oqayotgan oqim uzra yastangan ko‘priksi, telegraf simlaridagi o‘rgimchak iplariga munchoq-munchoq ingan shabnamning yiltillashini alang-jalang izladi. U doimo eriga hamroh edi: baland poshnali etikchalarida chaqqon-chaqqon qadam tashlar, qo‘llari dam buta bargini uzib, dam qoya devorni silab-siypab tinch turmas, bu qo‘llar yengil, o‘ynoqi, harakatchan edi. Qora-qora sepkilli qoshiqday yuzi, oqish-ko‘kish, shisha siniqlari yanglig‘ yiltillovchi, to‘lqinlanib turuvchi shahlo ko‘zlari hamon xayolini tark etmaydi. Ikkalovi birgalikda ko‘rgan-kechirganlarining ikir-chikirigacha yig‘ib-hozirlasa, yaqin o‘tmishni qayta tiklasa, uning siyimosi abadiylashadigandek, uning o‘rnii bosiladigandek tuyulardi. Shu... faqat tunlari toqat qilib bo‘lmaydi – uning xayoli vahimali tus

¹ Pastor – protestant mazhabidagi ruhoniy.

olaveradi; Chorb uch haftalik sayohatda deyarli mijja qoqmadı va endilikda u bilan ilk bor uchrashib, bir yostiqqa bosh qo‘ygan shaharga, bultur kuzda ikkalovi jo‘nab kegan vokzalga charchoqdan gandiraklab kirib keldi.

Kechki soat sakkiz. Butxona minorasi ortidagi taram-taram qizg‘ish ufq asta-sekin qoraymoqda. Vokzal maydonida o‘scha-o‘scha munkillagan izvoshchilar tizilishib turibdi. Huv, o’shandagi ro‘znomafurush bo‘g‘iq ovozda jar solmoqda. O‘scha-o‘scha reklama ustunchasidan ko‘zлari suzilgan, qop-qora pudel¹ oyoqchasini afishing qizil harflariga ko‘tarib turibdi: Parsifal.

Chorbning yuki jomadon va kattakon sariq sandiqdan iborat edi. Faytonda shaharni kezib chiqdi. Izvoshchi bir qo‘lida sandiqni ushlagancha, erinchoqlik bilan tizginni shapillatib qo‘yadi. Chorb ismini sira tilga olmagan insoni faytonda sayr qilishni yoqtirishini esladi.

Tor ko‘chada, shahar operasi biqinida puturdan ketgan, uch qavatlari, nojo‘ya ishlar amalga oshiriladigan, xonalari bir haftaga ham, bir soatga ham beriladigan, mehmonxona – suvoqlari ko‘chib tushganidan jo‘g‘rofisi xaritadan farqi qolmagan, olachalpoq derazalaridagi dokalar yirtilgan va sira qulflanmaydigan, kishi bilmas eshikli uy bor edi. Rangpar, betakalluf yugurdak Chorbni ilang-bilang, zax va karam hidi anqib turgan dahlizdan ergashtirdi. Chorb uning ortidan xonaga kirganda, xotini bilan ilk tunni birga o‘tkazgan hujrani darrov tanidi. O‘sanda xotiniga hammasi qiziq tuyulgandi – yo‘lakda qayt qilayotgan pidjaksiz xo‘ppasemiz kishi ham, to‘kilib tushay degan mehmonxonani tanlashgani ham, chinnichanoqdagi oq-sariq soch tolasi ham. Lekin hammasidan uydan qochib chiqqanlari kulgisini qistatgandi. Cherkovdan qaytib kelishlari bilanoq, pastga mehmonlar kechlikka yig‘ilishguncha, xotini kiyimini almashtirgani xonasiga chopib kirib ketgandi. Egniga asil, toza frak ilib olgan ota Keller maymunbasharasida chuchmal tabassum bilan dam unisi, dam bunisining yelkasiga qoqib, mehmonlarga shnaps manzirat qilardi. Varvara Klimovna esa yaqin dugonalarini ikkita-ikkitan olib yangi kelin-kuyovga atalgan yotoqxonani ko‘rsatishga yetaklardı – mehri tovlanib-pichirlab, filday-filday parto‘shaklarni, apelsin ranglarni, gotik uslubdagi harflar bilan: «O‘la-o ‘lguncha birgamiz», deb bitil-

¹ Yungi jingalak xonaki it.

gan gilam yoniga turgan katak-katak hamda kichikroq qizil popukli ikki juft tungi tuflilarni qo‘lini bigiz qilib ko‘rsatardi. Keyin hamma dasturxonga yuzlandi. Chorb esa rafiqasi bilan oniy fursatda til biriktirib, orqa eshikdan juftakni rostlab qoldi va ertasiga tongdagina, ekspress jo‘nab ketishidan yarim soat burun, lash-lushlarini olgani uyga kirib kelishdi. Varvara Klimovna tun uzog‘i ho‘ngrab chiqdi; qashshoq musofir va adabiyotchi Chorb uning uchun shubhali nusxa bo‘lgan qaynatasi esa qizining tanlovini, sharobga ketgan xarajatni, qo‘lini burniga tiqib qolavergan mirshab la’natlardi... So‘ngra, yoshlar ketgach, tor ko‘chadagi, shahar operasi biqinida joylashgan mehmonxonani ko‘rgani yo‘l oldi, o‘shandan beri bu qora, puturgan ketgan bino Keller uchun jinoyat xotirasiday jirkanch, o‘ziga tortuvchi maskan bo‘lib qoldi.

Sandiqni ichkariga olib kirishguncha, Chorb jimgina pushti oleografiyani¹ tomosha qildi. Eshik yopilishi bilan sandiqqa egi-lib, uni ochdi. Xona burchida, qog‘oz qiyqimlari shitir-shitir bo‘lib, sichqon g‘izillab o‘tib ketdi. Chorb seskanib ketib, keskin o‘girildi. Shiftda osilib turgan yalang‘och lampochka sag‘al silkinardi. Chiroq simining soyasi yashil kushetkaga tushgan. O‘shanda Chorb ana shu kushetkada uxlagandi. Xotini bolalarcha bir maromda nafas olardi. O‘sha tunda xotinining nafasidan bo‘sса olgandi, xolos – undan u yog‘iga o‘tmagandi.

Sichqon tag‘in g‘imir-g‘imir qildi. Shunaqangi arzimas tovushlar bo‘ladiki, to‘plarning gumbur-gumburidan vahimali eshitiladi. Chorb sandiqni qo‘yib, xonani ikki marta aylanib chiqdi. Tun parvonasi o‘zini jaranglatib chiroqqa urdi. Chorb ham o‘zini eshikka urib, tash-qariladi.

Zinapoyadan tusharkan, tinka-madori quriganini his qildi, tor ko‘chaga chiqqach esa may tunining rutubatidan boshi aylanib ketdi. Xiyobon tomonga burilib, qadamini jadallatdi. Maydon. Tosh suvoriy. Shahar bog‘i uzra osilgan qora bulutlar. Hozir kashtan gullagan, huv, o‘shanda kuz edi. To‘y arafasida ikkovlon uzoq sayr qilishgandi. Yer bilan bitta bo‘lib yo‘lakni qoplagan, namiqqan, so‘ligan yaproqlarning xiyol dimoqqa uriladigan binafsha isi biram yoqimli

¹ *Oleografiya* – moybo‘yoq bilan ishlangan suratlardan nusxa olib chop etilgan rasm.

edi-ya... O'sha bulutli, ajoyib kunlari osmon kir-chir oq mato tortil-ganday edi. Ko'prik o'rtasidan pastga qaralsa, ko'lmakchada daraxt shoxlari suvgaga solib akslan tilirilgan fotosuratlarday ko'rindi. Kulrang imoratlar o'rtasida daraxt yaproqlari qilt etmay sarg'ayardi. Xotini qizlik uyi ro'parasida terak qurib borar, barglari urug'i ko'rindigan oq uzum tusida edi. Panjara ortida qayin tanasi lip-lip ko'zga tash-lanadi – go'yo qalin pechak g'ilofiga o'rangan – Chorb Rossiyada qayin larga pechaklar chang solmasligini aytgandi, xotini esa qayin barglarining sarg'ish rangi dazmollangan choyshabda qolgan zang dog'ini eslatadi, degandi. Yo'lak chetlarida eman va kashtanlar turna-qator tizilgandi; qora po'stloqda baxmal yashiltob mog'or o'rلان; dam-badam xazonlar uzilib, qiyqindi qog'oz yanglig' ko'chada qi-yalamasiga uchib yuradi. Xotini bir uyum qizg'ish g'ishtlar yonidan topib olgan belkurakcha bilan ularni havodayoq tutib olishga intilar-di. Nariroqda, ishchilar furgoni trubasidan ko'kish tutun sizib chiqib, eshilib, daraxt shox-shabbalari orasida tarqab ketardi. Tin olib turgan g'isht teruvchi ikki qo'lini beliga tirab, qo'lida belkurakcha bilan yap-roq misoli uchib-o'ynoqlayotgan oyimqizga qarab qolgandi. Oyimqiz sakrab-dikirlab, qiqir-qiqir kulardi. Andak bukchayib olgan Chorb uning ortidan odimlardi – nazarida, baxt ham so'lg'in yaproqlar isi monand ifor taratardi.

Hozir esa tunda hurpayib olgan kashtanlar hashamat berib tur-gan bu ko'chani arang tanirdi. Oldinda fonar nur sochmoqda, shisha munchoqlari uzra daraxt shoxi egilgan, ko'cha chirog'ining nurini to'yib-to'yib emgan yaproqlar shaffof ko'rindi. Chorb yaqin keldi. Ko'cha eshigining g'alvir-g'alvir ko'lankasi yo'lakchadanoq yopi-rildi, oyog'ini tushovladi. Shoxdevor ortida tanish uy ko'rindi. Bitta deraza lang ochilgan, chirog'i yoniq ekan. Oqsoch oyog'ini kerib op-poq choyshabni yoyayotibdi. Chorb uni chaqirdi.

Oqsoch shosha-pisha unga peshvoz chiqqdi. Varvara Klimovnaga aytganiday, garchi bog' eshigini darrov ochib qo'ygan esa-da, Chorb yo'lakda mum tishlab turaverdi. «Yalangbosh edi, – deb gapirib berdi oqsoch, – fonar yorug'i peshanasiga tushib turardi, peshanasida reza-reza ter, sochlari yopishib qolgan. Sizlarni teatrda, dedim va nega bir o'zi kelganini so'radim. Ko'zlari sovuq yillillardi, soqoli o'sib ketgan. U sekkingina: «Qizlari kasal ekanini aytib qo'ying», dedi. Men: «Qayerga joylashdingiz?» deb so'radim. U: «O'sha-o'sha joy-

da», dedi, keyin qo'shib qo'ydi: «Baribir emasmi? Ertaga ertalab kirib o'taman». Men kutib turishni taklif qildim, lekin u miq etmadidi, burildi-da, ketib qoldi».

Shu tarzda Chorb o'zining xotiralari ibtidosiga qaytgandi. Bu bir vaqtning o'zida ham og'ir, ham shirin sinov edi. Mana, sinov ham oxirlab qoldi. Er-xotinlikning birinchi tunini o'zkazishgan hujrada bir oqshom o'tirib chiqsa bo'lgani, ertaga esa sinov ortda qoladi va marhumaning siymosi to'la-to'kis qayta tiklanadi.

Hiyobondan mehmonxonaga qaytarkan, o'rindiqlarda g'ira-shira sharpalarmi ko'rib, tuyqus angladiki, qattiq charchaganiga qaramay, yalang'och lampochkali xonada bir o'zi uxlolmaydi. Maydondan katta ko'chaga o'tdi. Endi u nima qilishni biladi. Ammo uzoq izladi: shahar tinch-osuda, mas'um uyquda – muhabbat deganlari arzonga-rovga sotiladigan maxfiy tor ko'cha Chorbg'a noma'lum edi. Tovonlari zirqirab, quloqlari shang'illab bir soat besamar sandiroqlagani dan so'ng tasodifan o'sha ko'chaga kirib qoldi va o'ziga chorlagan ayolning oldiga darrov bora qoldi.

– Bir tunga, – dedi Chorb tishlari orasidan.

Ayol boshini bir tomonga qiyshaytirib, so'mkasini likillatib: «Yigirma beshta bo'ladi», – dedi.

Chorb bosh irg'adi. Keyinroq unga razm solib, garchi horg'in ko'rinsa-da, ayolning chakki emasligini, sochlari oq-sariq, chiroyli turmaklanganini payqadi.

Chorb tushgan mehmonxonaga bu ayol boshqa erkaklar bilan necha martalab kelgandi. Pillapoyadan yugurib chiqqan qirraburun xizmatkor ayolga xayrixohlarcha ko'z qisib qo'ydi.

Chorb ayolni jimgina xonasiga yetaklab olib kirdi-da, uyqusiragancha yoqasini ilmatugmadan yecha boshladi. Ayol unga yopishib, vishilladi:

– Xamir uchidan patir nima bo'ladi?

Karaxt va parishonxotir Chorb unga baqrayib, gap nimadaligini arang anglatdi.

Pulni olib, ayol jo-bajo qilib so'mkasiga soldi va yengil xo'rsinib, tag'in Chorbg'a yaqin keldi-da, sochlarni silkitdi.

– Yechinaveraymi?

– Ha, yot, – deb ming'irladi Chorb, – ertalab yana beraman.

Ayol koftasining tugmalarini shoshib yechdi va ko‘z qiri bilan Chorba nazar tashladi – uning g‘amginligidan ozroq hayron bo‘ldi. Chorb tezgina, pala-partish yechinib, o‘zini tappa tashlab, devorga o‘girilib oldi.

«Bu qilig‘i, aftidan, noz-firog‘i bo‘lsa kerak», – deb o‘yladi ayol. Ko‘ylagini taxlab, stolga qo‘ydi. Chorb allaqachon qotib uxlardi.

Ayol xonani kezinishga tushdi. Deraza tagidagi sandiqning qopqog‘i ochiqligini ko‘rib, cho‘kkaladi va bir chekkadan titishga tushdi. Qo‘liga xotin kishining ko‘ylagi, paypog‘i, shoyi latta-puttalar ilindi. Hidi biram yoqimliki, ayolning yuragi orziqib ketdi.

Ayol bir soatdan kamroq uxladi: ayanchli qichqiriqdan uyg‘onib ketdi. Baqirgan Chorb edi. U yarim tunda uyg‘onib, yonboshiga qaraqandi, yonida yotgan xotinini ko‘rdi. Qo‘rquvdan chinqirib yubordi. Oppoq ayol kishining badani to‘sakdan irg‘ib turdi. Ayol titrab-qaqshab chiroqni yoqqanida, Chorb choyshabga o‘ralashib, devorga tiralib o‘tirardi. Yuzini berkitib olgan panjalari orasidan bitta ko‘zining telbavor yongani ko‘rindi. Keyin asta yuzini ochdi va astasekin ayolni tanidi. Ayol g‘o‘ldiragancha, hovliqib ko‘ylagini kiyardi.

Chorb yengiltortdi. Tushundiki, og‘ir sinov o‘tib ketdi. Kushetkaga o‘tib yotdi va tuk bosgan boldirini qisib ushlagancha, ayolga loqayd tirjayib boqdi. Bundan vahimasi oshgan ayol botinkasining tasmasi taqib, shlyapasini boshiga ildi.

Shu mahal dahlizda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir va qadam tovushlari eshitildi.

Xizmatkorning zorlangan, umidsiz ovozi keldi:

– Lekin u kishi xonim bilan, axir...

Darg‘azab bo‘g‘iq ovoz o‘zinikida turib oldi:

– Men sizga nima deyapman, u – mening qizim.

Qadam tovushlari eshik tagida tindi. Keyin eshik taqilladi. Shunda ayol stoldan so‘mkasini olib, shaxt bilan eshikni ochdi. Qarshisida og‘zi ochilgan keksa janob turardi, orqasida to‘ladan kelgan, yig‘layverib shishib ketgan, boshiga xarir to‘r tashlab olgan qarimsiq xonim mo‘ralardi. Xonimning ortida esa rangi dokaday oqarib ketgan, ko‘zları alang-jalang kaltabaqay xizmatkor oyoq uchida turib, ayolni imladi. Ayol uning imosini tushunib, dahlizga lip etib o‘tdi. Tong qotgan keksa janob ayolga boshini burdi, so‘ngra yonidagi xonim bilan ichkariladi. Eshik yopildi. Ayol va xizmatkor bir-biriga qo‘rqib

qarashdi va engashib, eshikka qulqo tutishdi. Ammo ichkari jumjut edi. Ichkarida uch kishi borligi juda g'aroyib edi. G'ing degan tovush eshitilmasdi.

– Ular sukul saqlashyapti, – deya shivirladi xizmatkor va ko'rsatkich barmog'ini labiga bosdi.

QO'NGIROQ

U bilan ajralishganiga, mana, yetti yil bo'libdi. *Rabbim Egam, Nikolayevskiy vokzali munchayam ur-yiqit bo'lmasa-ya! Bunday yaqin turma, hozir poyezd siljiydi. Ana, tamom – alvido, azizam...* Daroz, ozg'indan kelgan, egnida makintosh¹, bo'yniga oq-qora sharf tashlab olgan – poyezd asta-sekin yurib, ortda qoldi. Keyin u tartibsiz, yuragida xarsangtosh bilan urushda qatnashdi. Sokin tunlarning birida, chigirkalarning chirillashi ostida oqlarga o'tib ketdi. Bir yildan so'ng – musofir bo'lmasidan sal oldinroq – Yaltaning tor va toshloq Chaynaya ko'chasida moskvalik advokat tog'asini uchratdi. *Nahotki, nahotki, xat-xabar bormi – mana, ikkita xat bor. Germaniyaga jo 'namoqchiykan, ruxsatnomayam olibdi. Senga esa – gap yo'q, barakalla.* Va niroyat, Rossiya unga ta'til berdi, ba'zilarning fikricha, muddatsiz. Rossiya uni uzoq vaqt qo'yvormadi, u astagina shimoldan janubga qarab siljidi, baribir Rossiya uni ushlab turdi – Tverda, Xarkovda, Belgorodda – turli-tuman g'aroyib qishloqchalar... foydasi bo'lindi. Vatanning yana bir vasvasasi, so'nggi sovg'asi bor edi – Tavrida² – bu ham yordam bermadi. Ketdi. Paroxodda Afrikaga yo'l olgan hazilkash, sportchi ingliz yigit bilan tanishib qoldi.

Nikolay Stepanich Afrikada ham, Italiyada ham bo'ldi, negadir Kanar orollarini ham kezib chiqdi, keyin yana Afrika, u yerda bir-muncha fursat ajnabiyligi legionda xizmat qildi. Uni tez-tez eslab turdi, keyin kamdan kam xotirlaydigan bo'ldi, so'ngra yana bot-bot yodga oldi. Uning ikkinchi eri, nemis, urush vaqtida qazo qilibdi. Ikkinci erining Berlinda ikkita uyi bor edi. Nikolay Stepanich, u Berlinda

¹ *Makintosh* – nam o'tkazmaydigan matoni ixtiro qilgan shotland kimyogari Makintosh (Mackintosh) nomidan; nam o'tkazmaydigan matodan tikilgan yengil palto.

² Qrim yarim orolining qadimgi nomi.

muhtojlikda yashamasa kerak, deb umid qildi. Lekin battol vaqt shuvullab o'tadi-ya! Ko'z ochib-yumishga ulgurmaysan... *Yopiray, na-hotki, yetti yil o'tib ketdi?*

Shu yillar davomida chiniqdi, biroz qo'pollashdi, ko'rsatkich bar-mog'idan ayrildi, ikki til – italyan va ingliz tilini o'rgandi. Ko'zлari yanada ravshan tortib, nigohlari samimiy tus oldi, shundanmi, yuzlari dehqonlarniki kabi oftobda bir tekis qoraydi. Trubka chekishni odat qildi. Aksar kaltaoyoqlar singari shaxdam qadam bosishlari ravnplashdi. Birgina jihat o'zgarmadi: ko'zlarini qisib, qochirim qilib kulishlari o'sha-o'sha qolgandi.

Hammasinga qo'l siltab, Berlinga ko'chib borishidan avval an-chagacha kalovlandi. Bir safar – Italiyadaydi, shekilli – ko'chma do'konchada Berlinda chop etiladigan rus ro'znomasiga ko'zi tushdi. Izlayotgani haqida e'lon joylashtirishlarini so'rab, o'sha yoqqa yozdi... Hech qanday xabar bo'lmagach, yanada uzoqroqqa sang'ib ketdi. Qohiradan keksa jurnalist Grushevskiy Berlinga ketayotgan ekan. *Siz bir so'rab-surishiring. Zora toparsiz. Aytingki, men eson-omonman...* Hatto mujda ham bo'lmadidi. Endi esa qo'qqisdan bostirib borish fursati yetdi. O'sha yoqda izlab topish osonroq kechadi. Viza degan daxmaza bor, aqchaning ham tagi ko'rinish qolgan. *Hay, mayli, bir amallab yetib olamiz...*

Yetib keldi. Katta-katta tugmali sariq paltoda – biroz cho'kib qolgandek, ammo yag'rindor – katak-katak, gulli kartuzda¹, og'zida trubka, qo'lida chamadon bilan vokzal oldidagi maydonga chiqdi, qorong'ulikni kesib turgan brilliant jarnomadan zavqlanib, kulimsirab qo'ydi. Arzongarov mehmonxonaning zax bosgan hujrasida bir amallab tunni o'tkazdi – hammasini, qidirishni nimadan boshlashni o'ylab qo'ydi. Manzil-ma'lumotlar idorasi, rus ro'znomalari tahriri-yati... Yetti yil. Hoynahoy, u munkillagan kampirga aylangan bo'lsa kerag-ov. Bunchalik uzoq kuttirish palidlik – ilgariroq kelsa bo'lardi. Ammo-lekin o'tgan yillar, jahongashtalik, ozodlikdan to'yib-to'yib zavqlanish, bolalikdan orzulagan erkinlik, bularga nima yetsin... Nu-qul Mayn-Rid²... Mana, yana-tag'in yangi shahar, shubhali parto'shak

¹ *Kartuz* – erkaklarning soyabonli bosh kiyimi.

² Ko'chma ma'noda: amerikalik yozuvchi Mayn Ridning jahongashta asarlari, aniqrog'i, sarguzasht nazarda tutilmoqda.

va tramvay ingrog‘i. Kissasini paypaslab gugurt izladi, uzilgan bar-mog‘ining to‘mtog‘i bilan nuqib-nuqib trubkasini yumshoq tamakiga to‘ldirdi.

Sayohat chog‘i kunlarning nomini ham unutib qo‘ysan: ularning o‘rnini shaharlar egallaydi. Ertalab Nikolay Stepanich mah-kamaga uchrash niyatida ko‘chaga chiqqanda, barcha do‘konlarga panjara urilganini ko‘rdi. Ma’lum bo‘ldiki, bugun yakshanba ekan. Manzil-ma’lumotlar idorasi, tahririyatlar sarobga aylandi (yakshanbada begona shaharga borib qolishdan Xudo asrasin!). Voqeа kuzda bo‘lib o‘tmoqdaydi: shamol esgan, xiyobonlarda qo‘qongullar, tussiz osmon, sariq tramvaylar, taksomotorlar shamol tekkanday bo‘g‘iq o‘kirmoqda. U ham shu shaharda, degan o‘ydan hayajonlanib,sovvuq yeganday qaltirab ketdi. Nemis yarimtaligiga haydovchilar qovoqxonasida bir stakan portveyn¹ berishdi, nahorda sipqorgan musallasi qulfi-dilini ochib yubordi. Ko‘chalarda unda-bunda ruscha gap-so‘zlar quloqqa chalindi: «*Senga necha marta aytgandim-a...*» Shu yerlik o‘tkinchilarning ham shivir-shiviri eshitildi: «...*Ularni sotvolishni taklif qilyapti, lekin men, to‘g‘risini aytsam...*» Hayajondan og‘zining tanobi qochib, trubkasini tortib-tortib qo‘ydi. «...*O‘tib ketdi, deb o‘ylagandim, endi esa Grishayam andak...*» Yana-tag‘in ruslar! Yonlariga borib, boadablik-la: «Mabodo falonchini tanimaysizmi?» deb so‘rasammikin, degan fikr xayoliga keldi. Aftidan, bu itbilmas ruslar provinsiyasida hamma bir-birini taniydi-yov.

Qosh qoraydi, ulkan univermagning oynavandlariga oqshomning olovrang nurlari yog‘ildi. Nikolay Stepanich qandaydir uyning yoni dan o‘tib ketayotib eshik peshtoqiga ilingan chog‘roq oq peshlavhaga ko‘zi tushdi: «Petrogradlik tish doktori I.S. Vayner». Tuyqus paydo bo‘lgan xotiralar ustidan qaynoq suv quyganday bo‘ldi. «*Bunisi, taqsir, chiriy boshlabdi, sug‘urib tashlashga to‘g‘ri keladi*». Derazadan – iskanja-kursi qarshisida – shisha suratlar, Shveysariya manzaralari... Deraza Moykaga² qaragan. «*Endi chayib tashlang*». Xo‘ppa-semiz, oq xalatdagi og‘ir-vazmin chol, doktor Vayner kattakon ko‘zoynakda asbob-anjomlarni ko‘zdan kechirmoqda. U shu doktor ga qatnagan, xolavachchalari ham qatnagan, o‘rtaga dilsiyohlik ora-

¹Uzumdan tayyorlangan o‘tkir musallas.

²Moyka – daryo nomi.

lasa, bir-biriga: «Vaynerga borging kelib qoldimi?» deb tahdid ham qilib qolishardi. Nikolay Stepanich eshik oldida taraddudlanib turdi, qo‘ng‘iroqni bosmoqchi bo‘ldi-yu, bugun yakshanbaligi yarq etib miyasiga urdi, o‘ylanib-o‘ylanib, axiyri, qo‘ng‘iroqni bosdi. Qulf shiqirlab, eshik ochildi. Nikolay Stepanich birinchi qavatga ko‘tarildi. Eshikni oqsoch ochdi.

- Do‘xtir janoblari bugun qabul qilmaydilar.
- Tishim og‘rimayapti, – e’tiroz bildirdi Nikolay Stepanich tili nemischaga kelishmay. – Do‘xtir Vayner – eski tanishim... Familiyam – Galatov, u meni eslashi kerak...
- Aytib ko‘ray-chi, – dedi oqsoch.

Bir daqiqalardan so‘ng dahlizga brandenburgcha xonaki kamzulda malladan kelgan keksa kishi chiqib keldi. Ochiq yuz bilan o‘zini tanishitrib, qo‘sishma qildi:

- Sizni sal eslolmay turibman, aftidan, anglashilmovchilik yuz bergen ko‘rinadi.

Nikolay Stepanich undan nigohini uzmay uzr so‘radi:

- Ha, ha. Men ham sizni eslolmadim. Men inqilobgacha Moykada yashagan boshqa do‘xtir Vaynerni topamanmi, deb o‘ylagandim. Menden xatolik o‘tibdi, afv etgaysiz.
- E, ha, u familiyadoshim-ku, – dedi tish doktori. – Familiyadoshim. Men u paytlarda Zagorodniyda yashardim.

– U hammamizni davolardi, – tushuntirdi Nikolay Stepanich. – Shunga o‘ylagandimki... Gap shundaki, men bir ayolni – Nellis xonimni izlayapman...

Vayner labini qimtigancha, atrofga javdiradi, so‘ng yana mehmonga yuzlandi.

– Shoshmang, shoshmang... Adashmasam... allaqanday Nellis xonim yaqindagina huzurimga kelib-ketgandi... Hozir aniqlashtiramiz. Marhamat qilib, kabinetimga o‘tsangiz.

Ichkarida Nikolay Stepanich hech nimaga qaramadi. Qayd jurnalliga muk tushgan Vaynerning yaltiroq boshidan ko‘zini uzmadni.

– Hozir aniqlashtiramiz, – dedi Vayner ro‘yxatni barmog‘i bilan tekshirarkan. – Hozir aniqlashtiramiz. Hozir... Ha, mana, marhamat – Nellis. Tilla tish va yana nimadir, o‘qiyolmayapman, siyoh tomibdi.

– Ism-sharifi-chi? – so‘radi Nikolay Stepanich stolga hovliqib yaqinlasharkan, sal qolsa, kuldонни tushirib yuboray dedi.

- Buyam yozilibdi. Olga Kirillovna.
- Ha, to'ppa-to'g'ri, – yengil tin oldi Nikolay Stepanich.
- Manzil: Plannershtrasse 59, bay Bab, – deya labini cho'lpil-latib qo'ydi Vayner va tezgina manzilni alohida qog'ozchaga yozib berdi. – Bu yerdan ikki ko'cha narida. Marhamat. Sizga nafim tekkanimdan boshim ko'kda. Qarindoshingizmi?
- Onam, – dedi Nikolay Stepanich.

Tish doktorinikidan chiqib, qadamini birmuncha ildamlatdi. Iz-lagan odami tez topilgani qarta nayrangbozligi singari lol qoldirdi. Berlinga yo'l olarkan, u allaqachonlar bandalikni bajo keltirgan yoki boshqa shahar, boshqa mamlakatga ko'chib ketgan, degan xayolga sira bormadi – lekin baribir fokus amalga oshdi. Vayner boshqa Vayner bo'lib chiqdi, shundayligiga qaramay, taqdir kulib boqdi. Betakror shahar, sururli yomg'ir! (Kuzning marjon-marjon yomg'iri maydalab shivirlaydi, ko'chalar qorong'u.) Qanday kutib olarkin-a? Mehribonlik bilanmi? Yoki g'am-anduh bilanmi? Yoki bo'lmasa, butunlay xotirjam holatdami? Bolaligida suyib-erkalamasdiyam. *Royal chalayotganimda, to' polon qilmagin.* Voyaga etganida, o'zini keraksizday his etdi. Endi esa uning yuzini tasavvur etishga urindi, biroq o'y-xayollari hech rang-tus ololmadi, harchand urinmasin, uning ozg'indan kelgan, daroz, nimjon, sharti ketib, parti qolgan jussasini, chakkalariga qirov tushgan qora sochlarini, oqarinqiragan lablarini, huv, o'shanda xayrlashayotganda egnidagi uniqqan makintoshini, musibatli yillar chang solgan so'lg'in yuzida paydo bo'ladigan horg'in, mungli keksalik alomatlarini ko'z oldiga keltirolmadi. Ellik birinchi. Yana sakkizta uy bor.

Ittifoqo, bir zamonlar qoyaga biqinini tirab, terlab-pishib, quyun yanglig' bostirib kelayotgan g'aroyib arab tulporining oppoq tulumi-ni nishonga olayotgan paytidan-da toqat qilib bo'lmas darajada hajajonlanayotganini sezib qoldi. Ellik birinchiga yetmasdan to'xtadi, trubka hamda rezina xaltachasini olib, zig'ircha tamaki zarrasini-da to'kmay, hafsala bilan trubkasini to'ldirdi, gugurt yoqdi, tortib-tortib olgach, gugurt cho'pchasi yonib bitishini tomosha qildi, totli, til achitar tutunga og'zini to'ldirib, pufladi, so'ngra shoshmasdan, og'ir-og'ir odimlar bilan uyga yaqinlashdi.

Zimiston yo'lakda ikki marta qoqinib ketdi. Yo'lakning birinchi shohsupasida gugurt yoqib, eshik yonidagi tillarang taxtachani yo-

ritib ko‘rdi. Boshqa familiya. Ajabtovur «Bab» nomini tepa qavat-dan topdi. Olov barmoqlarini kuydirib, o‘chdi. *Ajabo, yuragim taka-puka bo‘lishini...* Qorong‘uda tugmachani paypaslab, qo‘ng‘iroq chaldi. Keyin og‘zidan trubkasini olib, lablarida siniq tabassum zohir bo‘layotganini his qilgancha, kuta boshladi.

Ichkarida bir necha bor allanima shitirlab, eshik sharaqlab ochildi. Dahliz ham zim-ziyo ekan, ana shu zimistondan jarangdor va xushchaqchaq ovoz uchib chiqdi: «Butun boshli uyda chiroq yo‘q, dahshatning o‘zi». Nikolay Stepanich zumda «dahshat»dagi cho‘zib aytilgan «d»ni tanidi va shu sadoning o‘zidayoq ovoz egasining qad-di-bastini qorong‘uda ko‘z oldiga keltirdi.

– To‘g‘ri aytasiz, naq zimiston, – deya kulimsiragancha Nikolay Stepanich ostona hatladi.

Xonadon egasi xuddi kimdir qulochkashlab tarsaki tushirganday serrayib qoldi. Nikolay Stepanich qorong‘uda uning qo‘llari, yelkasini paypaslab topdi, nimanidir turtib yubordi (aftidan, yomg‘irpo‘sh tagligi bo‘lsa kerak).

– Yo‘q, yo‘q, yo‘q! Bo‘lishi mumkin emas, bo‘lishi mumkin emas... – deya tez-tez takrorlagancha, tisarildi xonadon sohibasi.

– To‘xtang, onajon, to‘xtasangiz-chi, – dedi Nikolay Stepanich va tag‘in urilib ketdi (bu safar yarim ochiq eshikka).

– Esimdan og‘ib qolaman hozir... Kolenka, Kol...

Nikolay Stepanich qorong‘uda hech narsani ko‘rmay, ammo allanechuk ichki nigoh-la onasini boshidan oyog‘igacha his etib, yanqlari, sochlardan o‘pdi, faqat biringa jihat o‘zgacha tuyuldi (lekin bu o‘zgachalik ham olislarda qolgan bolaligini yodga soldi, o‘shanda onasi royal chalardi) – onasi hozir ham dimoqqa gup etib uriladigan o‘tkir atir sepib olibdi – go‘yo oradan Nikolay Stepanich er yigitga aylanib, onasi esa keksayib, ortiq atir sepmay qo‘ygan, keyinchalik onaizor huv, o‘sha og‘ir zamonlarda yum-yum yig‘lagan yillar o‘tmaganday, bularning barchasi xuddi tushday, uzoq darbadarlikdan to‘ppa-to‘g‘ri bolalikka tushib qolganday edi...

– Keldingmi?! O‘zingmisan? Ko‘zlarimga ishonmayman... – aylanib-o‘rgildi ona. – Qanday yaxshi... Shunday bo‘lishiyam kerak...

– Nahotki, hech qayerda chiroq bo‘lmasa? – deya kulib qo‘ydi Nikolay Stepanich.

Onasi ichkari eshikni itarib, hayajonlanib gapirdi:

- Qani, kira qol. Ichkarida sham yoqib qo‘yganman.
- Ho‘p, ko‘rsating-chi... – dedi Nikolay Stepanich shamlar to‘q sariq rangda milt-milt yonib turgan xonaga kirarkan. Shu asnoda onasiga bir qur nazar soldi: sochlari jilokor, bug‘doyrangga bo‘yalgan.
- Xo‘sish, taniyapsanmi? – so‘radi ona og‘ir-og‘ir nafas olib, keyin shosha-pisha qo‘srimcha qildi: – Bunday qaramagin. Gapir, gapir! Qorayganiningni qara... Yo Rabbiy! Qani, gapiraver!
- Qirqilgan malla sochlari... Yuzini majburan bo‘yab olganmi-yey. Ammo-lekin ko‘z yoshlari yuzidagi pushti bo‘yoqni yuvib yuboribdi, qalin bo‘yalgan kiprikliyam dir-dir titraydi, burun solinchagiga surtilgan upa napormon tusga kiribdi... Egnida katta yoqali yaltir-yultir ko‘k ko‘ylak. Bu posonligi allatovur yot-begona, jonsarak.
- Mehmon kutyapsiz, shekilli, oyi, – luqma tashladi Nikolay Stepanich nima deyishni bilmay va shaxt bilan paltosini yechdi.
- Ona o‘g‘lidan uzoqlashib, bir nimalar qalashtirib tashlangan stolga yaqin keldi, keyin ortga qaytdi, nima qilishni bilmayotganday o‘zini ko‘zguga soldi.
- Shuncha yil-a... Yo Xudoyim! Ko‘zlarimga ishonmayman. Ha, ha, mehmonlarim kelishi kerak edi. Qo‘ng‘iroq qilib, qaytaraman. Biror chorasi qilaman. Bekor qilish kerak... E qodir Egam...
- O‘g‘lining pinjiga kirib, yenglarini tortqilab o‘ynashga tushdi.
- Tinchlaning, onajon! Sizga nima bo‘ldi o‘zi? Bunday qilish yaramaydi. Bu yerda qiyalmayapsizmi? Ahvolingiz qalay?
- Negadir o‘zining savollariga javob olishdan qo‘rqib, har bir gapi orasida barmoqlarini qirsillatib, go‘yo hayratini daf qilishga, trubkasiga qo‘shib chekib yuborishga uringancha buruqsitib tutun chiqarib o‘zi haqida so‘zlay ketdi. Ma’lum bo‘ldiki, onasi e’lonni o‘qibdi, keksa jurnalist bilan uchrashibdi, hatto o‘g‘liga atab Italiyaga, Qohiraga xat yozibdi... Endi esa, Nikolay Stepanich onasining ortiqcha pardoz-andozdan bujmayib ketgan yuzlarini, sun’iy sariq sochlari ko‘rgach, ovozi ham boshqacha tuyuldi. Bir zumda tin olmay, o‘zining sarguzashtlarini hikoya qilarkan, nim yoritilgan, devorlarida ko‘lankalar dirdirab turgan xonani, devoro‘choq ustidagi baxmal mushukni, parda ortidan chiqib turgan karavot putini, fleyta chalayotgan Fridrixni¹, sham yolqini simobday borib-kelayoutgan tokchadagi

¹ Prussiya qiroli, san’at homiysi, kompozitor Fridrixning haykalchasi.

ko‘rachalarni ko‘zdan kechirdi... Nigohlari xona bo‘ylab sirpanar-kan, uyg‘a ilk bor qadam qo‘ygandayoq payqaganlariga ko‘zi tushdi – ikki kishiga tuzalgan dasturxon, qorni yo‘g‘on likyor shishasi, ikkita uzun-uzun qadah va rang-barang halqlardagi hali yoqilmagan sham-ler suqilgan kattakon pushti pirog. «...Men, albatta, darhol chiqvol-dim. Nima bor ekan, deng? Qani, toping-chi!» Olga Kirillovna uzoq uyqudan uyg‘ongandek, sapchib o‘g‘liga qaradi (u o‘g‘lining yon-ginasida, divanda yarim suyanib, chakkalarini changallab o‘tirardi). «Meni eshityapsizmi o‘zi, oyi?»

– Yo‘g‘-e, nimalar deyapsan, eshityapman, eshityapman...

Nikolay Stepanich yana bir narsani payqadi: onasi parishonxotir, o‘g‘lining so‘zlariga qulqoq solmay, qandaydir begona, tahidli, mu-qarrar allanimani kutayotganday edi... Keyin hikoyasini davom ettir-di, ammo yana to‘xtab:

– Bu kimning sharafiga – pirog? Ja ishtahani ochvordi-ku, – dedi.

Onasi dovdirab iljaydi.

– Voy-voy-ey, shunchaki-da... Aytdim-ku senga, bugun meh-monlarim bor.

– Peterburg esimga tushib ketdi, – dedi Nikolay Stepanich. – Yo-dingizdami, bir marta bitta shamni unutib qo‘ygandingiz. O‘sanda o‘n yoshga to‘lgandim, shamlar esa to‘qqizta edi. Tug‘ilgan ku-nimda shamlarni o‘zingiz puflab o‘chirgandingiz. Rosa chinqirib yig‘lagandim. Hozir bu yerda nechta?

– Nima farqi bor?! – baqirib yubordi Olga Kirillovna va stolni pa-nalamoqchiday o‘rnidan turdi. – Yaxshisi, soat necha bo‘lganini ayt. Sim qoqib bekor qilishim kerak! Nimadir qilishim kerak!

– Chorakam sakkiz, – dedi Nikolay Stepanich.

– Voy sho‘rim, kech bo‘lib ketibdi-ku! – yana baqirdi Olga Kiril-lovna. – Lekin endi baribir emasmi!..

Ikkalasi ham mum tishlab qolishdi. Olga Kirillovna o‘tirdi. Nikolay Stepanich esa onasini quchishga, erkalanishga va o‘zini: *Quloq soling, onajon, sizga nima bo‘ldi o‘zi? Ha, ayting, axir...* deyishga majburlardi.

Nikolay Stepanich yana bir qur dabdabali dasturxonga nazar sol-di, pirogga suqilgan shamlarni sanadi. Yigirma besh dona ekan. Yi-girma besh! Lekin u yigirma sakkizda-ku...

– Xonamni bunaqa tekshir-tekshir qilmagin! – dedi onasi. – Ayg‘oqchimisan, nima balo?! Xonam dabdala, ko‘chmoqchi bo‘lib turibman o‘zi, – birdan gapirayotgan gapi og‘zida qolib, yuragi shuv etdi: – To‘xta... Nima bu? Sen taqillatdingmi?

– Ha, – deb javob berdi Nikolay Stepanich, – trubkani qoqib tozalayapman. Ayting-chi, pul-mulingiz bormi? Zoriqib qolmayapsizmi?

Olga Kirillovna yengidagi lentachani to‘g‘rilab, o‘g‘liga qaramasdan javob berdi:

– Ha... Genrixdan oz-moz qolganini bilasan-ku... Bilib qo‘yaning yaxshi – tirikchilimga yetib turibdi, xolos. Xudo xayringni bergur, trubkangni taqillatma. Seni ogohlantirib qo‘yishim kerak, men... men seni... O‘zing tushunasan-ku, Kolya, seni boqishga qurbim yetmaydi...

– Eh, onajonim-a, oshirib yubordingiz, – xitob qildi Nikolay Stepanich (shu onda xuddi bulutlar ortidan mo‘ralagan quyosh singari shiftdan elektr nuri yog‘ildi). – Bu boshqa gap, shamlarni o‘chirsak ham bo‘ladi, yo‘qsa, naq go‘ristonda o‘tirgandaymiz-a. Ko‘rib turibsiz-ku, kamroq qo‘r-qutim bor, o‘zi umuman, men ozod qushman... O‘tirsangiz-chi, u yoqdan bu yoqqa borib kelavermasdan.

Daroz, ozg‘indan kelgan, yaltir-yultir ko‘k ko‘ylakda Olga Kirillovna o‘g‘lining qarshisida tek qotdi. Ana shundagina Nikolay Stepanich validasining qanchalar keksayganini, pardoz-andoz bo‘yoqlari orasidan yanoqlari va manglayida ajinlar manaman deb turganini yaqqol ko‘rdi. Sariqdan sariq sochlarni aytmaysizmi!..

– To‘satdan kelganing uchun shoshib qoldim, – dedi Olga Kirillovna labini tishlab, tokchada turgan kichkina soatga nazar tashladi. – Soat millari ildamlab ketibdimi?! Ha, yo‘q, to‘xtab qolibdi. Bugun mehmonlarim boriydi, birdan sen kelib qolding... Aqlim shoshib qoldi...

– Qo‘ying shu gaplarni, oyi. Kelishsa, kelaverishsin, o‘g‘lingiz kelganini ko‘rishadi, keyin u yog‘i – o‘zi kelar yor-yor, o‘zi ketar yor-yor. Ikkalamiz esa haliroq bironta myuzik-xollga¹ boramiz, biror yerda kechlik qilamiz... Men, masalan, afrikacha teatrni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman – ajab tomosha-da, og‘zingiz ochilib qoladi. Bir tasavvur qiling, naq ellikta negr, innaykeyin, juda ulkan... hm... taxminan, xuddi...

¹ Myuzik-xoll – estrada teatri turi.

Shu payt dahlizdan qattiq qo'ng'iroq sadosi yangradi. Olga Kirillovna oromkursining yondoriga endigina o'tirgan bo'lvdil hamki, bir seskanib tushdi va darrov qaddini rostladi.

– To'xtang, o'zim ochaman, – dedi Nikolay Stepanich va o'midan qo'zg'aldi.

Olga Kirillovna shartta o'g'lining yengidan tutib oldi. Yuzlari pir-pir uchdi. Qo'ng'iroq tindi – kelgan odam kutyapti.

– Aftidan, sizni ko'rgani kelishgan, – dedi Nikolay Stepanich. – Ochish kerak.

Ona eshikka qulqoq tutib, ilkis bosh chayqadi.

– Bo'limg'ur gaplarni qo'ysangiz-chi... – deb Nikolay Stepanich gap boshlagandi, onasi yengidan tortib, shivirladi:

– Ocha ko'rma! Istamayman... Ocha ko'rma...

Qo'ng'iroq yana-tag'in qulqoni batang qilishga tushdi, bu safar qat'iy va jahl bilan chalindi. Uzoq chalindi.

– Qo'yvoring, – dedi Nikolay Stepanich. – Borib turgan ahmoqlikku bu... Qo'ng'iroq qilishyaptimi, demak, ochish kerak. Nimadan qo'rqaqapsiz?

– Ocha ko'rma... Eshityapsanmi, ocha ko'rma... – takrorladi ona o'g'lining qo'llariga titrab-qaqshab yopishgancha. – O'tinaman sendan... Kolya, Kolya! Kolyaginam!.. Keragi yo'q!

Qo'ng'iroq birdan to'xtadi. O'mniga qattiq-qattiq taqillagan ovoz eshitildi – hassa tutqichi bilan taqillatishyapti-yov.

Nikolay Stepanich shaxt bilan dahlizga yo'naldi. Biroq xona ostonasida onasi uning yelkalariga yopishdi, jon-jahdi bilan orqaga sudrab, hadeb: «Ocha ko'rma... Ocha ko'rma... Xudo xayringni bersin!» – deb takrorlayverdi. Yana bir marotaba qo'ng'iroq zarda bilan chalindi.

– O'zingiz bilasiz, – achchiq kulimsiradi Nikolay Stepanich va qo'lini cho'ntagiga tiqib, xona bo'ylab yurdi. «Ana bo'imasam, ras-vogarchilik!» – xayol chig'irig'idan o'tkazdi Nikolay Stepanich.

Jiring-jiring to'xtadi. Suv quyganday jimjit. Kelgan kimsa qo'ng'iroqni bosaverib-kutaverib joniga tekkan, shekilli, ketdi. Nikolay Stepanich dasturxonga yaqinlashdi, krem surtilgan qoyilmaqom pirogini, yigirma besh dona bayram shamini, ikkita uzum-uzun qadahni nazardan o'tkazdi. Xuddi yashirinmoqchi bo'lganday shishanining

soyasida oq karton quti yotardi. Qutini qo'liga olib, ochdi. Ichida yap-yangi, ammo didsiz tanlangan kumush portsigar bor ekan.

– Xo'sh-xo'sh, – dedi Nikolay Stepanich.

O'girilib qaragandi, onasi kushetkada yonboshlab, yuzini yostiqqa burkagancha, yelkalari silkinib-silkinib tushayotganini ko'rdi. Burunlari onasini yig'layotgan holatda ko'p ko'rardi, ammo u paytlari boshqacha ko'z yoshi qilardi – o'tirvolib, yuzini yashirmasdan, ochiqchasiga «shiq-shiq» burun tortib, aytib-aytib yig'lardi – hozir esa kelinchaklardek ko'z yoshlarini ichiga yutib yig'layapti... shu yotishida ham, oyog'idagi duxoba boshmog'i polga tegib turishida ham ayollik nazokati bor... Xuddi oq-sariqdan kelgan juvon yig'lab yotibdi, deb o'ylash mumkin... Ro'molchasi ham gilam ustida g'ijimlanib yotibdi.

Nikolay Stepanich tomoq qirib, yaqin keldi, kushetkaning bir chetiga o'tirdi. Tag'in tomoq qirdi. Onasi yuzini yostiqqa burkab zorlandi:

– Eh, nega avvalroq kelmading-a?! Jilla qursa bir yil oldin... Boryo'g'i bir yilgina...

– O'zimam bilmayman, – dedi Nikolay Stepanich.

– Endi hammasi tamom... – hiqilladi ona, sochlari silkinib-silkinib ketdi. – Hammasi. Mayda ellikka to'laman. Kap-katta bo'lib qolgan o'g'il onaizorini ko'rishga kelsa-yu... Nega kelding..? Nega aynan hozir? Nega aynan bugun?

Nikolay Stepanich paltosi (noovro'pacha qilib shunchaki bir burchakka irg'itib qo'ygan paltosi)ni kiydi, cho'ntagidan kartuzini olib, onasining yoniga cho'kdi.

– Ertaga tongda uzoqroqqa jo'nab ketaman, – dedi u onasining yaltir-yultir shoyi ko'ylagi ustidan yelkasini silab. – Endi janubga ketgim kelyapti – Norvegiya borsammikin, deb turibman. Bo'imasam, dengizga chiqaman, kit ovlagani. Sizga yozib turaman. Bir yillardan so'ng yana uchrashamiz, o'shanda balki ko'proq qolarman. Menden arazlamang, ko'nglim sayohat tusayapti!

Olga Kirillovna tezgina o'g'lini quchoqlab oldi, nam yuzlarini uning bo'yniga bosdi. Keyin o'g'lining qo'lini mahkam ushladi va birdan chinqirib yubordi.

– O‘q uzib ketgan, – deb tirjaydi Nikolay Stepanich.– Alvido, azizam.

Ona uzilgan barmoqning sip-silliq to‘mtog‘ini siladi va asta labini bosdi. Keyin o‘g‘lini quchib, eshikkacha kuzatib chiqdi.

– Tez-tez yozib tur, iltimos... Nega kulasan? Upam surkalib ketgandirda-a?!

Nikolay Stepanichning ortidan eshik taraqlab yopilishi bilanoq, u ko‘k ko‘ylagini shitirlatib telefonga otildi.





MUNDARIJA

Inglizcha fikrlab, farangcha eshituvchi rossiyalik amerika adibi (<i>S. Saidmurodov</i>).....	3
QATL MAROSIMIGA MARHAMAT	
(<i>Abulqosim Mamarasulov tarjimasi</i>)	9
HIKOYALAR 133	
Baxman	
(<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>).....	134
Musiqa	
(<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>).....	142
Chorbning qaytishi	
(<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>).....	148
Qo‘ng‘iroq	
(<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>).....	155

Adabiy-badiiy nashr

VLADIMIR VLADIMIROVICH NABOKOV

QATL MAROSIMIGA MARHAMAT

Roman va hikoyalar

Rus tilidan *A. Mamarasulov, S. Saidmurodov* tarjimasi

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *Sh. Beknazarova*

Muharrir *Sh. Beknazarova*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *Y. Stepanova*

Kichik miharrir *M. Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyası AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 30-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi $60 \times 90^{1/16}$. Ofset qog'ozisi. «Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi. Sharqli bosma tabog'i 10,5.

Nash tabog'i 10,29. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-462.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz



V.V. Nabokov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7606-7-

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-7606-7-7.

9 789943 760677